IT darslarida esa "ozobot" deb nomlanuvchi qurilmani kodlash orqali boshqarish o'rgatildi. Ozobot dunyodagi eng kichik dasturlashtiriladigan robotlardan biri bo'lib, diametri va balandligi 2,54 sm, lekin kuchli miya bilan jihozlangan. Kodlashda "chapga, o'ngga, to'g'riga, orqaga va hz" kabi so'zlar ranglar orqali ifodalanib, foydalanuvchilar ularga ergashishlari uchun yo'llarni chizishlari va sekinlashtirish, tezlashtirish yoki to'xtatish kabi buyruqlar berishlari mumkin[4]. Bu orqali maktab o'quvchilariga ham kodlash dasturi tilini, ham koreys tilida bir qator yo'nalish so'zlarini yanada oson va qiziqarli o'rgatish mumkin ekanligi aniqlandi. Bu esa darslarda integrative yondashuvning yana bir yorqin misolidir. Bundan tashqari, darsda turli raqamli o'yinlardan foydalanish mumkin bo'lgan wordwall, mentimetr va hz hamda kasbiy tajribada ma'lumot yig'ishda, so'rovnoma o'tkazishda qulay bo'lgan google form dasturidan foydalanish yo'llari o'rgatildi.

Madaniyat darslari ham integrativ yondashuvdan chetda qolmadi. Janubiy Koreyaning milliy san'at turi bo'lmish kolligrafiya darslarida san'atga doir lug'atlarni, koreya milliy kiyimi – hanbok haqidagi darsda esa kiyinish madaniyati haqidagi so'zlar guruhi samarali o'rgatilishi guvohiga aylanishdi. Bu kabi darslar orqali birgina til haqida emas, balki til orqali boshqa mavzular haqida bilib olish mumkinligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Ushbu xalqaro hamkorlik bir martada tugallanib qolmasdan, keyingi 2023-2024-o'quv yilida avval onlayn, keyin esa offlayn shaklda davom etdi. Onlayn darslarda o'quvchida kitob o'qish mehrini oshirish, uni ko'proq kitob o'qishga undash maqsadida "kitob yasash" mashg'ulotlari olib borildi. Amaliyotda bu kabi metodikadan foydalanish kutilgandan ham yaxshiroq natija berdi. Koreys tili o'qituvchilari bu xorijiy tajribadan unumli foydalanib respublika bo'yicha keng tarqatishdi. Bu kabi usuldan endi nafaqat koreys tili darslarida, balki ingliz tili, adabiyot, tarix kabi bir qator fanlar darslarida ham foydalanishdi. Koreys delegatsiyasi bilan O'zbekistonga kelgan Daejon shahri Sangji boshlang'ich maktab o'qituvchisi So Yong Naning malaka oshirishga kelgan o'zbek o'qituvchilariga qilgan murojaatida ham, ular o'rgatayotgan koreys ta'lim modeli va metodlarini boshqa kasbdoshlariga bildirish va o'rgatishni so'ragan.

Bu kabi onlayn darslar offlayn shaklda joriy o'quv yilining yanvar oyida davom etdi. Ikkinchi marta tashkillashtirilgan malaka oshirish kurslari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshchiligida A. Avloniy nomidagi milliy - tadqiqot instituti va Koreya Respublikasi elchixonasi huzuridagi Koreya ta'lim markazi hamkorligida bo'lib o'tdi. Bu dastur ham ilgarigisiga o'xshab, koreys tili va uni o'qitish metodikasi, IT va madaniyat darslaridan iborat

[4] 7 things about Ozobot. Grand Valley state university.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

bo'ldi. Janubiy Koreyaning turli maktablaridan saralab olingan 9 nafar o'qituvchisi O'zbekistonga tashrif buyurib, 35 nafar o'zbek hamkasblari bilan o'z tajriba va bilimlari bilan bo'lishishdi.

Bu kabi xalqaro hamkorlik natijasida o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda quyidagi natijalarga erishildi: ta'lim tajribasini boyitib, uni yanada inklyuziv, raqobatbardosh va global ahamiyatga ega bo'lishiga turtki bo'ldi; o'qituvchilarning kompetensiyasini, kasbiy mahoratini oshirdi; o'qituvchilarni globallashuv jarayon lariga moslashtirishga yordam berdi; xalqaro ta'lim tizimlari bilan yaqindan tanishish mahalliy amaliyotda islohotlar va yaxshilanishlarga turtki berdi; ta'limning xilma-xilligini targ'ib qilib, ta'lim standartlarini oshirga sabab bo'ldi; bilim, o'qitish usullari va madaniy istiqbollarni almashish imkoniyatini ega bo'lindi;o'qitish va tadqiqotda innovatsion yondashuvlarga olib keldi.

Koreys tilini o'qitish metodikasini yanada yuksaltirishga bo'lgan talab bu kabi loyihalar yanada rivoj topib endilikda ikki davlat maktablari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik kelishuvlari tuzishgacha yetib bordi. Buning yordamida nafaqat O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkasblari yaqin aloqada bo'la olishadi, balki har ikki tomonning o'quvchilari ham o'zaro muloqot qila olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Xalqaro hamkorlikning ushbu turi orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarning madaniyatlararo tushunchalarini rivojlantirish, o'quvchilarning til o'rganish darajasini oshirish, butun maktab xalqarolashtirish dasturiga hissa qo'shish va o'qituvchilar salohiyatini oshirish kabi ko'plab maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuvga asoslangan koreys tilini o'qitishda xalqaro hamkorlik tajribalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning madaniyatlarararo muloqot kompetentsiyasini kuchaytirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuvga asoslangan koreys tilini o'qitishda xalqaro hamkorlikning yuqorida ko'rsatilgan asosiy yo'nalishlari orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning ko'p tomonlama rivojlanishi va yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengayadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Saidova M.M. Bilimlarga asoslangan jamiyatda o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'rgatishning maqsad va vazifalari. Pedagogik mahorat № 6, 2024
2. Saidova M.M. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'qitishda Koreya ta'lim dasturidan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024
3. Saidova M. Integrativ yondashuv asosida koreys tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Talqin va tadqiqotlar, № 13(50), 2024
4. Saidova M. Важность обучения второму иностранному языку и современным профессиям, World of Scientific news in Science Journal,Vol2 Issue 6, 2024.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

5. N.Dilova. Uzluksiz ta'lim tizimida "lifelong learning" konsepsiyasini Joriy etish imkoniyatlari//"Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari – yangi yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024-yil 17-may kuni Andijon davlat universiteti, 46-49-бетлар
6. Н.Дилова Darsda samarali ta'lim usullaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati//"Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali volume 2, issue 1, 2024. january. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869
7. Н.Дилова Oliy ta'limda o'qitiladigan ijtimoiy gumanitar fanlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash mazmuni//"Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 11

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saidova Moxinur Murodovna**, Buxoro davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti, [**Саидова Мохинур Муродовна**, базовый докторант 2-го этапа специальности Теория и методика образования (по направлениям) Бухарского госдурственного университета], [**Saidova M.Mokhinur**, 2st stage basic doctoral student of the Theory and methodology of education and training (by fields) specialty of the Bukhara State University]; manzil: O'zbekiston, Buxoro sh, X.A.G'ijduvoniy ko'chasi, 22-A uy, [адрес: Узбекистан, ул. Х.А.Гиждувоний, дом 22-А, г. Бухара], [address: Uzbekistan, X.A.Gijduvoniy str., house 22-A,Bukhara city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

CHIZMACHILIK FANINING SOHALARI VA TARMOQLARI KINEMATIK SXEMALAR ULARNING TEXNIKADAGI TADBIQI TO'G`RISIDA MA`LUMOT BERISH

© F.U. Toshpulatov[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: hayot - tabiatning insonga betakror in'omi, lekin u quvonch, baxt keltirishi uchun, mehnat qilishni, jismoniy mehnatni yengillashtirish. Uning estetik va an'anaviy shakllarini takomillashtirishni o'rganish lozim. Buning uchun esa o'ylash va fikrlashni, izlanishni va yangilikning yaratilishini. ya'ni ma'lum bir ilm-fanga asoslangan mukammal bilimni talab etadi ushbu maqolada chizmachilik fanining sohalari va tarmoqlari kinematik sxemalar ularning texnikadagi tadbiqi to'g`risida hamda Chizmachilikning mashinasozlik va yig'ish chizmachiligi mashg'ulotlarida o'quvchilar maxsus bilim, tajriba va malakalarni egallay olishadi chizmachilik mashg'ulotlarida fanining sohalari va tarmoqlari bo'yicha estetik jihatdan tushunchalar berishga erishadi.

MAQSAD: oliy ta'lim muassasalarida chizmachilk fanining maxsus sxemalarni ishlash metodikasi chizmalarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va samarali metodlardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quvchi lariga maxsus sxemalarni ishlash metodikasi chizmalari bo'yicha grafik ish va masalalarni sodda va qulay usulda bosqichma-bosqich bajarishni o'rgatish va ko'nikmalar berish,ularning o'zlashtirish samaradorligini oshirish va kelajak yosh avlodga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda tajribaviy asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ishlab chiqiladigan metodik va tavsiyalarni pedagog hamda o'quvchilar o'z pedagogik amaliyotida (faoliyatida) qo'llab, chizmachilik darslarining samaradorligini oshirishga erishishlari mumkin. Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhimi o'quvchilardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish,

MUHOKAMA VA NATIJALAR: talabalarda chizmachilik haqida ko'proq aniq tasavvur hosil bo`lishiga undagi elementlarni yanada takomillashtirish va aniq bo'lishi uchun ko'proq sexematik chizma ustida ishlash kerak.

Tasavvurlar esa o'z navbatida ikkita ya'ni shakiliy va fazoviy bo'lishi mumkin. Murakkab bo'lmagan sexemalarni chizmalarni o'qish va bajarish o'z fikrini grafik tasvirlar va chizmalar orqali bildirishdan iboratdir. Chizmalarni chizish va o'qish qoidalariga amal qilish, grafik tafakkurni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish, tehnik ijodkorlik qobiliyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

rivojlantirish, chizmachilikda qo‘llaniladigan termin va tushunchalardan, soda elektron dasturlardan amaliyotga qo‘llashga o‘rgatish, texnika va texnologiyalarning takomillashib borishini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish, chizma qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

XULOSA: Xulosa o‘rnida yana shuni ham aytib o‘tish joizki chizmachilik fanini mexanik seximalar mavzusi yuzasidan ancha yangiliklar qilingan lekin har bir mavzuni chuqurroq anglash uchun yanada ko‘proq izlanishlar olib borilsa shu mavzuni topilmagan qirralarini yechimi aniqlanadi, shundagina yanada osonroq yechimlar, usullar, texnikalar toppish mumkin bo‘ladi.

Kalit so'zlar: chizmalarni chizish va o‘qish, bo‘lishi, grafik tasvir, estitika,talaba, qobilyat, metodika.

Iqtibos uchun: Toshpulatov. F.U. Chizmachilik fanining sohalari va tarmoqlari kinematik sxemalar ularning texnikadagi tadbiqi to’g`risida ma`lumot berish. // Inter education & global study. 2024. №6. B.23–32.

ОБЛАСТИ И СЕТИ РИСУНКА НАУКИ КИНЕМАТИЧЕСКИХ СХЕМ, ПРЕДОСТАВЛЯЮЩИЕ ИНФОРМАЦИЮ ОБ ИХ ПРИМЕНЕНИИ В ТЕХНИКЕ

© Ф. У. Тошпулатов[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: жизнь – это уникальный дар природы человеку, но приносящий радость и счастье, облегчающий труд и физический труд. необходимо научиться совершенствовать его эстетические и традиционные формы. А для этого думать и думать, искать и создавать новое. то есть требует отличных знаний, основанных на определенной науке. В этой статье изучаются области и отрасли науки о черчении, кинематических схемах, их применении в технике, а также на занятиях машиностроения и сборочного черчения. приобретать специальные знания, опыт и навыки, способны приобретать эстетическое понимание областей и отраслей науки на занятиях рисованием.

ЦЕЛЬ: повысить эффективность образования за счет использования педагогических технологий и эффективных методов при обучении специальным схемам рисования в высших учебных заведениях.

Научить и дать умения студентам бакалавриата изобразительного искусства и инженерной графики выполнять графические работы и задачи простым и удобным способом по чертежам методики работы по специальным схемам, повысить эффективность их освоения и обучать будущее молодое поколение, разрабатывая научно-методические основы и экспериментальное обоснование.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: разработанные методы и рекомендации педагоги и студенты могут использовать в своей педагогической практике (деятельности) для

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

повышения эффективности уроков рисования. При применении образовательных технологий важно, чтобы один из обучающихся достиг высоких результатов за короткое время, не затрачивая слишком много умственных и физических усилий. Предоставление студентам определенных теоретических знаний в короткие сроки, формирование навыков и компетенций в определенной деятельности,

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: для того, чтобы учащиеся имели более четкое представление о рисовании, необходимо больше работать над сексематическим рисунком, совершенствовать его элементы и делать его более понятным.

Воображений, в свою очередь, может быть два: форма и пространство. Чтение и выполнение рисунков, не являющихся сложными сексемами, – это выражение своих мыслей посредством графических изображений и рисунков. Соблюдать правила рисования и чтения, формировать умение применять графическое мышление в жизни, развивать способности технического творчества, учиться применять на практике термины и понятия, используемые в рисовании, например электронные программы, учитывая совершенствование техники и технологий. Заключается в формировании и развитии базовых и научных компетенций по правильному использованию инструментов рисования и правильному последовательному выполнению рисунка.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует также отметить, что в предмете машиностроения в области черчения было сделано множество инноваций, но если провести дополнительные исследования для более глубокого понимания каждой темы, то решение неоткрытых аспектов эта тема будет определена, только тогда будут найдены более простые решения и методы, техники.

Ключевые слова: рисование и чтение рисунков, бытие, графический образ, эстетика, ученик, способности, методика.

Для цитирования: Тошпулатов Ф. У. Области и сети рисунка науки кинематических схем, предоставляющие информацию об их применении в технике. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 23–32.

AREAS AND NETWORKS OF DRAWING THE SCIENCE OF KINEMATIC SCHEMES PROVIDING INFORMATION ABOUT THEIR APPLICATION IN TECHNOLOGY

© Toshpulatov U. Fakhriddin[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: life is a unique gift of nature to man, but it brings joy and happiness, making work and physical labor easier. it is necessary to learn how to improve its aesthetic and traditional forms. And for this, think and think, search and create new things. that is, it requires excellent knowledge based on a certain science. This article studies the areas and branches of the science of drawing, kinematic diagrams, their application in

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

technology, as well as in mechanical engineering and assembly drawing classes. acquire special knowledge, experience and skills, are able to acquire an aesthetic understanding of fields and branches of science in drawing classes.

AIM: to increase the effectiveness of education through the use of pedagogical technologies and effective methods when teaching special drawing schemes in higher educational institutions.

To teach and give the skills to undergraduate students of fine arts and engineering graphics to perform graphic work and tasks in a simple and convenient way according to drawings, methods of working according to special schemes, to increase the efficiency of their development and to train the future younger generation by developing scientific and methodological foundations and experimental justification.

MATERIALS AND METHODS: teachers and students can use the developed methods and recommendations in their teaching practice (activities) to increase the effectiveness of drawing lessons. When using educational technologies, it is important that one of the students achieve high results in a short time, without spending too much mental and physical effort. Providing students with certain theoretical knowledge in a short time, developing skills and competencies in certain activities,

DISCUSSION AND RESULTS: In order for students to have a clearer understanding of drawing, it is necessary to work more on sexemic drawing, improve its elements and make it more understandable.

Imaginations, in turn, can be two: form and space. Reading and making drawings that are not complex sexemes is the expression of one's thoughts through graphic images and drawings. Follow the rules of drawing and reading, develop the ability to apply graphic thinking in life, develop technical creativity abilities, learn to put into practice the terms and concepts used in drawing, for example, electronic programs, taking into account the improvement of equipment and technology. It consists of the formation and development of basic and scientific competencies in the correct use of drawing tools and the correct sequential execution of a drawing.

CONCLUSION: In conclusion, it should also be noted that in the subject of Mechanical Engineering, a lot of innovations have been made in the field of drawing, but if more research is done for a deeper understanding of each topic, then solving the undiscovered aspects of that topic will be identified, only then simpler solutions and methods will be found , technology.

Key words: drawing and reading drawings, being, graphic image, aesthetics, student, abilities, methodology

For citation: Toshpulatov U. Fakhriddin. (2024) 'Areas and networks of drawing the science of kinematic schemes providing information about their application in technology', Inter education & global study, (6), pp. 23–32. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

So‘nggi yillarda, ayniqsa O‘zbekiston o‘z mustaqilligini ta’minlashidan beri chizmachilik fani mashg‘ulotlarini olib borish ishlarigayam bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Chizmachilikning mashinasozlik va yig‘ish chizmachiligi mashg‘ulotlarida o‘quvchilar maxsus bilim, tajriba va malakalarni egallay olishadi, haqqoniylikni va chizmachilik mashg’ulotlarida estetik jihatdan tushunchalar berishga erishadi. Chizmachilik mashg‘ulotlari o’quvchi larning fikrlash qobiliyatlarini, ko‘rganlarini, o‘rganganlarini yodda saqlanishi, ijodiy tushunchalarini, badiiy did, estetik his-tuyg`ularini orttiradi.
Chizmachilik fani bo‘yicha mashg‘ulotlar o’quvchi larning ijodiy qobiliyatining o‘sishi, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, insonni har tomonlama takomillashtiradi va fikr doirasini kengaytirib, hayotni va borliqni bilish tushunchalarini rivojlantiradi, go‘zallikka intiluvchan kayfiyat beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy chizmachilik darslarida ta’lim berish predmetining maxsus vazifalari qatorida :

-badiiy madaniyat ko‘rinishlari va ularning ijtimoiy turmushimizdagi rolini tushunishini rivojlantirish ;

-o‘quvchilarda mashinasozlik va yig‘ish chizmachiligiga tegishli emotsional fikr yuritishda chizmachilik faniga bo‘lgan qiziqishini va uni sevishini tarbiyalash ;

-doimiy va maqsadga muvofiq ravishda ko‘rib fikr yurgazishini, shakllar va hajmlarini sezishni, kompozitsiya madaniyati, fazoviy fikrlash, fantaziyani, ko‘rish orqali fikrlash va kombinatsiya qilish ijodiy vazifalarni konkret obrazlarda yecha bilishini rivojlantirish kabi vazifalarini ko‘rish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni loyiq amalga oshirishda chizmachilik fani, jamiyatimiz turmushidagi amalga oshiradigan funksiyalarining ilmiy asoslari yuksak natijalar beradi. “Mashinasozlik chizmachiligi” kursi turli mashina va mexanizmlarning detallarini yasash hamda ularni yig‘ish uchun tuzilgan chizmalarni chizish usullari, qonun - qoidalari va talablarini o‘rganadi. Mashinasozlik chizmachiligining vazifasiga quyidagilar kiradi: chizmada tasvirlar yasash qoidalari bilan tanishtirish; chizma chizish va o‘qishda zarur bilim, ko`nikma va malaka bilan qurollantirish; konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (ESKD) da qabul qilingan Davlat standarti talablari va grafik faoliyat bilan bog‘liq boshqa ma`lumotlarni berish hamda amalda ulardan mustaqil foydalana olishga o‘rgatish; yig`ish chizmasi detallarining eskizi, ish chizmalarini bajarishga, chizma hujjatlarini rasmiylashtirishga, chizmalardagi shartlilik va soddalashtirishlarni o`rgatish; turli buyum sirtlarini tahlil qila olishga, ularning konstruktsiyalari, birikmalarini loyihalashga o`rgatish. Hozirgi zamon ishlab chiqarish sohalarining xarakteriga mos keladigan chizmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularga oid so`nggi ma`lumotlar va qonun-qoidalarni, belgi va shartliliklarni bilish, to`ldirish hamda o‘z bilimlarini oshirishda “Mashinasozlik chizmachiligi” ni ma`lum darajada mukammal o‘zlashtirishlari kerak. Bunda mashinasozlikda qo`llaniladigan shartliliklar va soddalashtirishlar, ajraluvchi va ajralmas birikmalar, biriktirish moslamalari (bolt, shpil`ka, vint, kavsharlash, payvandlash va boshqalar), detal eskizi, ishchi chizma, cheklanish va o`tqazishlar, sirt g`adir-budurliklarining chizmalarda belgilanishi, turli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

uzatmalarni tasvirlash hamda yig`ish chizmalarini tuzish va o`qishni asosiy maqsad qilib qo`yadi. Mashina va mexanizmlar seximalarning ishlash printsiplarini ifodalovchi sxematik chizmalarni ham o`z ichiga oladi.

O'quvchi lar bilimiga qo`yiladigan talablar: bo`lg`usi chizmachilik o`qituvchisi grafik o`quv fani sohasidagi yangi chop etilayotgan o`quv va o`quv-metodik adabiyotlarni, ESKD ning o`zgargan standartlari va grafik faoliyat bilan bog`liq bo`lgan boshqa ma`lumotlarni mustaqil o`zlashtira olishga erishishi; chizma bajarishda uni o`qish va masalani echishda darslik, o`quv qo`llanma va spravochniklar bilan mustaqil ishlashga o`rgatish; ijodiy qobiliyatini, mantiqiy va fazoviy fikrlashini o`stirish; chizmalarni bajarishda o'quvchi chizmachilikning nazariy asosi chizma geometriya fani va ESKD dagi davlat standartida qayd qilingan hamda talab va me`yorlarga qat`iy rioya qilishi va uni so`zsiz bajarishga o`rganishi; ishlab chiqarish talablariga asosan detal va buyumning modelini, loyihalarini va tayyorlash texnologiyalarini ifodalovchi chizmalarni taxt qilishi (rasmiylashtirishni). Yig‘ma birlikning yig‘ish chizmasini tuzish. Chizmalarda buyum tarkibiy qismlariga vaziyat raqamlarini qo‘yish. Standartga muvofiq yig‘ish chizmalarida buyum tarkibiga kiruvchi barcha detallar vaziyat (pozitsiya) tartib raqami bilan belgilanadi. Vaziyat raqamlari buyum yig‘ish va sexematik chizmasining spetsifikatsiyasida ko‘rsatilgan vaziyat rqamlariga mos ravishda qo‘yiladi. Buyum tarkibiga kiruvchi yig‘ish birliklari (masalan, yumalash podshipniklari, salniklar va shu kabilar) bitta vaziyat sifatida belgilanadi.

Buyum tarkibiy qismlarining vaziyat raqamlari chizma konturi tashqarisida chiqarish chiziqlari orqali ko‘rsatiladi. Bu chiziqning bir uchi detal yoki yig‘ish birligining ko‘rinadigan tasvirida, qirqim yoki kesimida nuqta bilan, ikkinchi uchi esa tokcha chizig‘i bilan chegaralanadi.

Buyum tarkibida yupqa detallar mavjud bo‘lsa, vaziyat raqamlarini ko‘rsatuvchi chiqarish chizig‘ining bir uchida nuqta o‘rniga ko‘rsatkich strelka chiziladi. O'quvchi larning narsani o‘ziga qarab, xotira va tasavvurdan chizma chizishga o‘rgatishda chizma chizishning aniq qonun-qoidalarini nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega. Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko‘rinib turgan qismi, undagi o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim.

Kinematik sxemalar ularning texnikadagi tadbiqi to'g`risida ma`lumot berish

Hayot - tabiatning insonga betakror in'omi, lekin u quvonch, baxt keltirishi uchun, mehnat qilishni, jismoniy mehnatni yengillashtirish. uning an'anaviy shakllarini takomillashtirishni o'rganish lozim. Buning uchun esa o'ylash va fikrlashni, izlanishni va yangilikning yaratilishini. ya'ni ma'lum bir ilm-fanga asoslangan mukammal bilimni talab etadi. Ilm-fan deb, tabiat va jamiyat rivojlanishining va uni o'rab turgan dunyoga ta'sir etish qonuniyatini ochib beradigan bilimlar sistemasiga aytiladi. Ilm-fan izlanishining natijasini havotga amaliy tadbig'i sifatida yaratilgan ishlab chiqarish qurollari, jihozlari tushuniladi. Texnika deb. ishlab chiqarishda tadbiq etiladigan va uni boshqarishda qatnashadigan mehnat qurollari, jihozlari tushuniladi. Ilm- fanning ilg'or natijalarini ko'plab ishlab chiqarishga tadbiq etilishida texnika takomillashadi. Buning asosida esa ilmiy-texnika taraqqiyoti kelib chiqadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan odamlar daryo sohillarida dehqonchilik qilishgan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar, sug'orish inshootlari. turli tuman qurilish inshootlarini qurish bilan shug'ullanganlar, yigiruvchilik, to'quvchilik, kulolchilik qilgan. ma'danlar qazib metall eritishni o'rganib olganlar, zargarlik bilan shug'ullanganlar, yo‘1 qurganlar. osmon yoritgichlarining sirli harakatlari va yulduzlarning harakat qonunlarini o'rganganlar. Bular asosida astronomiya. mateniatika, tibbiyot. me'morchilik asoslari paydo bo'lgan.

O'zbekiston hududida juda qadim zamondan mehnat qurollari va vositalar. xususan otarava. suv tegirmoni. charxipalak (chig'ir), to'quv dastgohlari va hokazolardan foydalanib kelingan. Bular esa mexanika sexima (yunoncha: mechanike - mashina, qurol, inshoot) fanining rivojlanishi asosida yaratildi va sug'orish, qurilish, to'quvchilik. kulolchilik, me'morchilik va boshqa sohalarda qo'llanildi.


IX-XV asrlarda aka-uka Banu Musolar, Sobiy ibn Qurra, Umar Hayyom, Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino, Al-Xaziniv, Al-Xoriniy, Ahmad Al-Farg'oniv, Mirzo Ulug'bek va boshqalarning asarlarida moddiy jismlarning mexanik seximasining harakati haqidagi ta'limot va amaliy ishlar yoritilgan.

IX-XI asrlarda O'rta Osiyo Sharqning ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylanadi, bu yerda akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar tashkil etilgan. Xorun ar-Rashid hukmronligi davrida (786-809 y.) «Bayt ul-Hikmat» («Donishmandlar uyi»)ga asos solindi, halifa Ma'mun davrida (813-833 y.) bu akademiya yanada rivojlandi. O'rta Osiyolik buyuk olimlar Muso al-Xorazmiy va Muhammad al-Farg‘oniy o'z tadqiqotlarini shu akademiyada olib borganlar.

Ma’lumki [2], O'rta Osiyo olimlari tomonidan ko'rinishi oddiy, tuzilishi sodda mexanizmlarning seximalari yaratilgan. Abdul Abbos Ahmad ibn Muhammad Qasir al-Farg'oniy tomonidan mexanik kalendar. burchaklarni o'lchash asboblari; Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sinoning «Aql mezoni» asarida mexanikadagi oddiy sistemalar chig'irlar, richaglar. bloklar, vintlar va ponalardan tuzilgan mexanizmlaming ishlash prinsiplari bayon etilgan. Ibn Sino harakatlanuvchi jismga qo'yilgan kuch yo'qolmasligini va harakatga biror qarshilik bo'lmasa, harakatning cheksiz uzoq vaqt sodir bo'lishi kerakligini aytgan edi.


Abu Yusuf al-Xorazmiyning (X-asr) «Ilmlarning kaliti» nomli kitobi, Ismoil al-Jazoirning (XII-XIII asr) «Muhandislik mexanikasini bilish» kitobi va Muhammad al-Xurosonning «Suv g‘ildiraklari va suvni yuqoriga chiqarishni amalga oshirishda ishlatiladigan mexanik moslamalar» seximasi e’tiborga sazovordir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6




1-rasm. O 'rta asrlarda detallarni chizishda qo'llanilgan chizmachilik asboblari [2].

O'rta asrlarda ilmiy-texnika taraqqiyotining ilg'or rayonlari qatoriga Yaqin Sharq, O'rta va Janubiy Osiyo mamlakatlari kirgan. XIII-XIV asrlarda ixtiro va yangilikni yaratilishi G'arbiy Evropada yildan-yilga oshib borgan. Buning nati jasida Evropada nafaqat yetuk texnik xodimlar shakllana boshladi. balki ustolar harbiy, qurilish, tog'-kon, qishloq xo'jaligi va hokazo sohalarda mutaxassislar «injener»lar paydo bo'la boshlaydi. «Injener» so'zi XIII-XIV asrlarda G'arbiy Evropa mamlakatlarining tillarida (terminida) paydo bo'ldi. «Injener» so'zi lotincha «in- genium» (ingenium) so'zidan kelib chiqib, «tug'ma qobiliyat» degan birlamchi ma'noni. keyinroq esa «aql, o'tkirlik, yaratuvchanlik»ni bildiradi. «Injener» so'zi XVII-asrda fransuz va nemis tillaridan Rossiyaga kirib keladi.



2-rasm. Darvozani ochish uchun ishlatiladigan mexanizmlarning sxemasi [3].



3-rasm. Vintli mexanizmlarni (sexemasi) qo'llash uskunalari [3].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Mehnat jarayonida qo'l instrumentlarining assortimenti kengaydi, energiya manbai sifatida hayvon kuchidan (asosan ot), shamol kuchi (IX-X asrlardan), suv kuchidan foydalanish boshlanadi. XIII-XV asrlardan cho'yan quyish va temir olish o'rganiladi. transport, kemasozlik rivojlanadi. Bularning hammasi texnika taraqqiyotiga asos soladi.

Ko'pincha texnolgik jarayonni bajarishda harakatlanayotgan bo'g'inni ma'lum vaqt ichida biror vaziyatda turishi va uning ayrim nuqtalari berilgan egri chiziq bo'yicha harakatlanishi talab qilinadi.

Mexanizmni kinematikaviy tekshirish uchun uning barcha bug'inlarining o'lchamlari, kinematikaviy sxemasi va yetakchi bo'g'inning harakat qonuni berilgan bo'lishi kerak. Yetakchi bo'g'inning harakat qonuni vaqtning funksiyasi tarzida beriladi. Bu harakat qonuniga binoan, yetakchi bo'g'inning vaziyati aniqla-nadi. Yetakchi bo'g'inning har bir vaziyatida unga ulangan Assur guruhlarining kinematikasi tekshiriladi. Mexanizmni kinematikaviy tekshirishda avval uning vaziyati, so'ngra tezlik va tezlanishlari aniqlanadi. Tekis mexanizmlarni kinemati-kaviy tekshirishda grafikaviy, grafo-analitikaviy va analitikaviy usullar qo'llaniladi. Mexanizmni kinematikasi juda katta aniqlik bilan hisoblash talab qilinganda analitikaviy usuldan foydalaniladi. Muhandislik hisoblash amaliyotida, asosan qutbiy plan va kinematikaviy diagramma usullari keng qo'llaniladi.

Umuman mexanizmlarni kinematikasini tekshirish nazariy mexanika qonuniyatiga asoslangan. Nazariy mexanikada jism larning mexanik harakati geometrik nuqtai nazardan o'rganiladi.

Kinematikada quyidagi ikki masala echiladi:

1. Berilgan sanok sistemasiga nisbatan nuqta yoki jismning harakatini matematik usulda aniqlash.

2. Nuqtaning berilgan harakati qonuniga koʻra mazkur harakatning barcha kinematik xarakteristikalari (traektoriya, tezlik va tezlanishlari) aniqlanadi.

Kinematika ikki qismga boiinadi: 1) nuqta kinematikasi; 2) qattiq jism kinematikas.

1. Nuqta kinematikasi

Moddiy nuqta deganda, harakati yoki muvozanatini tekshirishda oʻlchamlari va shaklining ahamiyati bo'lmagan, massasi bir nuqtada joylashgan deb tasavvur qilinadigan jism tushuniladi. Kuch ta'siridagi jismning ixtiyoriy ikkita nuqtasi orasidagi masofa doimo oʻzgarmasdan qolsa, bunday jism absolyut qattiq jism deyiladi. Absolyut qattiq jism moddiy nuqtalaming oʻzgarmas sistemasidir.Tabiatda absolyut qattiq jism yo'q, har qanday jism ham oz bo'lsada deformatsiyalanadi - shakli oʻzgaradi. Agar bu o'zgarish jismning o'lchamlariga nisbatan juda kichik bo'lsa, mexanik harakatni o'rganishda mazkur o'zgarishni e'tiborga olmaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Toshpulatov Faxriddin Urolovich CHIZMACHILIK (Geometrik chizmachilik) oʻquv qoʻllanma "KAMOLOT" nashriyoti Buxoro 2023-yil.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

2. Bibutov N. S. Amaliy mexanika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘l. Yangiyul poligraph service, 2008.
3. R. Tojiboev, A. Jo'raev Mashina detallari. Toshkent. «O 'qituvchi», 2002.
4. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
5. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies International Engineering Journal For Research & Development.-2021 //T. – T. 6. – C. 3-3.
6. Uralovich T. F. THE ROLE OF APPLIED ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC SKILLS OF STUDENTS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 111-118.
7. Urolovich T. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN’AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 158-162.
8. Toshpulatov F. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI CHUQURLASHTIRIB O ‘RGANISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 4 (1). – C. 197-205.
9. Fakhriddin T. et al. USING GRAPHICS PROGRAMS IN DRAWING LESSONS (BLENDER GRAPHICS PROGRAM FOR EXAMPLE) //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 10-15.
10. Uralovich T. F. Kalit so ‘zlar: Chizmachilik, qishloq, arxitekturametodika, uy-joy, qurilishi, mustaqil ta’lim, shaxs estetik ko’nikma, ko ‘rsatmali qurollar, ko ‘rsatma, idrok, talaba, o ‘qituvchi, morfologik yondashuv.
11. Fakhriddin T. et al. USING GRAPHICS PROGRAMS IN DRAWING LESSONS (BLENDER GRAPHICS PROGRAM FOR EXAMPLE) //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 10-15.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Toshpulatov Faxriddin Urolovich**, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.v.dotsenti, [**Тошпулатов Фахриддин Уролович,** доцент кафедры изобразительного искусства и инженерной графики], [**Toshpulatov Fakhriddin Urolovich,** Associate Professor of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics]; manzil: O‘zbekiston, Termiz sh., Umit ko'chasi, 2/3-uy [адрес: Узбекистан, город Термез, улица Умит, дом 2/3], [address: Uzbekistan, Termez city, Umit street, building 2/3] https://orcid.org/0009-0007-2368-9524; Email: toshpulot@terdpi.uz

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

© G.A. Gaynazarova[1]✉

[1]Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mamlakatning rivojlanishi ko'p jihatdan mustaqil fikrlay oladigan, tafakkuri rivojlangan mutaxassis kadrlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish asosiy o'ringa ko'tarilishi zamon talabidir. Mazkur maqolada oliy ta'limda talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil qilish, talabaning mustaqil fikr yuritishi, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishning maqsad va vazifalari tahlil qilingan.

MAQSAD: mustaqil ta'limni bajarayotgan talaba mustaqil ishni bajarishda nafaqat o'quv mashg'uloti maqsadini, balki uning yakunida taxminan qanday o'quv natijalarga erishish mumkinligini ham bilishi zarurligi belgilab olindi.

MATERIALLAR VA METODLAR: muammoga oid materiallar, jumladan, maqola va axborot agentliklarining rasmiy saytlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, tarixiy-qiyosiy tahlil, analitik obzor, o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, dalillarni qiyoslash, sotsiometriya, pedagogik eksperiment tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik-didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarning individual ishlashga o'tishlarini ta'minlash bo'lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo'llash asosiy o'rin tutishi kerak.

XULOSA: talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faolliklarini oshirishdagi muammolar bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bunda mustaqil ishlarni bajarishga faqat talabalarnigina emas, balki, ayrim professor-o'qituvchilarning ham tayyor emasliklarini ko'rish mumkin. Bu ko'pincha kasbiy yoki psixologik yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim olish, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, o'z-o'zini tarbiyalash, talaba, ta'lim, ehtiyoj, layoqat, shakllanish.

Iqtibos uchun: Gaynazarova G.A. Oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning maqsad va vazifalari. // Inter education & global study. 2024. №6. B.33–40.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО

© Г.А. Гайназарова[1]✉
[1]Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук им. Т. Кары-Ниязи, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие страны во многом зависит от профессиональных кадров, способных мыслить самостоятельно и обладающих развитым мышлением. Поэтому насущной является необходимость воспитания учащихся к самостоятельному мышлению в образовательном процессе**.** В данной статье анализируются такие вопросы, как эффективная организация самостоятельного обучения студентов в высшей школе, самостоятельное мышление студентов, самостоятельное усвоение учебного материала, современное состояние организации самостоятельного обучения студентов в системе высшего образования сегодня.

ЦЕЛЬ: установлено, что учащийся, осуществляющий самостоятельное обучение, при выполнении самостоятельной работы должен знать не только цель учебного занятия, но и примерно какие результаты обучения могут быть достигнуты по его окончании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы материалы по проблеме, в том числе статья и официальные сайты информационных агентств. Теоретические взгляды, методы исследования и подходы, применяемые в процессе исследования, объясняются тем, что они заимствованы из официальных источников, организованы историко-сравнительный анализ, аналитический обзор, исследование, анализ, обобщение, наблюдение, сопоставление фактов, социометрия, педагогический эксперимент.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: основная задача в организации самостоятельной работы учащихся состоит в создании психолого-дидактических условий для развития интеллектуальной инициативы и мышления на занятиях любой формы. Главным принципом организации самостоятельной работы учащихся должно быть обеспечение перехода учащихся к индивидуальной работе. Ключевым моментом в этом должен быть переход от формального и пассивного выполнения определенных задач к сознательному и активному их выполнению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: проблемы повышения активности учащихся во внеаудиторной деятельности связаны с рядом трудностей. При этом видно, что к самостоятельной работе не готовы не только студенты, но и некоторые преподаватели. Это часто проявляется в профессиональной или психологической направленности.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельное мышление, творческое мышление, самовоспитание, студент, образование, потребность, способность, формирование

Для цитирования: Гайназарова Г.А. Состояние организации самостоятельного образования студентов в системе высшего. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 33–40.

STATE OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

© Gulbahor A. Gaynazarova[1]✉
[1]Research institute of pedagogical sciences of Uzbekistan named after Kori Niyozi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of the country largely depends on professional personnel who can think independently and have developed thinking. Therefore, there is an urgent need to teach students to think independently in the educational process.

AIM: it has been established that a student engaged in independent learning, when performing independent work, should know not only the purpose of the training session, but also approximately what learning outcomes can be achieved after its completion.

MATERIALS AND METHODS: materials on the problem were used, including an article and official websites of news agencies. The theoretical views, research methods and approaches used in the research process are explained by the fact that they are borrowed from official sources, historical and comparative analysis, analytical review, research, analysis, generalization, observation, comparison of facts, sociometry, pedagogical experiment are organized.

DISCUSSION AND RESULTS: the main task in the organization of independent work of students is to create psychological and didactic conditions for the development of intellectual initiative and thinking in the classroom of any form. The main principle of organizing independent work of students should be to ensure the transition of students to individual work. The key point in this should be the transition from the formal and passive fulfillment of certain tasks to the conscious and active fulfillment of them.

CONCLUSION: the problems of increasing student activity in extracurricular activities are associated with a number of difficulties. At the same time, it is clear that not only students, but also some teachers are not ready for independent work. This often manifests itself in a professional or psychological orientation.

Key words: independent learning, independent thinking, creative thinking, self-education, student, education, need, ability, formation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

For citation: Gulbahor A. Gaynazarova. (2024) 'State of organization of independent education of students in the higher education system', Inter education & global study, (6), pp. 33–40. (In Uzbek).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan,

Kontseptsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-son qarori1-ilovacida "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modulь tizimini joriy etish tartibi to'g'risida" gi Nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra ...kredit-modulь tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi.

Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Garchi pedagogik lug'atlarda "mustaqil ta'lim - talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir",-deya izohlansada, bugungi kunda ko'plab manbalarda "mustaqil ta'lim olish", "o'zini tarbiyalash", "mustaqil o'qish" kabi tushunchalardan ham sinonimlar sifatida foydalanib kelinmoqda.

Bunda fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun kurs boshida beriladi. Bunda berilayotgan topshiriqlar mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga, mavzuni tizimli bayon qilishiga, tayanch iboralarning ishni mohiyatini ochib berishiga xizmat qilishiga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

manbalarini aniq ko‘rsatish lozim. Talaba tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko‘rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli harakatlanishi o‘qituvchini quyidagi boshqaruv harakatlarini aniqlaydi: rejalashtirish, tashkillashtirish hamda monitoring va baholash. Talabaning o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo‘yishi ularning mazmunini boyitishga xizmat qiladi

Bugun jamiyatga bilimlarni o‘zlashtirishdagi passiv iste’molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Biroq bu jarayonda faqat o‘qituvchining o‘zi bergan ma’lumotlar yetarli bo‘lmaydi. Buning uchun talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularning mustaqil bilim olishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining barcha o‘quv va mutaxassislik fanlari bo‘yicha yaratilgan dastur, shuningdek, ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida ham talabalarning mustaqil ta’limiga alohida o‘rin ajratilgan.[1]

Oliy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko‘paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo‘lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Mustaqil ta’limning natijasi shunday bo‘lishi kerakki, bo‘lg‘usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo‘llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to‘g‘riligini isbotlab bera oladigan bo‘lsin.[2]

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar ta’lim mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. Yangilanishlar talabalar o‘qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma’noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo‘lishini taqozo etadi.

Bularning barchasi ta’lim berish (olish) ning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni, har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e’tiborga olgan holda, guruh o‘qishlaridan individual o‘qishga o‘tishni ko‘zda tutadi.

Bu jarayonni shunday tashkil etish lozimki, uning natijasida talabaning mustaqil bilim olishi va bu bilimlarini hayotga tatbiq etishga oid qobiliyati, ko‘nikma va malakalari shakllansin.

Z.T. Raximovning e’tirof etishicha mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi.[3]

[1] Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi.-Toshkent“Fan”2009y.
[2] Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish [Matn] : metodik qo’llanma / L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.
[3] Рахимов З.Т. Талабалар креативлигини ошириш мақсадида мустақил таълимни ташкил этиш методикасини такомиллаштириш/ Педагогика.Илмий-назарий ва методик журнал.–Тошкент, 2021.–№3.–15-20 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Rus olimlaridan I.T.Siroyejkin[4] mustaqil ishlarni tasniflab, didaktik maqsadni asos qilib olgan va uch turdagi ishlarni aniqlagan. Ishning birinchi turi yangi bilimlarni egallash maqsadi bilan belgilanadi;

Ishning ikkinchi turi bilimlarni takomillashtirish maqsadi bilan belgilanadi (takrorlash, mustahkamlash, qo‘llash);

Ishning uchinchi turi bilimlarni sinash maqsadi bilan belgilanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyati ustida tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikricha “mustaqil ta’lim o‘quv faoliyatining eng yuqori shakli hisoblanadi”[5]

Mustaqil ta’limni talabalarga bilim berishda ularni o‘z holiga tashlab qo‘yib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki o‘qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning interaktiv mustaqil faoliyatidir. O‘quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta’limning roli katta. Buni anglagan holda, yurtimiz oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlariga ajratilayotgan mustaqil ta’lim soatlari ulushi muntazam oshirib borilmoqda. Talaba mustaqil ta’lim uning manfaatini ko‘zlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilish maqsad va vazifalari:

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi — talabada o‘quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishi.

Talabalar mustaqil ishining vazifalari: mustaqil ishlarni bajarish uchun yangi ma’lumot qidirishga kerakli chora-tadbirlarni aniqlash; informatsion manbalardan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida foydalanish; me’yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o‘quv adabiyotlar bilan ishlash; elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar bazasi bilan ishlash; ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko‘ra ularni qayta ishlash, ishning tizimli va ijodiy bajarilishi; uchun sharoit yaratish;ishlab chiqilgan yechimni, g‘oya yoki loyihani izohlash va himoya qilish. Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt me’yoriga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy shakllar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy-metodik kengashida va kafedra yig‘ilishlarida muhokama qilinib, tas diqlanadi.

Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirishuning metodik ta’minlanishining tematikasi va shakllari ro‘yxatini tuzish uchun har birining maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo‘riqnoma yoki metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash degani.

Mustaqil ta’lim — o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil ta’lim — olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli.

[4] Сыроежкин И.Т. Самостоятельная работа учащихся на уроках химии/ Химия в школе.–1959.–№3.–С.27-31; №4.–С.26-30.
[5] Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – 2-е изд., доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2002. – 384с.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Mustaqil ish — o‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Ta’bir joiz bo‘lsa, bo‘lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tug‘ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg‘ulot turi mustaqil ishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shuni unutmaslik kerakki, qachonki talabalarda jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo‘lgandagina mustaqil ishlarning samaradorligi oshishi mumkin. Natijada talabaning kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorgarligi yuqori bo‘ladi.

Quyida talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi bir qancha ichki omillarni ko‘rib chiqamiz: bajarilayotgan ishning foydaliligi; talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. bu nihoyatda xilma-xil ko‘ri nishlarda bo‘lishi mumkin. xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar; fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar; bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan’anaviy imtihon shakllari v.b.). bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. mana shu holatning o‘zi talabada o‘z ustida ishlashni, o‘zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi; mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o‘quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi.

Sifatsiz informatsion ta’minotlar ham mazkur yo‘nalishda talabalarning faolliklarini oshishiga halaqit beruvchi yana biro mil bo‘ladi. Ko‘p hollarda informatsion ta’minot talab darajasida bo‘lmaydi, buning natijasida samaradorlikning pasayib ketishi kuzatiladi. Shu bilan birga, talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi, nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini ham ularning mustaqil ta’limda faol ishtirok etmasliklariga sabab bo‘luvchi omillar qatoriga kiradi.

Talabalar mustaqil ishining maqsadi avval o‘quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o‘z malakasini muntazam oshirib borish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA“ PF-158-son Farmoni
2. Келдиёрова М.ғ. Мустақил таълимни самарали ташкил қилиш талабалар мустақил фикрлашини ривожлантириш омили сифатида. Замонавий таълим/ Современное образование 2022, 4 (113) Б.41-49

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

3. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi.-Toshkent“ Fan”2009y.
4. Рахимов З.Т. Талабалар креативлигини ошириш мақсадида мустақил таълимни ташкил этиш методикасини такомиллаштириш/ Педагогика. Илмий-назарий ва методик журнал. –Тошкент, 2021.–№3.–15-20 б.
5. И.Т. Самостоятельная работа учащихся на уроках химии/ Химия в школе.–1959.–№3.–С.27-31; №4.–С.26-30.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – 2-е изд., доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2002. – 384с.
7. Zaripov L, Xayitov N., Tohirov Z. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish. Metodik qo‘llanma /. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.
8. Зарипов L., Тоҳиров З., Тухтаева М. мустақил таълимни ташкил этиш ва баҳолаш мезонлари. Методик қўлланма. – Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 й. – 32 б.
9. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. Academia Repository, 4(12), 131-135.
10. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 36-40.
11. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova,** Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi; **[Гулбахор Абдуллаевна Гайназарова,** Научный иследователь научно-исследовательского института педагогических наук Узбекистана имени Кори Ниязи], [**Gulbaxor A. Gaynazarova** Scientific researcher at the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after Kori Niyazi]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Sergeli tumani 5-mavze 8-uy , tel: 97-741-03-70, [адресс Узбекистан г.Ташкент Сергелийский район 5-квартал 8 дом], [address Uzbekistan, Tashkent, Sergeli district, 5th block, 8th building]; gulbaxorgaynazarova70@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID JAHON TAJRIBALARI TAHLILI

© M.T. Hamdamova[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqola maktabgacha ta’lim sohasiga oid bo‘lib, maqolada boshqaruv usullari, boshqaruv funksiyalari, boshqaruvning turlari hamda boshqaruvning ijtimoiy – psixologik ucullari yoritilgan.

MAQSAD: pedagogik sharoitlarni tavsiflash; maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kasbiy malakasini rivojlantirish shakllari va usullari taklif etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, N.P.Kapustinning «O‘quvchilar tarbiyasi darajasini diagnostikalash» metodi, E.G.Eydemiller, V.Yustiskisning «Tarbiya nuqsonlari omillarini aniqlash» testi, T.I.Pashukova tomonidan ishlab chiqilgan «O‘smirlar shaxsidagi egotsentrik yo‘nalishlarning sifat ko‘rsatkichlari», V.Stefansonning «Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish», Y.Kulning «Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi» metodikalaridan, S.R. Panteleyev va V.V. Stolin tomonidan «Subyektiv lokal nazorat», Y.V. Zalyubovskayaning «Shaxs tomonidan guruhni idrok etishni o‘rganish», Meri Edvarsning «Shaxsni ma’qul topilgan jihatlarni aniqlash», M. Kubishkinaning «MAS» so‘rovnomalaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'limni samarali boshqarish faqat ta'lim olish imkoniyati, uning sifatini oshirish sharoitida mumkin va ko'p jihatdan rahbarning malakasiga bog'liq. Strategiya rahbardan yangi vakolatlarni, innovatsion faoliyatga tayyorlikni, maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'p funktsiyali o'quv muhitini ta'minlashni talab qiladi. Shunday qilib, hozirgi bosqichda ta'lim tizimi fan bilan bog'liq va jamiyatning iqtisodiy o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rahbarlarinig kasbiy tayyorlashning beqaror amaliyoti sharoitida boshqaruv organlari tomonidan menejerlarni tayyorlash tizimi alohida ahamiyatga ega.

XULOSA: ta'lim boshqarmasi ta'lim tashkilotlariga nisbatan maslahat, ekspert, uslubiy, axborot, nazorat funktsiyalarini bajaradi va barcha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha koordinator bo'lib, kasbiy malakaga tayanadi

Kalit so'zlar: rejalashtirish, boshqaruv funksiyalari, motivlash, nazorat qilish, boshqaruv turlari va usullari, ijtimoiypsixologik, marketing, innovatsion boshqarish.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Iqtibos uchun: Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili. // Inter education & global study. 2024. №6. B.41–47.

АНАЛИЗ МИРОВОГО ОПЫТА ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОУ

© М.Т. Хамдамова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет им. Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: эта статья относится к области дошкольного образование, и в ней рассматриваются методы управления, функции управления, виды управления и социально-психологические аспекты управления.

ЦЕЛЬ: характеристика педагогических условий; состоит в предложении форм и методов развития профессиональной компетентности руководителя дошкольной образовательной организации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались интервью, анкетирование, методы наблюдения, а также метод Н.П. Капустин «Диагностика уровня образования учащихся», Э.Г. Эйдемиллер, тест В. Юстискиса «Детерминирующие факторы образовательных дефектов», Т.И. Пашуковой «Качественные показатели». эгоцентрических направлений в личности подростков».

Из методов В. Стефансона «Исследование мотивации поведения в группе», Ю. Куля «Шкала контроля движений в планировании», «Субъективного локального контроля» С.Р. Пантелеева и В.В. Столина, «Исследование группового восприятия личностью» Ю.В.Залюбовской, «Личность» Мэри Эдвардс, определяющая благоприятные стороны», опросники «МАС» М.Кубишкиной.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: практика показывает, что эффективное управление дошкольным образованием в современных условиях возможно только в условиях доступности образования, повышения его качества и во многом зависит от квалификации руководителя. Стратегия требует от руководителя новых компетенций, готовности к инновационной деятельности, обеспечения многофункциональной образовательной среды в дошкольной образовательной организации. Таким образом, на современном этапе система образования связана с наукой и служит основой экономического роста общества. В условиях нестабильной практики профессиональной подготовки руководителей особое значение приобретает система подготовки руководителей органами управления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: управление образования оказывает консультативные, экспертные, методические, информационные, контролирующие функции в отношении образовательных организаций и является координатором по развитию

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

всех образовательных организаций, по повышению квалификации педагогов и опирается на профессиональную компетентность

Ключевые слова: управление, планирование, функции управления, мотивация, контроль, виды и методы управления, социально-психологический, маркетинг.

Для цитирования: Хамдамова М.Т. Анализ мирового опыта по совершенствованию управленческой компетенции руководителя доу. // Inter education & global study. 2024. №6. С. B.41–47.

ANALYSIS OF THE WORLD EXPERIENCE IN IMPROVING THE MANAGERIAL COMPETENCE OF THE HEAD OF THE DOW

© Mahzuna T. Hamdamova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article belongs to the field of Preschool education, and it deals with management, management methods, management functions, types of management and sociopsychological aspects of management.

AIM: characteristics of pedagogical conditions; consists in the proposal of forms and methods for the development of professional competence of the head of a preschool educational organization.

MATERIALS AND METHODS: during the research, interviews, questionnaires, observation methods were used, as well as the method of N. P. Kapustin “Diagnostics of the level of education of students”, E.G. Eidemiller, the test of V.Yustiskis “Determining factors of educational defects”, T.I.Pashukova “Qualitative indicators". egocentric directions in the personality of adolescents." From the methods of V. Stefanson “Study of themotivation of behavior in a group”, Yu. Kul “Movement control scale in planning”, “Subjective local control” S.R. Panteleev and V.V.Stolin, “Study of group perception by personality” by Yu.V.Zalyubovskaya, “Personality” by Mary Edwards, determining favorable aspects,” “MAS” questionnaires by M. Kubishkina.

DISCUSSION AND RESULTS: practice shows that effective management of preschool education in modern conditions is possible only in conditions of accessibility of education, improvement of its quality and largely depends on the qualifications of the head. The strategy requires new competencies from the head, readiness for innovative activities, and provision of a multifunctional educational environment in a preschool educational organization. Thus, at the present stage, the education system is connected with science and serves as the basis for the economic growth of society. In conditions of unstable practice of professional training of managers, the system of training managers by management bodies is of particular importance.

CONCLUSION: the Department of Education performs advisory, expert, methodological, informational, and control functions in relation to educational

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

organizations and is the coordinator for the development of all educational organizations, teacher training, and relies on professional qualifications

Key words: planning, motivation, control, types and methods of management, socio-psychological, marketing, innovation management.

For citation: Mahzuna T. Hamdamova. (2024) 'Analysis of the world experience in improving the managerial competence of the head of the dow', Inter education & global study, (6), pp. B.41–47. (In Uzbek).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat tarkibni tanlashga, balki rahbarlar amaliyotga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatga jalb qilishga asoslangan, uning doirasida rahbarlar turli xil boshqaruv qobiliyatlari va boshqaruv vazifalarini hal qilish usullarini bevosita o'zlashtirdilar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining tashkiliy jihatlarini aniqlab, biz kompetensiyaviy yondashuvning asosiy qoidalariga asoslandik, xususan:

- boshqaruvni shakllantirish jarayonining shaxsiy yo'nalishini kuchaytirish, ya'ni rahbarlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanib, o'quv jarayonini faollashtiradigan tanlov sharoitlarini yaratish; bu rahbarning o'zi izlanishi, o'z bilimini yaratishi kerakligini anglatadi;
- faoliyatning yangi turlari va usullarini ishlab chiqish orqali kasbiy muammolarni hal qilishga o'rgatish. Shu munosabat bilan rahbarlarni nafaqat ilmiy asoslar va boshqaruv faoliyatini amalga oshirishning turli usullari bilan tanishtirish, balki ularni loyihalash, tahlil qilish, baholash va o'zini o'zi baholash vaziyatiga tushirish muhim sanaladi;
- shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish. Biz uchun asosiy talab rahbarlarning taklif etilayotgan boshqaruv vazifalarini hal qilishda mustaqilligi va ijodkorligi namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, o'zlarining o'sishi, yutuqlarini ko'rish imkoniyatini berish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish va boshqarishga oid tadqiqotlar A.V.Shin, F.R.Qadirova, D.Babayeva, M.N.Xushnazarova, Sh.A.Sodiqova, Sh.Shodmonova, Z.F.Azizova, G.A.Berdialiyeva, N.Sh.Abdullayeva, M.A.Abdullayeva, Sh.N.Qosimova, M.T.Xamdamova, G.N.Nigmatova Sh.B.Raximova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, U.I. Inoyatov, S.T.Turg'unov, M.A.Yuldashev, Ya.U.Ismadiyarov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishida kadrlarni tayyorlash, innovatsion-menejmentni shakllantirish, ta'lim menejmentini takomillashtirish sifati masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Kompetensiya va kompetentlilik masalalari, ta'lim tizimi rahbar xodimlar malakasini oshirishning ilmiy va pedagogik asoslariga oid ilmiy izlanishlar A.A.Alimov, O.A.Quysinov, MDH olimlaridan E.N.Belova, I.B.Bicheva, A.A.Derkach, L.G.Kiseleva, A.N.Kuzmitsskaya, Yu.V.Podzyubanova, E.F.Zeer, A.K.Markova, M.M.Potashnik va boshqalar tomonidan olib borilgan bo'lsa, xorijiy olimlardan R.E.Boyatzis, S.I.Zmeev, R.Dave kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Ilmiy kuzatishlar va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

tahlillarga ko‘ra, malaka oshirish ta’limida maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetentliligini rivojlantiruvchi mexanizmlar to‘liq tadqiq etilmaganligi, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv kompetentliligini xorijiy tajribaga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish muammosining saqlanib qolayotganligi ushbu tadqiqot mavzusini “Xorijiy tajribalar asosida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish (maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining malaka oshirish jarayoni misolida)” deb nomlanishiga asos bo‘ldi.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy qoidalaridan shu narsa kelib chiqadiki, o‘qitishning asosiy qismi amaliy vazifa (vaziyat) bo‘lishi kerak, uni hal qilish jarayonida faoliyatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish, ko‘nikmalarni shakllantirish va menejment faoliyatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarining tajribali bo‘lishi lozim. Professional boshqaruv vazifalarini samarali hal etishni ta’minlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruv funksiyalarini malakali bajarishga tayyorlik, boshqaruv malakasini shakllantirishning ko‘rsatkichi bo‘lgan amaliy muammolarni hal qilish tajribasi, shu bilan birga rahbarlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish uchun haqiqiy amaliy boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligi hisobga olinadi. Ammo, ushbu faoliyatni simulyatsiya shakllaridan foydalanish orqali o‘quv jarayoni individual o‘quv mashg‘ulotlarining bir qismi sifatida maxsus modellashtirish mumkin: boshqaruv amaliyoti, o‘ziga xos o‘yin ko‘rinishdagi simulyatsion amaliy boshqaruv va boshqalar.

Ushbu ilmiy pozitsiyalar rahbar boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatini amalga oshirish maqsadlari, vazifalari, usullarini kelajakdagi kasbiy faoliyatida amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, amaliy yo‘naltirilgan faoliyatda rahbar tomonidan kasbiy bilimlarni o‘rganish, ta’lim jarayoni sifatini oshirish, boshqaruv faoliyatini ijtimoiy modellashtirish tushuniladi. Natija amaliy yo‘naltirilgan faoliyat shaxsiy tajriba bo‘lishi, o‘z navbatida boshqaruv muammolarini hal qilishda rahbarning kasbiy kompetentligining rivojlanganligi asos bo‘ladi. Eng muhimi ta’lim jarayoni faoliyatini rag‘batlantiradigan munosabatlar, qo‘llab-quvvatlashlar rahbarlar boshqaruv faoliyati aspektida shaxsiy tenglikni qo‘llab quvvatlaydi. Rahbar boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonida rahbarlar faoliyatini amaliy jihatdan yo‘naltirish, ta’lim metodlari (assisment, keys stadi) o‘yin simulyatsiyasi (simulyatsiya, biznes, rolli o‘yin)dan foydalangan holda tajribalar o‘tkazishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Maqsadimiz tinglovchilarni umumkasbiy tayyorgarligini oshirish asosida (boshqaruv psixologiyasi fani misolida) boshqaruvning ijtimoiy, psixologik, rahbarlikni o‘ziga xos jihatlarini, tashabbuskorlik va liderlik sifatlarini egallash bo‘yicha chuqur bilim berish, shuningdek, mantiqiy fikrlash, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish malaka va ko‘nikmalarni hamda boshqaruv qadriyatlarini shakllantirishdan iboratdir.

1940 yillarda E. Bern[32] tomonidan liderlikning 79 sifati aniqlangan. Bu ro‘yxatda tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o‘ziga ishonch, tez va aniq qarorlar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

qabul qilish kabi xislatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shundaki, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo‘ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi. Bundan liderlik modelini yaratish oson emasligi to‘g‘risidagi xulosaga kelishimiz mumkin.

Rahbar shaxsining turli ta’riflari mavjud, lekin bu tushunchani to‘laroq aks ettiradigan bo‘lsak, shaxs tushunchasini quyidagisi o‘rinli:

“Shaxs bu – o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi subyekt, insondir”.

E’tibor berilsa, ushbu ta’rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi: bilish; hissiyot; munosabat.

Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya’ni tashqi olamni insonning o‘z ehtiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan. Inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati haqida ma’lum bir ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Tashkilotda shaxs o‘zgalar bilan munosabatga kirishar ekan, demak, u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatida qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a’zo bo‘lgan guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham tahlil etish zarurati tug‘iladi. Biz aynan rahbar shaxsi, uning muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyati uchun xos va zarur xislatlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga qo‘yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o‘rganish zarurati tug‘iladi.

Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etadigan bo‘lsak, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganamiz:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Shaxsiy sifat va fazilatlar.

Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma’lumoti kiradi.

Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog‘liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish yirik kompaniyalari rahbarlarining o‘rtacha yoshi 63,5 bo‘lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59da ekan. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini o‘rganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug‘ligidir. Ba’zi bir tashkilotlarda (masalan, “Sony corporation”) kompaniyasi prezidentining yoshi 65 deb cheklangan bo‘lsa ham, lekin ko‘pgina avtomobil sohasidagi firma rahbarlarining yoshi 75 va undan yuqori ekanligi ajablanarli hol emas. Umuman olganda, Yaponiyada xodimning korxonaga bir umr yollanish tajribasi qo‘llaniladi. Ma’lum bo‘lishicha, yuqori bo‘g‘in rahbarlarining ko‘pchiligi o‘z tashkilotida ko‘p yillar ishlaydi. Bu sohada o‘tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, katta yoshli rahbarlar, agar ularning sog‘ligi ko‘ngildagidek bo‘lsa, ushbu tashkilot uchun katta tajriba manbaidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Rahbarning yoshi haqida gapirar ekanmiz, nafaqat uning biologik jihatlari, balki, ijtimoiy jihatlari, hayotiy tajribasini ham nazarda tutish kerak. Ammo, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyaning kirib kelishi ularni o‘zlashtirishda ma’lum mahoratni talab qiladi. Baxtga qarshi, hozirgacha kompyuterda ishlashni o‘rgana olmayotgan katta yoshli rahbarlarni uchratish qiyin emas. Shu jihatdan olganda, yosh rahbar ko‘pincha tashkilotga ilg‘or texnologiya va tezkorlik olib kiruvchi omil sifatida qabul qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док. ... дисс.-Т.:2007.-305 б.
2. Белая К.Ю. Инновационная деятельность в ДОУ: Методическое пособие. М.: ТЦ Сфера, 2005. 64 с.
3. Берн Э. Лидер и группа. О структуре и динамике организаций и групп. – Екатеринбург: Изд-во «Литур», 2000. – 320 с.
4. М.Ҳамдамова Мактабгача таълим ташкилотида меҳнат қонунчилиги хужжатлари билан ишлаш Оъқув қоълланма, Тошкент “Ozkitobsavdo” 2020, ISBN 978-9943-6297-6-9, UO‘K: 373,2:37,9 (075), KBK: 74. 102 ya7, 204 bet
5. М.Ҳамдамова Сборник научних статей по итогам работи, Международного научного форума том 2, «Наука и инновации - современнийе консепсии». Дата рассилки сборника – 18 октября 2019 г, Москва 2019, 46-50 ст
6. М.Ҳамдамова Методическая работа в дошколних образовательних учреждений как фактор повишения качества образования«Проблеми та перспективи розвитку сучасно науки в краинах Эвропи та азии», XX межнародна науково-практична интернет- конференция- 31 жовтня 2019, зборник наукових пратс,переяслав-хмелнитский-2019, 67-70 ст

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Hamdamova Mahzuna Tursunovna,** Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots, [**Хамдамова Махзуна Турсуновна,** декан факультета дошкольного образования доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент], [**Mahzuna T. Hamdamova**, Dean of the Faculty of Preschool Education, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shaxar Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27- uy [адрес: Узбекистан, город Ташкент Чиланзарский район улица Бунедкор дом 27], [address: Uzbekistan, Tashkent city Chilanzar district Bunyodkor street 27]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TALABALARDA SOG‘LOM DINIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

©N.A. Atakulova[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: din va diniy dunyoqarash ijtimoiy, siyosiy, pedagogik, psixologik hodisa bo’lib, din va dunyoqarash masalasi ham psixologlar tomonidan bir qadar chuqur o‘rganilgan Insonning dinga bo‘lgan munosabati uning diniy dunyoqarashida o‘z ifodasini topadi. Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan qarashlar tizimi. Shuningdek bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq.

MAQSAD: Sharq alllomalari vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlarini aniqlash hamda talabalarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: qiyosiy tahlil, pedagogik-sotsiologik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma), pedagogik tajriba-sinov kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: mutafakkir ajdodlarimiz pedagogik ta’limotlarining nazariy asoslarini sog‘lom diniy dunyoqarash: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal modeli tashkil etganligi uchun ham, mazkur ta’limot insonni barkamollik sari yetaklashga xizmat qilmoqda. Mutafakkir ajdodlarimizning pedagogik ta’limoti jahon madaniyatida shakllangan va ta’lim-tarbiyada o‘zini oqlagan falsafiy-axloqiy konsepsiyalar, modellarni o‘zida mujassamlashtirgani uchun ham dunyo tamadduniga poydevor qo‘ygan birinchi hamda ikkinchi Renessansni barpo etgan mutafakkirlarinng yetishib chiqishiga xizmat qila olgan.

XULOSA: tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, Sharq allomalari pedagogik ta’limotlarida insonning sog’lom diniy dunyoqarashinirivojlantirsh orqali uning aqliy kamolotini ta’minlash g‘oyasi ustuvor o‘rin egallagan.

Kalit so'zlar: din, ma'naviyat, ma'rifat, diniy dunyoqarash, jismoniy aqliy, ruhiy, mustahkamlik.

Iqtibosuchun:
AtakulovaN.A.Talabalardasog‘lomdiniydunyoqarashnirivojlantirishtiziminitakomillashtirish.// Inter education & global study. 2024. №6. B.48–54.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ЗДОРОВОГО РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

©Н.А. Атакулова[1]✉
[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: религия и религиозное мировоззрение-это социальное, политическое, педагогическое, психологическое явление, и вопрос религии и мировоззрения также несколько глубоко изучен психологами отношение человека к религии находит свое выражение в его религиозном мировоззрении. Мировоззрение-система взглядов на мир и место человека в нем, на отношение людей к окружающей действительности и самому себе. Также на этих взглядах основаны убеждения, идеалы, принципы познания и деятельности людей. Мировоззрение связано с возрастом, жизненным опытом, знаниями, идеологией человека.

ЦЕЛЬ: выявление теоретических основ, педагогических условий, механизмов формирования у будущих учителей здорового религиозного мировоззрения при помощи восточных ученых и разработка научно-методических рекомендаций, направленных на формирование у учащихся здорового религиозного мировоззрения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы такие методы исследования и анализа, как сравнительный анализ, педагогико-социологические (наблюдение, беседа, анкета, анкета), педагогический эксперимент-тестирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: поскольку теоретические основы педагогического учения наших предков-мыслителей сформированы здоровым религиозным мировоззрением: благородной мыслью, благородным словом, благородной практикой, это учение служит для руководства человека к совершенству. Педагогическое учение наших предков-мыслителей сформировалось в мировой культуре и благодаря воплощению философско-нравственных концепций, моделей, оправдавших себя в образовании и воспитании, сумело послужить воспитанию мыслителей, заложивших основы мирового питания как первого, так и второго Возрождения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: наш анализ показал, что в педагогических учениях восточных ученых приоритетным является идея обеспечения психического созревания человека путем развития здорового религиозного мировоззрения.

Ключевые слова: религия, духовность, просвещение, религиозное мировоззрение, физическое умственное, духовное, стойкость.

Для цитирования: Атакулова Н.А. Совершенствование системы формирования у учащихся здорового религиозного мировоззрения.// Inter education & global study.2024. №6. С. 48–54.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

IMPROVING THE SYSTEM OF FORMING A HEALTHY RELIGIOUS WORLDVIEW AMONG STUDENTS

©Nargizaxon A. Atakulova[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: religion and religious worldview is a social, political, pedagogical, psychological phenomenon, and the issue of religion and worldview has also been somewhat deeply studied by psychologists. A person's attitude to religion finds expression in his religious worldview. Worldview is a system of views on the world and a person's place in it, on people's attitude to the surrounding reality and to oneself. Beliefs, ideals, principles of human cognition and activity are also based on these views. The worldview is related to age, life experience, knowledge, and ideology of a person.

AIM: to identify the theoretical foundations, pedagogical conditions, and mechanisms for the formation of a healthy religious worldview in future teachers with the help of Oriental scientists and to develop scientific and methodological recommendations aimed at forming a healthy religious worldview in students.

MATERIALS AND METHODS: such research and analysis methods as comparative analysis, pedagogical and sociological (observation, conversation, questionnaire, questionnaire), pedagogical experiment-testing were used.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS: since the theoretical foundations of the pedagogical teaching of our ancestral thinkers are formed by a healthy religious worldview: noble thought, noble word, noble practice, this teaching serves to guide a person to perfection. The pedagogical teaching of our ancestral thinkers was formed in world culture and, thanks to the embodiment of philosophical and moral concepts, models that justified themselves in education and upbringing, managed to serve the education of thinkers who laid the foundations of world nutrition for both the first and second Renaissance.

CONCLUSION: our analysis has shown that in the pedagogical teachings of Eastern scientists, the idea of ensuring mental maturation of a person through the development of a healthy religious worldview is a priority.

Key words: religion, spirituality, enlightenment, religious worldview, physical mental, spiritual, perseverance.

For citation: Nargizaxon A. Atakulova. (2024) ‘Improving the system of forming a healthy religious worldview among students’, Inter education & global study, (6), pp. 48–54. (In Uzbek).

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida millatning ilg‘or vakillari tomonidan yaratilgan pedagogik ta’limotlarni o‘rganish, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, uning shaxs ma’naviyatini boyitishdagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda ta’lim oluvchilarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ma’naviy-axloqiy, intellektual rivojlantirishda ushbu merosdan tizimli tarzda foydalanish sohasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda Sharq allomalari tomonidan yaratilgan pedagogik ta’limotlarning yoshlarda negbinlik, faol fuqarolik, daxldorlik kabi sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati pedagogik jihatdan asoslanmoqda. Talaba-yoshlarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirish orqali ularda jamiyat a’zolariga nisbatan hayrihoxlik, tolerantlik hamda ijobiy nuqtai nazarni shakllantirish va shu asosda shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, ijtimoiy osoyishtalikni ta’minlashda Sharq allomalari tomonidan yaratilglan pedagogik vositalar, usullar, metodlar va texnologiyalardan tizimli tarzda foydalanish zaruriyati kuchaymoqda.

Respublikadagi Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonlarida Sharq allomalarining pedagogik merosidan foydalanish, mazkur merosning shaxs sog‘lom diniy dunyoqarashini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitldarini aniqlash, negbinlik falsafasi bilan aloqador jihatlarini nazariy jihatdan asoslash hamda allomalarning pedagogik merosidan tizimli tarzda foydalanish usullari, metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish taqozo qilinmoqda.

Din haqidagi aniq tasavvurlar diniy bilimlar va tushunchalarni puxta o‘zlashtirish negizida vujudga keladi. “Islom ensiklopediyasi”da din tushunchasi quyidagicha ta’riflangan: Din (arab. – mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qilish va b.) – Xudo yoki xudolar, g‘ayritabiiy kuchlar borligiga ishonish. Arab tilida din so‘zi keng ma’noda ishlatiladi. Qur’onda din so‘zi turli ma’nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatilgan bo‘lib, o‘sha ma’nolarning hammasi ayni vaqtdagi din atamasida ham o‘z aksini topgan.[1]

Insonning dinga bo‘lgan munosabati uning diniy dunyoqarashida o‘z ifodasini topadi. Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan qarashlar tizimi. Shuningdek bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axlohqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan.[2]

Diniy dunyoqarash shaxsning o‘zi va atrofdagilarning ichki olami, kechinmalari, e’tiqodlarining mazmun mohiyatini anglashga ko‘maklashadi. shunga ko‘ra diniy dunyoqarash did bilan bog‘liq xodisalar va voqealarning shaxs ongida aks etirishini anglatadi. Har bir shaxsning dinga bo‘lgan individual munosabati diniy dunyoqarashni asosini tashkil etadi.

Din va diniy dunyoqarash ijtimoiy, siyosiy, pedagogik, psixologik hodisa hisoblanadi. Din va dunyoqarash masalasi ham psixologlar tmonidan bir qadar chuqur

[1]Ислом. Энциклопедия: А-Ҳ / ШайхАбдулазизМансуртаҳриостида–Т.: Ўзбекистонмиллийэнциклопедияси, 2017. – Б 135.
[2]Фалсафа: энциклопедик луғат. –Т.: Ўзбекистонмиллийэнциклопедияси, 2010. – Б. 100.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

o‘rganilgan. Psixologlar dinning vujudga kelishini insonning o‘zi bilan bog‘lab, uning ichki borlig‘i va hissiy irodaviy jihatlari, kechinmalari bilan aloqador ruhiy hodisa sifatida talqin etadilar.

Din psixologiyasi Z.Freyd (1856-1939) tomonidan bir qadar chuqur o‘rganilgan. U din inson faoliyatining mahsuli ekanligini psixologik jihatdan asoslashga harakat qilgan. Freyd dinning insonlar tabiatga qaramligi tufayli vujudga kelganligini ta’kidlab, bunda bilishning irrotsional mexanizmlari yetakchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatgan. Uning ta’biricha inson ruhiyati ongsizlik, ong oldi va onglilik darajalarining o‘zaro aloqadorligi natijasida hosil bo‘ladi. O‘z navbatida ongsizlik darajasi inson psixikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixikaning ushbu darajasida tabiiy instinktlar va asosiy mayillar ustuvor o‘rin egallaydi.Muallif ongsizlik bilan bog‘liq mayillar jamiyat hayoti uchun xavfliligini ko‘rsatgan. O‘z navbatida Islom dini insonni toqatlilikka undab ongsizlik tufayli vujudga keladigan mayillarni tiyishda o‘ziga xos mexanizm vazifasini o‘tagan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Biroq ijtimoiy jamiyatda insonlar milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy me’yorlarga amal qilib kelmoqdalar. Bunday qonun-qoidalar va axloqiy me’yorlarni talaba-yoshlar ongiga singdirish orqali ularda sog‘lom diniy qarashni tark Ajdodlarimiz ongida sog‘lom diniy dunyoqarashini vujudga kelishi bevosita tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq. Tasavvufni pedagogik nuqtai nazarda tahlil va talqin qilish bir qadar murakkab hisoblanadi. Bu haqida taniqli tasavvufshunos N.Komilov quyidagi fikrlarni yozgan edi: “Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan o‘ziga xos ta’limotdir” Chunki tasavvufda pedagogik ta’limotlar, g‘oyalar, yondashuvlarga ustuvor o‘rin ajratilgan.ib toptirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin

Tasavvuf ta’limotida ilgari surilgan sog‘lom diniy dunyoqarash Sharq xalqlari ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham o‘zida sog‘lom diniy dunyoqarash asoslarini mujassamlashtirgan tasavvuf ta’limoti adabiyotshunoslar, jamiyatshunoslar, madaniyatshunoslar, psixologlar, faylasuflar bilan bir qatorda pedagoglarning ham e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Tasavvuf ta’limotida ifodalangan dunyoqarash Sharq xalqlarining madaniyati va ma’naviyat haqida talaba-yoshlarda to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Sog‘lom diniy dunyoqarash tasavvuf ta’limoti namoyondalarining ilmiy hamda badiiy asarlarida keng targ‘ib qilingan.

Tasavvuf namoyondalarining asarlari yordamida ajdodlarimizga xos bo‘lgan turmush tarzi, ularning ma’anaviyati va madaniyatini o‘rganish va qadriyatlarni qabul qilish imkoniyati mavjud

Mutafakkir ajdodlarimiz sog‘lom diniy dunyoqarashga tayangan holda birinchi hamda ikkinchi Renessans davrida (IX-XV asrlar)shaxs ma’naviyatini rivojlantirish sohasida ulkan ishlarni amalga oshirganlar. Buning natijasida ma’naviy-axloqiy, falsafiy-pedagogik ta’limotlar rivojlangan. Sog‘lom diniy dunyoqarash namoyondalari o‘z faoliyatlarida diniy hamda dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar. Shuning uchun ham ular tomonidan ilgari surilgan barcha g‘oyalar, pedagogik ta’limotlar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

inson aql idroki va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Tasavvuf ta’limoti diniy, falsafiy, pedagogik ta’limotlarni o‘zida mujassamlashtirgan ta’limot sifatida bugungi kunda ham ta’lim tizimida talaba shaxsini har tomolama rivojlantirish imkoniyatiga ega. Tasavvuf ta’limoti namoyondalaridan bizga ulkan falsafiy pedagogik meros yetib kelgan. XII-XIV asrlarda yashab faoliyat ko‘rsatgan mutafakkirlar tomonidan yaratilgan falsafiy-pedagogik, axloqiy-estetik yondashuvlar shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki unda insonparvarlik tarbiyasiga ustuvor o‘rin ajratilgan. Abu Rayxon Beruniy tasavvufni donishmandilk sifatida ta’riflaydi. U sog‘lom islomiy dunyoqarashda shakllangan mistik oqimning mazmun mohiyatiga taalluqli.

Sog‘lom diniy dunyoqarashning asosini komil inson g‘oyasi tashkil etadi. Komil inson deganda barcha dunyoviy hamda diniy bilimlarni o‘zlashtirgan, ma’naviy jihatdan yuksalgan, qalbi pok, siyrati bilan surati o‘zaro mutanosib, ezgulikka moyil inson tushuniladi. Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy o‘zining asarlarida o‘zi ham qalbi pok kishilar haqida quyidagi fikrlarni aytgan:

“Foniyvasheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,
Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi”[3]

Komil inson atamasida insoniyat orzu qilgan barcha ma’naviy xislatlar mujassamlashadi. Shoirlar uni muqaddas xilqat sifatida ta’riflaganlar. Jamiyatning osoyishtaligi yuksak ma’naviyatli insonlarga bog‘liqligini mutafakkir ajdodlarimiz o‘z asarlarida qayta-qayta e’tirof etganlar.

Ma’lumki birinchi, ikkinchi Renessans (XI–XIV-asrlar) davrida hozirgi O‘rta Osiyo hududida tasavvuf ta’limoti negizida bir qator tariqatlar vujudga kelgan Yassaviya, Kubraviya, Xojagon kabi tariqatlar shular jumlasidandir. Ushbu tariqatlarni birlashtirib turgan asosiy g‘oya komil insonni tarbiyalash g‘oyasidir. Komil insonni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan mutafakkirlar sirasiga al-Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiyni, Beruniy, Kaykovus, Ahmad Yassaviy, Abu Homid G‘azzoliy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Jaloliddin Rumiy, Xo‘ja Axror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniyning, Xusayin Voiz Koshifiy, Muhammad Zahiriddin Boburlarni ham ko‘rsatish mumkin. Mutafakkirlar ta’limoti vositasida talabalarning pozitiv dunuyoqarashini shakllantirishda muayyan texnologiyalarda foydalanish talab qilinadi. Bunda texnologiyalar talabalarning kasbiy ijodiy rivojlanishlariga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bunday didaktik birliklar ajdodlarimizning pedagogik faoliyatida ustuvor o‘rin egallagan bo‘lib shaxs taraqqiyotini ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir. Talabalarda sog’lom diniy dunyoqarashshakllantirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini tanlashda tarixiy-madaniy merosga tayanish birinchi darajali ahamiyatga ega. Mutafakkir ajdodlarimiz ta’limotini o‘z ichiga olgan o‘quv materiallari tizimlashtirgan holda talabalarning ijtimoiy tajribasiga singdirishga alohida e’tibor qaratish orqali ularni faollashtirish nazarda tutiladi. Bunday o‘quv materiallari tarkibiga

[3]Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик Ўн бешинчи том. – Т.: Фан, 1999. – 224 б. 114-бет

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

mutafakkir ajdodlarmiz tomonidan yaratilgan didaktik asarlar, pandnomalar va badiiy adabiyot namunalarini kiritish mumkin.

Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan samarali qo‘llanilgan ijodiy faoliyat ko‘rsatish motivlarni rivojlantirishga xizmat qilgandagina texnologiyalar talabalarning poztiv dunyoqarashlarini boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar talabalarning ma’naviy intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘z imkoniyatlarini aniq baholash, dunyoqarashini muntazam yagngi bilimlar hisobiga boyitib borish bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida pedagoglar qulay didaktik vositalar, usullar va metodlarni izlab topishga harakat qilganlar. Bugungi kunda, ayniqsa, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun talabalarda sog‘lom diniy dunyoqarashshakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun talabalarni hayotiy qarashlari, nuqtai nazarlari bilan ijtimoiy xulq-atvorlari o‘zaro muvofiq kelishiga erishish nihoyatda zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Diniymutaassiblik: moxiyat, maksadlarvaoldiniolshpyullari / A. Xasanov, O. Yusupov, K, Shyermuhamedov. U. G'afurov, J. Karimov.- T.: «Movaraunnahr», 2013, - 160 b. 12-b.
2. Safarova R.G. Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta'lim oluvchilarni intellektual ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish manbai // Pedagogika.-T.: 2022 yil 5-son. - B. 14-18
3. Safarova R.G. O'quvchilardamadaniydunyoqarashnishakllantirishparametrlari// FarDU. ILMIY XABARLAR. 2021 yil 2-son. B.120-123.
4. Atakulova N.A. Talabalardadiniydunyoqarashnishakllantirishkasbiy
5. ijtimoiyyetuklikkaundashomilisifatida// Science and innovation. International Scientific journal volume 1 issue 8.
6. Atakulova N.A. Tools for enriching students’ religious outlook// Science and innovation//
7. International Scientific journal volume 2 issue 7 julu 2023. UIF-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Atakulova Nargizaxon Alijonovna,** Andijon davlat universiteti 3-bosqich doktoranti; [**Атакулова Наргизахан Алижановна**, докторант 3-го этапа Андижанского государственного университета,]; [**Nargizaxon A. Atakulova**, PhD student of the 3rd stage of Andijan State University] manzil: O‘zbekiston, Andijon sh., Kamolot ko'chasi, 10-uy [адрес: Узбекистан, ул. Камолот, 10, г. Андижан], [address: Uzbekistan, 10, Kamolot st., Andijan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SHARQ ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

© M.M. Ishanova[1]✉

[1]Andijon davlat chet tillar instituti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotida Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy-pedagogik, madaniy-ma’naviy merosni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish keng miqiyosda rivojlanib bormoqda. Sharq mutafakkirlarining barcha xalqlarga daxldor bo‘lgan pedagogik qarashlari mavjud bo‘lib, mazkur qarashlar umuminsoniyatning mulkiga aylangan.

MAQSAD: talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanish metodikasini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, tarixiy-qiyosiy tahlil, analitik obzor, o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, dalillarni qiyoslash, sotsiometriya, pedagogik eksperiment tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanishning aksiologik, akmeologik yondashuvga asoslangan o‘z-o‘zini namoyon etish, ehtiyojmandlik, hissiy-emotsional aloqalarni o‘rnatish istagi, hamkorlik qilish, o‘zaro tenglik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, tarixiy tajribalardan foydalanish pedagogik fenomen ekanligi aniqlashtirilgan.

XULOSA: talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta’minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalarning turmush tarzi, oilasi va ularning manfaatlarini qo‘llash bo‘yicha tashqi munosabatlariga umidvorlik bag‘ishlaydi.

Kalit so'zlar: talaba, oila, ta’lim-tarbiya, Sharq mutafakkirlari, qadriyatlar, aksiologiya, akmeologiya.

Iqtibos uchun: Ishanova M.M. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda sharq allomalari merosidan foydalanish yo‘llari. // Inter education & global study. 2024. №6. B.55-60.

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

© М.М. Ишанова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

[1]Андижанский государственный институт иностранных языков, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в развитии мировой науки и культуры в широком масштабе развивается интерес к изучению научно-педагогического, культурно-духовного наследия, созданного мыслителями востока. Существуют педагогические взгляды восточных мыслителей, затрагивающие все народы, и эти взгляды стали достоянием всего человечества.

ЦЕЛЬ: состоит в разработке рекомендаций по совершенствованию и внедрению в практику методики использования наследия восточных ученых в подготовке студентов к семейной жизни.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: теоретические взгляды, методы исследования и подходы, применяемые в процессе исследования, объясняются тем, что они заимствованы из официальных источников, организованы историко-сравнительный анализ, аналитический обзор, исследование, анализ, обобщение, наблюдение, сопоставление фактов, социометрия, педагогический эксперимент.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что использование наследия восточных ученых в подготовке учащихся к семейной жизни-это педагогическое явление, основанное на аксиологическом, акмеологическом подходе к самовыражению, потребности, стремлению к установлению эмоционально-эмоциональных связей, сотрудничеству, взаимному равноправию, поддержке друг друга, использованию исторического опыта.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подготовка учащихся к семейной жизни является важной социально-педагогической необходимостью и наряду с повышением качества и результативности учебно-воспитательного процесса приобретает важное значение в преодолении возникающих в отдельных случаях конфликтных ситуаций. В то же время это дает надежду на внешнее отношение студентов к образу жизни, семье и применению своих интересов.

Ключевые слова: студент, семья, образование, восточные мыслители, ценности, аксиология, акмеология.

Для цитирования: Ишанова М.М. Способы использования наследия восточных ученых в подготовке студентов к семейной жизни. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 55-60.

WAYS TO USE THE HERITAGE OF ORIENTAL SCHOLARS IN PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE

© Muxayyoxon M. Ishanova[1]✉
[1]Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

INTRODUCTION: in the development of world science and culture, interest in the study of scientific, pedagogical, cultural and spiritual heritage created by thinkers of the East is developing on a large scale. There are pedagogical views of Eastern thinkers that affect all peoples, and these views have become the property of all mankind.

AIM: to develop recommendations for improving and putting into practice the methodology of using the heritage of Oriental scientists in preparing students for family life.

MATERIALS AND METHODS: theoretical views, research methods and approaches used in the research process are explained by the fact that they are borrowed from official sources, historical and comparative analysis, analytical review, research, analysis, generalization, observation, comparison of facts, sociometry, pedagogical experiment are organized.

DISCUSSION AND RESULTS: it has been established that the use of the heritage of Oriental scientists in preparing students for family life is a pedagogical phenomenon based on an axiological, acmeological approach to self-expression, need, desire to establish emotional and emotional connections, cooperation, mutual equality, support for each other, and the use of historical experience.

CONCLUSION: preparing students for family life is an important socio-pedagogical necessity and, along with improving the quality and effectiveness of the educational process, it becomes important in overcoming conflict situations that arise in some cases. At the same time, it gives hope for the external attitude of students towards lifestyle, family and the application of their interests.

Key words: student, family, education, Eastern thinkers, values, axiology, acmeology.:

For citation: Muxayyoxon M. Ishanova. (2024) 'Ways to use the heritage of oriental scholars in preparing students for family life, Inter education & global study, (6), pp. 55-60. (In Uzbek).

Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirish, uning mazmunini konseptual yondashuvlar bilan boyitish, tarixiy-madaniy modellar va konsepsiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish orqali talabalar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni shaxslararo ijtimoiy-madaniy munosabatlarga tayyorlash har qashongidan dolzarblik kasb etmoqda.

Jamiyatda demokratik ijtimoiy davlat siyosatini yuritishni ta'minlashda sifatli ta'limi uchun muhim bo'lgan masalalardan biri talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosini hal qilishda asosiy omillardan biri hisoblanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, yoshlarda oilaviy hayotga tayyorlik ko'nikmalarini tarkib toptirishda Sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish asosiy tamoyillardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Zero, ushbu faoliyatni bevosita oliy ta'lim jarayonida samarali tashkil etish iqtidorli va faol yoshlarni tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o'rganish va tahlil qilishda: ularning ilmiy-ma'naviy me'rosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnoma va asarlariga asoslanamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o'rganish o'qituvchilarning faqatgina pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birga, ularning pedagogik mahoratlarini akmeologik darajaga olib chiqishga yordam beradi. Shuningdek, o'tmishning ta'lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini, ularning sharqona ta'lim-tarbiya va odob-axloq haqidagi qarashlarini o'rganadi, bu esa, ularni ijtimoiy hayotga moslashgan holda samarali kasbiy faoliyat yuritishlarida yordam beradi va bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida sharq mutafakkirlari va xorij tajribasining integratsiyalashuvi shaxslararo munosabatga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy singari allomalar asarlarida farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar, ota-onaning hurmati, ularga munosabat, oiladagi shaxslararo munosabatlarning jamiyat taraqqqiyotidagi ahamiyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Jumladan, Mahmud az-Zamahshariyning axloqiy qarashlari va axloqqa doir fikrlari uning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoiz va-l- xutab" ("Va'z va xutbalarda oltin shodalar")asarida turli xil hikoyalar va ramzlar shaklida ifoda etiladi. Mahmud az-Zamahshariy o'zining axloqiy qarashlarida o'z zamonasining turli tabaqa kishilari va kasb-hunar egalarining jamiyatda tutgan mavqei va axloq-odobi to'g'risida fikr yuritar ekan, mutafakkir shaxsning qandayligidan, kimligidan (xoh shoh bo'lsin, xoh gado) qat'iy nazar, avvalo u xushxulq va odamiylik ziynatiga ega bo'lmog'i kerakligi to'g'risida gapiradi va "Go'zal sifat va xushxulqlik siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas" - deydi. Mutafakkir botiniy (qalb) go'zallik - asosiy,belgilovchi, ilohiy narsadir, zohiriy (tashqi, yuzaki) go'zallik esa ikkinchi darajali hosila narsadir, deya ta'kidlaydi.[1]

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda ijtimoiy kompetentlik, oilada muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari Sh.Abdullayeva, A.R.Adizov, U.Aleuovlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlarining oilaviy hayotga tayyorlashga oid pedagogik merosi turli kontekstda tahlil qilingan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalarining asarlaridan foydalanishning ilmiy ahamiyatini I.N.Andreyeva, Z.I.Vasileva, V.G.Trosyanlar ochib berishga oid tadqiqotlar o'tkazganlar.

Xorijiy olimlar K.A.Dridger, I.G.Pestalotssi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalarining pedagogik ta'limotlaridan ta'lim jarayonida foydalanishga oid tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadaki, bugungi globollashuv va ma'naviy tahdidlar oshayotgan davrda talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanish metodikasini takomillashtirish muammosiga o'zgacha zarurat majud.

[1] Laziz To'rayev. Alloma Mahmud Zamaxshariy axloqiy qarashlarining o'ziga xos jihatlari" Sharq Mash'ali jurnal T.:2020 y.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: talabalarning ijtimoiy ehtiyojni qondirish, tarixiy-madaniy merosni saqlash va o‘zlashtirish, ilmiy-amaliy asoslarni mustahkamlash, kompetentli kadrlar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, allomalar merosini zamon talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayoniga joriy etish, talabalarni oilaviy-ma’naviy qadriyatlar bilan qurollantirish, ularda oilaviy hayot kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarbligini o‘zida namoyon etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida oilaviy hayotga tayyorlik ko‘nikmalining tarkib topganligi ijtimoiy hamjihatlikni, individual o‘sishni rag‘batlantirish va jamiyat rivojini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ajdodlarimizning asarlarini o‘rganar ekanmiz, ularning pedagogik ta’limotlarida ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talab va tamoyillar bugungi kunda ham ta’lim sifatini oshirish uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qilishining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Abu Nasr Forobiy: O‘qitish – shaxsning ijtimoiy muammolarni hal qilishda, uni har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirish undagi axloqiy me’yorlarni, ijobiy va olijanob xususiyatlar va fazilatlarni tarbiyalashga, uning intellektual rivojlanishini belgilaydigan ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlashini, o‘qituvchida fenomenal xotira, mantiq, o‘tkir kuzatuvchanlik, bilimga muhabbat, yorqin nutq, adolat kabi xususiyatlar bo‘lishini ta’kidlaydi; Abu Ali ibn Sino: Shaxsning individual imkoniyatlardan foydalanish, uning mukammallikka intilishi, hayotiy tamoyillarga: nafaqat o‘zingiz uchun, balki boshqalar uchun ham yashash; o‘z ishingizga ijodiy yondashish; yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish zarurligini, o‘qituvchi esaga qo‘yiladigan talablar: bolaning tabiatini, uning ruhini, individualligini bilish, uni inson sifatida ko‘rish, imkoniyatlariga ishonish va ularni ochib berish; o‘quvchi bilan munosabatlardagi mo‘tadillik, noziklik va o‘tkirlik; gumanizm va to‘laqonli shaxsni tarbiyalashga bo‘lgan ishonch bo‘lib, tarbiyaning asosiy predmeti – axloqlilik hisoblanadi. Ta’lim va tarbiyada suhbat, nasihat, misol, tahlil, sintez, umumlashtirish kabi metodlar va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi; Sa’diy Sheroziy: Shaxslararo munosabatlarning tarbiya jarayonidagi muhim ahamiyatini e’tirof etib, bilimlarni shakllantirishda shaxsning faol ishtiroki; qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar sifatida tabiiy moyilliklarni hisobga olish; bilimlarning tizimliligi va mavjudligi, ularni amalda qo‘llash, bilimlarni hayot bilan bog‘lash; aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish; mehnat tarbiyasining yetakchi roli kabi tamoyillarga asoslangan.

Mazkur fikrlarga asoslanib, Sharq allomalari merosi asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash strategiyasi, yurtimizda oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda Sharq mutafakkirlarining boy merosidan foydalanish asosiy tamoyillardan biri deb belgilangan.

Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning maqsadi: talabalarda oilaviy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish; ularni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

nikoh, oila va farzand tarbiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish; oilaviy hayotga tayyorlash, axloqiy-ma’naviy kamolotga erishishga yordam berishdan iborat.

Sharq allomalari merosidan foydalanib talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bu – milliy qadriyatlarga asoslangan insonning shaxsiy va akademik kamolotini ta’minlashda nostandart ta’lim yondashuvlarining mazmunini belgilovchi tamoyillar, qonuniyatlar, o‘qitish usullari va mezonlarini o‘zida mujassamlashtirgan ta’lim-tarbiya berish boshqaruvini bosqichma-bosqich to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish san’atidir[2].

Talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashda ajdodlarimiz o‘gitlari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qiymatga ega. Talaba-yoshlar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qadriyatlaridan bahra olishlari lozim. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida ularning ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alibek Rustamov. Mahmud Zamaxshariy Toshkent 1971y 32b
2. Mahkam Mahmud, Nazarbek Rahim Oltin shodalar Toshkent 2010 y 86b
3. Olim Jo‘rayev, Abduhalim Muhiddinov Mahmud Zamaxshariy Toshkent 2014y. 32b
4. Ishanova M.M. Talaba-yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari // Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
5. Ishanova M.M. Diyorimiz allomalarining ta’lim va tarbiya borasidagi qarashlari // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 01 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich
6. Ishanova M.M. Mechanisms of using islamic values in the development of students’ spiritual culture // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 7 july 2023. UIF -2022: 8.2 | issn: 2181-3337 Scientists.uz
7. Ishanova M.M. Islom dini manbalari-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun muhim tarbiya vositasidir // Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2023yil, №4

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉Ishanova Muxayyoxon Muxtarovna, Andijon davlat chet tillari instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi. manzil: O‘zbekiston, Andijon sh., Ergash Ashurov ko'chasi, 8-uy [адрес: Узбекистан ул. Эргаш Ашуров, 8, город. Андижан], [address: Uzbekistan, 8, Ergash Ashurov st., Andijan city]

[2] Mualliflik yondashuvi.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

ONA TILI TA'LIMIDA MATN USTIDA ISHLASHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

© D.Q.Rahimboyeva[1]✉
[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ona tili ta'limida matn ustida ishlashning nazariy va metodologik asoslari hamda matn ustida ishlash jarayonida didaktik tamoyillarning ahamiyati, ular asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar borasida tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: ona tili ta'limida matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Abu Nasr Forobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati haqidagi g'oyalardan, metodist olim G'.Hamroyevning darsiklar tuzilishi haqidagi fikrlaridan, T.Ziyodovaning umumta'lim maktablarida ona tili darslarida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishidan, M.Rixsiyevaning matn tuzishga o'rgatishga bag'ishlangan tadqiqot ishidan hamda D.Toshxo'jayeva, H.Ne'matov, A.G'ulomovlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

MUHOKAMAVA NATIJALAR: matn yaratish matn ustida ishlash jarayoni bilan uyg'unlikda olib borilishi zarur. Har bir yaratilgan matnning takomiliga yetishi matn ustida olib boriladigan grammatik va tahririy ishlarga bog'liq bo'lib, bu leksik (so'z tanlash, so'zlarning o'zaro aloqador uyadoshlari, sinonimlari va uslubiy bo'yoqdor variantlarini topish, turg'un so'z birikmalari va iboralardan o'rinli foydalanish), grammatik (so'z va gaplarni, matn qismlarini bog'lovchi vositalarni to'g'ri qo'llash, sintaktik sinonimik vositalardan o'rinli foydalanish), matnda qo'llangan tinish belgilarini to'g'ri qo'llash matnning mazmuniy va grammatik mukammaligini ta'minlaydi.

XULOSA: matn yaratishga yo'naltiruvchi lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga keng joriy etish o'quvchining so'z boyligini oshirish, egallagan bilimlarini qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil ijodiy fikrlash, o'z fikrini ifodalash jarayonida so'zlarni tanlab ishlatish kabi ehtiyojlarni yuzaga keltirishga yordam beradi. Shunga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirib va rivojlantirib borish esa o'quvchi nutqiy mahoratining oshib borishiga va ijodiy tafakkur ko'lamining kengayishiga, asta-sekin matn yaratish ko'nikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Kalit so‘zlar: matn, til tuzilmasi, monologik nutq, leksik, grammatik, sintaktik, sinonimik.

Iqtibos uchun: Rahimboyeva D.Q. Ona tili ta’limida matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari. // Inter education & global study. 2024. №6. B. 61–74.

РАБОТА НАД ТЕКСТОМ В РОДНОМ ЯЗЫКЕ ОБРАЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ

© Д.К. Рахимбоева[1]✉
[1]Бухарский государственный унивеситет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье даны рекомендации относительно теоретико-методических основ работы над текстом в родном обучении, значения дидактических принципов в процессе работы над текстом, а также сформулированные на их основе научные выводы.

ЦЕЛЬ: дать научно обоснованные практические рекомендации по дидактическим принципам работы над текстом при обучении на родном языке.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: интервью, анкетирование, наблюдение, методы в процессе исследования, а также значение лексикологии, грамматики и логики в правильной речи Абу Насра Фараби, составлении правильных логических выводов, составлении осмысленной и красивой речи из идей Абу Насра Фараби. Ученый-методист Г. Хамроев о структуре учебников, из научно-исследовательской работы Т. Зиёдовой, посвященной формированию навыков самостоятельного создания текста у учащихся на уроках родного языка в общеобразовательных школах, из учения М. Рихсиевой по составлению текста, посвященное Использовались научно-исследовательские работы, а также идеи и исследования, выдвинутые Д. Тошходжаевой, Х. Нематовым, А. Гуломовым.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: создание текста должно осуществляться в гармонии с процессом работы над текстом. Совершенство каждого созданного текста зависит от грамматической и редакторской работы, проводимой над текстом: лексической (подбор слов, нахождение взаимосвязанных вложенных слов, синонимов и стилистических вариантов слов, устойчивое уместное употребление словосочетаний и выражений), грамматической (правильное употребление слов и предложений, средства связи частей текста, уместное использование синтаксических синонимических средств), используемые в тексте знаки препинания, правильное применение обеспечивает содержательное и грамматическое совершенство текста.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: широкое внедрение в обучение на родном языке системы лингвопсихологических учебных задач, направленных на создание текста, увеличивает словарный запас обучающегося, дает возможность самостоятельного творческого мышления, основанного на сравнении, анализе и синтезе полученных

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

знаний, а также в процессе выражения свое мнение помогает формировать такие потребности, как избирательное использование вещей. Постоянное формирование и развитие направленных на это навыков и квалификации будет служить повышению речевых навыков студента и расширению сферы творческого мышления, постепенно автоматизируя навыки создания текста.

Ключевые слова: текст, языковая структура, монологическая речь, лексическая, грамматическая, синтаксическая, синонимия.

Для цитирования: Рахимбоева Д.К. Работа над текстом в родном языке образования дидактические принципы. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 61–74.

WORK ON THE TEXT IN MOTHER TONGUE EDUCATION DIDACTIC PRINCIPLES

© Dilnoza K. Rakhimboyeva[1]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

INTRODUCTION: the article provides recommendations regarding the theoretical and methodological foundations of working on the text in mother tongue education, the importance of didactic principles in the process of working on the text, and the scientific conclusions developed on their basis.

AIM: to provide scientifically based practical recommendations on the didactic principles of working on the text in mother tongue education.

MATERIALS AND METHODS: interview, questionnaire, observation, methods in the research process, as well as the importance of lexicology, grammar and logic in Abu Nasr Farabi's correct speaking, making correct logical conclusions, making a meaningful and beautiful speech from the ideas of the Methodist scientist G. Hamroyev about the structure of textbooks, from the research work of T. Ziyodova dedicated to the formation of independent text creation skills in students in the mother tongue classes in secondary schools, from M. Rikhsiyeva's teaching to compose a text the dedicated research work and the ideas and research works put forward by D. Toshkhojayeva, H. Nematov, A. Gulomov were used.

DISCUSSION AND RESULTS: text creation must be carried out in harmony with the process of working on the text. The perfection of each created text depends on the grammatical and editorial work carried out on the text, which is lexical (choosing words, finding interrelated nested words, synonyms and stylistic variants of words, stable appropriate use of phrases and expressions), grammar (correct use of words and sentences, connecting means of text parts, appropriate use of syntactic synonymous means), punctuation marks used in the text correct application ensures the content and grammatical perfection of the text.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

CONCLUSION: the widespread introduction of the system of linguistic and psychological educational tasks aimed at creating a text into mother tongue education increases the student's vocabulary, enables independent creative thinking based on the comparison, analysis and synthesis of acquired knowledge, and in the process of expressing one's opinion. helps to create needs such as selective use of things. The continuous formation and development of the skills and qualifications aimed at this will serve to increase the student's speaking skills and expand the scope of creative thinking, gradually automatizing the skills of text creation.

Key words: text, language structure, monologic speech, lexical, grammatical, syntactic, synonymy

For citation: Dilnoza K. Rakhimboyeva. (2024) 'Work on the text in mother tongue education didactic principles', Inter education & global study, (6), pp. 61–74. (In Uzbek).

Insonning muayyan zamon va makondagi ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining asosiy vositasi muomala-muloqot bo'lsa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma'naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning asosiy vositasi matndir. Ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash, ya'ni matn yaratish uchun matn ustida ishlash malakasini egallash, matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlarini farqlash va ularni o'zaro bog'lovchi grammatik vositalarni qo'llay olish ko'nikma-malakalarini egallashni taqozo etadi. Buning uchun ona tili darslarida o'quvchilarni matn turlari va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish, matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy ma'lumotlar berish, matn mazmunini to'ldirish, kengaytirish, matnni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o'zgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash yo'nalishlarida ish olib borish, ya'ni o'quvchilarni nafaqat matn yaratishga, balki matnni tahlil qilish va tahrir qilishga o'rgatish ham kerak bo'ladi.

Til tuzilmasiga oid jihatlarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilish, til bo'limlarini o'rganishni matn tahlili va matn yaratish bilan o'zaro uyg'unlikda olib borilsagina ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo'yilishiga bog'liqdir.

Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda grammatik bilimlar haqida turlicha qarashlarga ega bo'lish oqibatida grammatika masalasida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar kelib chiqmoqda. Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati haqida shunday degan edi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya – narsalar) va aksidensiyalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlardir" deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir; u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi [1, 35].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ma’lumki, dastlab grammatika so‘zi “o‘qish va yozishni o‘rganish” ma’nosida qo‘llangan. Keyinchalik keng ma’noda tilning struktural tuzilishi, til faniga oid nazariy qoidalari majmuyi, tor ma’noda esa morfologiya va sintaksis sathlari sifatida tushunilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fani mashg‘ulotlarida uzoq yillar davomida aynan grammatikaning morfologiya va sintaksis sathlari (morfologiya va so‘z yasash, sintaksis va punktuatsiya) 5-sinfdan boshlab 4 yil davomida o‘qitib kelindi [2, 66]. Biroq, ta’kidlash kerakki, ushbu sathlarda berilgan nazariy ma’lumotlar nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmadi. Metodist olim G‘.Hamroyev fikricha, aksincha, darsliklar tarkibidagi ko‘p yillardan beri e’tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o‘qitib kelinayotgan fonetika, to‘g‘ri yozish, imlo qoidalari (orfografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug‘at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuasiya) kabi mavzular o‘quvchining so‘z boyligini oshirishga, ularda imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘proq xizmat qilgan bo‘lar edi [2, 68].

Matn ustida ishlash o‘quvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining o‘zaro o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini ajrata olish, matnning tarkibiy qismlari – kirish, asosiy qism, xulosa haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, matn uslubidan kelib chiqib til birliklarini tanlab ishlata olish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek tilini o‘qitishga oid metodik tadqiqot ishlarida matn ustida ishlash, bog‘lanishli nutq tuzish ko‘nikma-malaklarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari yuzasidan metodist olimlarning turli qarashlari bayon etilgan. Jumladan, metodist olima T.Ziyodovaning umumta’lim maktablarida ona tili darslarida o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishida matn yaratishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, mati yaratishning 4 bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni ona tili ta’limi amaliyotiga joriy etish masalasi [3, 46], Z.Salishevaning tadqiqot ishida esa oliy ta’limda talabalarning bog‘lanishli monologik nutqini o‘stirish masalasi tadqiq etilganini qayd etib o‘tish mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida o‘quvchilar va talabalarni matn va uning tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), murakkab sintaktik butunliklarni o‘zaro bog‘lovchi, uslubiy ravonlikni taminlovchi grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, egallangan nazariy bilimlarni o‘quv amaliyotiga tatbiq etish orqali ularda bog‘lanishli matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish va muntazam ravishda takomillashtirib borish haqida fikr yuritiladi [4, 49].

M.Rixsiyevaning matn tuzishga o‘rgatishga bag‘ishlangan tadqiqot ishida, asosan, o‘quvchilarning yozma nutq malakalariga, o‘zbek tilida bog‘lanishli matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, u metodik tavsiyalarida “o‘zbek tili dasturlarida leksik va grammatik toifalarning vazifasi asosan bir yoqlama tahlil qilinganligi, ularni matn tuzishdagi roli nuqtayi nazaridan o‘rganish muammosi deyarli e’tibordan chetda qolganligi, shu bois matn va uning tuzilishi, matnning ma’no va grammatik xususiyatlarini o‘rgatish yo‘llarini ishlab chiqish, matnni tashkil qiluvchi mustaqil gaplar orasidagi munosabat turlariga oid nazariy masalalarni hal qilish, gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalar va ularni o‘rganish izchilligini belgilash zarur”ligini o‘rinli qayd etib o‘tgan [6, 56].

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

D.Toshxo‘jayeva esa “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari” mavzusidagi tadqiqot ishida matn mazmunini qayta hikoya qilishga tayyorlashda o‘zbek tili o‘qituvchilari nimalarga e’tibor qaratishlari kerakligiga alohida to‘xtalib, “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon etish talabada ma’lum darajada gap tuzish malakalari aniqlangan paytdan belgilanadi. Lekin buning uchun muayyan poydevor yaratilgan bo‘lishi zarur. Poydevor qancha vaqt oralig‘ida paydo bo‘lishi lug‘at ishi hamda gap tuzishga o‘rgatish samaradorligiga, bu ishlarning nechog‘li to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq” ekanligini, amaldagi darsliklarda matn mazmuni yuzasidan o‘tkaziladigan savol-javoblar aksariyat hollarda darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantirish, tayyor javoblarni o‘qib berish asosida olib borish kabi samarasi kam ish usullardan foydalanilishini ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, “talaba-o‘quvchi xilma-xil matnlarni o‘qib, tasvir, rivoya, muhokama jarayoni”, “monologik nutqning qurilishidagi kompozitsion xususiyatlari” bilan tanishishi, “matnning qanday boshlanayotgani va qanday tugayotganini ko‘rish jarayoni”da “uning turli xil uzunlikdagi (gap, matn), turli shakldagi (monolog, dialog) va hokazolar bayonini idrok etishlari” zarur. Ushbu jarayon o‘quvchi/talabada “bayonning mantiqiy qurilishi haqida tushuncha hosil qiladi” va matn tuzish jarayonida “og‘zaki bayon tuzishda olgan bilimlaridan foydalanadi” [7, 54].

H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa-buyum, voqea-hodisa tasviri kabilardan iborat bo‘lgan ijodiy yozma ishlarni matn tushunchasi bilan bog‘lagan holda, o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni muayyan ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar [8, 44]. Bizningcha, ular orasidan quyidagilarni muhim deb ajratish mumkin: yozma ishga mavzu tanlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea-hodisa) haqida turli mavzuda matn yaratish; yozma ish mazmunini mavzu nomlanishi bilan uyg‘unligini ta’minlash; mavzuni yoritish uchun zarur material: bilimlar, kuzatishlar asosida mushohadalar, qiyoslash va o‘xshatishlari, hukm va xulosalarni to‘plash; yozma ishning rejasini tuzish (u tor yoki keng reja bo‘lishi mumkin); mavzuni yoritishda mazmun izchilligiga e’tibor qaratish va xat boshidan yozishga e’tibor qaratish; matn uslubi, jumlalar qurilishi, imlo va tinish belilarining qo‘yilishi ustida ishlash va ishni oqqa ko‘chirish va h.k.

Mazkur metodik qo‘llanma ma’lum bir muddat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi ona tili o‘qituvchilari uchun asosiy dastur vazifasini bajardi. Ammo T.Ziyodova fikricha, mazkur tavsiyalarda matn yaratish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, o‘quvchining matn yaratish uchun mustaqil ravishda leksik va sintaktik manbalar asosida jumlalar hosil qilish ko‘nikmalarini muayyan tizim asosida shakllantirish ko‘zda tutilmagan [8].

Matn yaratishga yo‘naltiruvchi lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari tizimini ona tili ta’limiga keng joriy etish o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, egallagan bilimlarini qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil ijodiy fikrlash, o‘z fikrini ifodalash jarayonida so‘zlarni tanlab ishlatish kabi ehtiyojlarni yuzaga keltirishga yordam beradi. Shunga yo‘naltirilgan ko‘nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirib va rivojlantirib borish esa

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

o‘quvchi nutqiy mahoratining oshib borishiga va ijodiy tafakkur ko‘lamining kengayishiga, asta-sekin matn yaratish ko‘nikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Matn ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lib, maktab ta’limining birinchi va asosiy vazifasi, avvalo, bolalarni o‘z ona tilida ravon, mantiqan izchil gapirishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar o‘z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so‘zlay olsalar, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chiroyli va sermazmun ifodalay oladilar. Ona tili orqali o‘quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar, milliy g‘urur shakllanadi.

Ma’lumki, mustaqil yaratiladigan har bir matn o‘quvchilar ijodiy tafakkurining mahsuli hamdir. Shu bois tadqiqot ishlarida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o‘stirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgani ham qayd etish mumkin [9, 28].

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish, chet tillarini o‘qitish sohalarida ham muammoli holatda ekanligini qayd etib o‘tish mumkin. Jumladan, X.Muxitdinova o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish bo‘yicha olib borgan doktorlik tadqiqot ishida til ta’limida o‘quv topshiriqlari va mashqlarga alohida to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edi: “Hozirgi kunda o‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, ularda beriladigan o‘quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o‘zbek tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta’lim mashg‘ulotlariga moslashtirib qo‘llash yo‘llarini topish o‘zbek tili ta’limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir” [9, 18].

Ingliz tili grammatikasini o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot ishi olib borgan H.Mustafoeva chet tillari ta’limida mashqlarning til va nutq mashqlari turlariga bo‘linishi bo‘yicha B.A.Lapidusning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Uning (B.A.Lapidusning) fikricha, nutq mashqlari bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko‘nikmasi taraqqiyotini ta’minlash uchun xizmat “qiladi”. .... Uning (B.A.Lapidusning) fikricha, nutq mashqlari bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko‘nikmasi taraqqiyotini ta’minlash uchun xizmat qiladi” [10].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yillar davomida metodika sohasiga jiddiy e’tibor berilmadi, hatto ayrim tadqiqot ishlaridagi ilmiy asoslangan xulosalar amaliyotga tatbiq etilmay qolib ketdi. Jumladan, X.Muxitdinova 2011-yildayoq o‘zbek tili ta’limida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan doktorlik ishida til ta’limidagi turli yondashuvlarni tahlil qiladi, jahon til o‘qitish metodikasida tillar ona tili, davlat tili va ikkinchi til sifatida farqlanishi, nutqqa oid mavzular hamda grammatik ma’lumotlarning berilishida mashq va topshiriqlarning uzviyligi xususida asosli fikrlar bildirib o‘tgan. Qayd etish kerakki, ushbu fikrlar hali ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Grammatik ma’lumotlarni chegaralamaslik, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini qo‘ymaslik oqibatida me’yoridan ortiq nazariy ma’lumotlar maktab darsliklariga kirib qoldi. Natijada bitiruvchi yoki birinchi kurs talabasidan jumlani grammatik tahlil qilib berish so‘ralsa, u tibbiyot yo‘nalishida bo‘ladimi, moliya yo‘nalishida bo‘lishidan qat’i nazar so‘z va gaplarni yaxshi tahlil qilib bera oladi, ammo unga gapni murakkab ega, ot-kesim,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to‘ldiruvchiga ajratishdan o‘z kasbi doirasida biror amaliy foyda bo‘lmaydi. Ortiqcha grammatizm ona tili ta’limini hayotdan uzoqlashtiradi. Aslida unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo‘ladigan kasbiy muloqot madaniyati o‘rgatilishi kerak. Buning uchun maktab ta’limidagi o‘quvchilar adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta’sirli nutq uchun yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lishlari kerak [10, 69].

G‘.Hamroyev fikricha esa, hozir respublika miqyosida amalda bo‘lgan maktab darsliklaridagi mashqlar va o‘quv topshiriqlarining funksiyalarini aniqlashtirish kerak, ularning aksariyati DTSda belgilangan talablarga mos kelmaydi. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan “Matndan unlilarni topib tavsiflang” kabilarni o‘quv topshiriqlari darajasida baholab bo‘lmaydi, sababki, ular o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qila oladigan yetarli ko‘nikma, malakalarni hosil qilishi qiyin [11, 48].

Tadqiqotchilarning tahlillari darsliklarda asosan tayyor matn ustida ishlashga e’tibor qaratilayotgani, tayanch so‘zlar va nutqiy qurilmalar vositasida o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘z fikrini turli vaziyatlarda mustaqil ifodalash, nutqida sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar kam berilganini, o‘quvchilarni so‘zlardan – so‘z birikmalari – so‘z birikmalaridan – gaplar – gaplardan bog‘lanishli matn yaratishga olib chiqadigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligini, demak, o‘quvchilarni bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish ko‘nikma-malakalari shakllantirish talab darajasida emasligini ko‘rsatmoqda.

Tayyor berilgan matnlar ustida ishlashda, odatda, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi mustaqil amaliy ishlarni bajarish, mavzuga bog‘liq bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, shuningdek, matnning turi, qaysi uslubga xosligini aniqlash, matn qurilishi, tarkibi, tashkil etuvchi qismlariga bog‘liq holda matndagi gaplarni sodda yoyiq va yig‘iq gaplarga ajratish, gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlash, gap bo‘laklari orasidagi grammatik va sintaktik bog‘lanishlarni, qo‘shma gaplarni sodda uyushiq gaplarga aylantirish, matnda tinish belgilarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash ko‘nikmalari ustida ish olib boriladi. Amaldagi darsliklarda asosan quyidagi topshiriqlarni ko‘plab uchratish mumkin: nuqtalar o‘rniga qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chirish; matnni o‘qish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlash; nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozish; matnni o‘qish va berilgan topshiriqlarni bajarish; savollarga javob yozib chiqish va shu asosda kichik hikoya tuzish; rasm asosida kichik hikoya tuzish; berilgan tayanch so‘zlardan foydalanib matn tuzish; maqollarni o‘qish va ma’nosini aytib berish; berilgan matn mazmuni asosida hikoya tuzish; matn mazmunini o‘z taassurotlari asosida qayta so‘zlash kabi.

Ko‘rinadiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning turi ko‘p bo‘lsa-da, ularda muayyan tizim mavjud emas, topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab, terma gaplardan bog‘lanishli nutqqa, so‘ng monologik nutqqa qarab o‘stirib borish tamoyili qo‘llanmagan. Ushbu mashq va topshiriqlar orasida bevosita bog‘lanishli monologik nutqqa olib chiqishga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

yo‘naltirib tizimlashtirilmagan. Bog‘lanishli matn tuzish yo‘llari ko‘rsatilmagan holda o‘quvchining o‘zidan bog‘lanishli matn tuzish so‘ralganini ko‘rish mumkin.

Mashqlarning muayyan ketma-ketlik asosida tizimli ravishda berilishi o‘quvchining bilim va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga va o‘quvchini nutqqa olib chiqishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda I.A.Zimnyaya tomonidan bildirilgan fikr alohida e’tiborga sazovor bo‘lib, uning ta’kidlashicha, tilga o‘rgatishda ilk bosqichning asosiy vazifasi avvaldan tayyorlangan mashqlar vositasida o‘quvchiga lisoniy bilim berishni tashkil qilish bo‘lsa, keyingi bosqichda shunday ta’lim sharoitini yaratish lozimki, bunda o‘quvchi o‘rgatuvchidan kommunikativ topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimni “tortib” olish imkoniyatiga ega bo‘lsin [11, 53].

T.Ziyodova tavsiya etgan MYBT - matn yaratish texnologiyasi e’tiborga sazovor bo‘lib, u matn yaratishning to‘rt modulga bo‘lingan quyidagi bosqichli tizimini tavsiya etadi [9, 33]:

1-bosqich – tayanch so‘zlarni tanlash (tovushdosh, ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli, shakldosh, iboralar, tasviriy ifodalarni tanlash);

2-bosqich – so‘z birikmalarini hosil qilish (so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qilish);

3-bosqich – gap tuzish (tuzilgan so‘z birikmalaridan sodda yoyiq, uyushiq va ajratilgan bo‘lakli, kirish so‘z va kirish gapli, sodda va qo‘shma gaplar, she’r qatorlar tuzish);

4-bosqich – matn yaratish (tuzilgan gaplardan foydalanib monologik va dialogik matnlar yaratish).

Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlari masalasida tadqiqot ishi olib borgan G‘.Hamroyev []esa o‘quvchilarda matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishda asosiy diqqat-e’tiborni: matnda qo‘yilgan tinish belgilarning qo‘llanilish sabablarini izohlang; matnni mazmunga putur etkizmay qisqartiring; hikmatni matnga aylantiring; turli mavzudagi maqol va hikmatlarni bir umumiy mazmunga birlashtiring; tarjimayi hol matnini tavsifnomaga aylantiring; berilgan mavzuni 10 ta jumla bilan so‘zlar takrorisiz, bexato va yorqin ifoda qiling; so‘zlarni ularning ma’nodosh muqobillari bilan almashtiring; gaplarning shakli va mazmunini o‘zgartiring; matnni kengaytiring yoki ixchamlang; matnga qo‘shimcha ma’lumotlar kiriting; matnga kirish so‘zlar kiriting; ilmiy matnni badiiy matnga yoki aksincha aylantiring; matnni xulosalang kabi topshiriqlarga qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar tayyor berilgan matnlar va yaratilajak matnlar ustida olib boriladigan ishlarni o‘z ichiga oladi. Darsliklarda berilgan yoki o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan tayyor matnlar ustida ishlashda quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin: matn turini aniqlang; matnga sarlavha toping; matnning kirish (xulosa, asosiy qismi)ni ajrating; matndagi abzaslarlarning o‘rinliligini kuzating; matndan ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zni ma’nosini izohli lug‘atdan topib izohlang; matnni tarkibiy qismlarga ajrating va har bir qism tuzilmasini tahlil qiling; matndagi asosiy fikrni ifodalagan gapni ajrating; matndagi ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajarating; matnning xulosa qismi qanday ifodalanganini izohlan kabi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

O‘quvchilar tomonidan yaratilgan matnlar ustida ishlashda esa quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin: matnda yo‘l qo‘yilgan imloviy va uslubiy xatolarni toping va bartaraf qiling; matnda tinish belgilarning qo‘yilishidagi xatolarni toping va ularni bartaraf qiling; matnda yo‘l qo‘yilgan mantiqiy xatolar, noo‘rin ishlatilgan so‘zlarni aniqlang; matnni qo‘shimcha ma’lumotlar qo‘shib kengaytiring; matndan ortiqcha ma’lumotlarni chiqarib, matnni ixchamlashtiring; matnga kiritilgan o‘zgarishlarni maqsadli ekanini isbotlang; matn mazmuniga mos hikmatli so‘zlar, maqollar, iboralarni matn tarkibiga kiriting va h.z.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni amaliy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘quvchilar ona tili ta’limida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini uyg‘unlashtirgan holda amaliyotda tatbiq etishi lozim bo‘ladi. Chunki har qanday matn ham grammatik bilimlarni, ham so‘z va so‘z birikmalari, iboralarni tushunib qo‘llash, gaplarni to‘g‘ri tuzish va uzviylikda bog‘lash yuzasidan bilim va ko‘nikmalarni bilishlikni taqozo etadi. Ayni vaqtda matn ustida ishlash o‘quvchidan matn va uning turlari, matn qismlari, ularning farqli jihatlari, matn tarkibi, matn qismlarini bog‘lovchi vositalar, matnning uslubi va lisoniy vositalari yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlikni ham talab qiladi. Xususan, 8-9-sinfdan boshlash o‘quvchilar matn tarkibiy qismlarini farqlashi, matn qismlarini ajrata olishi va matn janri, tili va uslubini farqlashi kerak bo‘ladi. Buning uchun matn ustida ishlashni 5-sinfdan boshlash, avval tayyor matnlar bilan tinishtirish va kichik matnlar tuzdirish orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini asta-sekin shakllantirib borish kerak bo‘ladi.

Matn yaratish ustida ish olib borish esa quyidagi 3 bosqichdan qamrab olishi maqsadga muvofiq: 1) matn oldi topshiriqlari; 2) matnning xomaki variantini tayyorlash; 3) matnni tugallash.

1. Matn oldi topshiriqlari matn tuzishga tayyorlanish jarayoniga qaratilgan mashqlardan boshlanadi. Bunda quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalanish kerak bo‘ladi: matnni boshlashga mos keluvchi jumlani shakllantirish; tayanch so‘z va so‘z birikmalarini aniqlash; gaplarni bog‘lanishli izchillikda joylashtirish; jumlalarni bog‘lashda qo‘llanadigan grammatik vositalarni (qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, kirish so‘zlar) aniqlashtirish; notanish so‘zlar ma’nosini lug‘at asosida aniqlashtirish; nutq vaziyatiga mos kirish so‘zlarni tanlash; matnni xulosalashda qo‘llanadigan jumlalar, kirish so‘zlarni tanlash.

2. Matnning xomaki variantini tayyorlash mashqlari esa quyidagi mazmundagi topshiriqlarni qamrab olishi ko‘zda tutiladi: matnni tarkiblash: asosiy va qo‘shimcha axborotlarni joylashtirish; matnning kirish, boshlovchi qismi uchun jumlalarni tanlash; matndagi yakunlovchi jumlani o‘zgartirish; matnga munosabat bildiruvchi va xulosalovchi jumlalar qo‘yish; matndagi ortiqcha jumlalarni aniqlash; sarlavha asosida matn tuzish; mavzu mazmuniga mos kichik matn tuzish; matnga reja tuzish; fikrni davom ettirish.

3. Matnni tugallash jarayonida quyidagi turdagi topshiriqlarni berilishini rejalashtirish kerak: tuzilgan matnning asosiy mazmunini so‘zlab berish; mavzuni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan kengaytirib gapirish; matnni (mavzuni) ixchamlashtirib so‘zlab berish;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

matn mazmunini jumlalar tartibini o‘zgartirib so‘zlash; matnni shaxsni o‘zgartirib (1-, 2-, 3-shaxs nomidan) hikoya qilish.

Bu kabi tizimlashtirilgan topshiriqlar o’quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini turli vaziyatlarda amalda qo‘llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda ularning bog‘lanishli monologik nutqini rivojlantiribgina qolmay, mustaqil fikrlash faoliyatlarini ham o‘stiradi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning egallangan bilimlar, ko‘nikma va malakalarning amaliy tatbiqi asosida mustaqil matn yaratish ona tili darslarida o‘tilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn ustida ishlash va uni tahrir qilish orqali esa matnning mantiqiy-mazmuniy va uslubiy shakllanganlik darajasi aniqlanadi, matndagi imloviy va uslubiy nuqsonlar bartaraf etish jarayonida o‘quvchilarda matn yaratish mahorati rivojlantirib boriladi.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning ta’limiy-didaktik faoliyatini samarali tashkil qilishni aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo‘naltirish uchun darsni puxta rejalashtirishi, o‘quvchiga ijodiy ishlash muhitini yaratib beradigan topshiriqlar tizimi namunalarini ishlab chiqishi kerak. Har bir ta’lim oluvchiga individual yondashish, uni erkin mustaqil ijodkorlikka unda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, o‘quvchiga taqdim qilinayotgan bilimlarini tushunish va ulardan amaliy foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktab o‘quvchilarida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, o‘quv topshiriqlari qo‘llaniladigan asosiy manba darslik va qo‘llanmalar bo‘lib, har bir darslik o‘quv jarayonida o‘quvchilarning ongli va faol ishtirokini, o‘quv materialining to‘liq asosini ta’minlashi lozim.

G‘.Hamroyev doktorlik tadqiqot ishida o‘quv topshiriqlarini o‘zaro farqlash masalasi pedagogikada ham, metodikada ham bahsli mavzu ekanligini qayd etgan holda, “topshiriq jahon til o‘qitish metodikasida o‘quv maqsadiga erishishga qaratilgan o‘quv jarayonining birligi bo‘lib, uning tuzilishini belgilaydi, til va nutq maqsadlariga erishishda ma’lum darajada mashqdan farqlanishi bilan tavsiflanadi”[1], deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, mashqlardan farqli ravishda topshiriqlar darsning tashkiliy jihatlariga, o‘quv materialini tushuntirishda va pedagogik aks ettirishda to‘liq qatnashadi. Topshiriq bir vaqtning o‘zida bir nechta mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin[2].

Bugungi davr mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan insonlarni tarbiyalash vazifasini ona tili ta’limi oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Til ta’limida matn ustida ishlash topshiriqlarini bajarish jarayonida o‘quvchilar til imkoniyatlaridan foydalanishning turli usul va vositalari bilan tanishadilar, o‘zlari tuzadigan jumla uchun eng ma’qul, nutqiy vaziyatga mos, zarur so‘zni tanlaydilar, shu so‘zning lug‘aviy mano guruhlari ustida ishlash

[1] Hamraev G‘, Ko‘rsatilgan ish, - 59-b.
[2] Hamraev G‘, Ko‘rsatilgan ish, - 65-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

orqali uning boshqa so‘zlar bilan birikish imkoniyatini aniqlaydilar, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab so‘z birikmalari hosil qilish orqali esa tilda mavjud lisoniy sintaktik qoliplar haqida muayyan tasavvurga ega bo‘ladilar, yaratilajak matnning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va uni ketma-ketlikda joylashtirishga urinadilar, fikrni ixcham va ravon ifodalash malakalarini egallashga harakat qiladi. O‘quvchi mustaqil matn yaratish jarayonida o‘zi mustaqil mushohada yuritadi, o‘zi so‘z tanlaydi, tuzgan gaplarini o‘zi mustaqil tahlil qiladi, gaplarning ketma-ketligini o‘zi tartiblaydi, tuzgan matnining mazmuniy-me’yoriy shakllanganligi, uslubiy mukammalligi haqida fikr yuritadi, o‘z bilimi, tanqidiy yoki ijobiy qarashlari, intellektual qobiliyatini namoyish qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, topshiriqlardan dastlab bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda foydalaniladi, ya’ni matn ustida ishlashning birinchi bosqichida grammatik topshiriqlar sof grammatik vazifani bajaradi, ya’ni o‘zlashtirilgan bilim va egallangan ko‘nikma hamda malakalarning matn tarkibidagi gaplarda amaliy qo‘llanishiga qaratiladi. Keyingi o‘rinda esa yaxlit matn ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlar haqida so‘z boradi. Aynan shu fikrdan kelib chiqqan holda G‘.Hamroyev o‘z tadqiqot ishida topshiriqlarni quyidagi 6 turga bo‘lishni taklif etadi:

1. Bilishga doir topshiriqlar. Bu daraja o‘quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib yetish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

3. Qo‘llashga doir topshiriqlar. Bu daraja, asosan, o‘quvchida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi (bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati): tushunchalarni qo‘llash; qoidalarni qo‘llash; nazariyalarni qo‘llash va hokazo.

4. Tahlilga doir topshiriqlar. Bu daraja o‘quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo‘yicha aniqlashtiradi: unsurlar tahlili (matnni qismlarga bo‘lish, ajratish); munosabatlar tahlili (abzatslar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish); tamoyillar tahlili (birliklarni tizimlashtirish).

5. Sintezlashga doir topshiriqlar. Bu daraja “alohida qismlardan yaxlitini tuzish” ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv maqsadlarini belgilaydi: g‘oyalar sintezi (masalan, muammo yechimi bo‘yicha bildirilgan g‘oyalarning umumlashishi); mulohazalar sintezi (masalan, nutqiy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish); tuzilma sintezi (masalan, matn ko‘rinishi – chizmasi, til birliklari yordamida nutqning ifodalanishi).

6. Baholashga doir topshiriqlar. Bunday topshiriqlar muayyan maqsad uchun u yoki bu o‘quv materiallarining ahamiyatini baholash ko‘nikmalarini nazarda tutadi.

Til tuzilmasiga oid hodisalarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo‘limlarini o‘rganish matn tahlili va matn yaratish bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsagina ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq.

Bizningcha, ona tili darslarida matn yaratishga doir topshiriqlar tizimi quyidagilarni qamrab olishi maqsadga muvofiq: berilgan mavzu asosida matn yaratish; berilgan tayanch so‘zlar asosida kichik matn tuzish; berilgan fikr asosida matnni davom ettirish; boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish; matnni berilgan ma’lumot asosida matnni davom

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ettirish; matn mazmunidagi asosiy fikrni ifodalagan gapni topish; matndan ikkinchi darajali ma'lumotlarni chiqarib, matnni ixchamlashtirish; matnga xulosaviy fikrlarni qo'shing va matnni xulosalash; matn mavzusiga mos maqol, hikmatli so'zlar va iboralar vositasida matnni xulosalash; matnni bildirilgan yangi fikrlar asosida abzaslarga ajrating va abzatslarga ajratilishini asoslash; matnni tarkibiy qismlarga ajratish va har bir qismga ajratilishni asoslash; matnning kirish qismini abzats vositasida ajratish va h.z.

Ushbu topshiriqlarning har biri o'ziga xos grammatik topshiriqlar ustida ishlashni talab etadi. Ammo bu topshiriqlar matnni gaplarga ajratish, gap va jumlalarni sintaktik, so'zlarni morfologik tahlil qilishga qaratilmasligi kerak. Har bir grammatik topshiriq matn mazmunini, matn tuzilmasini, uning tarkibiy qismlarini tugal shaklga keltirishga, har bir so'z, gap, grammatik vosita o'zar uyg'un izchillikda matn yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilishiga yo'naltirilishi shart.

Ko'rinadiki, matn yaratish matn ustida ishlash jarayoni bilan uyg'unlikda olib borilishi zarur. Har bir yaratilgan matnning takomiliga yetishi matn ustida olib boriladigan grammatik va tahririy ishlarga bog'liq bo'lib, bu leksik (so'z tanlash, so'zlarning o'zaro aloqador uyadoshlari, sinonimlari va uslubiy bo'yoqdor variantlarini topish, turg'un so'z birikmalari va iboralardan o'rinli foydalanish), grammatik (so'z va gaplarni, matn qismlarini bog'lovchi vositalarni to'g'ri qo'llash, sintaktik sinonimik vositalardan o'rinli foydalanish), matnda qo'llangan tinish belgilarini to'g'ri qo'llash matnning mazmuniy va grammatik mukammaligini ta'minlaydi.

Demak, ona tili ta'limida grammatik topshiriqlar shunday tuzilishi kerakki, ular o'quvchilarga egalalagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy qo'llashga o'rgatsin. Ona tili ta'limida o'tkazilayotgan islohotlar faqatgina o'quv dasturlari mazmunigina emas, darsliklar tarkibiga kiritilgan grammatik o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyatini ham tubdan o'zgartirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991. – 15- b.
2. Abdullayev Y., Omilxonova M., Ma'rufov Z., G'ulomov A. Ona tili .6-7-sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.; 3.Asqarova M. Abdullayev Y., Omilxonova M., . O'zbek tili .7-8 sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
3. Hamroyev G'. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc) ... dis-ya. –Toshkent, 2022. – 72-b.
4. Salisheva Z.I. O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019.
5. Rixsiyeva M.M. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish: Ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1998. –146 b.
6. Toshxo'jaeva D. Matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 2000. –94-95-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

7. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi.-Toshkent, Fan. – 2008. – 46-b.
8. Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida): ped. fan. dok.… diss. – Toshkent, 2005. – 250 b.;
9. Alavutdinova N. G. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi (5-sinf misolida): ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2008. – 156 b.
10. Muxitdinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dokt…. diss. –Toshkent, 2011. -108- b.
11. Лапидус Б. А. К проблеме функциональной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1975. – С. 18–21. Qarang: Mustafoeva H. T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar talabalarga o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari: Ped. fan. nom. ... dis. – Samarqand, 2003. – 139 b.
1. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. –Москва: МГУ, 1998. –268 с. / Qarang: Кадырова Ф. Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. –Ташкент: 2006. – С. 70.
2. Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 66-b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rahimboyeva Dilnoza Qahramon qizi,** Buxoro davlat universiteti musaqil tadqiqotchisi**;** [**Рахимбоева Дилноза Кахрамон кизи,** соискатель Бухарского государственного унивеситета]**;** [**Dilnoza K. Rakhimboyeva** researcher of Bukhara State University]; manzil: O‘zbekiston, 00060, Toshkent shahri, Chilonzor tumani 19-daha; [адрес: Узбекистан, 00060, г. Ташкент, ул. Чилонзор 19], [address: Uzbekistan, Chilonzor 19, Tashkent, 00060]; E-mail: raximboyeva@gmail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQNI O‘STIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

© S.R. Ismatov[1]✉

[1]Turon Zarmed universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada nutq o‘stirish shaxs tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so‘zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon ekanligi xususida fikr bayon etilgan. O‘z mohiyatiga ko‘ra nutq o‘stirish shaxs, jumladan, o‘quvchi tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini amaliy o‘zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so‘zlash malakalariga ega bo‘lishini ta’minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, zarur o‘rinlarda kerakli choralarni ko‘rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutqni o‘stirish metodik muammo va uning echimi belgilab olindi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek qiyosiy tahlil, pedagogik-sotsiologik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma), pedagogik tajriba-sinov kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: har bir davlatning ta’lim sohasida bolalarda nutq o‘stirish tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida e’tirof etilgan. O‘zbekistonda ham uzluksiz ta’limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim davrida bolalarda nutqni o‘stirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

XULOSA: har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etishini hisobga olib, boshlang‘ich ta’lim berish davridanoq o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning bog‘lanishli nutqini talab darajasida o‘stirishga oid tizimli ishlar olib borish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish ishlarini ham ustuvor tamoyillar asosida tashkil etish zarur.

Kalit so'zlar: nutq, kommunikatsiya, og‘zaki, yozma, matn, tafakkur.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Iqtibos uchun: Ismatov S.R. Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutqni o‘stirish metodik muammo sifatida . // Inter education & global study. 2024. №6. B. 75–84.

РАБОТА НАД ТЕКСТОМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ РЕЧИ КАК МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© С.Р. Исматов[1]✉
[1]Университет Турон Зармед, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье излагается мысль о том, что речевое воспитание-это педагогический процесс, представляющий собой развитие человеком навыков беглой речи при эффективном использовании средств художественной выразительности языка посредством усвоения им норм устного и письменного художественного языка: правильного произношения, ударения, грамматики, правильного употребления слов. Речевое развитие по своей сути представляет собой педагогическое сопровождение личности, в том числе учащегося, с помощью методов, приемов, средств, обеспечивающих практическое освоение норм устного и письменного художественного языка: правильного произношения, ударения, грамматики, правил правильного употребления слов, эффективное использование средств художественной выразительности языка, овладение навыками беглой речи, правильной ориентации, необходимой это означает принятие необходимых мер на местах, а также руководство процессом.

ЦЕЛЬ: развитие речи через работу над текстом в начальных классах определялась методическая задача и ее решение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались такие методы исследования и анализа, как беседа, анкета, наблюдение, а также сравнительный анализ, педагогико-социологический (наблюдение, беседа, анкета, анкета), педагогический эксперимент-тестирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в сфере образования каждого государства развитие речи у детей признается основным структурным элементом системы. В Узбекистане важным направлением педагогического процесса определено развитие речи у детей на начальных этапах непрерывного образования – в период дошкольного и начального образования. Формирование глобальной информатизации и инновационной образовательной среды, рост социальной потребности в развитии человеческого капитала требуют всестороннего совершенствования, интеллектуального развития подрастающего поколения, использования в этом речевых возможностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: учитывая, что развитие речи учащихся приобретает особое значение в воспитании разносторонне развитых, свободомыслящих личностей, необходимо, начиная с периода начального образования, проводить

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

систематическую работу по обучению учащихся самостоятельному мышлению, воспитанию их связной речи на требуемом уровне. На уроках чтения начальных классов необходимо также организовать работу по развитию речи через работу над текстом на основе приоритетных принципов.

Ключевые слова: речь, общение, устное, письменное, текстовое, мышление

Для цитирования: Исматов С.Р. Работа над текстом в начальных классах через развитие речи как методическая проблема. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 75–84.

WORKING ON THE TEXT IN ELEMENTARY GRADES THROUGH THE DEVELOPMENT OF SPEECH AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

© Sobir R. Ismatov[1]✉
[1]Turon Zarmed University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article presents the idea that speech education is a pedagogical process that represents the development of fluent speech skills by a person with the effective use of the means of artistic expression of the language through the assimilation of the norms of oral and written artistic language: correct pronunciation, stress, grammar, correct use of words. Speech development is essentially a pedagogical support of a person, including a student, with the help of methods, techniques, and means that ensure the practical development of the norms of oral and written artistic language: correct pronunciation, stress, grammar, rules for the correct use of words, effective use of the means of artistic expression of language, mastering the skills of fluent speech, correct orientation, necessary this means taking the necessary measures on the ground, as well as leading the process.

AIM: the development of speech through work on the text in the elementary grades was determined by the methodological task and its solution.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the research, such research and analysis methods as conversation, questionnaire, observation, as well as comparative analysis, pedagogical and sociological (observation, conversation, questionnaire, questionnaire), pedagogical experiment-testing were used.

DISCUSSION AND RESULTS: in the field of education in each State, the development of speech in children is recognized as the main structural element of the system. In Uzbekistan, an important area of the pedagogical process is the development of speech in children at the initial stages of continuing education – during preschool and primary education. The formation of global informatization and an innovative educational environment, the growth of the social need for the development of human capital require

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

comprehensive improvement, intellectual development of the younger generation, and the use of speech capabilities in this.

CONCLUSION: considering that the development of students' speech is of particular importance in the education of versatile, free-thinking individuals, it is necessary, starting from the period of primary education, to carry out systematic work on teaching students independent thinking, educating their coherent speech at the required level. In primary school reading lessons, it is also necessary to organize work on speech development through work on the text based on priority principles.

Key words: speech, communication, oral, written, textual, thinking.

For citation: Sobir R. Ismatov. (2024) 'Working on the text in elementary grades through the development of speech as a methodological problem', Inter education & global study, (6), pp. 75–84. (In Uzbek).

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti eng sodda aloqalardan murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy munosabatlarga tomon o‘sib borish asosida kechgan. Agarda eng sodda aloqalar – ibtidoiy jamoa tuzumidagi urug‘ a’zolarining ko‘p holatlarda bir-birlariga oziq-ovqat manbai, yuzaga kelayotgan xavf, harakatlarni tashkil etish yo‘nalishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzatishiga asoslangan bo‘lsa, murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy munosabatlar – ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolik majburiyatlarini bajarish (masalan, soliq to‘lash) jarayonida sub’ektlarning bir-birlari bilan kundalik hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning to‘g‘ri, oqilona tashkil etilishi, birinchidan, hal qilinayotgan masalaning ijobiy yechimga ega bo‘lishini, ikkinchidan, vaqtning tejalishini, uchinchidan, samimiy muloqot jarayonining yuzaga kelishini ta’minlaydi. Mazkur jarayonda eng muhim omillardan biri nutq sanaladi.

Yosh avlodning ma’naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berib kelingan. Xususan, Unsurul-Maoliy Kaykovus o‘zining «Qobusnoma» nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: “... Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har ne so‘z desang yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o‘xsharsankim, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas. ...So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilg‘il, so‘z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so‘zniki bilsang, joyini o‘tkazmay aytkil, vaqtni zoe qilmagil, yo‘q ersa donishga sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang, rost degil va bema’nilikni da’vo qilguvchi bo‘lmag‘il” [1].

Nutq faqat fikrni ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayoni yoki uning hosilasi [2]gina emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi psixologik va biologik nuqtai nazardan isbotlangan. Shu sababli yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi.

Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko‘rsatdi. Xususan, “Pedagogik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ensiklopedik lug‘at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [3], “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [2], deya e’tirof etiladi.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo‘ladi: fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadi (u bog‘lanishli nutq deb ataladi); og‘zaki va yozma shaklda ifodalanadi; og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi; shunga qaramay, og‘zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so‘z yuritiladi); nutq muloqot chog‘ida ishtirok etuvchilarning soniga ko‘ra dialogik va monologik kabi turlarga bo‘linadi; dialog og‘zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo‘lib, ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasida kechadi; og‘zaki nutq, tabiatiga ko‘ra, ko‘proq suhbat shaklida yuzaga keladi; nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko‘ra bir qadar an’anaviylikka ega.

Nutqni rivojlantirishning didaktik talablari, unga nisbatan metodik yondashuvlar xususida so‘z yuritishdan avval “rivojlantirish” atamasi aynan qanday holatni yoritishga xizmat qilishini anglab olish navbatdagi amaliy harakat uchun yo‘nalishni to‘g‘ri belgilashga imkon beradi.

“Rivojlantirish” tushunchasi (o‘zak so‘z “rivoj”; arabcha “tarqalish”, “yoyilish”, “kengayish”) “bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o‘tish” [3] ma’nosini anglatadi. S.I.Ojegov hamda N.Yu.Shvedovalarning muallifligida tuzilgan “Rus tilining izohli lug‘ati”da mazkur tushunchaga yana kengroq ta’rif berilgan: rivojlantirish – bir holatdan ikkinchi, yanada takomillashgan holatga o‘tish jarayoni, eski sifat holatidan yangi sifat holatiga , oddiydan murakkabga, pastdan yuqorida o‘sib o‘tish [3].

M.R.Lvovning tadqiqotlarida esa bevosita “o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish” tushunchasining g‘oyaviy-nazariy tadqiqi quyidagicha bayon qilingan: o‘quvchilar nutqini rivojlantirish – nutqni: til vositalari (fonetika, leksika, grammatika, nutq madaniyati, uslublari) hamda til mexanizmlari (tushunchalarni anglash, o‘z fikrini ifodalash)ni o‘zlashtirish jarayoni [4].

Pedagogik jarayonlarda ko‘p holatlarda “nutqni rivojlantirish” deyilganda shaxs nutqini bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladigan metod va vositalar ham e’tirof qilinadi. Tadqiqot ishida “nutq o‘stirish” tushunchasini nutqni rivojlantirishning yuqorida ta’kidlangan jihatlarini hisobga olgan holda tushunmoq lozim. Biroq, ayni o‘rinda aytib o‘tish lozim, shaxs, o‘quvchilar nutqini o‘stirish (rivojlantirish) bevosita jarayon sanaladi, rivojlantiruvchi metod va vositalar jarayonning o‘zi emas, balki uning samarali, muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi omillardan biri, xolos.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Darhaqiqat, ta’limiy g‘oyalar taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san’atining eng yuksak bosqichlari – qadimgi Rim va Gresiyada yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so‘z kuchi yordamida ijtimoiy sub’ektlarga ta’sir ko‘rsatish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta’sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishiga erishilgan.

Bugungi kunda ham nutqni rivojlantirish “boshlang‘ich sinflar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifa sanaladi, binobarin, nutq har qanday aqliy faoliyatning asosi va insoniy muloqot vositasi” [5] bo‘lib, uning yordamida “ta’lim tizimi oldida turgan tilshunoslik, psixologik-pedagogik, metodik-didaktik xarakterga ega” [6] o‘qitish ishlarining sifatini yaxshilashga erishiladi.

Nutq o‘stirish “boshlang‘ich ta’lim tizimida uzviylik asosida amalga oshiriladi, bir butun o‘qish jarayoniga amaliy yo‘nalish beradi va bolalarning ongli o‘qish, uqqanlarini tushunarli qilib so‘zlab berish, savodli yozishga o‘rgatadi. Bolalarning yosh xususiyatini va saviyasini hisobga olgan holda, ona tili va adabiyotdan boshlang‘ich bilim beriladi va shular asosida ularning nutqi boyitiladi” [7].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “matn” (ar. “nutqning yozuvdagi ifodasi”) tushunchasiga “yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat” [1] deb ta’rif berilgan. “Matn” so‘zi rus va ingliz tillarida chop etilgan adabiyotlarda “tekst” (lotincha “textum” asosida shakllantirilgan “text”) shaklida qo‘llanilib, “bog‘lanish”, “birikish”, “aloqa”, “birikma” kabi ma’nolarni bildiradi [3]. Ushbu tushunchaning g‘oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasining tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyada batafsil bayon etilgan.

Ko‘rsatilgan belgilar asosida matnni mazmunan tugal va o‘quvchida xabar qilinayotgan axborotga ma’lum munosabat uyg‘otish bilan xarakterlanadigan yozma shakldagi axborot sifatida ta’riflash mumkin. Bizningcha, “matn” tushunchasining g‘oyaviy-nazariy talqini yetarlicha yoritilmagan. Ayni o‘rinda L.Losevaning matnni ifodalovchi belgilar borasidagi fikrini quyidagilar bilan to‘ldirish mumkin: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o‘ziga xos tugallikka egalik; 3) o‘quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg‘otish imkoniyatining mavjudligi; 4) kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilmaga, shuningdek, tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikka egalik; 5) muayyan sohaga taalluqli bo‘lishi; 6) aniq mavzu bo‘yicha axborot berishi; 7) o‘ziga xos bayon uslubiga egalik; 8) aniq sub’ektga yo‘naltirilganligi (masalan, o‘quvchi yoki o‘qituvchi uchun mo‘ljallanganligi); 9) aniq maqsad uchun xizmat qilishi.

Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko‘ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan gaplar yig‘indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. “Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnning sintaktik tahlili gaplar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o‘z ichiga oladi” [6]. Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan, qurilishi va ohangiga ko‘ra birlashadi va alohida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq, matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismi bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, mazkur tadqiqot ishida matn mohiyatini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish emas, balki, matn ustida ishlash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish metodikasini tadqiq qilish maqsad qilib belgilanganligi sababli masalaning ana shu jihati tahlil qilinadi. Boshlang‘ich sinfda matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtirish, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar bajariladi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o‘qish ko‘nikmasiga egalik, o‘z navbatida, o‘quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o‘z munosabatini bildira olishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi.

Ma’lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg‘ulari ham ifodalanadi. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilar ushbu jihatni ham o‘zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi [63; 88-b.]. Shunday ekan, badiiy matn ustida ishlashda nutq o‘stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

O‘qish bo‘yicha metodik qo‘llanmalarda tavsiya qilingan nutq namunalari tahlili butun tayyorgarlik ishi (suhbat va o‘qituvchi hikoyasi) uchun optimal vaqt 3 daqiqadan oshmasligini ko‘rsatadi. Suhbatda beriladigan savollarning miqdori o‘rtacha 4-5 ta bo‘lishi ijobiy samara beradi.

Tayyorgarlik ishida o‘qituvchi hikoyasi quyidagi ikki maqsadni ko‘zlaydi: 1) o‘rganish ob’ekti haqida qo‘shimcha ma’lumotlar berish; 2) o‘qish bilan bog‘liq talablarni belgilash. Matnni o‘qishga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi topshirig‘i qat’iy belgilanadi: “qarang”, “Diqqat bilan eshiting”. Bular yordamida matnni idrok etish bilan bog‘liq to‘xtam, urg‘u, o‘qish sur’ati va ohangga e’tibor qaratish yuzasidan ko‘rsatma beriladi. Bunday tayyorgarlik ishi ko‘p vaqt talab qilmaydi. O‘quvchilarni matnni idrok etishga tayyorlash uchun o‘qituvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

suhbat hajmi, maqsadi, mazmunini hamda og‘zaki beriladigan qo‘shimcha ma’lumotlarning zaruriy hajmini aniqlab olishi lozim

Suhbat va hikoyaning o‘rinli hamda maqsadga muvofiqligi, savollar miqdori, ularning mazmuni va qo‘yilish mantiqi, hikoya hajmi o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi kerak. Odatda, o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin mavzularni o‘qishda ko‘pincha suhbatga zarurat sezilmaydi. Biroq o‘qituvchining o‘quvchilarni mavzuga yo‘naltiruvchi kirish so‘zi, albatta, zarur. Busiz o‘quvchilarning asarni to‘laqonli idrok qilishlariga erishish mushkul.

Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o‘qish oldidan o‘qituvchi o‘quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o‘tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi. She’riy matnlarni o‘qishdan oldingi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirik asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o‘quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg‘urish tuyg‘usiga turtki berishdir. Bunda o‘qituvchining kirish so‘zi qisqa, maqsadga yo‘naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko‘maklashadigan bo‘lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘qituvchining kirish so‘zi matnni o‘qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri uyushtirilishiga bog‘liqdir.

Matnni o‘qish va uni tahlil qilish. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo‘lib o‘qitish mumkin. Badiiy matnni o‘qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

“Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to‘g‘ri va to‘la idrok etishdan iborat” [7]. Tahlil o‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘llashning muhim omilidir. O‘quvchilar tahlil jarayonida asarda tasvirlangan voqealarga o‘z fikrlarini bildiradilar, notanish so‘zlar ma’nosini bilib oladilar, matnning mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetadilar.

Aslida, “adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishlash orqali o‘tkaziladigan tahlildir. O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida uning poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tagzaminidagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi” [7].

O‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e’tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o‘quvchi matn mazmunini og‘zaki hikoyalashda adashmaydi. O‘quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe’l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo‘lishiga qaratish ularning nafaqat o‘qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumlalararo aloqa alohida e’tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o‘zaro aloqada bo‘lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

yozishni topshirish ularning diqqatini ma’lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Matndagi gaplar o‘rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya’ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o‘z aksini topadi. Har qanday so‘zlarni gapga birlashtirib bo‘lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog‘lanishli matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Masalan, “Bolalar dam olishga ketishdi”, “Gullar ochildi”, “Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi” kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo‘lgani bois biror bir munosabatga ko‘ra ham birlasha olmaydi. Umumlashtirish va xulosalar chiqarish. Bu kabi ish turlari matn mazmuni yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etishga, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

Matn ustida ishlash jarayonida asar voqealari yuzasidan og‘zaki tasvirlash, qiyoslab hikoyalar tuzish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari, fe’l-atvorlarini tavsiflash nutq o‘stirishning muhim vositasi sanaladi. Bu jarayonda o‘quvchilarda matnda ifodalangan jarayon, hodisa, shaxs yoki uning xatti-harakatiga nisbatan munosabat shakllanadi. Yaxshining nima uchun yaxshiligini, yomonning nima uchun yomonligini, asar qahramonlarining qilgan ishlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida matn tahlilining asosiy vazifasidir.

Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o‘quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Metodika fanida matnning ikki xil yo‘l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular:

a) so‘z bilan tasvirlash; b) grafik tasvirlash [1].

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, bunda asarda tasvirlangan voqea, qahramon yoki manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash ko‘zda tutiladi. Bunday tasvirlash o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Аминова Ф. Ҳ. Ўқувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари: Пед. фан. номз. …дис. автореф. – Т.: ЎзПФИТИ. 2007. – 22 б.
2. Аслонова О.П. Бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари: Пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – ҚарДУ. 2020. – 49 б.
3. Асқарова М., Матчонов С., Қодирова Ф., Ғуломова Х., Бойматова А., Бозорова М., Муҳамедова Д. Ўзбек тили машғулотларида нутқ ўстириш. – Т.: ТДПУ, 2000. – 58 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

4. Львов М.Р. Речь младших школьников и пути ее развития. – М.: Академия, 2007. – 429 с.
5. Бабаева Д.Р. Нутқ ўстириш методикаси (теварак-атрофни ўрганиш мисолида) – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 б.
6. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2012. – 160 б.
7. Зиядова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. номз. …дис. автореф. – Т.: ТДПИ. 1995.– 19 б.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sobir Raximqulovich Ismatov**, o'qituvchi, [**Собир Рахимкулович Исматов** преподаватель], [**Sobir R. Ismatov**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri, K. Murtazayev ko'chasi, 13 A [адрес: Республика Узбекистан,г.Бухара, ул. К. Муртазаева, 13А], [address: Uzbekistan, Bukhara, K.Murtazaev str., 13 A]; sabur-8989@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA TO‘G‘RI O‘QISH QOIDALARINI O‘RGATISH

© Z.B. Tuychiyeva[1]✉
[1]WEBSTER universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ingliz tili alfaviti hamda unli va undosh harflarining o'qilishi haqida so‘z yuritamiz. shuningdek, ingliz alifbosi til o‘rganishning asosi bo‘lib, oldinga siljish uchun uni o‘zlashtirishingiz kerak. alifboda qanday harflar borligi bilan tanishib, siz o‘qitishning keyingi bosqichiga - unli tovushlarni o‘rganishga o‘tishingiz kerak. ingliz tilida esa faqat oltita unli tovush mavjud bo‘lib, ular undoshlar bilan birlashganda so‘zlarni shakllantirishga imkon beradi. ingliz tili o‘qitishda ingliz tili alfbosida unli va undosh harflarning o‘qilish va fonetik tovushi mavzusidagi maqola

MAQSAD: tili darslarida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish qoidalarini o‘rgatish usullarini tadqiq qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: qiyosiy tahlil, pedagogik-sotsiologik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma), pedagogik tajriba-sinov kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: dunyoning qaysi bir chekkasiga bormaylik, ushbu til dunyo ya`ni jahon tili maqomini olganligi tufayli ikkinchi til sifatida o‘rganib kelinmoqda. Ingliz tili juda oddiy tildir,shuning uchun dunyodagi ko‘pchilik odamlar ingliz tilini tez o‘zlashtirib bir-birlari bilan gaplashishadi. Buning uchun ingliz tilini o‘rganishda fonetika uning poydevori hisolahadi.Buni amalga oshirish mashaqqatlar evaziga amalga oshadigan jarayonidir.Bunda til o‘rganuvchilar harf ,tovush,monftong, diftong, triftong, reduksiya, traskripsiyani qilishni va to‘g‘ri o‘qishni bilishlari kerak.

XULOSA: ingliz tilidagi alfavitni o‘rgansa, ingliz tilida o‘qishni o‘rgandi degani emas, so‘zlar yozilganidek o’qilmaydi. Ingliz tilini o‘rganishda so‘zlarni to‘g‘ri o‘qiy olmaslik tilni o‘rganishda birinchi bo‘lib halaqit beradi. Ingliz tili xonalardagi jihozlar, jadvallar, muhim fonetik qoidalar bilan boyitilgan bo‘lishi va uni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Kalit so'zlar: unli, undosh, takrorlanuvchi harflar, tovushlar, diftonglar, harflar qoidasi.

Iqtibos uchun: Tuychiyeva Z.B. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish qoidalarini o‘rgatish. // Inter education & global study. 2024. №6. B. 85-90.

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПРАВИЛАМ ПРАВИЛЬНОГО ЧТЕНИЯ НА КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

© З.Б. Туйчиева[1]✉
[1]Университет WEBSTER, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье мы поговорим об английском алфавите и произношении гласных и согласных. Кроме того, английский алфавит является основой изучения языка, и вам необходимо освоить его, чтобы прогрессировать. Ознакомившись с тем, какие буквы есть в алфавите, нужно перейти к следующему этапу обучения – изучению гласных звуков. В английском же языке только шесть гласных звуков, которые в сочетании с согласными образуют слова. Статья о произношении и фонетическом звучании гласных и согласных в английском алфавите при обучении английскому языку.

ЦЕЛЬ: он заключается в изучении способов обучения учащихся правилам правильного чтения на уроках языка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы такие методы исследования и анализа, как сравнительный анализ, педагогико-социологические (наблюдение, беседа, анкета, анкета), педагогический эксперимент-тестирование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на какой бы край света мы ни отправились, этот язык изучается как второй язык из-за того, что мир получил статус, то есть мирового языка. Английский-довольно простой язык, поэтому большинство людей в мире разговаривают друг с другом, быстро осваивая английский. Для этого фонетика считается его основой при изучении английского языка. Это процесс, который происходит за счет усилий.При этом изучающие язык должны знать ,как делать буквы,звуки, монофтонги ,дифтонги,трифтонги,редукции, транскрипции и правильно читать.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: то, что он выучил английский алфавит, не означает, что он научился читать по-английски, слова не читаются так, как они написаны. Неспособность правильно читать слова при изучении английского языка является первым препятствием при изучении языка. Английский язык должен быть обогащен оборудованием в комнатах, таблицами, важными фонетическими правилами и усвоен учащимися.

Ключевые слова: гласная, согласная, повторяющиеся буквы, звуки, дифтонги, буквенное правило.

Для цитирования: Туйчиева З.Б. Обучение студентов правилам правильного чтения на классах английского языка. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 85-90.

TEACHING STUDENTS CORRECT READING RULES IN ENGLISH CLASSES

© Zumradxon B. Tuychiyeva[1]✉
[1]Webster University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

INTRODUCTION: in this article, we will talk about the English alphabet and the pronunciation of vowels and consonants. Also, the English alphabet is the basis of language learning, and you need to master it in order to progress. Having familiarized yourself with what letters are in the alphabet, you need to move on to the next stage of learning - learning vowel sounds. English, on the other hand, has only six vowel sounds that combine with consonants to form words. An article on the pronunciation and phonetic sound of vowels and consonants in the English alphabet in English language teaching.

AIM: It consists in exploring ways to teach students the rules of correct reading in language lessons.

MATERIALS AND METHODS: such research and analysis methods as comparative analysis, pedagogical and sociological (observation, conversation, questionnaire, questionnaire), pedagogical experiment-testing were used.

DISCUSSION AND RESULTS: No matter which part of the world we go to, this language is studied as a second language due to the fact that the world has received the status of a world language. English is a fairly simple language, so most people in the world talk to each other, quickly learning English. For this, phonetics is considered to be its basis when learning English.This is a process that takes place through effort.At the same time, language learners should know how to make letters, sounds, monophthongs, diphthongs, triphthongs, reductions, transcriptions and read correctly.

CONCLUSION: the fact that he has learned the English alphabet does not mean that he has learned to read English, words do not read the way they are written. The inability to read words correctly when learning English is the first obstacle to learning a language. English should be enriched with equipment in the rooms, tables, important phonetic rules and learned by students.

Key words: vowel, consonant, repeated letters, sounds, diphthongs, letter rule.

For citation: Zumradxon B. Tuychiyeva. (2024) ‘Teaching students correct reading rules in english classes’, Inter education & global study, (6), pp. 85-90. (In Uzbek).

Zamonaviy ingliz alifbosi lotin alifbosiga asoslangan (jami 26 ta harf). 26 ta harfning har biri bir yoki bir nechta tovush bilan uzatilishi mumkin. Harfning nomi uning tovushlaridan biri sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, A harfi uzun a, ah yoki ae kabi tovushga ega bo'lishi mumkin. U so'zda turli pozitsiyalarni egallashi mumkin. Masalan, A turli pozitsiyalarda: maymun (maymun), mushuk (mushuk), zebra (zebra). Harflarning ikki turi mavjud: undoshlar va unlilar. Ularning asosiy farqi artikulyatsiyada. Undosh tovushlarni talaffuz qilishda havo oqimi til, tish yoki lablarning joylashuvi bilan uziladi yoki cheklanadi. Ularning aksariyati faqat bitta tovush bilan uzatiladi va kamdan-kam hollarda harfning o'zi nomiga o'xshaydi. Ingliz alifbosida nechta harf borligi haqidagi bilimga asoslanib, harflarning aksariyati undosh tovushlar (21 harf) degan xulosaga kelish mumkin.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ma'lumki har bir o'quvchi o'z tilini o'rganishdan tashqari boshqa tilni o'rganayotganda albatta qiyinchiliklarga duch keladi. Ayniqsa bu qiyinchiliklar ularning talaffuzlarida bo'ladi. Ingliz tilida undosh tovushlarning talaffuzi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilining undoshlarini qanday qilib to'g'ri o'qishni tushunish uchun quyidagi harflaridagi transkripsiya sizga yordam beradi. Unli tovushlarni o'qish qoidalari

1. Yumshoq unlilar: y, i, u.

2. Qattiq unlilar: a, o, u. Agar "C" harfidan keyin "E", "I" yoki "Y" harflari bo'lsa, "C" harfini "S" tovushi sifatida talaffuz qilinadi. Bu "city", "shahar" va "cyst" so'zlarida to'g'ri. Agar "C" harfidan keyin "A", "O" yoki "U" harflari bo'lsa, "C" harfini "K" tovushi sifatida talaffuz qilinadi. Bu "mumkin", "come" va "cut" so'zlarida to'g'ri. Shuningdek ayrim undosh harflar va harf birikmalarining o‘qilishi.

1. Ss - harfi yumshoq unlilardan oldin kelsa. [s] tovushini, qolgan xollarda esa, [k] tovushini beradi: cat [ket], cinema [sinema].

Gg - harfi yumshoq unli (e, i, u) lardan oldin kelsa, [j] qolgan xollarda esa, [g] tovushini beradi: good [gud), gyps [jips].

Xx - harfi so‘z oxirida, undoshlardan oldin va unlilar o'rtasi kelganda [ks] deb ukiladi.: box, text; ye harfidan oldin [g] deb ukilad example [igzempl]

Qq - harfi alohida kelmaydi, u "qu" harf birikmasida kelib, [k] deb o‘qiladi: quick [kvik]. Harflarning qat'iy tartibi alifboni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Lug'atlar va ma'lumotnomalarni tuzish printsipi alifbo tartibida qurilgan. Buyurtma qilish inglizcha harflar eslash osonroq, qo'shiq ixtiro qilindi, unda so'zlar o'rniga harflarning nomlari berilgan.

1 a harfidan so‟ng ikkita l kelsa ya‟ni a+ll bo‟lsa a harfimiz o‟ deb o‟qiladi. Masalan: ball [bo‟:l], call [ko‟:l, small [smo‟:l], all [o‟:l]

2. e harfi so‟z oxirida kelsa o‟qilmaydi. Masalan: make [meyk], cake [keyk], snake[sneyk], apple [eppl]

3. ikkita e harfi yonma-yon kelsa, cho‟ziq [i:] deb o‟qiladi. Masalan: bee [bi:], sheep [shi:p], see [si:]

4. Ikkita o harfi yonma-yon kelsa, [u] yoki [o‟] deb o‟qiladi. Masalan: book [buk], cook [kuk], good [gud] LEKIN, door [do‟:], floor [flo‟:] Harfning o'qilishi harf ochiq bo'g'inda bo'lganda tovushga to'g'ri keladi. Masalan: a - ism, odam, kichik, Amerika; e - men (yopiq bo'g'inda biz [e] tovushini olamiz - oxiri, ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirida oxiri nolga teng); i - vaqt; o yopiq bo‘g„inda “o”, ochiq bo‘g„inda [oy] sifatida o‘qiladi - yo‘q; u ochiq bo‘g„inda shunday o‘qiydi – talaba, yopiq bo‘g„inda esa ruscha “a” – avtobus kabi o‘qiladi; y - ochiq bo‘g’inda [ay] (uchib ketish), so‘z oxirida [va] (shahar), so‘z boshida [y] (ha) tarzida o‘qiladi. Unli tovushlardan keyingi r harfi tovush uzunligiga ta'sir qilishi mumkin.

Ingliz diftonglari. Diftong - bu bir so'zda uchraydigan ikkita tovushning birikmasidir. Qoidalarga ko'ra ingliz tilidan diftonglar bo‘linmas tovushlardir.

Ingliz tilida uchta unlini o'z ichiga olgan triftonglar ham mavjud, ammo bu qiyinroq daraja. Boshlash uchun yopiq va unli tovushlarni o'qish qoidalarini o'rganish tavsiya etiladi ochiq bo'g'inlar, va ularni amalda qo'llang.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Bugungi kunda o'qishning roli xorijiy tillar, shu jumladan ingliz tili. Uning bilimi nafaqat sayohatda, xorijliklar bilan suhbatda, balki sayohatda ham talab qilinadi .Bu ko'pincha kompyuter bilan ishlashda zaruriy shartdir va ko'pchilik uchun ingliz tilini bilish ularning rezyumelarida juda muhim element hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda odamlar uni har qanday yoshda va katta qiziqish bilan o'rganishni boshlaydilar. Biroq, zamonlar, artikllar va turli grammatik sxemalarning murakkab tizimiga sho'ng'ishdan oldin, ingliz alifbosini o'rganishga arziydi.

Ingliz tilida o'n beshta unli tovush mavjud bo'lib, ular a, e, i, o, u harflari bilan uzatiladi. Unli tovushlarni uzatish uchun y, w va gh harflari ham ishlatiladi. Ular qisqa unlilar va cho‘ziq unlilarga bo‘linadi. Biroq ularning nomlari qisqasi qisqa talaffuz qilinadi, uzunlari esa chiziladi degani emas. Ularning orasidagi farqlar talaffuz davomiyligida emas, balki artikulyatsiyada. "Qisqa" va "uzun" nomlari faqat ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kerak bo'lib, ular hali ham farqlarni quloqlari bilan farqlashda qiynaladilar.

Qisqa yoki uzun bo'lmagan tovushlar ham bor. Ular turli harflar, shu jumladan undoshlar birikmasi bilan uzatiladi. Masalan, w undosh harfi ayrim holatlarda unli tovushni bildirishi mumkin.

Qisqa unlilar “Qisqa unli tovush” atamasi ikki undosh orasiga yoki so‘z boshida turgan a, e, i, o, u harflari bilan berilgan tovushlarni bildirish uchun ishlatiladi:

A - / æ / (masalan, apple, pan, mat so'zlarida)

E - / ɛ / (masalan, elephant, pen, met so'zlarida)

I - / ɪ / (masalan, insect, pin, mitt)

O - / ɒ / (masalan, octopus, ostrich, on)

U - / ʌ / (masalan, umbrella, pun, mutt so'zlarida) Uzoq unlilar Uzoq tovushlar qisqa tovushlarning chizilgan versiyasi emas. Uzoq unli tovush - talaffuzi harfning alifboda o'qilishi bilan bir xil bo'lgan unli tovushlarga nisbatan qo'llaniladigan atama. Beshta ingliz unli harfi (a, e, i, o, u) tegishli uzun unli tovushlarga ega / eɪ /, / i /, / ɑɪ /, / oʊ /, / yu /.

A - / eɪ / (masalan, ate, mate so'zlarida)

E - / iː / (masalan, food, meat so'zlarida)

I - / aɪ / (masalan, mite, power so'zlarida)

O - / oʊ / (masalan, corn, mote, so'zlarida)

[1]Termiz State universiteti, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the mechanism of assessing students' knowledge in Russian language classes. The main attention is paid to modern methods and technologies used in the educational process for objective and comprehensive analysis of students' knowledge and skills. Various forms and means of supervision are described, including tests, project work, oral inquiries and written assignments. Evaluation criteria are considered as criteria that allow teachers to effectively monitor progress and identify problem areas in teaching. Emphasis is placed on the use of digital technologies and platforms to automate assessment and increase its accuracy. Teachers were given practical recommendations on optimizing the evaluation process and creating favorable conditions for the comprehensive development of students.

AIM: a teacher of the Russian language of higher education wants to improve the system of assessing students' knowledge in his group. Currently, knowledge assessment is carried out using traditional methods such as tests and independent work, oral inquiry and dictations. However, the teacher says that these methods cannot always provide an objective picture of students' knowledge and skills, and also require spending a lot of time on tests.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

MATERIALS AND METHODS: to effectively assess students' knowledge in Russian language classes, it is proposed to use a comprehensive approach that includes the following methods: Using digital platforms to create and administer tests. Platforms can automatically validate tests, ensuring objectivity and speed of assessment.

Short written tests: Traditional paper tests have a variety of questions (multiple choice, short answer, fill-in-the-blank). Students conduct research on a chosen topic and prepare reports and presentations to assess their ability to analyze data and apply their knowledge. Creative projects: writing essays, creating literary works, participating in competitions, help to reveal creative abilities and depth of understanding of the language. Questions for the whole class to quickly determine the level of mastery of the material. Individual surveys: personal interviews with students, better assessment of their knowledge and skills.

Tests: longer, more complex assignments that include text analysis, essay writing, and grammar exercises.Homework: Regular exercises and homework to help consolidate learned material. Implementation of platforms such as Google Classroom, Moodle or others to organize the educational process and conduct evaluation. Interactive Assignments: Use online resources and applications to create interactive exercises and tests. Develop clear criteria: Create detailed and clear criteria for grading each assignment type to help students and parents better understand the requirements and receive feedback.

DISCUSSION AND RESULTS: the introduction of a comprehensive mechanism for assessing students' knowledge in Russian language classes gave the following results: The use of online tests and automated checking systems eliminated the subjective factor in assessment and provided fair results. Clear grading criteria and grading tables (rubrics) helped make the process transparent and students and parents clearly understood the assignment requirements. Improved academic performance: Timely identification and elimination of gaps in students' knowledge has been facilitated by regular monitoring of progress and interim control activities.The introduction of different forms of supervision, such as project work and creative assignments, made it possible to take into account the different strengths and interests of students, which helped to increase their motivation and engagement. Development of critical thinking and independence. Project work and research tasks motivated students to independently study and analyze information, develop research and analytical skills.

Peer assessment and self-assessment helped students develop critical thinking and responsibility for their own learning.Automation of control tests and online assignments reduced the time spent on control work, which allowed the teacher to devote more time to individual work with students and preparation for lessons.The use of educational platforms helped to organize the learning process and manage assessment activities.Increased interaction and feedback: Providing students with detailed feedback on a regular basis helped them better understand their strengths, weaknesses, and ways to improve their performance.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

CONCLUSION: the introduction of a comprehensive mechanism for assessing students' knowledge in Russian language classes shows significant advantages in the educational process. The impartiality and transparency of evaluation is achieved through the use of digital technologies and clear evaluation criteria, which eliminates subjective factors and ensures fair results. Various forms of assessment, including tests, project work and oral inquiries, allow taking into account the different strengths and interests of students, motivating them and engaging them in the learning process.

Regular monitoring of success and timely identification of knowledge gaps will help improve students' academic performance. The introduction of project and creative tasks encourages the development of critical thinking, independence and research skills, which are important aspects of comprehensive development of a person.

Key words: student, education, knowledge, control, test, project work, educational process, educational activity, factor, interest.

For citation: Ishankul N. Narmuratov. (2024) ‘A mechanism for assessing students' knowledge in Russian language classes’, Inter education & global study, (6), pp. 122–132. (In Uzbek).

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jarayoniga oid huquqiy asoslar “Ta’lim to‘g‘risida”O‘zbekiston Respublikasining qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarorida, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 sonli buyrug‘ida, o‘quv jarayonini nazorati uchun uslubiy ta’minotlar B.Sh.Usmonov va R.A.Habibullaev “Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish” o‘quv qo‘llanmasida, R.Habibullaev va V.Topildiev “Kredit-modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish” o‘quv-uslubiy majmuasida, L. V.Peregudov va M.X.Saidov “Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida, S.S.G‘ulomov, H.R.Raimov, M.H.Saidov, B.H.Hodiev “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari” yo‘llanmalarga javoblarida va AQSh oliy ta’lim tizimiga kirish manbalarida tahlil etilgan.Talabalar bilimini baholash jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun professor-o‘qituvchidan mantiq ilmining analogiya, argumentlash, isbot va raddiya usullarini chuqurroq o‘rganishni taqoza qiladi.

Oliy ta’limda talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash akademik muvaffaqiyat va shaxsiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Universitet va kollejlardagi rus tili darslari samarali baholash uchun noyob qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqola ushbu ilg'or ta'lim muassasalarida baholash mexanizmlarini o'rganadi, talabalarning tilni bilish darajasini har tomonlama baholash uchun zamonaviy usullar, texnologik integratsiya va ilg'or tajribalarni yoritadi.

Talabalar bilimini baholash ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlash hamda o‘qituvchi va talabalarga fikr bildirishdir. Rus tili

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

darslarida bu jarayon talabalar rivojlanishi kerak bo'lgan turli ko'nikmalarni samarali o'lchash uchun ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqola rus tili darslarida talabalar bilimini baholashning zamonaviy mexanizmlarini o'rganadi, turli usullar, texnologiyalar va ilg'or tajribalarni yoritadi. Baholashning an'anaviy usullari quyidagicha: An'anaga ko'ra, rus tili darslarida baholash bir nechta asosiy usullarga tayanadi:

Yozma testlar va testlar: Bular talabalarning grammatika, lug'at va yozish ko'nikmalarini tushunishlarini baholash uchun qo'llaniladi. Ular muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimini o'lchashning tizimli usulini ta'minlaydi.

Og'zaki imtihonlar: Og'zaki testlar talabalarning nutq qobiliyati, talaffuzi va ravonligini baholashga yordam beradi. Bu usul tillar uchun juda zarur, chunki u bevosita kommunikativ kompetentsiyani o'lchaydi. Insholar va yozma topshiriqlar: Yozma topshiriqlari o'qituvchilarga o'quvchilarning izchil dalillarni yaratish, tegishli til tuzilmalaridan foydalanish va ijodiy qobiliyatlarini ko'rsatish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan testlar: Google Classroom, Moodle va Quizlet kabi onlayn platformalar vaqtni tejaydigan va inson xatosini kamaytiradigan avtomatlashtirilgan test yechimlarini taklif etadi. Ushbu platformalar bir zumda ko'p tanlovli, to'g'ri/noto'g'ri va qisqa javobli savollarga baho berishi mumkin. Moslashuvchan test: Ba'zi ilg'or tizimlar moslashtirilgan testlarni ta'minlaydi, bunda savollarning qiyinligi talabaning ishlashiga qarab moslashtiriladi va shaxsiylashtirilgan baholash tajribasini taklif qiladi.

Tadqiqot loyihalari: Talabalarga lingvistik yoki madaniy mavzular bo'yicha tadqiqot loyihalarini belgilash mustaqil ta'lim va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Talabalar o'z xulosalarini hisobot va taqdimotlar orqali taqdim etadilar, axborotni sintez qilish va samarali muloqot qilish qobiliyatlarini namoyish etadilar.

Ijodiy loyihalar: hikoyalar, she'rlar yozish yoki multimedia taqdimotlarini yaratish kabi vazifalar talabalarga o'zlarining til ko'nikmalarini amaliy kontekstda qo'llash bilan birga o'z ijodlarini ifodalash imkonini beradi. Interaktiv va o'yinlashtirilgan baholashlar. Ta'lim o'yinlari: Kahoot kabi platformalar! va Duolingo o'yin elementlarini baholashga birlashtiradi, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Ushbu vositalar talabalarni rag'batlantirishi va darhol fikr bildirishi mumkin.

Interfaol mashqlar: Raqamli resurslar o'quvchilarning o'rganish tezligiga moslashadigan va bir zumda tuzatishlarni ta'minlaydigan interaktiv grammatika va lug'at mashqlarini taklif qiladi. Shaffof va adolatli baholash uchun aniq mezonlar va rubrikalarni belgilash zarur. Ushbu vositalar baholashni standartlashtirishga yordam beradi va talabalar kutganlarni tushunishlarini ta'minlaydi:

Rubrikalar: Batafsil rubrikalar har bir topshiriq turi uchun kontentning aniqligi, tildan foydalanish, izchillik va ijodkorlik kabi maxsus mezonlarni belgilaydi. Ular talabalarga nima kutilayotganini tushunishga yordam beradi va ob'ektiv baho berishga imkon beradi. Baholash bo'yicha qo'llanmalar: Baholash bo'yicha qo'llanmalar topshiriqning turli komponentlari uchun maxsus ball ajratishni ta'minlaydi, bu turli talabalar va vazifalar bo'yicha izchil baholashni ta'minlaydi. Doimiy monitoring va fikr-mulohazalar: Talabalar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

taraqqiyotini muntazam nazorat qilish takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun juda muhimdir:

Shakllantiruvchi baholash: viktorinalar, jurnaldagi yozuvlar va sinf ichidagi tadbirlar kabi tez-tez, past baholar o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatishga va doimiy fikr-mulohazalarni taqdim etishga yordam beradi.

Yakuniy baholash: O‘quv fanining yakuniy testlari va yakuniy loyihalar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini uzoq vaqt davomida har tomonlama baholashni taklif qiladi. Qayta aloqa mexanizmlari: yozma va og'zaki konstruktiv fikr-mulohazalar talabalarning o'sishi uchun juda muhimdir. U kuchli tomonlarini ta'kidlashi, zaif tomonlarini aniqlashi va yaxshilash bo'yicha aniq takliflarni taqdim etishi kerak. Ko'p qirrali baholash strategiyasini amalga oshirish bir qator afzalliklarni beradi:

Ob'ektivlik: Avtomatlashtirilgan va rubrikalar asosidagi baholashlar sub'ektiv qarama-qarshilikni kamaytiradi, adolatli baholashni ta'minlaydi.

Samaradorlik: Raqamli vositalar baholash jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchilarga o'qitish va individual talabalarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish uchun vaqtni bo'shatadi.

Ishtirok etish: Baholashning turli usullari, jumladan, interfaol va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarni rag‘batlantiradi va o‘rganishda faol ishtirok etadi. Yaxlit rivojlanish: Loyihaga asoslangan va ijodiy topshiriqlar tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va bilimlarni qo'llashni rag'batlantiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Kredit-modul tizimi — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: • talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; • talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: — o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; — bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; — talabalar bilimini reyting bali asosida baholash; — talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish; — ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish; — ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi. Kredit-modul tizimning oliy ta’limga joriy qilinishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o‘qib, o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi.

Kredit-modul tizimi avvalambor mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal o‘lchov birligini olib kiradi. Bu o‘lchov birligi orqali biz talabalarning bilim darajasi, malaka ko‘nikmalari, mustaqil ishlash qobiliyatlarini o‘lchaymiz. Bu tizimda talabalarni baholashda o‘quv yuklamasi auditoriya soatlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z ichiga oladi. Bu o‘lchovlarni adolatli amalga oshirish, talabalar bilimini shaffof baholash

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

kredit-modul tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning auditoriya soatlarini baholash 3 bosqichda amalga oshiriladi, ya'ni joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlar orqali. Bugungi kunda oliy ta'lim kredit-modul tizimida talabalarning bilim va ko'nikmalarini oqilona, xolis nazorat qilish, qisqa vaqtda katta sondagi talabalarning bilimini baholash dolzarb hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida talabalarning bilim va ko'nikmalarini ko'p bosqichli nazorat qilishning turli tizimlaridan foydalanish joriy oraliq va yakuniy nazoratning turli xil o'zaro bog'liq vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishni talab qiladi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish printsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi; talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar; modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar; o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat. Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Bu o'z navbatida oliy ta'limda taxsil olayotgan yosh kadrlardan o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish bilan birgalikda o'zlari egallayotgan sohalari bo'yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, zarur paytda mustaqil fikr yurita oladigan raqobatbardosh kadrlar bo'lishlarini talab qilmoqda. Ta'lim jarayonida talabaning mustaqil ta'lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'lim masalasini qo'yilishi, yechish, o'z–o'zini nazorat qilish va baholashning yo'llarini talaba tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'limda o'quv jarayoni mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'limda dars jarayoni ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallashga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'ysundirilmog'i lozim. Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ta’lim materiallari, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning faoliyati tashkil etadi. Bunda o‘qituvchi va talaba muloqoti asosiy rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim olishning asosiy vositasi - bu mustaqil ta’lim materiallaridir. Ular uzviy bog‘langan tizim bo‘lib, darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va ma’ruza matnlaridan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko‘rsatmalar, ta’lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o‘qish mezonlari, uning o‘z-o‘zini mustaqil o‘qishga yo‘naltirib borishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, o‘z-o‘zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o‘z - o‘zini baholay olishi uchun psixologik - pedagogik tavsiyalar mavjud bo‘ladi. Mustaqil ta’lim materiallari o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari, kompyuter dasturlari, audio va videomateriallar, mavjud an’anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbalari ko‘rinishida bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5847-son Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi 824-son qarori.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma.–Toshkent, TKTI 2020.
4. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. -Toshkent, 2001.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Narmuratov Ishankul Narmuratovich**, dotsent, [**Нармуратов Ишанкул Нармуратович,** доцент], [**Ishankul N. Narmuratov**, associate professor]; manzil: 190111, O'zbekiston, Surxandaryo viloyati, Shahar: Termiz, Barkamol Avlod ko'chasi (sobiq F.Xo'jayev), 43 [адрес: 190111, Узбекистан, Сурхандарьинская область, Город: Термез, улица Баркамола Авлода (бывш. Ф.Ходжаева), 43], [address: 190111, Uzbekistan, Surkhandarya region, City: Termiz, Barkamol Avlod street (former F. Khojayev), 43]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

O`QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISH VA SINFDA INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH

© M.S. Qobilova [1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bola bilimga qiziqmasdan turib, o`qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o`qiy olmaydi. Bolada o`z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o`qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag`batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o`qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg`otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi. Ushbu maqolada o‘quvchining bilim sifatini oshirish usullari keltirib o‘tilgan.

MAQSAD: o‘quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash, o`quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko`nikmasining bolalarda shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: o‘quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash muammosiga oid materiallar, jumladan, maqola va axborot agentliklarining rasmiy saytlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, tarixiy-qiyosiy tahlil, analitik obzor, o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, dalillarni qiyoslash, sotsiometriya, pedagogik eksperiment tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o`quvchilarni bilimga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo`llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko`p maktablarda muvaffaqiyatli qo`llanilib kelinmoqda. O`quvchilarga biror bir fan bo`yicha ko`rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda “Agar tirishsang, bu sening qo`lingdan keladi” degan gapni uning qulog`iga quyish kerak. Buni o`quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o`qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To`g`risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o`quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo`lishi kerak.

XULOSA: sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto`g`ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas`uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir.

Kalit so'zlar: muvaffaqiyat, ijtimoiy qamrov, jamoa, faoliyat, hamkorlik, mas’uliyat, intizom, vazifa, o‘quv tizimi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Iqtibos uchun: Qobilova M.S. O`quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash. // Inter education & global study. 2024. №6. B.133–139.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ И УКРЕПЛЕНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ В КЛАССЕ

© М.С. Кобилова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: без интереса к знаниям ребенок не хочет учиться и не может учиться успешно. Особенно важно воспитать в ребенке уверенность в своих силах и способностях, привлечь его к учебе, поощрить за первые достижения. Интерес ребенка к обучению приводит к преодолению трудностей, повышению активности, вселению уверенности и развитию самостоятельности. В данной статье упомянуты методы повышения качества знаний студента.

ЦЕЛЬ: повышение качества знаний учащихся и укрепление дисциплины в классе заключается в формировании у детей одаренности и умения систематически и планомерно вести обучение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы материалы, в том числе статьи и официальные сайты информационных агентств, по проблеме повышения качества знаний учащихся и укрепления дисциплины в классе. Теоретические взгляды, методы исследования и подходы, применяемые в процессе исследования, объясняются тем, что они заимствованы из официальных источников, организованы историко-сравнительный анализ, аналитический обзор, исследование, анализ, обобщение, наблюдение, сопоставление фактов, социометрия, педагогический эксперимент.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: повышая интерес учащихся к знаниям, особенно важно учитывать их способность самостоятельно применять свои теоретические знания. Этот опыт успешно применяется во многих школах. Студентам предлагается придумать наглядное пособие или какое-то оборудование по предмету. Это включает в себя выливание в его ухо фразы:" Если ты напрягаешься, это то, что ты можешь сделать". Это воспринимается учеником не только как простое задание, но и как уверенность учителя. Честно говоря, чтобы делать такие вещи, читатель должен обладать достаточными теоретическими знаниями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: встречаются и те, кто понимает, что поддержание и внедрение дисциплины в классе – это только работа классного руководителя. Это совершенно неправильное мнение. За дисциплину отвечает весь класс, педагогический коллектив. Воспитание дисциплины-очень сложный и сложный воспитательный процесс.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ключевые слова: успех, социальная инклюзивность, коллектив, деятельность, сотрудничество, ответственность, дисциплина, задача, образовательная система.

Для цитирования: Кобилова М.С. Повышение качества знаний учащихся и укрепление дисциплины в классе. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 133–139.

IMPROVING THE QUALITY OF STUDENTS' KNOWLEDGE AND STRENGTHENING DISCIPLINE IN THE CLASSROOM

© Madina S. Qobilova[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: without interest in knowledge, a child does not want to study and cannot study successfully. It is especially important to make a child confident in his own strength and abilities, to attract him to study, and to encourage him for his first achievements. A child's interest in learning leads to overcoming difficulties, increasing activity, instilling confidence and developing independence. In this article, methods of improving the quality of the student's knowledge are mentioned.

AIM: improving the quality of students' knowledge and strengthening discipline in the classroom consists in the formation of children's giftedness and the ability to systematically and systematically conduct education.

MATERIALS AND METHODS: materials were used, including articles and official websites of news agencies, on the problem of improving the quality of students' knowledge and strengthening discipline in the classroom. The theoretical views, research methods and approaches used in the research process are explained by the fact that they are borrowed from official sources, historical and comparative analysis, analytical review, research, analysis, generalization, observation, comparison of facts, sociometry, pedagogical experiment are organized.

DISCUSSION AND RESULTS: when increasing students' interest in knowledge, it is especially important to take into account their ability to independently apply their theoretical knowledge. This experience has been successfully applied in many schools. Students are invited to come up with a visual aid or some kind of equipment for the subject. This includes pouring a phrase into his ear:”If you're straining, that's what you can do." This is perceived by the student not only as a simple task, but also as the teacher's confidence. To be honest, in order to do such things, the reader must have sufficient theoretical knowledge.

CONCLUSION: There are also those who understand that maintaining and implementing discipline in the classroom is only the job of the class teacher. This is a completely wrong opinion. The entire class and the teaching staff are responsible for discipline. Discipline education is a very complex and complex educational process.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Key words: success, social inclusion, team, activity, cooperation, responsibility, discipline, task, educational system.

For citation: Madina S. Qobilova. (2024) 'Improving the quality of students' knowledge and strengthening discipline in the classroom', Inter education & global study, (6), pp. 133–139. (In Uzbek).

O`quv mehnatiga ongli munosabatda bo`lishlik ta`limning ijtimoiy, o`qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o`quvchilarga ularning bosh vazifasi – o`qish ekanligini tushuntirishi kerak. O`qishga mas`uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o`qituvchilar, ota-onalar va o`z oldidagi mas`uliyat, ularning fikrlari, ma`qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o`quv jamoasida munosib o`rinni egallashga ham tegishlidir.

O`zlashtirishning past bo`lishi aksariyat hollarda, o`quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko`nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o`qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan ish ekanligini o`quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o`quvchi bilan alohida yoki bir guruh o`quvchilar bilan o`tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O`qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas`uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

«Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko`p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o`qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o`qishga mas`uliyat bilan qarash ruhida, ko`chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Sinf majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o`quv mashg`ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o`quvchilarga sezilarli ta`sir o`tkazish kerak. Sinfning o`zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi. O`quvchilarni bilimga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo`llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko`p maktablarda muvaffaqiyatli qo`llanilib kelinmoqda. O`quvchilarga biror bir fan bo`yicha ko`rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo`lingdan keladi» degan gapni uning qulog`iga quyish kerak. Buni o`quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o`qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To`g`risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o`quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo`lishi kerak. O`quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o`rganishga, o`z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o`zi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

yasayotgan o`quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o`rganadi.

Maktab o`quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog`liqdir. Maktab hovlisidagi bog`, tokzor, issiqxonada o`tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o`tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o`quvchilarda katta qiziqish uyg`otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo`g`rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o`rganishga rag`bat uyg`otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo`lib yetishish mumkinmi? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma`rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o`quvchilarda havas o`yg`otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo`lgan qiziqishni shakllantirish va o`stirishda sinflarni, o`quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o`quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg`otadi, tegishli ma`lum sohalarga havas uyg`otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo`yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo`g`rofiya», «O`simliklar hayoti», «Bizni o`rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o`quvchilar qo`liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do`st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o`zi?

O`quv jarayonida fanlar bo`yicha o`zaro bog`lanishga katta e`tibor berish kerak. Bundan o`qituvchiyu o`quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar yechish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o`lchov birliklari qo`llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o`rganadigan mavzular bo`ladiki, ularda ikkala fan o`qituvchisi ham bir darsda o`z sohalari bo`yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo`ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo`g`rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o`rganishga havas uyg`otish mumkin bo`ladi.

O`quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to`garak, fakultativ mashg`ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Sinf rahbari o`z o`quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma`lumotlar bilan fan o`qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo`lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo`ladiki, biror fandan o`zlashtirmayotgan o`quvchi bilan sinf rahbarining o`zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo`ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo`lganda, a`lochi o`quvchilarni yoki ushbu fan o`qituvchisini ham ko`makka chaqiradi. Bundan o`quvchini ko`ngli tog`dek ko`tariladi, yolg`iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o`zlashtirishga harakat, havas uyg`onadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Bolalarda o`quv mehnatiga javobgarlik va mas`ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas`ullikni sezmagan o`quvchi pala-partish o`qiydi. Mas`ullik kishini sergak torttiradi, o`quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma`lumki, ongli intizom va mas`uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi. Bolalarning intizomli bo`lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o`rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi. Bu ishlarni sinf rahbari bir o`zi emas, balki o`qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto`g`ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas`uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko`p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o`zidayoq yo`qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o`qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o`tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o`quv yumushlari bilan band bo`lishadi; ba`zi o`qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog`oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o`qituvchi tajanglashadi, o`quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy. Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o`quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg`in, ijodiy, ko`rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg`otish, lol qoldirish, dars o`tilgach birorta ham o`quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o`ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo`lish nafaqat maktabda, balki o`quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so`qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega. Bola bilimga qiziqmasdan turib, o`qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o`qiy olmaydi. Bolada o`z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o`qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag`batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o`qishga qiziquvchanlik yengishga, faolligini oshirishga ishonch uyg`otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi. O`quv mehnatiga ongli munosabatda bo`lishlik ta`limning ijtimoiy, o`qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbari o`quvchilarga ularning bosh vazifasi – o`qish ekanligini tushuntirishi kerak. O`qishga mas`uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchigina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o`qituvchilar, ota – onalar va o`z oldidagi mas`uliyat, ularning fikrlari, ma`qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o`quv jamoasida munosib o`rinni egallashga ham tegishlidir.

O`zlashtirishning past bo`lishi esa aksariyat hollarda, o`quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko`nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi. Sinf rahbarining va fan o`qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o`quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosida qurish bilan bog`liq:

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o`qish nafaqat har kimning ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan ish ekanligini o`quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

tomonlama tayyorlangan o`quvchilarni yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o`quvchi bilan alohida yoki bir guruh o`quvchilar bilan o`tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O`qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas`uliyat bilan qarash kerakligi o`quvchilarga tushuntirib boriladi.

O`quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o`rganishga, o`z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o`zi yasayotgan o`quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o`rganadi. O`quvchilarni bilish faoliyatini takomillashtirish uchun to`garaklarda kengroq foydalanish lozim.

Ma`lumki, ongli intizom va mas`uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi. Bolalarning intizomli bo`lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, o`quvchilarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o`rnatishga kirishadi. Jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi. Bu ishlarni sinf rahbari bir o`zi emas, balki o`quvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota – onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Darslardagi tartib – intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o`quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg`in, ijodiy, ko`rgazmali qurollar yordamida, media manbaalari orqali ular havasini uyg`otish, lol qoldirish, dars o`tilgach birorta ham o`quvchini rag`batsiz qoldirmaslik – har biriga o`ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Xulosa qilib aytganda, intizomli bo`lish nafaqat maktabda, balki o`quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so`qmoqlarida ham tartib – intizom muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. R.A. Mavlonova, B. Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O`quv qo`llanma. Toshkent, “FAN” 2008 yil.
2. R.A. Mavlonova, O.T. To`rayev, O.Xasanboyeva, K.M.Xoliqberdiyev. “Pedagogika” T., “O`qituvchi” – 1998 yil.
3. R.A. Mavlonova, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O`quv qo`llanma. T. 2010 yil

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qobilova Madina Sobir qizi**, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi, [**Кабилова Мадина Собир кизи,** направление начального образования студент 3 курса], [**Madina S. Qobilova**, primary education direction 3rd year student]; manzil: O‘zbekiston, Termiz sh., Umit ko'chasi, 2/3-uy [адрес: Узбекистан, город Термез, улица Умит, дом 2/3], [address: Uzbekistan.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

KASBIY RIVOJLANISH JARAYONIDA O‘QITUVCHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

© T. Kadirov[1]✉

[1]Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: raqamli asrda media kompetentsiyalari o'qituvchilar uchun tobora zarur bo'lib, ularga raqamli vositalar va ommaviy axborot vositalarini o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilar o‘rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirishning hozirgi holatini o‘rganib, ushbu ko‘nikmalarni oshirishda kasbiy rivojlanish dasturlarining roliga e’tibor qaratadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi o'qituvchilarning media kompetentsiyasining hozirgi darajasini baholash va ushbu vakolatlarni rivojlantirishda kasbiy rivojlanish dasturlari samaradorligini baholashdir. Bunga o‘qituvchilar duch keladigan muammolarni tushunish va mediasavodxonlikni kasbiy rivojlanishga integratsiya qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni aniqlash kiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot aralash usullardan foydalanadi, Adabiyotlarni ko'rib chiqish, so‘rov, intervyu, case studies.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar o'qituvchilar o'rtasida ommaviy axborot vositalarining malakasini oshirishning hozirgi holatiga oid bir nechta asosiy tushunchalarni ochib beradi. Media kompetentlik darajalari: so‘rov natijalari o‘qituvchilar o‘rtasida media kompetentsiyasining turli darajalarini ko‘rsatadi, raqamli savodxonlik va ommaviy axborot vositalarini o‘qitish amaliyotiga integratsiya qilishda sezilarli bo‘shliqlar mavjud.

XULOSA: tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar o‘rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, malaka oshirish dasturlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada yaxshilash zarur. Ommaviy axborot vositalarining samarali malakasini oshirish har tomonlama amaliy mashg'ulotlar va doimiy yordamni talab qiladi. Ushbu tadqiqotda aniqlangan muammolarni hal qilish va ilg‘or tajribalarni tatbiq etish o‘qituvchilarning ommaviy axborot vositalarini o‘qitishga integratsiya qilish qobiliyatini oshirishi va natijada raqamli asrda ta’lim natijalarini yaxshilashi mumkin.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, mediakompetentlik, axborot almashinuvi, elektron hukumat, ommaviy axborot vositalari, mediata’lim, media va axborot savodxonligi.

Iqtibos uchun: Kadirov T. Kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning mavjud holati. // Inter education & global study. 2024. №6. B.140–146.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

© Т. Кадиров[1]✉
[1]Самаркандский областной национальный центр подготовки педагогов новым методам, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в эпоху цифровых технологий медиа-компетенции становятся все более необходимыми для учителей, что позволяет им эффективно интегрировать цифровые инструменты и медиа в свою педагогическую практику. В этом исследовании рассматривается текущее состояние развития медиакомпетентности среди учителей, уделяя особое внимание роли программ профессионального развития в совершенствовании этих навыков.

ЦЕЛЬ: основной задачей данного исследования является оценка текущего уровня медиакомпетентности учителей и оценка эффективности программ повышения квалификации в развитии этих компетенций. Это включает в себя понимание проблем, с которыми сталкиваются учителя, и выявление передового опыта по интеграции медиаграмотности в профессиональное развитие.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, обзор литературы, опрос, интервью, тематические исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные данные позволяют сделать несколько ключевых выводов о текущем состоянии медиаграмотности среди учителей. Уровни медиакомпетентности. Результаты опроса показывают различные уровни медиакомпетентности среди учителей, со значительными пробелами в цифровой грамотности и интеграции медиа в педагогическую практику.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: по результатам исследования, хотя и предпринимаются усилия по развитию медиакомпетентности среди учителей, качество программ повышения квалификации и их доступность нуждаются в значительном улучшении. Эффективное обучение СМИ требует обширного практического обучения и постоянной поддержки. Решение проблем и внедрение лучших практик, выявленных в этом исследовании, могут улучшить способность учителей интегрировать средства массовой информации в обучение и, в конечном итоге, улучшить результаты образования в эпоху цифровых технологий.

Ключевые слова: профессиональное развитие, медиакомпетентность, обмен информацией, электронное правительство, средства массовой информации, медиаобразование, медийно-информационная грамотность.

Для цитирования: Кадиров Т. Современное состояние развития медиакомпетентности педагоги в процессе профессионального развития. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 140–146.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

THE CURRENT STATE OF THE DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

© Tulkin Kadirov[1]✉
[1]Samarkand region national center for training pedagogues in new methods, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the digital age, media competencies are increasingly necessary for teachers, enabling them to effectively integrate digital tools and media into their teaching practice. This study examines the current state of media competency development among teachers, focusing on the role of professional development programs in enhancing these skills.

AIM: the main objective of this study is to assess the current level of media competence of teachers and to evaluate the effectiveness of professional development programs in developing these competencies. This includes understanding the challenges teachers face and identifying best practices for integrating media literacy into professional development.

MATERIALS AND METHODS: the research uses mixed methods, literature review, survey, interview, case studies.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal several key insights into the current state of media literacy among teachers. Levels of media competence: The survey results show varying levels of media competence among teachers, with significant gaps in digital literacy and media integration into teaching practice.

CONCLUSION: according to the results of the study, although efforts are being made to develop media competence among teachers, the quality of in-service training programs and their accessibility need to be significantly improved. Effective media training requires extensive hands-on training and ongoing support. Addressing the challenges and implementing best practices identified in this study can improve teachers' ability to integrate media into instruction and ultimately improve educational outcomes in the digital age.

Keywords: professional development, media competence, information exchange, e-government, mass media, media education, media and information literacy.

For citation: Tulkin Kadirov. (2024) 'The current state of the development of media competence of teachers in the process of professional development', Inter education & global study, (6), pp. 140–146. (In Uzbek).

Axborotlar almashinuvi tufayli raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, "Elektron hukumat"[1] tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Axborot vositalari bilan ochiq, ommaviy o'zaro hamkorlik qilish madaniyatini singdirishda uslubiy jihatdan ta'minlash orqali ko'maklashish, milliy axborot

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

makonini hamda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, tarmoq korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga ustuvorlik berilmoqda[2]. Shuningdek, ta’lim tizimida shu turdagi texnologiyalar yordamida ta’lim tashkilotlarining o‘rtasida hamkorlik tashkil etish samarali natijalarni beradi. Elektron hukumat tizimining yo‘lga qo‘yilishi davlat, barcha sohalarning o‘zaro hamkorligini, shuningdek, jahon raqamli makonida integrasiyalashuvni ta’minlashga qaratilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish sohasida sifatli axborot xizmatlarini ko‘rsatishni nazarda tutadi[3].

Axborotlar erkinligini ta’minlash, axborot texnologiyalari sohasi va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning institutsional-huquqiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilishi belgilab berilgan. Fuqarolarning axborot va so‘z erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarining ro‘yobga chiqishini ta’minlash, orqali aholining axborotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb masala sifatida berilgan[1].

Axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ilmiy salohiyat amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash choralari, axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o‘quv-uslubiy va boshqa qo‘llanmalar raqamli formatga o‘tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta’minlash bo‘yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilish belgilangan[4].

Ommaviy axborot vositalari yordamida tarqatilayotgan materiallar mazmunining, shu jumladan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyasini ta’minlashga qaratilgan qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tizimli ravishda tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xorijda O‘zbekistonning ijobiy imidjini targ‘ib etish, axborot uzatuvchi tarmoqlar ishining sifatini ko‘tarish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning borishi, yaratilgan qulay shart-sharoitlar va ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi to‘g‘risida ma’lumotlar tizimini shakllantirish bu orqali xorijiy ishbilarmon doiralar, tadbirkorlar, salohiyatli investorlar, davlat va jamoat arboblari orasida targ‘ibot ishlarini olib borish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy qudratini dunyoga tanitadi. Mediata’lim tushunchasi foydalanuvchilar uchun uchta vazifani o‘z ichiga oladi:

– mustaqil mediafaoliyatni rivojlantirish uchun maxsus maqsadli dasturlar tayyorlash;

– qabul qilingan xabarlarni, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish;

– ishlab chiqish, ijodkorlik va interaktivlikni rag‘batlantirishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6


“Media va axborot savodxonligi” tushunchasi XXI asrda o‘zini o‘rab turgan borliqni tushunishi uchun insonga zarur bo‘lgan turfa xil ko‘nikmalar to‘plamini anglatadi. Media va axborot savodxonligi shaxsning huquqiy savodxonligini rivojlantiradi, bundan tashqari arxiv ma’lumotlari bilan ishlash biz yashayotgan jamiyatdagi ayrim xolatlar to‘g‘risidagi manbalar bilan tanishish inson ongida yangicha fikrlarning paydo bo‘lishiga olib keladi[5].

Media va axborot savodxonligi media va boshqa axborot yetkazuvchilar nima ishlab chiqarayotgani, qanday xabarlarni tarqatayotgani bo‘yicha mavjud ma’lumotlar asosida, media va boshqa axborot yetkazuvchilarni baholash hamda maqsadli auditoriya rolini baholash imkoniyatini beradi. Insonlar media savodxonligi ularning quyidagi ko‘nikmalarga egaligini bildiradi:

- medianing ta’sirini tushunish;
- qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlay olishi;
- ekologiya bo‘yicha so‘nggi ma’lumot olish;
- axborotning zarurligini anglab yetish;
- muammolar yechimi bo‘yicha o‘z fikriga ega bo‘lish;
- ijodiy rivojlanishda mediaga murojaat qilish;
- jamiyatdagi siysiy, ijtimoiy harakatlarda faol bo‘lish.

Mediasavodxonlik ko‘nikmalarini egallash davomida professional faoliyati doirasida va umuman hayotida samarali bilim olish layoqatini o‘zlashtiradi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborotni izlash, tizimlashtirish va undan foydalanish sohasidagi imkoniyatlari yanada kengayib boradi(1-rasm).

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. XXI asr global axborot oqimi tezligi ortishi insonlar hayotiga kuchli ta’sir etib,




1-rasm. Mediakompetentlik tuzilmasi

umummadaniy kontekstning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shuning uchun mediaaxborotni uning iste’molchilariga ijobiy va salbiy ta’sirini kuzatish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ommaviy axborot vositalarining murakkablashib borishi foydalanuvchilarda tanqidiy fikrlash va malakasini oshirishda matnlardan foydalanishda munosabatni o‘zgartiradi. Rivojlangan mamlakatlarda “media madaniyati”, “axborot madaniyati”, “audiovizual madaniyat”, “media savodxonlik”, “axborot savodxonlik”, “audiovizual savodxonlik”, “ommaviy axborot vositalari”, “axborot ta’limoti”, “audiovizual ta’lim”, “kompyuter savodxonligi”, “ko‘pmedia savodxonligi”, “axborot kompetentligi”, “media kompetentligi”, “audiovizual vakolat”, “audiovizual kompetentlik” kabi tushunchalar axborot texnologiyalari sohasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlik media sohasidagi izlanishlar uchun muhim hisoblanadi. Yuzaga kelayotgan media maydon axborot kommunikatsiya sohasining rivojlanayotganini bildirib jamiyatning ehtiyoji shu sohaga ortib borayotganini bildiradi (2-rasm).



2-rasm. AKT ning globallashuv jamiyatidagi o‘rni

L.Xandrabura, N.Gru fikricha, “Ommaviy axborot vositalari ta’lim omili bo‘lib, media axborotning turlicha – matn, ovoz, grafika shaklida iste’molchiga uzatiladi”[6]. L.Xandrabura, N.Gru kuzatishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, uzatish usullarining xilma-xilligiga qarab media turlariga aniqlik kiritadi.

1. Jamoat mediasi ommaviy axborot vositalari tijorat maqsadlarida va plyuralizm, to‘g‘rilik va teng huquqlilik tamoyillari asosida mamlakat, mintaqa aholisini xabardor qilish.

2. Davlatga siyosatini targ‘ib etuvchi media vositalari bu hukumat siyosatini belgilovchi televidenie va radio hisoblanadi.

3. Xususiy media sarmoya kiritgan bir nechta shaxslarning qiziqishlari natijasi hisoblanadi:

– tijorat - daromad olish maqsadida axborotni iste’molchiga yetkazish bilan shug‘ullanadi;

– axborot-ta’limni rag‘batlantirish maqsadida madaniyat, ilm-fan, ekologiya va shunga yaqin xizmatlar bilan shug‘ullanadi;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

– jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilib foydali va raqobatchilarga zarar keltiradigan axborotni tarqatish bilan shug‘ullanadi.

4. Mustaqil media moliyalashtirish shakli va egasidan qat’iy nazar, barcha ommaviy axborot vositalari mustaqil tahririyat siyosatini olib boradi. Ularning axborotlarda hech qanday siyosiy yoki iqtisodiy kuchni qo‘llab-quvvatlamaydi, hech qanday mafkuraviy chiziqni targ‘ib qilmaydi, balki teng darajada jamiyatdagi barcha muammolar va voqealarni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 13-декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувига рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5598-сон Фармони / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.12.2018 й., 06/18/5598/2313-сон).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 2-февралдаги “Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5653-сон Фармони. 04.02.2019 й., 06/19/5653/2568-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 19-февральдаги “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5349-сон Фармони (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.02.2018 й., 06/18/5349/0792-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.07.2021 й., 06/21/6268/0700-сон).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 27-февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, ПҚ-4623-сонли қарори. 28.02.2020 й., 07/20/4623/0220-сон.
5. Ғ.Мирзо, Иброҳимова О. Ахборот эркинлиги – демократиянинг муҳим таянчи. 28.11.2022. https://uza.uz/uz/posts/ ахборот-эркинлиги-демократиянинг-муҳим-таянчи _411507.
6. Хандрабура Л. Медиаобразование: Учебник: (7/8 класс) / Лоретта Хандрабура, Наталия Грыу. – Кишинев: Б. и., 2020.стр-153.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kadirov Tulkin**, dotsent v.b, [**Кадиров Тулкин**, и.о доцент], [**Tulkin Kadirov**, associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Samarqand viloyati, Samarqand sh. X.Obiddinov ko'chasi, 7-uy [адрес: Узбекистан, Самаркандб город Самарканд,. улица Х. Обиддинова, 7], [address: Uzbekistan, Samarkand region, Samarkand sh. H. Obiddinov Street, 7]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

KOMIL INSON KONSEPTLARINING IJTIMOIY – PSIXOLOGIK JIHATLARI

© M.Yu. Saparov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,Toshkent,O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: “komil inson” tushunchasi turli madaniyat va davrlarda hayrat va tafakkur mavzusi bo‘lib kelgan. Ushbu tadqiqot mukammal inson kontseptsiyasining ijtimoiy-psixologik o'lchovlarini o'rganadi, uning evolyutsiyasi, madaniy tasvirlari va ushbu idealga intilishning psixologik oqibatlarini o'rganadi. Ushbu jihatlarni tushunish insonning ahvoli, jamiyatning umidlari va bu ideallarning shaxsiy farovonlikka ta'siri haqida tushuncha beradi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi komil inson tushunchasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilishdir. Bu madaniy va ijtimoiy me'yorlar ushbu idealni qanday shakllantirishini, mukammallikka intilishning psixologik ta'sirini va individual va jamoaviy ruhiy salomatlik uchun potentsial oqibatlarini tushunishni o'z ichiga oladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar shuni ko'rsatadiki, komil inson tushunchasi madaniy rivoyatlarda chuqur ildiz otgan va ko'pincha diniy, falsafiy va ommaviy axborot vositalariga asoslangan ideallar ta'sirida. Turli madaniyatlar ko'pincha tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi mukammallikni tashkil etadigan o'ziga xos talqinlarga ega. Misol uchun, G'arb madaniyati tashqi ko'rinish va individual yutuqlarni ta'kidlashi mumkin, Sharq madaniyati esa axloqiy yaxlitlik va ijtimoiy uyg'unlikni birinchi o'ringa qo'yishi mumkin.

XULOSA: komil inson tushunchasining ijtimoiy-psixologik jihatlari madaniy me’yorlar va individual psixologiya o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Shaxsiy mukammallikka intilish ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, mukammallikning haqiqiy bo'lmagan standartlari salbiy psixologik ta'sirlarga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: komil inson, komillik, e’tiqod, shaxs, ijtimoiy -psixologiya, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, xulq, tarbiya, insoniyat, din, diniy e’tiqod, diniy amallar, axloq-odob, sog‘lom dunyoqarash.

Iqtibos uchun: Saparov M.Yu. Komil inson konseptlarining ijtimoiy – psixologik jihatlari // Inter education & global study. 2024. № 6. B.147-154.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ СОВЕРШЕННОЙ ЛИЧНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

© М.Ю. Сапаров[1]✉
[1] Узбекский государственный университет мировых языков, Тошкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: понятие «идеальный мужчина» было предметом восхищения и размышлений в разных культурах и эпохах. В этом исследовании исследуются социально-психологические аспекты концепции идеального человека, его эволюция, культурные представления и психологические последствия стремления к этому идеалу. Понимание этих аспектов дает представление о состоянии человека, ожиданиях общества и влиянии этих идеалов на личное благополучие.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является анализ социально-психологических аспектов понятия идеального человека. Это включает понимание того, как культурные и социальные нормы формируют этот идеал, психологические последствия перфекционизма и потенциальные последствия для индивидуального и коллективного психического здоровья.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, сочетающие качественные и количественные методы исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты показывают, что концепция идеального человека глубоко укоренена в культурных нарративах и часто находится под влиянием религиозных, философских идеалов и идеалов, основанных на средствах массовой информации. В разных культурах часто существуют свои собственные интерпретации того, что представляет собой совершенство, отражающие исторические и социальные ценности. Например, западная культура может делать упор на внешний вид и индивидуальные достижения, тогда как восточная культура может отдавать приоритет моральной целостности и социальной гармонии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: социально-психологические аспекты концепции идеального человека раскрывают сложную взаимосвязь культурных норм и индивидуальной психологии. Хотя стремление к личному совершенству может привести к положительным результатам, нереалистичные стандарты совершенства могут иметь негативные психологические последствия.

Ключевые слова: совершенный человек, совершенство, вера, личность, социально-психология, социально-психологические характеристики, поведение, воспитание, человечность, религия, религиозная вера, религиозные практики, нравственность, здоровое мировоззрение.

Для цитирования: Сапаров М.Ю. Социально-психологическая концепция совершенной личности человека. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С. 147-154.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

SOCIO- PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PERFECT HUMAN CONCEPTS

© Murod Yu. Saparov[1]✉
[1]Uzbekistan State University of World Languages,Tashkent,Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the concept of "perfect man" has been a subject of admiration and contemplation in different cultures and eras. This study explores the socio-psychological dimensions of the concept of the perfect human, its evolution, cultural representations, and the psychological consequences of striving for this ideal. Understanding these aspects provides insight into the human condition, societal expectations, and the impact of these ideals on personal well-being.

AIM: the main purpose of this study is to analyze the socio-psychological aspects of the concept of a perfect person. This includes understanding how cultural and social norms shape this ideal, the psychological effects of perfectionism, and the potential consequences for individual and collective mental health.

MATERIALS AND METHODS: this study uses mixed methods combining qualitative and quantitative research methods.

DISCUSSION AND RESULTS: findings suggest that the concept of the perfect human is deeply rooted in cultural narratives and often influenced by religious, philosophical, and media-based ideals. Different cultures often have their own interpretations of what constitutes perfection, reflecting historical and social values. For example, a Western culture may emphasize appearance and individual achievement, while an Eastern culture may prioritize moral integrity and social harmony.

CONCLUSION: socio-psychological aspects of the concept of a perfect person reveal a complex interrelationship between cultural norms and individual psychology. While the pursuit of personal perfection can lead to positive outcomes, unrealistic standards of perfection can have negative psychological effects**.**

Keywords: perfect person, perfection, faith, personality, social psychology, social psychological characteristics, behavior, education, humanity, religion, religious faith, religious practices, morals, healthy outlook.

For citation: Murod Yu. Saparov. (2024) 'Socio- psychological aspects of perfect human concepts', Inter education & global study, (6, pp. 147-154. (In Uzbek).

Mohiyatan, komil inson – bu, xulqi va ma'naviy dunyoqarashi, shu dunyoqarashining amalda isbotlay olgan, bu dunyo va malakut olami uchun har tomonlama takomillikning avj nuqtasiga yetishgan "inson" farzandiga aytiladi. Inson – bu yorug' olamdagi jamiki jonzotlar ichra eng mukarrami. Odamzod yaralganidan buyon unga axloq va ma'naviyat hamroh bo'lib kelyapti. Biz esa dunyodagi axloqni o'ta yuksak

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

darajalarga ko‘targan xalqmiz. Chunki milliy qadriyatlarimizning mag‘zi-mag‘zida aynan axloqiy tarbiya yotadi.

Zero muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev aytganlaridaek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Shu jihatdan, muhtaram prezidentimiz aytganlaridek, qadimdan bizning yurtimizdan buyuk siymolarning yetishib chiqqanligiga e’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, ota-bobolarimiz alohida zehnli, iste’dodli, qobiliyatli bolalarni umumbilim olayotgan bolalardan alohida ajratib olayotganligi diqqatga sazovor. Professor E.G‘oziev “Har qaysi insonda hukm suruvchi “Men”likning “Men emas”likdan ajratishga intilish “o‘zini namoyon qilish, o‘z-o‘zini ifodalash, kimligini kashf etish, o‘zini-o‘zi takomillashtirish, o‘ziga-o‘zi buyruq berish, o‘ziga-o‘zi ta’sir o‘tkazish singari jarayonlarda” ontogenetik hayotning dastlabki taraqqiyot pallasidan, bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egallash davrigacha davom etib, o‘zini-o‘zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi” deb ta’riflaydi.

Insonning shaxsliligi uning ijtimoiyligi bilan belgilanishini shaxsga berilgan ta’rifda aks etadi. Ayni ijtimoiylashuv jarayonida go‘dak o‘zini qurshab turgan olam bilan birgalikda xatakat qiladi. Bu xarakatlar ijtimoiy jamiyatdagi yozilgan va yozilmagan qonun-qoidalar asosida jamoa faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob’ektiv munosabatlar tizimida yuz beradi. Ijtimoiy munosabatlar xar qanday gurux qonuniyatlari shaxslararo qadriyatlar tizimi doirasida shakllanib, bu qonuniyatlarga bo‘ysunish, bog‘langanlik, o‘zaro xamkorlik va boshqa umumiy faoliyatlarda namoyon bo‘ladi.

Shaxs faoliyat jarayonida uni qurshab turgan shaxslar bilan bilvosita va bavosita muloqotga kirishadi. Bu o‘z navbatida uning ijtimoiy faoliyatga nisbatan extiyojlari samarasidir. Shaxs boshqa shaxs bilan muloqotni amalga oshirishida uning birinchi jihati – kommunikatsiya – muloqotni amalga oshiradi (verbal, noverbal). Mazkur daslabki muloqot shaxslararo axborotlar, bilimlar, g‘oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalarni nazarda tutadi. Munosabatning ikkinchi jihati - munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi xarakati - nutq jarayoni bo‘lib, unda faqat so‘zlar bilan emas, balki o‘zaro qabul qilingan tushinarli imo-ishoralar, xatti - xarakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Shaxslararo munosabatning uchinchi jihati – bu munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro bir-birlarini yaxlit idrok eta olishidir.

Shunday qilib, munosabatlar jarayonining o‘zida uch jihatdan – kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda xarakat qilish) va perseptiv (o‘zaro bir-birini idrok etish) jihatlarini alohida ko‘rsatish mumkin. Bu shaxsdagi munosabatlar soxasining umumiy qoidalari bo‘lib, muomala jarayoning nimaga asoslanishi bu o‘rinda ahamiyatsizdir. Jumladan, shaxsdagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar diniy e’tiqod

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

asosida bu qoidalarni inkor etolmaydi. Shu o‘rinda, munosabat hamda muloqotning aloqadorligi qanday degan savol tug‘iladi. Muloqot aslida, psixologiyada munosabatlar tizimining amaliy ko‘rinishi bo‘lib, muloqotga kirishish munosabatlar tizimining amalga oshirilishi demakdir. Qisqacha qilib aytganda, tizim faoliyatining xarakatdagi ko‘rinishidir.

Munosabatlar odamlar o‘rtasida birgalikda faoliyat-extiyojlaridan kelib chiqib bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, muomala layoqatlari xamda e’tiqodlari bilan bog‘liq xolda kechadi. Mavzu muammosidan kelib chiqib, shaxslararo munosabatlarning shakllanishi e’tiqod asosida bo‘lishini taxlil qilishga harakat qilamiz. Bu o‘rinda ob’ekt sifatida dindor shaxs va shaxsdagi e’tiqod hamda uning shaxslararo munosabatlar tizimi mavzuning predmeti sifatida olinadi. Komil inson subsensor, subseptiv xususiyatlari bilan zamondoshlaridan yuksak darajada ustunlikka ega. Subsensorika imkoniyatlariga daxldorlik komillikning yuksak darajasini o‘zida aks ettiradi. Ilmiy asoslarga suyanib buyuk bashoratlarni ro‘yobga chiqarish uning yangi xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

“Islom ensiklopediya”sida, “Imon, iymon (arabcha - ishonch, e’tiqod) - islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg‘ambarlari, qiyomat kuni, taqdir va o‘lgandan keyin tirilishga ishonish“, deb izoxlanadi. Bu “imoni mufassal”, ya’ni imonning mufassal ta’biri, deb ham ataladi. Imon moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, ikki narsaning butunligi - e’tiqod (dinga ichdan chuqur ishonish), iqror (so‘zda buni tan olish) dan iborat, deb xisoblanadi. Din psixologiyasi fanida “diniy e’tiqod” mazmuniga Xudo, diniy ong, ruh va qalb, savob va gunoh, jannat va do‘zah, qadar va oxirat kabi diniy kategoriyalarni, shuningdek, ibodat, tavba-tazarru vaqtida, turli diniy amallarni bajarish jarayonida dindor kechiradigan hissiy xolatlar kiritilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, e’tiqod psixologik fenomen sifatida shaxsning ichki ruhiy xolatlarini ham, tashqi – ijtimoiy faolligini ham belgilab bera oladi. Ya’ni, dinda belgilab berilgan ilohiy normalarni qalban tasdiqlab, jamiyatda amalga oshiradi va bular dindorlar soni ko‘p bo‘lgan xududlarda ijtimoiy normalar sifatida qaraladi. Barcha iloxiy dinlardagi kabi, islom dini shaxsda ijobiy xarakter sifatlarini shakllantirib, jamiyat barqarorligi uchun xizmat qiluvchi so‘ngi dindir. Islomda odamning ijobiy hulq-atvor kategoriyalarini shakllantirishda odob mavzusiga alohida ahamiyat qaratiladi. Islomiy odoblarning alohida xususiyati ilohiy manbaalarga asoslanganligidir. Islomiy odoblar xayotning barcha soxalarini qamrab olgandir. Shuningdek, odob masalasi iymon e’tiqodga bog‘langan bo‘lib, ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Odobni kim xarakter xususiyati sifatida o‘zlashtirib, unga amal qilsa, savobga ega bo‘ladi.

Islomiy odoblar kishilarni boshqalarga mehr-oqibatli bo‘lishga va xushmuomalalikka chaqiradi: “... (odamlar) tuzilishlarining rangi, sur’at, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligida emas, balki tuproq, suv, xavo va erning (odam) yashaydigan joylarininng turlichaligidan hamdir”

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Islom e'tiqodi bo'yicha kishilarning boshqalarga nisbatan yaqinlik darajasiga qarab bir-birlarida o'zaro majburiyatlari borki, bu yaqinlik darajalari bir nechtadir. Eng yuqori darjasi – bu Xudo uchun samimiy do'stlik bo'lib, quyida bu masalaning qisqacha bayonini tahlil qilish maqsadga muvoffiqdir.

Shuningdek, yoru-birodarlarning bir qancha majburiyatlari mavjud: Musulmon boshqa musulmonga qo'li va tili bilan zarar yetkazmaydi. Ya'ni to'g'ridan-to'g'ri boshqa kishiga jismoniy yoki ma'naviy jarohat yetkazmaslik burchini his qilib yashashi kerak.

Musulmon kishi o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqa kishiga ham ravo topmaydi. Bu haqida Muhammad s.a.v. : "Musulmonning hammasi bir tanaga o'xshashdur. Agar bir a'zosiga zarar yetsa, tananing barchasiga zarar yetar"-dedilar. "Hech kimga takabburona munosabatda bo'lmaydi. Alloh takabburlik qilganlarni o'ziga dushman sifatida qaraydi". Bu o'rinda kishining ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barchaga bir xil munosabatda bo'lishi nazarda tutilmoqda. "Birov haqida bildirilgan noto'g'ri salbiy ma'lumotlarni qabul qilmaydi. Bunday xabar tarqatganlarga ishonilmaydi. Sadoqatli deb bilingan kishilarning so'zlariga ishonch bildiriladi".

"Har doim fikri-zikri va amali musulmonlarga yaxshilik qilishdan iborat bo'lsin".

"Muloqot jarayonida musulmonlarning yaxshirog'i salomni hammadan oldin berganidir". Ma'lumki, salomlashish muloqotga kirishishdagi dastlabki to'siqlarni olib tashlashga xizmat qiladi.

"Yaxshi yoki yomon deb bilingan kishilarga birdek yaxshi munosabatda bo'lish. E'tiqodli shaxs qo'lidan kelganicha har bir kishiga, garchi bunga loyiq bo'lmasa ham yaxshilik qilishga xarakat qiladi". "Biron kishiga va'da bersa, hiyonat qilmaslik". Shaxslararo munosabatlardagi va'daga vafo qilmaslik munofiqlik alomati sifatida ko'rilib, aloqalarga putur yetkazadi.

"Ikki musulmon bir-birlari bilan xusumat qilib yurgan bo'lsalar, uchinchi kishi tezlik bilan har ikkala musulmonni oralaridagi munosabatni tiklashga yordam beradi" (yarashtiradi).

"Musulmonning barcha ayb va sirlarini ovoza qilmasdan yashirish". Bu xarakat aybi siri bor kishiga nisbatan o'zgalarning xurmat-extiromi saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

"Qachonki, biror kishi musulmonga tajovuz qilsa, yoki boyligiga qasd qilsa, shunda insofli, diyonatli bir musulmon bu zulmlarni bartaraf etishda ko'maklashadi. Bu xaqda Muhammad s.a.v "Chin musulmonlar bir-birlariga yordam qo'lini cho'zmoqliklari shartdir" deganlar. Musulmon boshqalar ko'ngliga shodlik ulashishga va extiyojlarini qondirishga xarakat qilishi lozim. Biror musulmon kasal bo'lib qolsa, garchi u yaqin do'st yoki oshna bo'lmasa ham, holidan xabar olish lozim. Islom ta'limotida bu ish muhim xisoblanib, bu bemor sog'ayishi uchun, shaxsiy aloqalarni hamda jamiyatni mustaxkamlash uchun juda zarurdir. Agar bir mo'min kishi vafot etsa, dafn marosimida qatnashishi shart.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Alohida yo‘naltirilgan mehr-oqibat o‘zining yorqin namunasini do‘stlik fenomenida aks ettirgandir. K. K. Platonov do‘stlikka murakkab ruhiy-ma’naviy tuyg‘u sifatida qarab, uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi: do‘stlikning ob’ekti bilan yaxshilangan adat, munosabatdan qoniqish emotsiyasini chaqirish orqali bo‘ladigan munosabatdagi talablar; birgalikdagi faoliyatlari va ularning natijalar xaqidagi xotiralar; bo‘lib o‘tgan, xozirda mavjud bo‘lgan, bo‘lishi mumkin bo‘lgan birgalikdagi o‘zaro g‘amxo‘rlik; hissiy xotiralar; yo‘qotishdan qo‘rqish ; uni juda yuqori baholash (ideallashtirish). Qur’oni karimda “Albatta, mo‘minlar birodardirlar”(Xujurot-10) oyati keladi. Unda musulmonchilik asosidagi umumbirodarlik xukmi mavjud. Umummusulmon yaqinlik munosabatlari ichida kishilarning o‘zaro aloqalari kiradi, lekin ba’zilar aloxida mustaxkam do‘stlik aloqalarini bog‘lashlari, bir-birlari bilan juda yaqin munosabatda bo‘lishadi. Dastlabki, yani oyatda sifati keltirilgan yaqinlik umumiy yaqinlik bo‘lsa, keyingisi esa aloxida yo‘nalgan yaqin munosabatdir. Bunday yaqin munosabatga Qur’oni karimdagi “Ey iymon keltirganlar, Allohga taqvo qiling va sodiqlar ila birga bo‘linglar” (Tavba-119) oyati xamda Saxobiy Jobir r.a. ning: Rasulullox sallolloxu alayxi vasallam: ”Mo‘min ulfat bo‘luvchi va ulfatga tanlanuvchidur. Ulfat bo‘lmagan va ulfatga tanlanmaganda yaxshilik yo‘q. Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaatlirog‘idir”,degan rivoyatlari dalil bo‘ladi.

Do‘stlik tanishuv, xamkorlik yoki o‘rtoqlik aloqalari bilan boshlanadi. Qachonki, munosabatlar yaqin, chuqur va yanada barqarorlashsa, ular do‘stlikka aylanadi. Bundan tashqari, do‘stlik oqilona va an’anaga ko‘ra bir-biriga nisbatan muayyan ahloq qoidalari bilan belgilanadi. Muloqot mavzular shunday tanlanadiki, do‘stlarning har biri uchun qiziqarli va dolzarb hisoblangan bo‘ladi. Do‘stlardagi shaxslararo munosabatlarda xushmuomalalilik muhim o‘rin tutib, bir-birlarini xaqorat qilishmaydi. Do‘stlashish uchun ma’naviy va intellektual yetuklik zarur. Buning uchun do‘stlik erta o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi va bu vaqtda yigitlarning shaxsiy xarakterida dastlabki muammo va savollar paydo bo‘la boshlaydi va ularni mustaqil ravishda tartibga sola olmaydi. Kattalardagi do‘stona munosabatlar xamkasblar bilan qiziqishlari va maqsadlaridan kelib chiqadigan professional ish faoliyatlari yuzasidan shakllanishi mumkin.

Do‘st tanlashda musulmon e’tiqodida quyidagi kriteriyalarga amal qilish lozim hisoblanadi: yetuk aql; to‘g‘ri dindorlik; yaxshi hulq.

– Qisqacha qilib aytganda, tanlanadigan do‘stning iymoni mustaxkam bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadigan narsadir. Shunga qarab diniy manbaalardagi do‘stona munosabatlarga oid ko‘rsatmalarga amal qilish chegarasi belgilanadi. Do‘stlikning sabablari: M. Agrayl do‘stona munosabatlarni quyidagi sabablarga ko‘ra o‘rnatilishini ta’kidlaydi:

Moddiy ko‘mak va axborot berishdagi ishonch, garchi do‘stlar buni oila va xamkasblardan ko‘ra oz miqdorda ta’minlasa xam. O‘zaro ishonchli munosabatni his etgan xolda maslaxat ko‘rinishidagi ijtimoiy qo‘llab quvvatlashdagi ishonch. Xamkorlikdagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

mashg‘ulotlar, umumiy o‘yinlar, umumiy qiziqishlar.E’tiqodli shaxs yo‘nalganligi diniy e’tiqodga bog‘liq bo‘lgani sababidan kelib chiqib uning do‘st tanlashdagi kriteriyalari ham ijtimoiy – diniy normativlar shaklida namoyon bo‘ladi. Dindor shaxs do‘stlari bilan xamkorlikdagi mashg‘ulotlari sirasiga birgalikda ibodatlarni ijro etish, dinda belgilangan ijobiy amallarni bajarishga nisbatan fikrlarning umumiyligi va hakozolar kiradi. Shuningdek, umumiy qiziqishlar ham xamkorlikdagi mashg‘ulotlar davomida namoyon bo‘ladi. Inson kamolotida jismoniy go‘zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog‘lom bo‘lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Rasululloh (s.a.v.) "Allohdan afv (yana bir rivoyatda to‘g‘ri e’tiqod) va ofiyat so‘ranglar, chunki hech birlaringiz imondan keyin ofiyatdek ne’matni topa olmaysizlar", deb aytgan hadislari ham osoyishtalik va sog‘liq qanchalik ulug‘ ne’matligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, islom e’tiqodi bo‘yicha, qon-qarindoshlarning bir-birlarida ijtimoiy va ruhiy, moddiy va ma’naviy burchlari ham mavjud. Qarindoshlar orasida eng yaqini ota-ona va farzandlar bo‘lgani uchun boshqa qon-qarindoshlarga nisbatan ularning haqlari va burchlariga oid fikrlar ko‘proqdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxslararo munosabatning ahillik asosida qurilishi, insonlar o‘rtasida muomalaning me’yorda bo‘lishiga va kishilar o‘rtasida faravon hayot kechishiga garovdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. ”Ўзбекистон”.Т. 2016.-Б.16.
2. Ғозиев Э. Умумий психология. –Тошкент: 2010. –Б.156.
3. Ғозиев Э. Онтогенез психология. –Тошкент: 2014. –Б.45.
4. Платонов К.К. Методологические проблемы современной медицинской психологии. - М., 2 изд. 2011. -С.45.
5. Аргайл М. Психология счастья. 2-е изд. СПб.: Питер, 2003. – С.96.
6. Маърифат-тинчлик асоси. Тузувчи Раҳимжонов Д; Масъул муҳаррир Исломов З.- Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009.-Б. 53

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saparov Murod Yuldashovich,**PhD [**Сапаров Мурод Юлдашович,** PhD], [**Saparov Y. Murod**, PhD]; O'zbekiston, Shahar: Toshkent, Tuman: Uchtepa, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 21A [адрес: Узбекистан, Город: Ташкент, Район: Учтепа, улица Кичик Халка Ёли, 21A], [address: Uzbekistan, City: Tashkent, District: Uchtepa, Kichik Halka Yoli street, 21A] E mail: saparovmurod@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TIL BILISH KO‘NIKMALARI: ELEKTRON PLATFORMALARNING JURNALISTIKA TALABALARIGA CHET TILLARNI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

© E.Y. Shermatov[1]✉
[1] O‘zbekiston jahon tillari universiteti,Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: raqamli asrda jurnalistika fakulteti talabalari turli manbalarga kirishlari, xalqaro muammolar haqida xabar berishlari va global auditoriya bilan muloqot qilishlari uchun chet tillarini bilish zarur.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi elektron platformalar chet tillarini o'rganayotgan jurnalistika talabalarining til ko'nikmalarini qanday oshirishi mumkinligini o'rganishdir..

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot miqdoriy so'rovlar va sifatli amaliy tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. ishtirokchilar orasida jurnalistika fakulteti talabalari va turli muassasalarning o‘qituvchilari bor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: aniqlangan muammolar orasida talabalarning turli darajadagi faolligi va ishonchli internetga kirish zarurati kiradi. Yechimlar talabalarga qo'shimcha yordam va resurslarni taqdim etish, platformalardan izchil foydalanishni rag'batlantirish va zarur texnologiyalardan foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

XULOSA: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron platformalar jurnalistika talabalarining til ko‘nikmalarini oshirishda yuqori samara beradi. Interfaol, haqiqiy va moslashuvchan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali ushbu platformalar muvaffaqiyatli jurnalistika kareralari uchun zarur bo'lgan tilni bilish darajasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: til ko‘nikmalari, elektron platformalar, jurnalistika, talabalar, xorijiy tillarni o‘zlashtirish, interfaol ta’lim, authentic materiallar, moslashuvchan o‘rganish, hamkorlikda o‘rganish

Iqtibos uchun: Shermatov E.Y. Til bilish ko‘nikmalari: elektron platformalarning jurnalistika talabalariga chet tillarni o'rganishdagi ahamiyati // Inter education & global study. 2024. №6. B. 155–160.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ: КАК ЭЛЕКТРОННЫЕ ПЛАТФОРМЫ ПРИНОСЯТ ПОЛЬЗУ СТУДЕНТАМ ЖУРНАЛИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

© Э.Й. Шерматов[1]✉
[1]Узбекский университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ВВЕДЕНИЕ: в эпоху цифровых технологий знание иностранного языка необходимо студентам-журналистам для доступа к различным источникам, освещения международных проблем и общения с глобальной аудиторией.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение того, как электронные платформы могут улучшить языковые навыки студентов-журналистов, изучающих иностранные языки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные тематические исследования. Среди участников – студенты факультета журналистики и преподаватели различных вузов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявленные проблемы включают в себя различные уровни вовлеченности студентов и необходимость надежного доступа в Интернет. Решения включают предоставление студентам дополнительной поддержки и ресурсов, поощрение последовательного использования платформ и обеспечение доступа к необходимым технологиям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно результатам исследования, электронные платформы высокоэффективны в улучшении языковых навыков студентов-журналистов. Предоставляя интерактивные, аутентичные и гибкие возможности обучения, эти платформы помогают развивать языковые навыки, необходимые для успешной журналистской карьеры.

Ключевые слова: языковые навыки, электронные платформы, журналистика, студенты, изучение иностранных языков, интерактивное образование, аутентичные материалы, гибкое обучение, совместное обучение.

Для цитирования: Шерматов Э.Й. Совершенствование языковых навыков: как электронные платформы приносят пользу студентам журналистики в изучении иностранных языков. // Inter education & global study. 2024. №6. С 155–160.

ENHANCING LANGUAGE SKILLS: HOW ELECTRONIC PLATFORMS BENEFIT JOURNALISM STUDENTS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

© Eldorjon Y. Shermatov[1]✉
[1]Uzbekistan University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan University of Economics and Service, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the digital age, foreign language skills are essential for journalism students to access a variety of sources, report on international issues, and communicate with a global audience.

AIM: the purpose of this study is to investigate how electronic platforms can improve the language skills of journalism students studying foreign languages.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

MATERIALS AND METHODS: this study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative case studies. among the participants are students of the Faculty of Journalism and teachers of various institutions.

DISCUSSION AND RESULTS: challenges identified include varying levels of student engagement and the need for reliable internet access. Solutions include providing students with additional support and resources, encouraging consistent use of platforms, and ensuring access to necessary technologies.

CONCLUSION: according to the results of the study, electronic platforms are highly effective in improving the language skills of journalism students. By providing interactive, authentic and flexible learning opportunities, these platforms help build the language skills necessary for successful journalism careers.

Keywords: language skills, electronic platforms, journalism, students, learning foreign languages, interactive education, authentic materials, flexible learning, collaborative learning

For citation: Eldorjon Y. Shermatov. (2024) 'Enhancing language skills: how electronic platforms benefit journalism students in learning foreign languages', Inter education & global study, (6), pp. 155–160. (In English).

In today's globalized world, journalism students are expected to possess strong language skills to effectively communicate and report on international events. The ability to understand and communicate in foreign languages has become increasingly valuable in the field of journalism. With the rapid advancement of technology, electronic platforms have emerged as powerful tools for teaching foreign languages and enhancing language skills among journalism students. This article explores the various ways in which electronic platforms benefit journalism students in learning foreign languages and improving their language proficiency.

Technology Enhanced Language Learning (TELL) has been extensively studied and acknowledged for its numerous benefits, as highlighted by Carr et al., Chirimbu and Tafazoli, Patel, and Yeşilel. As a result, the field has garnered significant attention. TELL provides individuals with the opportunity to connect various sources of knowledge and educational resources. Today's teenagers and young adults have unrestricted access to constantly evolving state-of-the-art technologies, which greatly enhance their communication and educational capabilities. Therefore, integrating technology that aligns with their daily lives is highly efficient.

Contemporary societies impose high expectations on individuals across various domains of life. These expectations emphasize the development of essential skills that go beyond mere knowledge and abilities. Competency entails effectively leveraging one's psychosocial resources, such as talents and attitudes, to successfully meet complex demands within specific contexts. For example, effective communication skills require linguistic proficiency, experience in real-life communication situations, and an understanding of the individuals involved. Tseng suggests that technology can significantly impact

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

language acquisition in areas such as phonetics, grammar, vocabulary, reading, writing, translation, auditory comprehension, literature appreciation, and assessment.

According to Asllani and Paçarizi, technology-based vocabulary learning can be adaptable and efficient. With the continuous advancements in internet-based technology, an increasing number of individuals are turning to it to enhance their English vocabulary.

The utilization of Technology Enhanced Language Learning (TELL) comes with both advantages and disadvantages. Extensive research has shown the numerous benefits of language education and learning. TELL caters to a wider range of learning methods and student preferences compared to traditional textbooks, providing a more comprehensive learning experience. Students can set their own learning goals, progress at their own pace, and choose relevant content, empowering them with a sense of freedom and autonomy. TELL activities simulate real-world scenarios, enhancing student engagement and motivation. This immersive approach enables students to deepen their understanding of the target language and culture, acquire new languages, and develop cross-cultural appreciation.

Despite the benefits, it is essential to consider the drawbacks of implementing TELL. Before incorporating TELL in classrooms, educators and students need a foundational understanding of technological concepts. The effectiveness of guiding students in utilizing technology for language learning depends on the teacher's familiarity with its usage. Secondly, integrating online materials into an effective language course can be challenging. Thirdly, students may prioritize the tools and resources provided by technology over the actual material being taught, which can deviate from the desired educational outcomes. Lastly, technological issues may disrupt the flow of language classes. Unfortunately, digital technology is susceptible to disruptions such as power outages or emergencies, compromising its reliability.

TELL offers numerous benefits, including diverse learning opportunities and increased student engagement. However, challenges such as technological literacy, integration issues, potential distractions, and technical interruptions need to be taken into account when implementing TELL in language education settings.

The integration of electronic platforms in language learning has proven to be highly beneficial for journalism students. These platforms offer a wide range of resources that cater to different learning styles and preferences. From interactive exercises and multimedia materials to language learning apps and online communities, students have access to a wealth of tools that enhance their language acquisition process.

Flexibility is another advantage offered by electronic platforms. Journalism students often have busy schedules due to their coursework and internships. Electronic platforms provide the flexibility to learn at their own pace and convenience, allowing them to fit language learning into their demanding routines. Whether it's accessing lessons and materials at any time or participating in online discussions and language exchanges,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

students have the freedom to choose when and how they engage with their language studies.

Personalization is a key aspect of electronic platforms. These platforms utilize adaptive learning technologies that tailor the learning experience to each individual student's needs. Through assessments and data analysis, students receive personalized feedback and recommendations, ensuring that they focus on areas that require improvement. This personalized instruction facilitates faster progress and increased motivation among journalism students.

Collaboration is also fostered through electronic platforms. Students can connect with peers and native speakers from around the world, engaging in virtual language exchanges and group projects. This collaborative learning environment not only enhances language skills but also promotes cultural understanding and global perspectives. Journalism students can learn from diverse voices and gain insights into different journalistic practices and perspectives.

Furthermore, electronic platforms provide real-world language application opportunities. Students can access authentic materials such as news articles, interviews, and podcasts, allowing them to develop their comprehension skills and stay updated with current events. By engaging with real-world language use, journalism students are better prepared to communicate and report on international news effectively. In conclusion, electronic platforms offer numerous benefits for journalism students in learning foreign languages and enhancing their language skills. The integration of these platforms provides access to diverse resources, flexibility, interactivity, personalization, collaboration, and real-world language application. By embracing electronic platforms, journalism educators can create dynamic and engaging language learning experiences that prepare students for the linguistic demands of the globalized media landscape.

As technology continues to advance, it is crucial for journalism students to adapt and leverage electronic platforms to their advantage. These platforms not only facilitate language acquisition but also instill important skills such as critical thinking, cross-cultural communication, and digital literacy. By equipping journalism students with strong language skills, educators empower them to effectively navigate the complexities of the modern media landscape and communicate with diverse audiences.

As we move forward, it is essential for educational institutions to prioritize the integration of electronic platforms in language learning curricula. By providing journalism students with access to innovative and effective language learning tools, we can ensure that they are equipped with the necessary skills to succeed in their careers as global communicators. With the continuous evolution of electronic platforms, the possibilities for enhancing language skills in journalism are endless, and it is up to educators and institutions to embrace these opportunities and propel language learning to new heights.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

1. Asllani, H., and Paçarizi, R. 2021. Enhancing second language incidental vocabulary learning through technology. Journal of Educational and Social Research, 11(4), pp. 107-117.
2. Carr, N. T., Crocco, K., Eyring,J. L., and Gallego, J. C. 2011. Perceived benefits of technology enhanced language learning in beginning language classes. International Association for Language Learning Technology Journal of Language Learning Technologies, 41(1), pp. 1–32. https://doi.org/10.17161/iallt.v41i1.8480
3. Chirimbu, S., and Tafazoli, D. 2013. Technology and media: Applications in language classrooms (TEFL, TESL and TESOL). Professional Communication and Translation Studies, [online] 6(1-2), pp. 187-194.
4. Eldorjon Shermatov. (2024). EVALUATING THE IMPACT OF HEMIS IMPLEMENTATION ON STUDENT OUTCOMES IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 443–447. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/1382
5. Patel, D. S. 2014. Significance of technology enhanced language learning (TELL) in language classes. Journal of Technology for English Language Teaching, [online] 4(2) Available at: Penado Abilleira, M., Rodicio García, M. L., Ríos-de Deus, M. P. and Mosquera González, M. J. 2021. Technostress in Spanish university teachers during the COVID-19 Pandemic. Frontiers in Psychology, 12, pp. 1-11.
6. Sumter, D., de Koning, J., Bakker, C., and Balkenende, R. 2021. Key competencies for design in a circular economy: Exploring gaps in design knowledge and skills for a circular economy. Sustainability, 13(2), pp. 776.
7. Tseng, S. (2019). Technology and learning English. International Journal of Liberal Arts and Social Science, [online] 7(1), pp. 14-29. Available at: <https://www.ijbmi.org/papers/Vol(6)2/version-4/E0602043033.pdf> [Accessed 7 November 2022].
8. Yeşilel, D. B. A. 2016. Technology-enhanced language learning for digital natives. Participatory Educational Research, [online] Special Issue 2016-IV, pp. 97-111.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shermatov Eldorjon Yovmiddinovich**,katta o'qituvchi [**Шерматов Элдоржон Ёвмиддинович,** старший преподаватель], [**Eldorjon Y. Shermatov,** senior teacher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent, Uch-tepa tumani, daha Chilonzor-G9A, ko'chasi Kichik xalka yo'li, 21 [адрес: Узбекистан, Ташкент, Уч-тепинский район, даха Чилонзор-G9A, улица Кичик халка, 21], [address: Uzbekistan, Tashkent, Uch-tepa district, daha chilonzor-G9A, street Kichik khalka yoli, 21]; E-mail: eeldorshermatov@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TARBIYA FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA MILLIY G'URURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA)

© Sh.Umarova[1]✉
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: milliy g‘urur shaxsiy va jamoaviy o‘zlikni anglashning asosiy jihati bo‘lib, millat ichida daxldorlik, birlik va madaniy uzluksizlik tuyg‘usini tarbiyalaydi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'ururni rivojlantirishning samarali metodikasini aniqlash va tahlil qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot amaliy tadqiqotlar, suhbatlar va sinf kuzatuvlaridan foydalangan holda sifatli yondashuvni qo'llaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni tarbiyalashning bir qancha asosiy strategiyalarini ta’kidlaydi. Bularga milliy tarix va madaniyatni o‘quv dasturiga kiritish, milliy ramzlar va an’analarni targ‘ib qilish, jamoatchilik ishtiroki va xizmat ko‘rsatishni rag‘batlantirish, o‘qituvchilar va ota-onalarning ta’sirchan rolidan foydalanish kiradi.

XULOSA: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish yaxlit va hamkorlikda yondashuvni talab qiladi. Milliy tarix va madaniyatni o‘quv dasturiga kiritish, milliy ramz va an’analarni targ‘ib qilish, jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish, o‘qituvchilar va ota-onalarning rolini qo‘llab-quvvatlash orqali pedagoglar yosh o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini samarali shakllantirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: milliy iftixor, boshlang'ich maktab o'quvchilari, ta'lim metodologiyasi, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, milliy ramzlar, madaniy meros, jamiyat ishtiroki.

Iqtibos uchun: Umarova Sh. Tarbiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarda milliy g'ururni rivojlantirish metodikasi (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida). // Inter education & global study. 2024. №6. B. 161–166.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (НА ПРИМЕРЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ)

© Ш.Умарова[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкентский, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ВВЕДЕНИЕ: национальная гордость является ключевым аспектом личной и коллективной идентичности, способствующим чувству принадлежности, единства и культурной преемственности внутри нации.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING GENERAL HUMAN VALUES IN ACADEMIC LYCEUM STUDENTS

© Navro'zbek Toshkenbaev[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: creative technologies of personal and professional qualities of academic lyceum students of the Ministry of Internal Affairs are put into practice. With the help of innovative pedagogical technologies, systematic work is being carried out on the implementation of large projects of the Ministry of Internal Affairs on improving the theoretical and practical issues of the psychological characteristics of personal and professional qualities of academic lyceum students, ensuring the mutual integration of science and culture.

AIM: this study is aimed at studying how the pedagogical process can help students of the academic lyceum of the Ministry of Internal Affairs to the theoretical foundations of the psychological characteristics of their personal and professional qualities. It explores theoretical frameworks, educational strategies, and practical approaches to developing strong communication skills essential for effective leadership roles.

DISCUSSION AND RESULTS: through a comprehensive review of literature and case studies, the research determines the theoretical basis of the psychological characteristics of personal and professional qualities of academic lyceum students of the Ministry of Internal Affairs, public speaking, negotiation tactics. It analyzes pedagogical methods such as role play exercises, simulation scenarios and coaching programs designed to improve leadership communication skills.

CONCLUSION: the study uses qualitative methods including literature synthesis, curriculum analysis, and interviews with teachers and leadership development experts. It shows the development and implementation of methodological opportunities of the Ministry of Internal Affairs aimed at the theoretical foundations of the psychological characteristics of personal and professional qualities of academic lyceum students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Key words: professional qualities, personal characteristics, pedagogical process, integration, psychological capabilities.

For citation: Navro'zbek Toshkenbaev (2024) Methodological possibilities of developing general human values in academic lyceum students, Inter education & global study, (6), pp. 217–222. (In Uzbek).

Akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari butun bir murakkab ko’p qirrali jarayonni tashkil etib, uning asosini huquqiy ma’rifatparvarlik, qonunchilik asoslariga o’rgatish, faoliyat to’g’risidagi bilimlarni singdirish hamda o’z-o’zini tarbiyalashda bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilish tashkil etadi.

Yoshlarning akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ularning huquqiy faol bo’lishini ham taqozo etadi. Akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari tartibotning har qanday shakli odamlarni ijtimoiy-amaliy faoliyatga, amaliyotga jalb etish bilan to’ldirilmog’i kerak.

“O’sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda (ta’limda) namoyon bo’ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o’tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi”.

Akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari tarbiya bir vaqtning o’zida ta’lim, o’qitish, xulq-atvor, ijtimoiy-huquqiy faollik e’tiqodlari, odatlari va malakalarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. Huquqiy tarbiyani huquqiy ta’lim yoki faqat huquqshunoslikni o’qitishdan iborat deb bilmaslik kerak. Oliy o’quv yurtlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni o’qitish jarayonida, darsdan tashqari ishlarda huquqshunoslar bilan ma’ruzalar, uchrashuvlar, yosh huquqshunoslar to’garagi kabilarni tashkil etish yo’li bilan o’tkazilishi lozim.

Akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari va bilimlarni amaliy hayotda qo’llay olishi va ta’limning mazmun-mohiyatiga bog’liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy ta’lim har bir shaxsning o’z bilishi va himoya qilishini ta’minlashning zaruriy sharti va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

“Jamiyatda ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish” to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ta’kidlaganidek “jamiyatda ong va madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ongga ta’sir etish shakllari va usullari; huquqiy ongning psixologik jihatlari; huquqiy ongdagi ijtimoiy buzilish va salbiy o’zgarishlar; aholining turli qatlam va ijtimoiy guruhlarining huquqiy madaniyati kabi dolzarb muammolar bo’yicha ilmiy tadqiqotlar o’tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Bundan kelib chiqadiki, huquqiy madaniyat nazariyasi o'quv fanini o'rganishning umumiy asosini, va xususiyatlarini quyidagilar tashkil etadi:

birinchidan, huquqiy madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari (talablar);

ikkinchidan, huquqiy madaniyat bo'yicha sharq falsafasi (islom ta'limoti);

uchinchidan, o'zbek milliy mafkurasi;

to'rtinchidan, tarixiy-huquqiy meros va tajriba

Huquqiy madaniyat, eng avvalo, umuminsoniy qadriyatlarga, umumjaxon sivilizatsiyasiga, bu soxada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning xamma e'tirof etgan prinsiplari va me'yorlariga asoslanadi[101].

Yoshlarning huquqiy ongi - murakkab mafkuraviy, ijtimoiy-me'yoriy va psixologik kompleks bo'lib, u ijtimoiy-huquqiy voqelikning xilma-xil unsurlarini aks ettiradi. Yosh insonning individual huquqiy ongini huquqiy qarashlar, tasavvurlar va e'tiqodlar, sezgilar va xissiyotlar yig'indisidan vujudga keladigan ma'naviy xosila deb ta'riflash mumkin. Shularga muvofiq, u huquqning talabini, huquqiy xodisalarni baxolaydi, ularga o'zining munosabatini hamda jamiyat manfaatlari va shaxsiy manfaatlar yo'lida muayyan huquqiy xarakatlar qilishga tayyorligini aniqlaydi. Shunday qiilib, yoshlarning huquqiy ongini bemalol ijtimoiy huquqiy ongning ayrim xodisasi (mavjudlik) deb hisoblash mumkin bo'lib, uning ifodachisi bo'lgan subyekt unga o'ziga xoslik baxsh etadi.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot g`oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o`z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

Akademik litsey o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi.

Akademik litsey o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ta'lim berish, uni rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalari amalga oshirilishi natijasida shaxsni rivojlantirish jarayonida kompleks yondashuvga erishiladi.

Bilimlarni egallash jarayonida vujudga keladigan usullar va elementlarning o'zlashtirilishi (ko'nikma) hosil bo'ladi hamda shu usul va elementlarni to'g'ri tanlab, foydalanish yo'llarining egallanishi (malaka)ga erishiladi. Huquqiy bilim asosida shaxsda huquqiy ong rivojlanishiga erishiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlarning o‘rni va ahamiyati // Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - Б. 34-37.
2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57.
3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)
4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)
1. 5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (https://wos.academiascience.org)

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Toshkenbayev Navro‘zbek,** mustaqil tadqiqotchi, [**Тошкенбаев Наврузбек** независимый исследователь**.**], [**Navro‘zbek Toshkenbaev,** independent researcher]; manzil: O'zbekiston, 100183, Toshkent, Chilonzor tumani, xiebon Bunyodkor, 27 [адрес: Узбекистан, 100183, г. Ташкент, Чиланзорский район, проспект Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 100183, Tashkent, Chilonzor district, 27 Bunyodkor avenue].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TARBIYA FANINI O‘QITISHNING HUQUQIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

© O.M. Temirova[1]✉
[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: huquqiy va pedagogik tamoyillarning kesishishi ta'lim fanini samarali o'qitishning hal qiluvchi asosini tashkil qiladi. Ushbu tamoyillarni tushunish va integratsiyalash ta'lim amaliyotining huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi va pedagogik mukammallikni ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot ta'lim fanini o'qitish uchun zarur bo'lgan huquqiy va pedagogik asoslarni o'rganadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim fanini o'qitishning huquqiy va pedagogik asoslarini o'rganishdir. Tadqiqot ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun pedagoglar e’tiborga olishlari kerak bo‘lgan asosiy huquqiy talablar va pedagogik strategiyalarni aniqlashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot adabiyotlarni ko'rib chiqish, amaliy tadqiqotlar va ekspert suhbatlarini o'z ichiga olgan sifatli tadqiqot metodologiyasidan foydalanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy va pedagogik tamoyillarni samarali o'zida mujassam etgan muassasalar qonun talablariga javob beradigan va yuqori sifatli ta'lim berishga yaxshi tayyorlangan pedagoglarni tayyorlaydi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim fanini samarali o‘qitish uchun mustahkam huquqiy-pedagogik poydevor zarur. Qonunchilik talablarini ilg‘or pedagogik tajribalar bilan integratsiyalashgan holda, ta’lim muassasalari o‘z dasturlari sifatini oshirishi va bo‘lajak pedagoglarni yaxshiroq tayyorlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: huquqiy asoslar, pedagogik strategiyalar, ta'lim fani, axloqiy me'yorlar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchi malakasi, talaba huquqlari, kasbiy rivojlanish, ta'lim siyosati, qonuniy muvofiqlik

Iqtibos uchun: Temirova O.M. Tarbiya fanini o‘qitishning huquqiy-pedagogik asoslari // Inter education & global study. 2024. №6. B. 223–229.

ПРАВОВО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

© О.М. Темирова[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: пересечение правовых и педагогических принципов является важнейшей основой эффективного преподавания образования. Понимание и интеграция этих принципов обеспечивает соответствие образовательной практики правовым стандартам и педагогическое мастерство. В данном исследовании рассматриваются правовые и педагогические основы, необходимые для преподавания естественных наук.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение правовых и педагогических основ образования. Исследование направлено на выявление основных законодательных требований и педагогических стратегий, которые педагогам следует учитывать в целях повышения качества и эффективности образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании используется качественная методология исследования, которая включает обзор литературы, тематические исследования и интервью с экспертами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: тематические исследования показывают, что учреждения, которые эффективно интегрируют правовые и педагогические принципы, выпускают преподавателей, которые соблюдают законы и хорошо подготовлены для предоставления высококачественного образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показывает, что для эффективного преподавания образования необходима прочная правовая и педагогическая основа. Интегрируя требования законодательства с лучшими педагогическими практиками, образовательные учреждения могут повысить качество своих программ и лучше подготовить будущих педагогов.

Ключевые слова: правовая база, педагогические стратегии, педагогическая наука, этические стандарты, разработка учебных программ, квалификация учителей, права студентов, профессиональное развитие, образовательная политика, соблюдение законодательства

Для цитирования: Темирова О.М. Правово-педагогические основы преподавания науки образования // Inter education & global study. 2024. №6. С. 223–229.

LEGAL-PEDAGOGICAL BASIS OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION

© Odina M. Temirova[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the intersection of legal and pedagogical principles is a crucial basis for effective teaching of education. Understanding and integrating these principles ensures compliance of educational practices with legal standards and ensures

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

pedagogical excellence. This study examines the legal and pedagogical frameworks necessary for teaching science.

AIM: the purpose of this study is to study the legal and pedagogical foundations of education. The research is aimed at identifying the main legal requirements and pedagogical strategies that pedagogues should take into account in order to improve the quality and effectiveness of education.

MATERIALS AND METHODS: this study uses a qualitative research methodology that includes literature review, case studies and expert interviews.

DISCUSSION AND RESULTS: case studies show that institutions that effectively integrate legal and pedagogical principles produce educators who are legally compliant and well-prepared to provide high-quality education.

CONCLUSION: the study shows that a strong legal and pedagogical foundation is necessary for effective teaching of education. By integrating legislative requirements with best pedagogical practices, educational institutions can improve the quality of their programs and better prepare future educators.

Key words: legal framework, pedagogical strategies, educational science, ethical standards, curriculum development, teacher qualification, student rights, professional development, educational policy, legal compliance

For citation: Odina M. Temirova (2024) 'Legal-pedagogical basis of teaching science of education', Inter education & global study, (6), pp. 223–229. (In Uzbek).

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimidan nafaqat bilim berishni, balki yosh avlodda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, fuqarolik mas'uliyatini, ijtimoiy faollikni shakllantirishni ham talab qilmoqda. Ta'lim tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, barkamol shaxsni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Boshqa mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham tarbiya fanini o'qitishning huquqiy-pedagogik asoslarini mustahkamlash zarurati vujudga keldi, bu esa jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta 'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo 'llaniladi.[1]

2020 yil yakunlaridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'limtarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz" – degan fikirlari ta'lim sohasidagi amalga oshirilib kelinayotgan ishlarimizni samarali tashkil etishimiz uchun dasturul amal bo'ladi. [2]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

O‘zbekistonda ta’limni o‘qitishning huquqiy asoslari ta’lim muassasalari va pedagoglar faoliyatini tartibga soluvchi bir qator huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Eng muhim hujjatlar quyidagilardir:

- “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, (06.07.2020 yildagi 422-son). Ushbu qarorda 2020-yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar “Tarbiya” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv dasturlari va darsliklar asosida umumta’lim maktablaridagi “Boshlang‘ich ta’lim”, “Milliy g‘oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida “Tarbiya” fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin” vazifasi yuklatilgan.[3]

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ta’lim tizimining, jumladan, bolalar va yoshlarda axloqiy va fuqarolik fazilatlarini tarbiyalashning umumiy tamoyillari va vazifalarini belgilab beradi. Ushbu qonunda ta’lim va tarbiya tushunchalariga alohida urg’u berib o’tilgan.

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;[4]

- “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2022 yildagi PQ-241-son. Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi, kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Ushbu qarorda Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va bu borada maktab direktori, ota-onalar va mahalla raislari mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab respublikaning barcha tuman (shahar)lari kesimida namunali maktablar reytingini (keyingi o‘rinlarda — reyting) shakllantirsin va e’lon qilib boorish vazifasi belgilab qo’yilgan.[5]

- “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son

- Tarbiya va ta’lim milliy dasturi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini, madaniy va milliy an’analarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish, shuningdek, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatlar ta'lim dasturlari va loyihalarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini ta'minlaydi, o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi huquq va majburiyatlarini belgilaydi, shuningdek, ta'lim sohasidagi me'yor va qoidalarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ta'limga pedagogik yondashuvlar

O‘zbekistonda ta’limning pedagogik asoslari zamonaviy ta’lim yondashuvlariga asoslanadi, ular: ta’lim va tarbiya vazifalarining integratsiyasi. ta'lim faoliyati o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi; ta’limga kompleks yondashuv. ta'lim shaxsning jismoniy, axloqiy va intellektual rivojlanishining birligi asosida amalga oshiriladi. har bir bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi; interaktiv usullardan foydalanish. o‘quvchilarning munozaralar, rolli o‘yinlar, loyihalar va boshqa interfaol shakllar orqali o‘quv jarayoniga faol jalb etilishi tanqidiy fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi; ota-onalar va jamoatchilik ishtiroki. ta'lim maktab, oila va jamiyatning birgalikdagi vazifasi sifatida qaraladi. bunda ta’lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etayotgan jamoat tashkilotlari, mahallalar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan qator dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlarga quyidagilar kiradi:

- Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, davlat ramzlari va madaniy an’analarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan “Vatanni sevmoq iymondandir”, -degan hadis zamirida ham huddi shunday mazmun mujassam.Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, vatanga e’tiqod tuyg‘usi xalqimiz tomonidan qadimdan e’zozlanib kelinganining guvohi bo‘lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo‘lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlari va tarixiy ma’lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin. [6]

- Etnomadaniy tarbiya, uning maqsadi bolalar va yoshlarda madaniy va etnik tafovutlarga hurmatli munosabatni shakllantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlashdan iborat. Etnomadaniy tarbiya pedagogikaning nihoyatda muhim jihati hisoblanadi, chunki u ko‘p millatli dunyoda shaxsning to‘liq ijtimoiylashuviga yordam beradi. Bu faqat ma'lum bir etnik jamoaning ma'lum bilimlari, qadriyat g'oyalari to'plami emas, balki belgi-ramziy asoslar orqali o'z xalqining axloqiy, axloqiy va estetik qarashlarini anglashni, takrorlashni ta'minlaydi. Etnomadaniy ta'lim boshqa xalqlar madaniyatiga o'xshash munosabat bilan uyg'unlashgan holda o'z xalqining madaniyatini tushunish, hurmat qilish uchun asos yaratadi. Bunday ta'limni amalga oshirish natijasi yaxlit dunyoqarash va qadriyat yo'nalishlarining o'zlashtirilgan tizimidir.[7]

- Ekologik tarbiya, o'quvchilarda atrof-muhit va tabiiy resurslarga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Ekologik ta'lim-tarbiyani bog'chalar va maktablarda olib borish yo'llari. Tabiat, uning go'zalligi va tabiiy boyliklarni saqlash borasidagi ishlarni oila, bog'cha bolalari va maktab o'quvchilari orasida olib borishdan boshlab, yosh va o'sib kelayotgan avlodni atrof muhit, undagi o'simlik, hayvon, suv va tuproqqa mehr-shafqatli, ularni asraydigan, boyitadigan jonkuyar qilib tarbiyalash kerak. Ushbu dasturlar maktablar va universitetlarning o'quv dasturlari doirasida, shuningdek, maktabdan tashqari tadbirlar, jamoat tadbirlari va loyihalari orqali amalga oshiriladi.[8]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Tarbiya – shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlovchi, yoshlarni jamiyatdagi faol va mas'uliyatli hayotga tayyorlovchi ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismidir. O'zbekistonda ta'limga o'qitishning huquqiy-pedagogik asoslari ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi, o'qituvchi va o'quvchilarning huquqiy himoyasini ta'minlaydi, shuningdek, yosh avlodda axloqiy va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol usullardan foydalanish, ta'lim jarayonida ota-onalar va jamiyatning faol ishtiroki o'quvchilarda axloqiy va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarni, shuningdek, ta'lim tizimi oldida turgan yangi vazifalarni hisobga olgan holda ta'lim tizimini takomillashtirishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бордовская Н., Реян А. Педагогика. –Санкт-Петербург, 2001. –С.32
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.
3. UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA "TARBIYA" FANINI BOSQICHMA-BOSQICH AMALIYOTGA JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.07.2020 yildagi 422-son
4. TA'LIM TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
5. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2022 yildagi PQ-241-son
6. Sh.N.Abduraxmanov. O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. December 2022. 1089-1092-betlar.
7. https://minikar.ru/uz/prayers/etnokulturnoe-vospitanie-sushchnost-etnokulturnogo-vospitaniya-detei-i/
8. Ilxamdjanova D. S. EKOLOGIK TA'LIM TARBIYA YOSHLAR NIGOHIDA //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 49-54.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Temirova Odina Muhidin qizi**, mustaqil tadqiqotchisi, [**Темирова Одина Муҳидин қизи,** независимого исследователя.], [**Temirova Odina Muhidin qizi,** independent researcher]; manzil: O'zbekiston, Namangan sh., 160107, Bobur shox ko'chasi, 161-uy [адрес: Узбекистан, 160107, улица Бобуршоха, 161 Наманган], [address: Uzbekistan, 161, Bobur shokh Street, 160107 Namangan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TA’LIM JARAYONIDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINING ILK BOSQICHINI TASHKIL ETISH VA O’TKAZISH METODIKASI

© A.Z. Po‘latova[1]✉
[1]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishning o’ziga xos tomonlari, tajriba-sinov ishlarida inson predmeti, tajriba-sinov o’tkazishdagi o’ziga xos talablar va anketa so’rovnomalari, tajriba-sinovning maqsadi, qoidalari hamda natijalari haqidagi muammolar haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi Annemariye Shimmel merosi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga yo’naltirligan pedagogic tajriba-sinov ishlarining ilk bosqichi natijalarini tahlil qilishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: maqolada tajriba-sinov ishlarining izlanuvchi va ta’kidlovchi bosqichlari muhokama qilinadi. Tadqiqot maydonlarida o’tkazilgan tajriba-sinovning birinchi bosqichi natijalari e’lon qilinadi. Bunda to’rrta oliy ta’lim muassasasida talabalar ishtirokida o’tkazilgan anketa savol-javoblari natijalari muhokama qilinadi. Annemarie Schimmel merosi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish haqida rejalar tuzilgan.

XULOSA: tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil tadqiqotning kelgusidagi amaliy maqsadlarini aniqlashtirib olishga, tadqiqot mavzusi yuzasidan amaliy qo’llanmalar mazmunini belgilashda muhim rol o’ynaydi.

Kalit so’zlar: tajriba-sinov, annemariye shimmel, ma’naviy-axloqoy fazilatlar, tadqiqot mavzusi, anketa-so’rovnoma, matematik statistik tahlil, ilmiy faraz

Iqtibos uchun: Po‘latova A.Z. Ta’lim jarayonida tajriba-sinov ishlarining ilk bosqichini tashkil etish va o’tkazish metodikasi, // Inter education & global study. 2024. №6. B. 230–235.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ПЕРВОГО ЭТАПА ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© А.З. Пулатова[1]✉
[1]Навоийский государственный педагогический институт, Навои, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ВВЕДЕНИЕ: В статье описаны конкретные аспекты проведения педагогических экспериментов, человек-испытуемый в экспериментах, конкретные требования и анкеты для проведения экспериментов, обсуждаются цели, правила и результаты экспериментов.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является анализ результатов первого этапа педагогического эксперимента-апробации, направленного на разработку педагогических механизмов формирования духовно-нравственных качеств у учащихся на основе наследия Аннемари Шиммель.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в статье рассматриваются поисковые и акцентирующие этапы экспериментальной работы. Результаты первого этапа эксперимента, проведенного на исследуемых территориях, будут объявлены позже. И обсуждаются результаты анкетирования, проведенного с участием студентов четырех вузов. На основе наследия Аннемари Шиммель планировалось разработать педагогические механизмы формирования духовно-нравственных качеств у студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: математико-статистический анализ наряду с логическими выводами при обобщении результатов экспериментальной работы играет важную роль в выяснении будущих практических целей исследования, в определении содержания практических приложений по теме исследования.

Ключевые слова: эксперимент-тест, Аннемари Шиммель, духовно-нравственные качества, тема исследования, анкета-опросник, математическо-статистический анализ, научная гипотеза.

Для цитирования: Пулатова А.З. Методика организации и проведения первого этапа экспериментальной работы в образовательном процессе // Inter education & global study. 2024. №6. С. 230–235.

METHODOLOGY OF ORGANIZING AND CONDUCTING THE FIRST STAGE OF EXPERIMENTAL WORK IN THE EDUCATIONAL PROCESS

© Zubayda A. Po'latova[1]✉
[1]Navoi state pedagogical institute,Navoi,Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article describes specific aspects of conducting pedagogical experiments, the human subject in the experiments, specific requirements and questionnaires for conducting experiments, and discusses the goals, rules and results of the experiments.

AIM: the purpose of this article is to analyze the results of the first stage of a pedagogical testing experiment aimed at developing pedagogical mechanisms for the formation of spiritual and moral qualities in students based on the legacy of Annemarie Schimmel.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

DISCUSSION AND RESULTS: the article discusses the searching and emphasizing stages of experimental work. And the results of the first stage of the experiment, conducted in the study areas, announced here. And the results of a survey conducted with the participation of students from four universities are discussed. Based on the legacy of Annemarie Schimmel, it was planned to develop pedagogical mechanisms for the formation of spiritual and moral qualities in students.

CONCLUSION: mathematical and statistical analysis, along with logical conclusions when generalizing the results of experimental work, plays an important role in clarifying the future practical goals of the study, in determining the content of practical applications on the research topic.

Key words: experiment test, Annemarie Schimmel, spiritual and moral qualities, research topic, questionnaire, mathematical and statistical analysis, scientific hypothesis

For citation: Zubayda A. Po‘latova, Methodology of organizing and conducting the first stage of experimental work in the educational process ,// Inter education & global study, (6), pp. 230–235. (In Uzbek).

Pedagogik tajriba-sinov bu, umummilliy tafakkur jarayoni bo‟lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar o‟rtasidagi sabab va oqibatlar bilan bog’liq o’rganiladigan bir yoki bir necha obyekt yoxud tizimlarni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkonini beruvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishlari asosan ta`lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki yangicha usullarning tatbiqiy jarayonlarini sinash, tekshirish, aniqlash maqsadida o’tkaziladi. Pedagogik tajriba-sinovlar o’tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo’naltirilgan, mutlaqo yangicha muhitni olib kirishdan iborat.[1]

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish jarayonida Annemariye Shimmel merosi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etiladi. Talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga oid bilimlari kengayib, to’g’riso’zlik, halollik, sadoqat, mehnatsevarlik, ilm olish, ustozga bo’lgan hurmat, shijoat, intizom, vatanni sevmoq, sabrli, qanoatli bo’lish kabi bir qancha ijobiy fazilatlarni o’ziga kasb qilgan, manmanlik, ilmsizlik, zo’ravonik, yolg’onchilik, dangasalik, g’azab, g’iybat, zulm kabi salbiy xislatlardan o’zini, qalbini tozalaydigan barkamol avlodni tarbiyalash tizimi ishlab chiqiladi.

Izlanuvchi tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: talabalarning Annemariye Shimmel merosini o’rganishga bo’lgan munosabatini o’rganish; talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarni bilish ko’nikmalari, ijobiy va salbiy fazilatlar haqidagi bilimlarini tekshirib ko’rish; annemariye Shimmel merosi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlar borasidagi pedagogik va didaktik qarashlarini o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini o’rganish; ilmiy faraz ilgari surilib, amaliyotga tavsiya etilgan maxsus metodikaning tarkibiy elementalarini aniqlash.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi, ya'ni: annemariye Shimmel pedagogik qarashlarining mazmun-mohiyati ochb berilsa; talaba ma'naviy-axloqiy kamolotini yuksaltirishga qo'yiladigan talablar takomillashtirilsa, pedagogik jarayonnig samaradorligi yanada ortadi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarida o'rganish, tahlil qilish, anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish, pedagogik ekperiment, matematik statistika kabi metodlardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining izlanuvchi va ta'kidlovchi bosqichlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat univeriteti, Samarqand Davlat chet tillar instituti va Buxoro Davlat universitetlari tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab olindi.

Annemariye Shimmel hayoti va ijodi, ma'naviy merosi haqidagi bilimlar, ma'naviy-axloqiy faziltlardan xabardor bo'lish haqidagi bilimlarni tekshirish maqsadida talabalardan anketa so'rovnoma olindi. Bunda 204 ta talaba ishtirok etdi, jumladan, 162 ta qiz, 42 ta o'g'il bola. Talalbalarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1	Annemariye Shimmelning hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishmisiz?	Ha Yo'q Endi bilib olaman
2	Annemariye Shimmel qachon va qayerda tug'ilgan?	1922-yil Germaniyaning Erfurt shahrida 1955-yil Germaniyaning Go'ttingen shahrida 1905 –yil Shvetsariyaning Bern shahrida
3	Annemariye Shimmelning "Jonon mening jonimda" asarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?	Poshali Usmon Erkin Vohidov Yo'ldosh Parda
4	Ma'naviy-axloqiy fazilatlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.	qanoat, tama, ilm, sabr, hilm, intizom Vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat hasad, nifoq, zulm, shijoat, xayrixohlik
5	Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim deb o'ylaysizmi?	Ha muhim Unchalik muhim emas Ta'limda faqat ilm o'rgatish muhim
6	Siz insonlardagi qaysi ijobiy fazilatlarni qadrlaysiz?	(javoblar yoziladi)
7	Siz talabalardagi qaysi salbiy xislatlarni tuzatish kerak deb hisoblaysiz?	(javoblar yoziladi)
8	Annemariye Shimmelning din, solih amallar va yaxshi axloq borasidagi pedagogik va didaktik qarashlaridan xabardor bo'lishni istaysizmi?	Ha Yo'q Mustaqil bilib olaman

1-savolga 18 ta talaba "ha", 122 ta talaba "yo'q", 74 ta talaba "endi bilib olaman" degan javobni tanlagan. Bu javoblardan ma'lum bo'ldiki, jami 91% talaba Annemariye Shimmel hayoti va ijodi bilan tanish emas.

2- savolga 95 ta talaba to'g'ri javob tanlagan. Bu jami talaba sonining 44 % ini tashkil etdi.

3- Annemariye Shimmelning "Jonon mening jonimda" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan tarjimon haqidagi savolga 77 ta talaba to'g'ri javob tanlagan. Bu jami talaba sonining bor yo'g'i 38% ini tashkil etdi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

4-savol Ma’naviy-axloqiy fazilatlar haqidagi savolga 109 ta talaba to’g’ri javob bergan. Bu esa jami talaba sonining 53%ini tashkil etdi. Bu natijadan ma’lum bo’ldiki, talabalarning yarmi ma’naviy-axloqiy fazilatlar haqida aniq tushunchalarga ega emas.

5-savol Talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhimlik darajasi haqidagi savolga 168 ta talaba “ha, muhim”, 12 ta talaba “muhim emas”, 10 ta talaba “ta’limda faqat o’rgatish muhim” degan javobni bergan, 14 ta talaba savolga befarq bo’lgan. Demak talabalarning 82% i oliy ta’lim muassasalarida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim deb hisoblashadi.

6-savol “Siz insonlardagi qaysi ijobiy fazilatlarni qadrlaysiz” degan savolga javoblar quyidagicha bo’ldi:

“Rostgo’ylik” javobini jami 74 ta talaba yozgan. Sadoqat-22 ta, adolat-20 ta , sabr-24 ta, samimiylik-26 ta, hurmat-30 ta, mehribonlik-24 ta, intizom-15 ta, ilmli bo’lish fazilatini 14 ta, odamiylik fazilatini-12 ta talaba javob tariqasida yozgan. Bundan tashqari talabalar kamtarlik, shukronalik, bag’rikenglik kabi ijobiy faziltlarni qadrlashini aytgan.

7-“Talabalardagi qaysi salbiy xislatlarni tuzatish kerak, deb o’ylaysiz” degan savolga javoblar quyidagicha bo’ldi :

Dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik kabi salbiy xislatlarni-32 ta, manmanlik, mensimaslik-21 ta, yolg’onchilik-20 ta, hurmatsizlik-12 ta, ilm olishga bo’lgan sustkashtlik-15 ta, ikkiyuzlamachilk- 9 ta, salbiy fikrlash-8 ta, darsga kechikish-7 ta, hasad-6 ta talaba bergan. Bundan tashqari talabalar o’z javoblarida betgachoparlik, vaqtdan unumli foydalanmaslik, darsga to’g’ri yondoshmaslik, o’zboshimchalik, loqaydlik, internetga qaramlik, g’iybat, maqtanchoqlik kabi salbiy xislatlarni javob tariqasda yozishgan. 7-savolga berilgan javoblardan xulosa qilish mumkinki, talabalar tomonidan yozilgan, ularda eng ko’p uchraydigan yuqoridagi kamchilik va salbiy illatlarni yo’qotish muammosini hal qilish tadqiqot ihining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanishi kerak.

8-savol “Annemariye Shimmelning din, solih amallar va yaxshi axloq borasidagi pedagogik va didaktik qarashlaridan xabardor bo’lishn istaysizm?” degan savolga 128 ta talaba tasdiq javobini berganligidan ko’rish mumkinki, jami 63% talaba Annamariye Shimmelning pedagogik qarashlarini o’rganishni istaydi.

Anketa-so’rovnomada qatnashgan talabalarning javoblarini chuqur tahlil qilgan holda tajriba-sinovning shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarini o’tkazishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

O’quv-mashg’ulotlar jarayonida:

1. Annemariye Shimmel hayoti va ijodiy faoliyati bilan talabalarni yaqindan tanishtirish;
2. Annemariye Shimmelning o’zbek tiliga tarjima qilingan asarlari haqida to’liq ma’lumot berish;
3. Talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlar haqidagi bilimlarini oshirish ularni o’ziga singdirish ko’nikmasini shakllantirish;
4. Annemariye Shimmelning pedagogik va didaktik qarashlari haqida ma’lumot berish;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

O’quv-mashg’ulotlaridan tashqarida:

5. Annemariye Shimmel asarlaridan foydalangan holda talabalardagi dangasalik, manmanlik, yolg’onchilik, ilmga olishga bo’lgan sustkashlik kabi salbiy xislatlarni tuzatishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo’llash;

6. Talabalardagi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni baholashning muayyan indikatorlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo’llash.

7. Talabalarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsdan tashqari ma’naviy tadbirlar, suhbat, savol-javoblar tashkil etish.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil tadqiqotning kelgusidagi amaliy maqsadlarini aniqlashtirib olishga, tadqiqot mavzusi yuzasidan amaliy qo’llanmalar mazmunini belgilashda muhim rol o’ynaydi. Tajriba-sinovning birinchi bosqichini o’tkazilgandan so’ng quyidagi xulosalarga kelindi:

- Oliy ta’limning nemis tili yo’nalishi talabalari nemis islomshunos, sharqshunos olimasi Annemariye Shimmel hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishishni, uning boy merosidan bahramand bo’lib ma’naviy-axloqiy fazilarni o’zlariga kasb qilishni istaydilar.
- Tadqiqot mavzusi bo’yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining keying bosqichlari yuqoridagi ilk bosqich natijalaridan kelib chiqib tashkil etiladi.
- Tajriba-siovning ilk bosqichini nemis tili ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar (SamDCHTI, BuxDU, O’zDJTU) bilan birga boshqa ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar (SamDU) bilan ham o’tkazildi. Nemis tili yo’nalishlarini tanlashdan maqsad tadqiqot mavzusi nemis olimasi bilan bog’liq bo’lganligi sababli talabalar bu olima hayoti bilan tanish deb o’ylagandik. So’rovnoma natijalari tahlilidan kelib chiqilsa, masalan BuxDU talabalarining xabardorlik darajasi(1-,2-,3-savollar javoblariga tayanib) 20% ni, SamDU talabalarniki 38,5 % ni tashkil etdi, ikkala hududning natijasi 50% dan kam. Shuning uchun tadqiqotning keying bosqichlarini barcha tanlangan hududlarda olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. S.Abduraimov, D. Xudoyqulova. “Pedagogik tajriba - sinov ishlarini tashkil etish va unga qo’yiladigan talablar”. INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES. Челябинский государственный институт культуры: 2023

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Po’latova Zubayda Abduravupovna**, tayanch doktorant [**Зубайда Пулатова Абдуравуповна**, докторант], [**Zubayda A. Pulatova**, PhD student]; manzil: Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Lev Tolstoy ko’chasi, 31-uy 3-xonadon [адрес: ул.Лев Тольстого, дом 3 кв.3, город Навои, Навоийская область], [address: Lev Tolstoy st. 31.3. , Navoi city, Navoi region]; E-mail: p.zubi@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARNI NUTQINI O‘STIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

© Z.A. Qo‘ychiyeva[1]✉

[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: nutq eng yuqori aqliy funktsiya sifatida intellektual faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, nutq faoliyati va fikrlash jarayonlarini amalga oshirishning yetakchi vositasi sifatida til uzoq vaqt davomida psixologiya va tilshunoslikni o‘rganuvchi mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar insonning ontogenez jarayonida tilni o‘zlashtirish va nutq qobiliyatini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini, jamiyatdagi nutq faoliyati jarayonlari xususiyatlarini tavsiflovchi yetarlicha material to‘plash va umumlashtirish imkonini beradi. Tilni to‘g‘ri o‘rganish, uning grammatik tuzilishiga e’tibor berib so-*‘zlashish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda erkin muhokama yuritish, savollar berish, boshqalardan eshitgan fikrlari yuzasidan xulosalar chiqarish, narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikning to‘g‘ri anglab yetishga olib keladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqot pedagogik jarayon bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qanday yordam berishi mumkinligini o‘rganishga qaratilgan. U samarali yetakchilik rollari uchun muhim bo‘lgan mustahkam aloqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nazariy asoslar, ta’lim strategiyalari va amaliy yondashuvlarni o‘rganadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: adabiyot va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan, shaxslararo muloqot, ommaviy nutq, muzokaralar taktikasni aniqlaydi. Unda yetakchilik bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirish uchun mo‘ljallangan rolli o‘yin mashqlari, ijodiy topshiriqlar, badiiy matn ustida ishlash ,ta’lim metodlari kabi pedagogik usullar tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot adabiyotlarni sintez qilish, ta’lim dasturlarini tahlil qilish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan sifatli usullardan foydalanadi. Unda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini qaratilgan metodik imkoniyatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini, ulardagi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish texnikalarini ko‘rib chiqildi.

XULOSA: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining birinchi va ikkinchi o‘quv yillaridan so‘ng taklif etilgan metodika bo‘yicha tayanch kompetensiyalari shakllanganligi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

darajasining tashxisi davomida, innovatsion faoliyatda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning integrativ modeli va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarining joriy etilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z faoliyatlarining maqsadini mustaqil belgilashlari, amalga oshirilgan xatti-harakatlarni tahlil qilishlari, muayyan xatti-harakatning oqibatlarini aniq belgilaganliklari, o‘zlari va atrofdagilarga to‘g‘ri baho berishlari, hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish va kelishilgan holda bajarishlari, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashlariga yordam berganligi tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: nutq, nutq faoliyati, boshlang‘ich sinf, ta’lim metodlari, baholash ko‘nikmalari, kommunikativ hamkorlikdagi faoliyat.

Iqtibos uchun: Qo‘ychiyeva Z.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari // Inter education & global study. 2024. №6. B. 236–243.

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАЗВИТИЮ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

© З.А. Куйчиева[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: речь как высшая психическая функция является важнейшим компонентом интеллектуальной деятельности, а язык как ведущее средство речевой деятельности и мыслительных процессов издавна находится в центре внимания психологии и языкознания. Теоретические и экспериментальные исследования позволяют собрать и обобщить достаточный материал, характеризующий общие закономерности овладения языком и формирования речевых способностей в процессе онтогенеза человека, особенности процессов речевой деятельности в обществе. Правильное изучение языка, говорение, обращая внимание на его грамматический строй, свободное обсуждение, задавая вопросы, делая выводы на основе услышанного мнения других, приводит к правильному пониманию связи между вещами и событиями.

ЦЕЛЬ: данное исследование направлено на изучение того, как педагогический процесс может помочь улучшить методическую подготовку будущих учителей начальной школы к развитию речи учащихся. В нем исследуются теоретические основы, образовательные стратегии и практические подходы к развитию сильных коммуникативных навыков, необходимых для эффективной руководящей роли.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы качественные методы, включающие синтез литературы, анализ образовательных программ, совершенствование методической подготовки будущих учителей начальной школы

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

к развитию речи учащихся. Показана разработка и реализация методических возможностей, направленных на методическую подготовку будущих учителей начальной школы к развитию речи учащихся. Рассмотрены приемы обучения, направленные на развитие речевых и коммуникативных навыков учащихся младших классов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе комплексного обзора литературы и тематических исследований в исследовании определены основные компоненты методической подготовки будущих учителей начальной школы к развитию речи учащихся, включая межличностное общение, публичную речь, тактику ведения переговоров. В ней анализируются такие педагогические методы, как ролевые упражнения, творческие задания, работа над художественным текстом, воспитательные методы.

Key words: model, language learning, Pen Pals, world language, continuous education.

For citation: Shohista A. Rustamova. (2024) A model of using the "Pen Pals" project in teaching English to students, Inter education & global study, (6), pp. 272–281. (In Uzbek).

Mamlakatimiz ta’lim siyosatidagi ijobiy o‘zgarishlar, zamonaviy yondashuvlar amalga oshirilayotganligini shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik pozitsiyasiga o‘tishi bilan izohlash mumkin. Zamonaviy ta’limning vazifalaridan biri - ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarga sharoit yaratib berish va ularga ijodiy qobiliyatlarni namoyon etish imkoniyatini berishdan iborat. Ta’lim jarayonlarida o‘zgaruvchanlikni amalga oshirmasdan turib, bu muammolarni hal qilish mumkin emas. Bu esa, ta’lim islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘yish zaruratini asoslaydi. Ayniqsa uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o‘z navbatida ta’lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Ta’lim sohasini integratsion tamoyillar asosida samarali rivojlantirish davlat ta’lim standartlari, ta’lim muassasalarida ta’lim tadbirlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish, ta’lim tarmog‘i ichida «maktab-laboratoriya» majmualarini yaratish, ta’lim xizmatlari, resurs markazlarini tashkil etishni rivojlantirishni talab qiladi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, intellektual salohiyatini oshirish fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

uzviylik va aloqadorlikni mustahkamlash, bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash asosida mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847- son Farmonida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish vazifalari belgilangan[1][1]

Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy «Ta’lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda olib borishni talab etadi. U yoshlar tarbiyasida, oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi kerak», degan fikrni bildiradi. Bunda shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlar iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Shu ma’noda milliy modelimizdagi shaxs sifatida bilimli, ma’naviy-axloqiy yetuk, jismonan baquvvat, o‘z vatani va xalqiga sodiq, milliy g‘oyani o‘z ongiga singdirgan, har tomonlama kamol topgan yoshlarni voyaga yetkazishga oid vazifalarining keltirilishini hozirgi kunda dolzarb va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan vazifa sifatida baholash mumkin.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar qilib voyaga yetkazish ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi bo‘lishi hamda ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishi kerak bo‘ladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo o‘qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Zero, o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog‘lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta’minlovchi muhim omildir. Mashhur pedagog, o‘zbek maktabi asoschisi Abdulla Avloniy ham o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasida o‘z qarashlarini alohida ifodalaydi. Alloma, bolaning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanini ya’ni, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «Diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa», «Fikrining quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur», deya ta’kidlaydi.[2]

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрда “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–5847-сон Фармони, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; https://lex.uz/docs/6079422

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Jumladan Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘grsida”, “Hikmat xulosalari”, “Sharxlar”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar” kabi asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, bu borada ustoz va murabbiylarning roli nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Forobiy didaktik qarashlarida ustoz, o‘qituvchining ma’suliyatini alohida ifodalaydi. Bu fikrning isboti allomaning quyidagi fikrlarida yaqqol ifoda etilgan: “Ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim” [3]

Bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o‘ziga, boshqa insonga, jamiatga, tabiatga va mehnatga o‘z to‘g‘ri munosabatini bildira oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so‘zsiz o‘qituvchiga bog‘liq. Shu o‘rinda A.Distervegning «Har qanday ta’lim va tarbiyada eng asosiy omil-muallim, uning tafakkur dunyosidir» degan fikrlarini keltirib o‘tsak mubolag‘a bo‘lmaydi.[4]

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayotda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasidagi islohotlarda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o‘rin tutadi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta’lim tizimining qay darajada takomillashganiga bog‘liq. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifa talabalarni passiv iste’molchilardan faol yaratuvchiga aylantirish, muammoni shakllantirish va uni hal qilish usullarini tahlil qilish, maqbul natijalarni topish va uning to‘g‘riligini isbotlashga qodir malakali mutaxassisni yetishtirib chiqarishdir.

Dunyoning jadal rivojlanayotgan davlatlari orasida mamlakatimizda ham har yili ilm-fanning bir necha yo‘nalishlari tanlab olinib, ularning samaradorligini oshirishda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan kelajak uchun mustaxkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yishni ustuvor mezonlardan biri etib belgiladi: “Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda”. [5]

Bugungi kunda rivojlanayotgan dunyo aholisining ko‘pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabki o‘zining ona tilisi bo‘lib, ko‘pchilik tilshunoslar nafaqat o‘rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o‘zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisoblaydilar. Ta’kidlab o‘tish joizki, xorijiy tillarni o‘rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida, o‘sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta’lim muassasasidan tortib oliy ta’lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o‘zida qiyoslab o‘rganadilar. Tilshunoslikda mavjud ilmiy-tadqiqot metodlari orqali o‘zaro genetik bog‘liq va o‘zaro genetik bog‘lanmagan til oilalariga tegishli bo‘lgan, xalqaro va milatlararo aloqada yuksak darajaga va tajribaga ega bo‘lgan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

tillarni qiyoslash orqali o‘rganish bir muncha oson bo‘lishi ilmiy isbotlangan haqiqatdir. Hozirgi kunda yurtimizdagi ta’lim sohasini tubdan chet tillariga tadbiq qilish maqsadida yaratilayotgan darsliklar, o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar ham ayni shu maqsadlarning amaldagi isbotidir. Binobarin, o‘z tili va madaniyatini puxta bilgan o‘quvchigina boshqa tillarga mehr qo‘yib o‘rgana oladi. Chet tillarini o‘zlashtirish shu kabi maxsus tayyorgarliklarni talab qiladi.

Ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog‘cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o‘rganishga harakat qilayaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o‘rganish o‘sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o‘rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo‘lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

Ingliz tilini o‘rganish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxabar bo‘lish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib o‘z yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Chet tilarni bilishga intilish, “Til bilgan-el biladi” maqoliga ko‘ra ish tutish bizning ko‘p tilni bilgan Forobiy, bir nechta tillarni qiyosiy o‘rganish darajasida keng mushohadali bo‘lgan Qoshg‘ariy kabi yetuk ajdodlarimizdan merosdir. Bundan tashqari Abdulla Avloniy 1913-yil “Oyna” jurnalida chop etilgan, “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasida ham dunyo bilan hamnafas bo‘lish uchun til o‘rganish kerakligi atroflicha izohlangan. Buyuk bobokolonlarimiz o‘zlarining ilm-fan sohasidagi yangiliklari, beqiyos asarlarini boshqa xalqlarga ham o‘z tilida yetkazib bera olganliklari uchun ularni butun dunyo taniydi, e’tirof etadi. O‘rta Osiyo ilm-fani, madaniyat va ma’rifati e’zozlanadi. Bularning barchasi zamirida qayta va qayta ta’kidlaganimizdek til bilish yotadi. [2]

Bugungi kun yoshlariga qo‘yilayotgan talab ham aynan ingliz tilini o‘rganish ekanligini quyidagicha izohlash mumkin:

- butun dunyo mamlakatlari bilan bevosita muloqot qilish;
- o‘z mustaqil fikrini omma oldida ravon va tushunarli holda bayon qilib berish;
- dunyo hamjamiyatida O‘zbekistonning alohida o‘rnini ta’minlash va uni mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham xalqaro tillarni o‘rganish dolzarb masaladir. [6]

Bugungi kunda dunyo aholisi 7 mingga yaqin tilda so‘zlashadi. Biroq ularning bir necha o‘ntasigina u yoki bu mamlakatda rasmiy maqomga ega bo‘lib, jahon ahamiyatiga molik tillar qatorida turadi. Xususan, BMTning 6 ta rasmiy ish tili mavjud: ingliz, arab, xitoy, fransuz, rus va ispan tillari. Xususan ingliz tili bo‘yicha oladigan bo‘lsak:

- dunyo bo‘ylab 1,75 milliarddan ortiq kishi ingliz tilida gaplashadi - bu dunyodagi har 4 kishidan 1 tasi demakdir;
- dunyo bo‘yicha taxminan 106 ta mamlakatda ingliz tilini birinchi til sifatida ishlatiladi va 339 millionga yaqin asosiy til sifatida so‘zlashadiganlar mavjud (ya’ni bu ularning birinchi va asosiy tilidir);

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

- dunyodagi har bir ikkinchi kishi ish jarayonida har kuni ingliz tilidan foydalanadi;
- butun dunyodagi bilimlarning 80% ingliz tilida saqlanadi;
- ingliz tilida so‘zlashuvchilar anglofonlar deyiladi.

Ingliz tili tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ingliz tili qadimgi german qabilalarining tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari avvalgi Nortumbriya qirolligida vujudga keldi. Tarixiy manbaalarga ko‘ra, eski ingliz tili juda ko‘plab shevalar turkumini o‘z ichiga oladi. Qadimiy ingliz tili 4 ta shevaga bo‘lingan: nortumbriya, g‘arbiy sakson, mersiya va kent shevalari. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg‘og‘iga nemis qabilalari bo‘lmish anglo-saksonlar tomonidan keltirilgan. English (ingliz) so‘zi Angles so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Shlezvig Golshteyn (Schleswig-Holstein) bo‘lgan. Buyuk Britaniyaning 17 va 20 asr o‘rtasidagi kuchli rivojlanishi hamda AQShning 20 asrdagi dunyoviy ta’siri ostida ingliz tilining xalqaro nufuzi oshdi.

Ma’lumki, ingliz tili fan, aviatsiya, kompyuterlar, diplomatiya va turizm tili hisoblanib, kelajakda bu tilni mukammal ravishda biladiganlar yuqori maoshli ishga taklif qilinadilar. Jahon bozorida barcha bitimlar va almashinuvlar ingliz tilida olib boriladi, shuning uchun dunyoning barcha biznes hamjamiyatlari ingliz tilini yaxshi biladigan xodimlarni yollashadi. Ingliz tilini yaxshi biladigan kishi dunyodagi ko‘p millatli kompaniyada yaxshi ishlay oladi, chunki u fan va texnologiya tilidir.

Ko‘pgina ilmiy maqolalar ingliz tilida yozilgan bo‘lib, o‘tgan asrda ingliz tilida yozilgan ilmiy maqolalar soni tadqiqotchining ona tilida yozilgan maqolalar sonidan oshib keta boshladi. Masalan, Niderlandiyada bu nisbat 40 ga 1 ni tashkil etadi. Shu sababli ingliz tilini bilish akademik mutaxassislar uchun juda muhim. Ingliz tilini bilmaganlar zamonaviy davrning kuchli vositasi bo‘lgan internetdan foydalana olmaydi. Negaki, undagi kontentning yarmidan ko‘pi ingliz tilida yozilgan va eng yirik texnologiya kompaniyalari ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda joylashgan. Dunyodagi minglab tillar ichida ingliz tili eng ko‘p o‘rganilgan va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng qabul qilingan tildir. Ingliz tilida juda ko‘p turli mamlakatlarda so‘zlashilganligi sababli, dunyo bo‘ylab ingliz tilida dasturlarni taklif qiladigan minglab maktab va universitetlar mavjud. [6]

Ana shunday loyihalardan biri "Pen Pal" loyihasidir. "Pen Pal" (xat yozishadigan do‘st) internet tarmog‘idagi keng tarqalgan saytlardan bo‘lib, xorijiy tilni o‘rganishda dunyoda ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Bu yo‘ nalishda dunyo olimlari orasida ilmiy ishlar olib borilgan va "Pen Pal" loyihasini alohida til o‘rgatish va o‘rganishning samarali metodi sifatida tan olinganligi ta’kidlangan.

"Pen Pal" tushunchasi 20-asrning boshlarida, 1930-yillarda madaniy almashinuv va til amaliyotini rivojlantirish usuli sifatida paydo bo‘lgan. Turli mamlakatlardagi tengdoshlari bilan xat yozishadigan maktab o‘quvchilari orasida keng tarqalgan faoliyat bo‘lib, nafaqat ularning yozish mahoratini oshiribgina qolmay, balki turli madaniyatlar va turmush tarzi haqidagi tushunchalarini kengaytirgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi bilan " Pen Pal " an’anasi raqamli burilish oldi. "Pen Pal"ga ega bo‘lish har qanday yoshdagi odamlar uchun foydali tajriba bo‘lishi mumkin. Agar siz yangi tilni o‘rganayotgan bo‘lsangiz, ushbu tilda ona tilida so‘zlashuvchi " Pen Pal " juda foydali bo‘lishi mumkin. O‘rganilayotgan tilida yozishni mashq qilish, yangi iboralarni o‘rganish va yozish haqida fikr-mulohaza olish mumkin. "Pen Pal" orqali til o‘rganishda nafaqat yozish balki muloqotni ham rivojlantirish mumkin. [7]

“Pen Pal” – dunyodagi boshqa burchaklardagi odamlar bilan muloqot qilish, chet tilini o‘rganish va o‘zingizni yangi madaniyatga ochishning ajoyib usuli. Albatta, bugungi kunda bizda Skype va elektron pochta mavjud bo‘lib, ular butun dunyo bo‘ylab boshqalar bilan bog‘lanishni ancha osonlashtiradi. Ammo turli mamlakatlardagi odamlar bilan bog‘lanish istagi Internetdan ancha uzokroq bo‘lgan. Pochta xizmati yuzlab yillar davomida odamlarga til o‘rganish va yangi do‘stlar orttirishga yordam berib kelmoqda.

“Pen Pal” – bu bir-biringizga xat yozish orqali uzoq muddatli do‘stlik. Eng yaxshi qalamkashlar odatda turli xalqlar, madaniyatlar va tillarni o‘rganishga qiziquvchilardir. Ular o‘z chegaralaridan tashqaridagi dunyo bilan bog‘lanishni xoxlashadi, lekin ko‘proq shaxsiy darajada.

Qanday qilib qalam do‘stingiz til o‘rganishingizga yordam beradi? Til o‘rganishda qalamkashlarning o‘z o‘rni doimo bo‘lgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, dunyoning narigi tomonidagi odam bilan bog‘lanish va mamlakatga borishdan oldin til ko‘nikmalaringizni mashq qilish istagi Internetga kirish va Skype ixtirosidan oldin paydo bo‘lgan va bizda mavjud bo‘lgan barcha texnologiyalarga qaramay, amaliyot bugungi kunda ham qo‘llaniladi. “Pen Pal” bilan biror kishiga xat yozish sizga yangi lug‘atni o‘rganishga, muayyan mavzular haqida gapirishni mashq qilishga va grammatikani yaxshilashga yordam beradi. Ushbu do‘stlikni rivojlantirish, mamlakatlarga sayohat qilish va u yerda mahalliy aholi sifatida hayotni boshdan kechirish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Ushbu maqsadda “Pen Pal" loyihasi doirasida tajriba katta yoshli til o‘rganuvchilarda o‘tkazildi va bu o‘z ijobiy ta’sirini berdi, ya’ni ularda til o‘rganish sifati yaxshilandi. Bu jarayonda til o‘rganuvchi volontyor autentik til egasi bilan xat yozishish orqali muloqot olib bordi. Xat almashinuvining asosiy mavzusi adabiyotlarni ijtimoiy-madaniy muhokama qilish bo‘ldi. Maqolada autentik til o‘rganishning individuallashuvi va til o‘rganish bilan doimiy band bo‘lishi yoritildi. Bu ilmiy maqolada erishilgan lingvistik va madaniy yutuqlar muhokama qilingan. Bu loyiha faqatgina talabalar bilan cheklanib qolmasdan, turli yoshdagi til o‘rganuvchilarni ham qamrab oladi. Chet el ingliz tili o‘qituvchilari bilan aloqaga chiqish ham "Pen Pals" loyihasi orqali bo‘lsa uzluksiz ingliz tili muhitini yaratishga yordam beradi.

Loyihaning afzallik taraflari: autentik til egasi bilan bo‘ladigan oddiy muloqot ham, til o‘rganuvchiga ahamiyatli amaliy imkoniyatlar yaratadi va til o‘rganishda rag‘batlantiruvchi hamkor hisoblanadi; "Pen Palls" loyihasi imloviy xatolarni to‘g‘rilashga yordam beradi; norasmiy suhbatlar va so‘z birikmalarini o‘rganish tilni yaxshi biladigan autentik til egasi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

bilan so‘zlashganda ular uchun oddiy suhbatlarda ishlatilganligi uchun til o‘rganuvchiga o‘rganish osonlashadi; til o‘rganuvchi nafaqat chet elda tajriba orttirishi, balki o‘z davlatida to‘liq tajriba orttirishi mumkin, ba’zida chet elda orttirilgan tajribadan ko‘ra muvaffaqiyatli hisoblanadi; turli davlat va madaniyatga ega bo‘lgan odamlar bilan til o‘rganish yuzasidan xalqaro hamdo‘stlik aloqalarini o‘rnatish ham bu loyihada keng imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi texnologiya va ommaviy axborotlar rivojlanib kelayotgan bir davrda "Pen Pals" loyihasining ijobiy taraflari ko‘p bo‘lganligi bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud. Asosiy muammolardan biri bu til o‘rganuvchi "Pen Palls" loyihasidan foydalanayotganda Internet tarmog‘idagi senzurasi to‘g‘ri kelmaydigan Internet saytlariga ham kirib qolishi mumkinligidir. Shu bilan birga yana quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin: insonlar o‘zi haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar berib yolg‘on gapirishi mumkin; sizdan pul so‘rashi yoki talab qilishi mumkin; turli sabablar bilan tahdid qilishi mumkin; yot radikal yo‘nalishlarga undash bo lishi mumkin; uylariga taklif qilishlari mumkin.

Bu muammolarning oldini olish uchun Internet tarmog‘ining Whatsap, Skupe, Team, Zoom, Fasebook messenjer, telegram ilovalaridan foydalangan holda til o‘rganuvchilarni bir guruhga to‘plab yoki yakka tartibda suhbatlar bevosita o‘qituvchi ishtirokida tashkil etilishi rejalashtiriladi. Bunda til o‘rganuvchi o‘qituvchi nazorati ostida bo‘ladi.

Agar til o‘rganuvchi maktab o‘quvchisi yoki oliygoh talabasi bo‘lsa, yuqorida keltirilgan salbiy sabablarning oldini olish uchun doimiy ravishda o‘qituvchi yoki til o‘rgatuvchi nazoratida bo‘ladi. Elektron pochta yoki ilova orqali yozilayotgan xatlar "skrinshot" qilinib, o‘qituvchiga muntazam ravishda yuboriladi. O‘rganilayotgan xorijiy til faqat ingliz tili bo‘lishi shart emas, bu til o‘rganuvchining tanloviga bog‘liq.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim fakultetida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan shu ayon bo‘ldiki, "Pen Palls" loyihasi haqida o‘qituvchilar ma’lumotga ega, lekin til o‘rgatishda qo‘llab ko‘rilmagan. Talabalar esa bu loyiha haqida ma’lumotga ega emas. Yuqori kurs talabalarini yaqindan tanishtirish maqsadida Facebook tarmog‘idagi "Pen Pals for classes ” guruhiga a’zo bo‘lish tavsiya qilindi.

"Pen Pals" almashinuvi bilan shug‘ullanish til o‘rganishning amaliy kontsepsiyasini ta’minlaydi. Talabalar ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish paytida yozish, o‘qish va tushunish qobiliyatlarini mashq qiladilar. Bu tajriba ularning til qobiliyatlarini oshiradi.[7]

Xulosa qilib aytganda, "Pen Pals" loyihasi o‘quvchilarni til o‘rganish, madaniy izlanishlar va mazmunli aloqalarni birlashtirish orqali ularning bilimlarini boyitadi. Turli xalqlarning turli madaniyatlari bo‘yicha xabardorlik ham shular jumlasidandir. "Pen Pals" talabalarni turli madaniyatlar, an’analar bilan tanishtiradi. Bu borada o‘quvchilar xat almashish orqali "Pen Palls" do‘stlarining kundalik hayoti, urf-odatlari va qadriyatlari haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar hamda ularning hayotiy tarzlarini yaqqol o‘rganib boradilar. " Pen Pals " do‘stidan xat olishni kutish o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. O‘quv jarayoniga hayajon qo‘shadi va doimiy muloqotga chorlaydi. So‘zlarni to‘g‘ri yozish, tafakkur qilish, talabalarda o‘z-o‘zini ifoda etishga undaydi. Bu loyiha orqali

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

talabalar o‘z fikrlarini bayon qilishni, tajriba almashishni, shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘rganadilar. Bir so‘z bilan aytganda til o‘rganish borasidagi nazariy bilimlarni amalda mustahkamlanishini ta’minlaydigan loyihalardan biri bo‘lgan bu "Pen Pals" loyihasi har tomonlama talabalarni til o‘rganishdagi bilimlari oshirib, og‘zaki nutqlarini shakllanishidagi ko‘nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрда “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–5847-сон Фармони, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; https://lex.uz/docs/6079422
2. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 25-53-бетлар
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. - 122 с.
4. Буюклар таълим ва тарбия ҳақида - Ta’lim / Образование (idum.uz)
5. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йилнинг 6 май куни чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши .
6. Ш.Ш.Шавкатова “Чет тилини ўрганишнинг аҳамияти ва мазмуни” “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
7. И.Ф.Тўйманова., М.Х.Уразимбетова “Хорижий тил ўрганишда қўлланиладиган илова ва лойиҳалардан фойдаланишнинг ютуқ ва камчиликлари”., Ўзбекистон 393 https://tipi.uz/ May 3, 2024 International Scientific and Practical Conference

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉Usarov Jabbor Eshbekovich,professor.To‘ymanova Inobat Fozilovna,o‘qituvchi [**Усаров Джаббор Эшбекович,** профессор**, Тойманова Инобат Фозиловна,** преподаватель.], [**Jabbor E.Usarov,** professor. **Inobat F. Toymanova,** teacher]; manzil: Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy [адрес: г. Чирчик, улица Амира Темура 104 дом], [address: Chirchik city, Amir Temur street 104 house]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI AR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

© I.D. Xabibullayeva[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ta'lim tizimini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli resurslarni yaratish kompetentligini takomillashtirish axborotlashtirishda global jarayonning rivojlanishi nafaqat insoniyat uchun yangi axborot muhitini, balki zamonaviy, axborotli hayot tarzi va kasbiy faoliyatni ham shakllantirishga olib kelmoqda.

MAQSAD: ushbu tadqiqot pedagogik jarayon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ar texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslariga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganishga qaratilgan. U samarali yetakchilik rollari uchun muhim bo'lgan mustahkam aloqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nazariy asoslar, ta'lim strategiyalari va amaliy yondashuvlarni o'rganadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: adabiyot va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ar texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, ommaviy nutq, muzokaralar taktikasi aniqlaydi. Unda yetakchilik bilan muloqot qilish ko'nikmalarini oshirish uchun mo'ljallangan rolli o'yin mashqlari, simulyatsiya stsenariylari va murabbiylik dasturlari kabi pedagogik usullar tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot adabiyotlarni sintez qilish, ta'lim dasturlarini tahlil qilish va o'qituvchilar va yetakchilikni rivojlantirish bo'yicha ekspertlar bilan suhbatlarni o'z ichiga olgan sifatli usullardan foydalanadi. Unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ar texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslariga qaratilgan metodik imkoniyatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'rsatilgan.

XULOSA: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ar texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarida pedagogikaning muhim rolini ta'kidlaydi. U shaxslarni turli xil tashkiliy muammolar va hamkorlik muhitiga tayyorlash uchun yetakchilik ta'limi doirasida tuzilgan aloqa mashg'ulotlarini integratsiyalashuvini targ'ib qiladi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, pedagogik jarayon, integratsiya, dasturlar.

Iqtibos uchun: Xabibullayeva I.D. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini AR texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari. // inter education & global study. 2024. №6. B.282–287.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ AR-ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

©И.Д.Хабибуллаев[1]✉
[1] Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие глобального процесса информатизации, повышение компетентности будущих учителей начальных классов в системе образования по созданию цифровых ресурсов на основе современных технологий, приводит не только к формированию новой информационной среды для человечества, но и к формирование современного, познавательного образа жизни и профессиональной деятельности.

ЦЕЛЬ: данное исследование направлено на изучение того, как педагогический процесс может помочь будущим учителям начальной школы с теоретическими основами использования AR-технологий. В нем исследуются теоретические основы, образовательные стратегии и практические подходы к развитию сильных коммуникативных навыков, необходимых для эффективной руководящей роли.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В исследовании используются качественные методы, включая синтез литературы, анализ учебных программ и интервью с учителями и экспертами по развитию лидерства. Показана разработка и реализация методических возможностей для будущих учителей начальной школы, ориентированных на теоретические основы использования AR-технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: посредством комплексного обзора литературы и тематических исследований исследование позволит определить теоретические основы использования AR-технологий, публичных выступлений и тактики ведения переговоров будущими учителями начальной школы. В нем анализируются педагогические методы, такие как ролевые игры, сценарии моделирования и программы коучинга, предназначенные для улучшения навыков лидерского общения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подчеркивается важная роль педагогики в теоретических основах использования AR-технологий будущими учителями начальных классов. Он выступает за интеграцию обучения структурированному общению в обучение лидерству, чтобы подготовить людей к различным организационным задачам и средам сотрудничества.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровые технологии, педагогический процесс, интеграция, программы.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Для цитирования: Хабибуллаев И.Д. Теоретические основы использования AR-технологий для будущих учителей начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 282–287.

THEORETICAL BASIS OF USING AR TECHNOLOGIES FOR FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

© Iroda D. Xabibullayeva[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of the global process in informatization, improving the competence of future primary education teachers in the education system to create digital resources based on modern technologies, leads not only to the formation of a new information environment for humanity, but also to the formation of a modern, informative lifestyle and professional activity.

AIM: this study aims to explore how the pedagogical process can help future elementary school teachers with the theoretical foundations of the use of AR technologies. It explores theoretical frameworks, educational strategies, and practical approaches to developing strong communication skills essential for effective leadership roles.

MATERIALS AND METHODS: The study uses qualitative methods including literature synthesis, curriculum analysis, and interviews with teachers and leadership development experts. It shows the development and implementation of methodological opportunities for future elementary school teachers focused on the theoretical basis of using AR technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: through a comprehensive review of literature and case studies, the research will determine the theoretical foundations of the use of AR technologies, public speaking, and negotiation tactics of future elementary school teachers. It analyzes pedagogical methods such as role play exercises, simulation scenarios and coaching programs designed to improve leadership communication skills.

CONCLUSION: emphasizes the important role of pedagogy in the theoretical foundations of using AR technologies for future primary school teachers. It advocates the integration of structured communication training within leadership education to prepare individuals for a variety of organizational challenges and collaborative environments.

Key words: information technologies, digital technologies, pedagogical process, integration, programs.

For citation: Iroda D.Xabibullayeva. (2024) Pedagogical strategies for the development of sanogenic thinking of future teachers., Inter education & global study, (6), pp. 282–287. (In Uzbek).

Boshlang'ich ta'limni yaxshilashda kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyasining ajoyib imkoniyatlarini o'rganmoqchimiz. Kengaytirilgan reallik raqamli kontentni real

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

dunyoga qo‘shib, immersiv va interaktiv o‘rganish tajribasini yaratuvchi kuchli vositadir. Ushbu ma'ruzada biz ARni Boshlang’ich ta'lim dasturiga kiritishning ko'plab afzalliklarini, jumladan, faollikni oshirish, tajribali o'rganish va ta'lim natijalarini yaxshilashni muhokama qilamiz.

1. Ishtirok etishni oshirish: ARni Boshlang’ich ta’lim dasturiga kiritishning asosiy afzalliklaridan biri uning yosh o‘quvchilarning faolligini oshirish qobiliyatidir. AR tajribalari interaktiv va multisensorli o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali bolalarning e’tiborini tortadi va qiziqish uyg‘otadi. Virtual yashash joylarini o‘rganish, animatsion qahramonlar bilan muloqot qilish yoki to‘ldirilgan reallik o‘yinlarida boshqotirmalarni yechish bo‘ladimi, bolalar o‘quv jarayoniga faol qatnashib, o‘rganishni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi.

2. Tajribali o'rganishni rag'batlantirish: AR texnologiyasi bolalarga mavhum tushunchalarni hayotga tatbiq etuvchi amaliy va immersiv tajribalarni taqdim etish orqali tajribaviy o'rganishni osonlashtiradi. Bolalar oddiygina ma'lumotni o'qish yoki tinglash o'rniga, virtual ob'ektlar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari, simulyatsiyalarni o'rganishlari va mazmunli va aniq tarzda muammolarni hal qilish faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Ta'limga bunday tajribaviy yondashuv chuqurroq tushunish, tanqidiy fikrlash va turli sohalarda, jumladan, kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishda ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish: AR bolalarga virtual makonda yaratish, loyihalash va kashf qilish imkonini berib, o‘z ijodkorligi va tasavvurlarini ochish imkonini beradi. O‘zining kengaytirilgan reallik san’at asarlarini loyihalash, virtual asboblar yordamida musiqa yaratish yoki raqamli bloklar bilan 3D tuzilmalarni qurish bo‘ladimi, AR ijodiy ifoda va tajriba uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish orqali AR bolalarni qutidan tashqarida o'ylashga, yangi g'oyalarni o'rganishga va o'zlarini innovatsion usullarda ifoda etishga undaydi.

4. O‘quv tajribalarini moslashtirish: ARni Boshlang’ich ta'lim dasturiga kiritishning yana bir afzalligi - har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun o'rganish tajribasini sozlash qobiliyati. AR texnologiyasi o'qituvchilarga turli xil o'rganish uslublari, qobiliyatlari va afzalliklariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan o'quv faoliyatini yaratishga imkon beradi. O‘yinning qiyinchilik darajasini moslashtirish, interfaol o‘quv qo‘llanmalar orqali qo‘shimcha yordam ko‘rsatish yoki muqobil tasvirlash usullarini taklif qilish bo‘ladimi, AR o‘qituvchilarga har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlariga qarab o‘qitishni sozlash imkonini beradi.

Kengaytirilgan haqiqat texnologiyasi Boshlang’ich ta'lim uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi, jumladan, faollikni oshirish, tajribali o'rganish, ijodkorlik va moslashtirish. AR kuchidan foydalangan holda, o‘qituvchilar yosh o‘quvchilarning tasavvurlarini o‘ziga tortadigan, faol ishtirok etishga yordam beradigan va bir nechta sohalarda yaxlit rivojlanishga yordam beradigan dinamik va immersiv o‘rganish tajribalarini yaratishi mumkin. Boshlang’ich ta’limda AR imkoniyatlarini o‘rganishda davom etar ekanmiz,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

keling, ushbu innovatsion texnologiyani butun umr davomida o‘rganishga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish va bolalarga raqamli asrda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini berish uchun foydalanaylik [2].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillar asosida AR texnologiyalarda quyidagi talablarga javob berishi kerak: adekvat bo‘lishi, ya'ni o‘rganilayotgan ob'ektning eng muhim tomonlarini kerakli aniqlik bilan aks ettirishi; muayyan toifadagi muammolarni hal qilishga hissa qo‘shish; taxminlar va taxminlarning minimal soniga asoslangan sodda va tushunarli bo‘lishi [3]; o‘zingizni va sohani rivojlantirishga xizmat qilishi; foydalanish uchun qulay bo‘lishi.

Boshlang’ich ta'lim muassasalarida kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyasining amaliy qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. Kengaytirilgan haqiqat o'rganish tajribasini oshirish va yosh o'quvchilarni interaktiv va immersiv usullarda jalb qilish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu ma'ruzada biz ARni o'rganish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun Boshlang’ich ta'lim dasturining turli jihatlariga qanday kiritish mumkinligini o'rganamiz.

1. Kengaytirilgan haqiqatga kirish: Muayyan ilovalarni o'rganishdan oldin, keling, kengaytirilgan haqiqat nima ekanligini va u qanday ishlashini qisqacha ko'rib chiqamiz. Kengaytirilgan haqiqat - bu raqamli kontentni real dunyoga qo'shadigan texnologiya bo'lib, virtual elementlar jismoniy muhit bilan birga mavjud bo'lgan aralash muhitni yaratadi. AR tajribalariga smartfonlar, planshetlar yoki AR ko'zoynaklari kabi qurilmalar orqali kirish mumkin, bu foydalanuvchilarga jismoniy muhitda raqamli kontent bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi.

2. Interaktiv hikoyalar: Boshlang’ich ta'limda ARning amaliy qo'llanilishidan biri bu interaktiv hikoyalardir. AR takomillashtirilgan hikoyalar kitoblari animatsion qahramonlar va sahnalarni jismoniy kitoblarga joylashtirish orqali an'anaviy hikoyalarni jonlantirishi mumkin. Bolalar hikoya bilan multisensorli tarzda ishtirok etishlari, qahramonlar bilan muloqot qilishlari, sozlamalarni o'rganishlari va hikoyada ishtirok etishlari mumkin. Ushbu ajoyib hikoya qilish tajribasi nafaqat savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki tasavvur va ijodkorlikni ham uyg'otadi.

3. Shakllar, ranglar va raqamlarni o'rganish: AR texnologiyasi shakllar, ranglar va raqamlar kabi asosiy tushunchalarni o'rganishni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. AR ilovalari va o‘yinlari bolalar o‘z jismoniy muhitida o‘zaro muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan virtual shakllar, ob’yektlar va belgilarni taqdim etishi mumkin. Misol uchun, bolalar shakllarni moslashtirish yoki ob'ektlarni hisoblash uchun AR-ni qo'llab-quvvatlaydigan fleshkachalardan foydalanishi mumkin, bu esa o'rganishni qiziqarli va interaktiv tajribaga aylantirishi mumkin. ARni dastlabki matematika va savodxonlik faoliyatiga qo'shish orqali o'qituvchilar faollik va motivatsiyani rag'batlantirish bilan birga asosiy tushunchalarni mustahkamlashlari mumkin.

4. Virtual dala sayohatlari: Kengaytirilgan reallik Boshlang’ich yoshdagi bolalarga sinfdan chiqmasdan uzoq joylarni, tarixiy diqqatga sazovor joylarni va madaniy yodgorliklarni o‘rganish uchun virtual sayohatga chiqish imkonini beradi. AR ilovalari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

bolalarga turli madaniyatlar, ekotizimlar va tarixiy davrlarni bevosita boshdan kechirish imkonini beruvchi immersiv muhitlarni simulyatsiya qilishi mumkin. Buyuk Xitoy devorini ziyorat qilish, okean qa'rini o'rganish yoki koinot mo'jizalarini kashf etish bo'ladimi, virtual sayohatlar bolalarga qiziqishni uyg'otadigan va dunyoqarashini kengaytiradigan noyob o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

5. Ijodiy ifoda va san'at: AR texnologiyasi raqamli san'at va ijodiy ifoda uchun vositalarni taqdim etish orqali bolalar ijodi va tasavvurini ochib berishi mumkin. AR ilovalari bolalarga o'z san'at asarlarini yaratish, 3D haykallarni loyihalash va virtual ranglar va teksturalar bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi. Haqiqiy dunyo ob'ektlarini raqamli elementlar bilan aralashtirish orqali AR bolalarga badiiy tushunchalarni dinamik va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi, o'zini ifoda etish, tajriba va badiiy mahoratni rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)
2. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)
3. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (https://wos.academiascience.org)Luria A.R.,
4. Yudovich, F.A. Speech and development of mental processes of the child. Moscow: Pedagogika, 2008.
5. Sapargalieva AZh, Muratbekova DE. The development of speech activity in children of primary school age. Reports of the Kazakh Academy of Education 2019; 3: 152-161

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xabibullayeva Irodaxon Dilshod qizi**, doktorant,[**Хабибуллаева Иродахон Дилшод қизи**, профессор], [**Irodaxon D. Xabibullayeva**,doctoral student]; manzil: 150700, O'zbekiston, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy [адрес: 150700, Узбекистан, г. Андижан, улица Университетская, дом 129], [address: 150700, Uzbekistan, 129st.Universitet,Andijan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

Original paper

YOZMA ISHLARDAGI XATOLARNI TO‘G‘RILASH METODIKASI

© O.Q. Xasanova[1]✉
[1]Farg’ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: yozma ishlardagi xatolarni tuzatish jarayoni akademik va professional hujjatlarning ravshanligi, izchilligi va umumiy sifatini oshirish uchun juda muhimdir. Xatolarni samarali tuzatish matnning o'z xabarini to'g'ri va professional tarzda etkazishini ta'minlaydi. Ushbu maqola yozma ishlardagi turli xil xatolarni aniqlash, tahlil qilish va tuzatish uchun keng qamrovli metodologiyani taqdim etadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi yozma ishlardagi xatolarni tuzatishning tizimli metodologiyasini ishlab chiqish va tasdiqlashdan iborat. Ushbu metodologiya turli janrlar, jumladan, akademik maqolalar, biznes hisobotlari va adabiy asarlar bo'yicha matnlarning aniqligi, o'qilishi va professional taqdimotini yaxshilashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuvdan foydalanadi. Dastlabki ko'rib chiqish,Xatoni aniqlash, Xatolarni tahlil qilish kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: taklif etilayotgan metodologiya turli yozma hujjatlarda sinovdan o'tkazildi va xatolarni tizimli ravishda aniqlash va tuzatishda samaradorligini ko'rsatdi. Natijalar ushbu metodologiyani qo'llashdan keyin matnlarning aniqligi va o'qilishi sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatadi. Asosiy topilmalar avtomatlashtirilgan vositalarni qo'lda ko'rib chiqish bilan birlashtirishning ahamiyatini, tengdoshlarning fikr-mulohazalarining qiymatini va xatolarni tuzatishga tizimli yondashuvning afzalliklarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot shuningdek, xatolarning keng tarqalgan turlarini ta'kidlaydi va ularni samarali hal qilish uchun strategiyalarni taqdim etadi.

XULOSA: Ushbu maqola yuqori sifatli matnga erishish uchun avtomatlashtirilgan vositalar, qo'lda ko'rib chiqish va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini birlashtirgan holda yozma ishlardagi xatolarni tuzatishning mustahkam metodologiyasini taqdim etadi. Tizimli yondashuv xatolarni har tomonlama aniqlash va tuzatishni ta'minlaydi, yozma hujjatlarning umumiy ravshanligi va professionalligini oshiradi. Ushbu metodologiya yozma muloqot standartini yaxshilash uchun turli sohalarda keng qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: yozma ish, xato, xatolarni to‘g‘rilash, bevosita to‘g‘rilash, bilvosita to‘g‘rilash, korrektiv fidbek.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

Iqtibos uchun: Xasanova O.Q. Yozma ishlardagi xatolarni to‘g‘rilash metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №6. B.288–294.

МЕТОДИКА ИСПРАВЛЕНИЯ ОШИБОК В ПИСЬМЕННЫХ РАБОТАХ

© О.Қ.Хасанова[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: процесс исправления ошибок в письменной работе необходим для улучшения ясности, последовательности и общего качества академических и профессиональных документов. Эффективная корректура гарантирует, что ваш текст передает суть точно и профессионально. В данной статье представлена комплексная методика выявления, анализа и исправления различного рода ошибок в письменной работе.

ЦЕЛЬ: основной задачей данного исследования является разработка и апробация систематической методики исправления ошибок в письменной работе. Эта методология направлена на улучшение ясности, читабельности и профессионального представления текстов различных жанров, включая научные статьи, деловые отчеты и литературные произведения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован системный подход, включающий несколько этапов. Были использованы такие методы, как первоначальный анализ, обнаружение ошибок и анализ ошибок.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: предложенная методика была протестирована на различных письменных документах и показала свою эффективность в систематическом обнаружении и исправлении ошибок. Результаты показывают, что ясность и читаемость текстов значительно улучшаются после применения этой методологии. Ключевые выводы включают важность сочетания автоматизированных инструментов с ручным анализом, ценность обратной связи от коллег и преимущества систематического подхода к исправлению ошибок. В исследовании также освещаются распространенные типы ошибок и предлагаются стратегии эффективного устранения их.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в данной статье представлена надежная методология исправления ошибок в письменной работе, сочетающая автоматизированные инструменты, ручную проверку и обратную связь с коллегами для достижения высококачественного текста. Системный подход обеспечивает комплексное выявление и исправление ошибок, повышает общую четкость и профессионализм письменных документов. Эту методологию можно широко использовать в различных областях для повышения уровня письменного общения.

Ключевые слова: письменная работа, ошибка, исправление ошибок, прямая коррекция, косвенная коррекция, корректирующая обратная связь.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

Для цитирования: Хасанова О.Қ. Методика исправления ошибок в письменных работах // Inter education & global study. 2024. №6. С. 288–294.

METHODOLOGY FOR CORRECTING ERRORS IN WRITTEN WORKS

© Ozoda Q.Xasanova[1]✉
[1] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the process of error correction in written work is essential to improve the clarity, consistency, and overall quality of academic and professional documents. Effective proofreading ensures that your text conveys its message accurately and professionally. This article presents a comprehensive methodology for identifying, analyzing, and correcting various types of errors in written work.

AIM: the main objective of this study is to develop and validate a systematic methodology for correcting errors in written work. This methodology aims to improve the clarity, readability, and professional presentation of texts in a variety of genres, including academic articles, business reports, and literary works.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a systematic approach that includes several steps. Methods such as initial review, error detection, and error analysis were used.

DISCUSSION AND RESULTS: the proposed methodology has been tested on various written documents and has shown its effectiveness in systematically detecting and correcting errors. The results show that the clarity and readability of the texts are significantly improved after applying this methodology. Key findings include the importance of combining automated tools with manual review, the value of peer feedback, and the benefits of a systematic approach to error correction. The study also highlights common types of errors and provides strategies for dealing with them effectively.

CONCLUSIONS: this paper presents a robust methodology for error correction in written work, combining automated tools, manual review, and peer feedback to achieve high-quality text. A systematic approach ensures comprehensive detection and correction of errors, increases the overall clarity and professionalism of written documents. This methodology can be widely used in various fields to improve the standard of written communication.

Key words: written work, error, error correction, direct correction, indirect correction, corrective feedback.

For citation: Ozoda Q. Xasanova. (2024) Methodology for correcting errors in written works., Inter education & global study, (6), pp. 288–294. (In Uzbek).

Chet tili o‘qituvchisining faoliyati keng qamrovli va murakkab. Chunki boshqa bir tilda o‘z fikrlarini o‘quvchilarga teran, to‘g‘ri yetkazish, o‘quvchilarning fikrlarining ravonligi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

va aniqligini tez fahmlay olish chet o‘qituvchisidan kuchli bilim va tajriba talab etadi. Shu sababli ham bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda chet tilini bilish darajasi o‘qib tushunish, eshitib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikamalariga asoslanib baholanar ekan, til o‘rganuvchilar ham o‘z navbatida shu ko‘nikmalarini mukammal darajaga olib chiqishga harakat qilishi lozim. Buning uchun esa shu chet tilida xatosiz, ravon gapirish va yoza olish talab etiladi. Quyida biz o‘qituvchilar yozma ishlarni baholash va fidbek berishda til o‘rganuvchilar yo‘l qo‘ygan xatolariga qanday yondashishlari haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

J. Bitchener va U.Knochlarning qayd etichicha, yozma ishlarga yoziladigan korrektiv fidbek haqidagi tadqiqotlar o‘tgan asr oxiridan buyon amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, ularning qaysi biri til o‘rganuvchilar uchun eng foydali ekanligi haqida aniq bir xulosaga kelinmagan. Bu tadqiqotchilar ham yozma ishlarni bevosita va bilvosita to‘g‘rilash usullarini o‘zaro taqqoslash hamda ularnining ijobiy va salbiy tomonlarini yoritib berishga harakat qilishgan.

D.Ferris va B. Robertslar yozma ishlarni bilvosita tog‘rilash samarali ekanligini ta’kidlashadi va quyidagi fikrni berib o‘tishadi: “yozma ishdagi xatolar bilvosita to‘grilanganida, til o‘rganuvchilar o‘rganishga yo‘naltiriladi, muammoni o‘zlari hal qilishga undaladi, buning natijasida esa xatolarni payqash, ularni aks ettirishga odatlanadi. Bundan tashqari xatolar bilvosita to‘g‘rilanganida uzoq muddat yodda saqlanadi”. Yana bir J. Chandler esa D.Ferris va B.Robertslarning fikriga qarshi fikr bildirib, xatolarni bevosita to‘g‘rilash borasida uchta muhim dalillarni keltirib o‘tadi. Uning fikricha, til o‘rganuvchilarga xatolarni bevosita to‘g‘rilash xatolarni bilvosita to‘g‘rilashga qaraganda ko‘proq yordam beradi. Chunki til o‘rganuvchilar har doim ham fidbek yordamida nima deyilayotganini aniq tushunishmaydi. Ikkinchidan esa, til o‘rganuvchilar ko‘p hollarda sintaktik tuzilish yoki iboralarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolarni bilvosita to‘g‘rilansa, yaxshi tushuna olishmaydi. Bunday murakkab xatolarni bevosita to‘g‘rilash maqsadga muvofiq. Xatolarni bevosita to‘g‘rilashning navbatdagi afzalligi esa til o‘rganuvchilarni o‘zlarining gipotezalari haqida fikr-mulohazaga undash hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili, yozma ishlardagi xatolarni to‘g‘rilashda bilvosita usuldan foydalanishni qo‘llab-quvvatlovchilar ko‘p ekanligini ko‘rsatsa, og‘zaki xatolarni to‘g‘rilashda esa ko‘plab tadqiqotchilar bevosita to‘g‘rilashni samarali deb hisoblashlarini kuzatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida xatolarni to‘g‘rilash muammosi turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga oid topshiriqlarda turlicha kechishi mumkinligi haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlarida bir xil matnning og‘zaki va yozma variantini alohida o‘qituvchilarga xatolarni to‘g‘rilash uchun topshirish yordamida ham bu firkning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlashga imkon tug‘ildi. Yozma ishdagi xatolarni to‘g‘rilash topshirilgan o‘qituvchilar ko‘proq bilvosita to‘g‘rilashga ustunlik berishgan bo‘lsa, og‘zaki matndagi xatolarni to‘g‘rilayotgan ustozlar bevosita to‘g‘rilashga ko‘proq ahamiyat qaratishdi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yozma ishlardagi xatolarni to‘g‘rilashda bilvosita usuldan foydalanish til o‘rganuvchilarni yanada ko‘proq izlanishga undar ekan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

J.Bitchener va U.Knochlarning fikriga ko‘ra, og‘zaki xatolarni bevosita to‘g‘rilashda metalingvistik tushuntirishdan foydalanish juda yaxshi samara berishi mumkin. Tadqiqotchilar o‘z fikrlarini amalda tasdiqlash uchun xatolarni kombinatsiyalangan to‘g‘rilash usulini sinovdan o‘tkazishgan va yozma ishlardagi xatolarni to‘g‘rilashda bevosita to‘g‘rilash va metalingvistik tushuntirishdan foydalanishni tavsiya qilishgan. Bu to‘g‘rilash jarayoni esa o‘ttiz daqiqalik alohida dars sifatida tashkillangan. Shunday bo‘lishiga qaramay, ma’lum vaqt o‘tganidan keyin til o‘rganuvchilar yana xatoga yo‘l qo‘yishlari kuzatilgan. Shu sababli ham biz tadqiqotimizda xatolarni to‘g‘rilashda xotira texnikalaridan foydalanishning samaradorligini aniqlashga va xatolarni to‘g‘rilash uchun eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan xatolarni tizimlashtirib, ularni yodda saqlash oson bo‘lgan usullar yordamida o‘quvchilarga yetkazishga harakat qildik.

V.Busse ham nemis tilini chet tili yoki ikkinchi chet tili sifatida o‘rganishda yozma ishlarga beriladigan yozma fidbekning til o‘rganishga bo‘lgan ta’sirini aniqlashga harakat qilgan. Tadqiqotchining fikricha, chet tilini o‘rganishda motivatsiya va fidbek juda ham muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri berilgan fidbek til o‘rganuvchining til o‘rganish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga, samaradorlikning kutilganidek bo‘lishiga olib keladi. Maktabda chet tili o‘rganish jarayonida og‘zaki va yozma fidbek kuchli ta’sir etuvchi omillardan hisoblanishi ham ko‘p tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan. Shu sababli ham bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida, xususan, nemis tili o‘qituvchilarida o‘quvchilarining xatolarini to‘g‘rilashga to‘g‘ri yondashish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari chet til o‘qituvchisining darsdan bo‘sh vaqtining katta qismi o‘quvchilar tomonidan bajarilgan testlar, yozilgan ishlarni tekshirish, to‘g‘rilash, sharh yozish bilan kechadi, dars jarayonida esa og‘zaki xatolarni to‘g‘rilashga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, xatolar bilan ishlash chet til o‘qituvchisi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

J.Bitchener va U.Knochlar tomonidan olib borilgan tajriba-sinov ishlarida til o‘rganuvchilar uchta guruhga ajratilgan va har bir guruhdagilarning xatolarini to‘g‘rilashda turli usullardan foydalanilgan. Tadqiqotchilar birinchi guruh uchun yozma ishdagi xatolarni yozma va og‘zaki metalingvistik tushuntirishdan foydalanishgan bo‘lsa, ikkinchi guruhdagi til o‘rganuvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni to‘g‘rilash uchun bevosita va yozma metalingvistik to‘g‘rilashni qo‘llashgan. Uchinchi guruhning xatolari esa faqat bevosita to‘g‘rilashdan foydalanilgan holda to‘g‘rilangan. Yozma ishdagi asosiy to‘g‘rilanadigan xato esa artikllarni to‘g‘ri qo‘llash borasidagi xatolar doirasida chegaralab olingan. Bizning fikrimizcha, ingliz tilidagi artikllarni qo‘llashda til o‘rganuvchilar nemis tilidagi artikllarni qo‘llashga qaraganda kamroq xatoga yo‘l qo‘yishadi. Shu sababli J.Bitchener va U.Knochlar qayd etgan natijalar nemis tilini chet tili sifatida o‘rganish jarayonida boshqa ko‘rinishda qayd etilishi ehtimoli katta. Shuning uchun nemis tilini chet tili sifatida o‘rganayotganlarga artikllarni o‘rgatishda mnemotexnikadan foydalanish maqsadga muvofiq. Uning yordamida, to‘g‘rilangan xatolar yaxshi yodda saqlanmaydi, lekin artikllarni to‘g‘ri qo‘llash foizi oshadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

J.Bitchener va U.Knochlar tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijasiga ko‘ra, har uchala xatolarni to‘g‘rilash usuli ma’lum samaraga erishishga ta’sir etgan bo‘lsada, yozma, metalingvistik korrektiv fidbek kombinatsiyasining qolgan xatolarni to‘g‘rilash usullariga qaraganda samaraliroq ekanligi qayd etilgan.

Fikrimizcha, qaysi mavzuga oid xatolarni to‘g‘rilashda qaysi usullaridan foydalanish samaraliroq ekanligini aniqlash ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, artikl mavzusida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilash uchun qo‘llanilgan xatolarni to‘g‘rilash usullari, boshqa mavzularga oid xatolarni, masalan, ko‘makchilar, bog‘lovchilar, gapda so‘z tartibi kabilarda kutilganidek samara bermasligi yoki undan ham yaxshiroq samara berishi mumkin. Shu sababli, bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilari har bir mavzu doirasida yo‘l qo‘yiladigan xatolar uchun qo‘llaniladigan eng maq’ul to‘g‘rilash usullari bilan tanishtirilishi lozim. Shundagina ular o‘quvchilari yo‘l qo‘ygan xatolarini samarali bartaraf eta oladilar.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlamoqchimizki, yozma ishlarni baholashda ko‘proq xatolarni qamrovli to‘g‘rilashdan emas, balki xatolarni maqsadli to‘g‘rilashdan foydalanish ma’qul. Har bir til o‘rganuvchining shaxsiyatiga alohida yondashish kerak, shu bilan birga til o‘rganuvchi tomonidan oson to‘g‘rilanishi taxmin qilingan xatoni faqat ostiga chizib ketish bilan cheklanish, murakkab xatolar uchun esa aniq tavsiya va tushuntirishlar berish ham maqsadga muvofiq. Yozilayotgan fidbekning ijobiy ruhda bo‘lishiga alohida ahamiyat berish, til o‘rganuvchining ilgarilayotganini ta’kidlashni yoddan chiqarmaslik kerak. Xatolarni til o‘rganuvchilarning o‘zlari to‘g‘rilashlariga imkon yaratish va xatolar bilan ishlash uchun tarqatmalar ishlab chiqishga ham alohida e’tibor berish katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bitchener, J., & Knoch, U. (2009). The relative effectiveness of different types of direct written corrective feedback. System, 37(2), 322–329. doi:10.1016/j.system.2008.12.
2. Ferris, D.R., Roberts, B., 2001. Error feedback in L2 writing classes: how explicit does it need to be? Journal of Second Language Writing. 10, 161–184.
3. Chandler, J., 2003. The efficacy of various kinds of error feedback for improvement in the accuracy and fluency of L2 student writing. Journal of Second Language Writing 12, 267–296.
4. Carroll, S., Swain, M., 1993. Explicit and implicit negative feedback: an empirical study of the learning of linguistic generalizations.Studies in Second Language Acquisition 15, 357–386.;
5. Ellis, R., Loewen, S., Erlam, R., 2006. Implicit and explicit corrective feedback and the acquisition of L2 grammar. Studies in Second Language Acquisition 28, 339–368.;
6. Havranek, G., Cesnik, H., 2003. Factors affecting the success of corrective feedback. In: Foster-Cohen, S., Nizegorodzew, A. (Eds.) EuroSLA Yearbook, vol. 1. Benjamin, Amsterdam.;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5(1)

7. Kim, H., Mathes, G., 2001. Explicit vs. implicit corrective feedback. The Korea TESOL Journal 4, 1–15.
8. Busse V. (2015), Förderung von schriftsprachlichen Kompetenzen im Fremd- bzw. Zweitsprachenunterricht: Zum Verhältnis von Motivation und schriftlichem Feedback. Zeitschrift für Interkulturellen Fremdsprachenunterricht 20: 1, 201-214. Abrufbar unter http://tujournals.ulb.tu-darmstadt.de/index.php/zif/.
9. Hattie, John A. (2009), Visible Learning: A Synthesis of over 800 Meta-Analyses relating to Achievement. New York: Routledge.; Hattie, John A. & Timperley, Helen (2007), The power of feedback. Review of Educational Research 77: 1, 81-112.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi,**PhD, [**Хасанова Озодахон Қурвонали қизи**,PhD,], [**Ozodaxon Q. Xasanova**, PhD]; manzil: Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19- uy [адрес: Ферганская область, город Фергана, улица Мурабиялар, 19; address: Fergana region, Fergana city, 19, Murabbiyar stree.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original peper

TALABALAR O‘RTASIDA ILMIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDAGI KAMCHILIKLARNI ANIQLASH

©S.N. Xoshimov[1]✉
[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: talabalar o'rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirish ularning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun zarur bo'lgan innovatsiyalar, tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi talabalar o'rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan mavjud pedagogik mexanizmlardagi kamchiliklarni aniqlashdir. Tadqiqot mavjud ta’lim amaliyotlarini tahlil qilishga, kamchiliklar va muammolarni aniqlashga, talabalarning ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashni yaxshilash bo‘yicha strategiyalarni taklif qilishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot miqdoriy so'rovlar va sifatli intervyularni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. ishtirokchilar orasida turli ta’lim muassasalari talabalari va o‘qituvchilari bor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagoglar talabalarning ilmiy izlanishlarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash bilan o'qitish mas'uliyatini muvozanatlashda qiyinchiliklar borligini ma'lum qilishdi. Talabalar ko'proq amaliy imkoniyatlar va ilmiy tushunchalarni real hayotda qo'llash zarurligini bildirdilar.

XULOSA: Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, talabalar o'rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirishning hozirgi pedagogik mexanizmlarida sezilarli kamchiliklar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish resurslarni ko'paytirish, yaxshi murabbiylikni ta'minlash, o'quv dasturlari moslashuvchanligini ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash va talabalar motivatsiyasini oshirishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy faoliyat, pedagogik mexanizmlar, talabalarning faolligi, resurslarni taqsimlash, tadqiqot imkoniyatlari, murabbiylik, fanlararo yondashuvlar

Iqtibos uchun: Xoshimov S.N. Talabalar o‘rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirishning amaldagi pedagogik mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlash // Inter education & global study. 2024. №6. B. 295–300.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

© С.Н. Хошимов[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие научной деятельности среди студентов имеет важное значение для развития инновационного, критического мышления и исследовательских навыков, необходимых для их академического и профессионального успеха.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является выявление недостатков существующих педагогических механизмов, используемых для развития научной активности студентов. Исследование направлено на анализ существующей образовательной практики, выявление недостатков и проблем, а также предложение стратегий по совершенствованию поддержки научной деятельности студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные интервью. среди участников студенты и преподаватели различных учебных заведений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: преподаватели сообщили о трудностях совмещения преподавательских обязанностей с адекватной поддержкой исследований учащихся. Студенты выразили потребность в большем количестве практических возможностей и практическом применении научных концепций.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показывает, что в существующих педагогических механизмах развития научной активности студентов имеются существенные недостатки. Устранение этих пробелов требует многогранного подхода, включая увеличение ресурсов, улучшение наставничества, гибкость учебных программ, подготовку учителей и мотивацию учащихся.

Ключевые слова: академическая деятельность, редакционные механизмы, вовлечение студентов, распределение ресурсов, исследовательские возможности, наставничество, междисциплинарные подходы.

Для цитирования: Хошимов С.Н. Определение недостатков современных педагогических механизмов развития научной деятельности студентов // Inter education & global study. 2024. №6. С. 295–300.

DETERMINATION OF DEFICIENCIES IN CURRENT EDITORIAL MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC ACTIVITY AMONG STUDENTS

© Sardor N. Xoshimov[1]✉
[1] Namangan state university,Namangan, Toshkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the development of scientific activities among students is essential to develop the innovation, critical thinking and research skills necessary for their academic and professional success.

AIM: the purpose of this study is to identify the shortcomings in the existing pedagogical mechanisms used for the development of scientific activity among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

The research is aimed at analyzing the existing educational practices, identifying shortcomings and problems, and proposing strategies for improving the support of students' scientific activities.

MATERIALS AND METHODS: this study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative interviews. among the participants are students and teachers of various educational institutions.

DISCUSSION AND RESULTS: educators reported difficulty balancing teaching responsibilities with adequately supporting students' research. Students expressed the need for more practical opportunities and real-life application of scientific concepts.

CONCLUSION: the study shows that there are significant shortcomings in the current pedagogical mechanisms for the development of scientific activity among students. Addressing these gaps requires a multifaceted approach, including increased resources, better mentoring, curriculum flexibility, teacher training, and student motivation.

Key words: academic activity, editorial mechanisms, student engagement, resource allocation, research opportunities, mentoring, interdisciplinary approaches

For citation: Sardor N. Xoshimov (2024) Determination of deficiencies in current pedagogical mechanisms of development of scientific activity among students, Inter education & global study, (6), pp. 295–300. (In Uzbek).

Talabalar o'rtasida ilmiy faoliyatni rag'batlantirish tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega, bu ham o'quv muvaffaqiyati, ham kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun juda muhimdir. Uning ahamiyati e'tirof etilishiga qaramay, hozirgi pedagogik mexanizmlar ko'pincha talabalar o'rtasida ilmiy faollikni samarali targ'ib qilishda etishmayapti. Ushbu maqola mavjud asoslarni ko'rib chiqadi va talabalarning ilmiy tadqiqotlar va faoliyatdagi ishtirokini oshirish uchun yaxshilanishlar zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlarni belgilaydi.[1]

Hozirgi pedagogik mexanizmlarga umumiy holati

1. Resurslarni taqsimlash va infratuzilma. Ilmiy faoliyatni rag'batlantirishning asosiy jihatlaridan biri bu resurslarni etarli darajada taqsimlash va infratuzilmani ta'minlashdir. Bunga eksperimentlar va tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan laboratoriyalar, tadqiqot materiallari va texnologik vositalarga kirishni ta'minlash kiradi. Biroq, ko'plab ta'lim muassasalari cheklangan moliyalashtirish bilan kurashmoqda, bu esa ularning talabalar tadqiqoti uchun etarli resurslarni taklif qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

2. Tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish. Talabalarning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish juda muhimdir. Bu tadqiqot loyihalarida, stajirovkalarda va akademik hamkorlikda ishtirok etishni osonlashtirishni o'z ichiga oladi. O'zining muhimligiga qaramay, bu imkoniyatlardan foydalanish ko'pincha mablag' etishmasligi, institutsional qo'llab-quvvatlashning etarli emasligi va geografik nomutanosiblik kabi omillar tufayli cheklangan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

3. Mentorlik va rahbarlik. Samarali murabbiylik talabalarni ilmiy tadqiqotlarning murakkabliklari bo'yicha yo'naltirish uchun juda muhimdir. Mentorlar talabalarga tadqiqot jarayonini boshqarishda, tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirishda va qiyinchiliklarni engishda yordam beradigan bebaho yordam beradi. Shunga qaramay, ko'plab muassasalar talabalar va professor-o'qituvchilar nisbati yuqoriligi va tajribali murabbiylarning etishmasligi tufayli tegishli murabbiylikni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.[2]

4. Fanlararo va hamkorlikdagi yondashuvlar. Ilmiy tadqiqotlarda fanlararo va hamkorlikdagi yondashuvlarning integratsiyasi murakkab muammolarni yanada kengroq tushunish va innovatsion yechimlarga yordam beradi. Talabalarni fanlararo tadqiqotlar bilan shug'ullanishga rag'batlantirish nafaqat ularning o'quv tajribasini oshiribgina qolmay, balki ularni zamonaviy ilmiy ishlarning hamkorlik xarakteriga tayyorlaydi.

Amaldagi pedagogik mexanizmlarda aniqlangan kamchiliklar

1. Noto'g'ri moliyalashtirish va resurslarni cheklash. Amaldagi pedagogik mexanizmlarning asosiy kamchiligi ilmiy tadqiqot va faoliyatni moliyalashtirishning yetarli darajada ajratilmaganligidir. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida talabalarning zamonaviy laboratoriyalar, tadqiqot jihozlari va materiallardan foydalanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar yetishmaydi. Ushbu cheklov talabalarning mazmunli ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanish qobiliyatini sezilarli darajada cheklaydi.

2. Tadqiqot imkoniyatlariga kirishning cheklanganligi. Tadqiqot imkoniyatlarining cheklanganligi yana bir muhim masala. Ko'pgina talabalar, ayniqsa kam ta'minlangan yoki jug'rofiy jihatdan izolyatsiya qilinganlar, tadqiqot faoliyatida ishtirok etishda jiddiy to'siqlarga duch kelishadi. Institutsional qo'llab-quvvatlash va tashqi hamkorlik uchun imkoniyatlarning yo'qligi bu muammoni yanada kuchaytiradi va talabalarning ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish doirasini cheklaydi.[3]

3. Mentorlik va yordamning yetarli emasligi. Tegishli murabbiylik va yordamning yo'qligi talabalarning ilmiy faoliyatga jalb qilinishiga jiddiy to'siqdir. Talabalar va o'qituvchilar nisbatining yuqoriligi ko'pincha talabalarga individual e'tibor va yo'l-yo'riqning etarli emasligiga olib keladi. Bundan tashqari, maxsus bilim va yordam bera oladigan tajribali murabbiylarning etishmasligi ko'plab muassasalar uchun jiddiy muammo hisoblanadi.

4. Fanlararo integratsiyaning yo‘qligi. Amaldagi pedagogik mexanizmlar ko'pincha murakkab ilmiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan fanlararo integratsiyani ta'minlay olmaydi. O'quv fanlarining an'anaviy bo'linishi talabalarning fanlararo istiqbollar va hamkorlikdagi tadqiqot imkoniyatlariga ta'sirini cheklaydi, bu esa ilmiy masalalarni har tomonlama tushunishni rivojlantirish uchun juda muhimdir.[4]

5. Amaliy qo'llashga cheklangan e'tibor. Ko'pgina ta'lim muassasalari nazariy bilimlarni amaliy qo'llashdan ko'ra ta'kidlaydi, bu esa o'quvchilarning ilmiy tamoyillarni real muammolarga qo'llash qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Amaliy tajriba va amaliy tadqiqotlar uchun imkoniyatlarning yo‘qligi o‘quvchilarning ilmiy izlanish uchun zarur

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

bo‘lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini cheklaydi.

6. Tadqiqot etikasi va rioya qilish uchun etarli darajada tayyorgarlik ko'rmaslik. Tadqiqot etikasi va muvofiqligining murakkabliklarini navigatsiya qilish talabalar uchun jiddiy muammodir. Ko'pgina muassasalar axloqiy tadqiqot amaliyoti bo'yicha etarlicha ta'lim bermaydi, bu esa talabalar tadqiqotining yaxlitligi va ishonchliligini saqlashda muammolarga olib kelishi mumkin. Tadqiqot etikasi bo'yicha har tomonlama tayyorgarlikning yo'qligi hozirgi pedagogik asoslarning sezilarli kamchiligidir.

Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish strategiyalari

1. Moliyalashtirish va resurslarni taqsimlashni kuchaytirish. Moliyalashning etarli emasligi va resurslarning cheklanganligi muammosini hal qilish uchun ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni ko'paytirish va resurslarni yanada samaraliroq taqsimlashga intilishi kerak. Bunga tashqi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, grantlar olish va ilmiy faoliyat uchun byudjet mablag‘larini ko‘paytirishni targ‘ib qilish orqali erishish mumkin.

2. Tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Institutlar barcha talabalar, xususan, kam vakillik bo'lgan talabalar uchun tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ustida ishlashi kerak.[5] Bu ko'proq tadqiqot amaliyotlarini yaratish, tashqi tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni osonlashtirish va geografik to'siqlarni bartaraf etish uchun virtual tadqiqot imkoniyatlarini taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Mentorlik dasturlarini kuchaytirish. Mentorlik dasturlarini takomillashtirish talabalarning ilmiy tadqiqotlarga jalb etilishini qo'llab-quvvatlash uchun juda muhimdir. Institutlar professor-o'qituvchilar va tengdosh murabbiylarni tayyorlashga, rasmiy murabbiylik dasturlarini ishlab chiqishga va talabalarning tadqiqot faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlash uchun mentorlar uchun resurslar bilan ta'minlashga sarmoya kiritishlari kerak.[6]

4. Fanlararo va hamkorlikdagi tadqiqotlarni rivojlantirish. Fanlararo va hamkorlikdagi tadqiqotlarni rag'batlantirish ilmiy masalalarni yaxlit tushunishni rivojlantirish uchun muhimdir. Institutlar fanlararo tadqiqot loyihalari uchun imkoniyatlar yaratishi, turli akademik bo'limlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishi va talabalar o'rtasida jamoaviy ish va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishi kerak.[7]

5. O‘quv dasturlarida amaliy qo‘llashga urg‘u berish. Ilmiy bilimlarni amaliy qo‘llashni kuchaytirish uchun ta’lim muassasalari o‘z o‘quv dasturlariga ko‘proq amaliy tadqiqot faoliyatini kiritishlari kerak. Bu talabalarga nazariy bilimlarni real dunyo muammolariga qo'llash imkonini beradigan laboratoriya kurslari, dala ishlari va tadqiqotga asoslangan loyihalarni o'z ichiga olishi mumkin.

6. Tadqiqot axloqiy ta'limni integratsiyalash. Talabalarning axloqiy tadqiqot amaliyotiga yaxshi tayyorlanishini ta'minlash uchun institutlar o'zlarining o'quv dasturlariga keng qamrovli tadqiqot axloqiy ta'limini kiritishlari kerak. Bunga ilmiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

tadqiqotlarda axloqiy mulohazalar va tadqiqotning yaxlitligini saqlash muhimligiga qaratilgan kurs ishlari, seminarlar va seminarlar kirishi mumkin.[8]

Amaldagi pedagogik mexanizmlardagi kamchiliklarni bartaraf etish talabalar o‘rtasida mustahkam ilmiy faoliyat madaniyatini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari moliyalashtirish va resurslarni oshirish, tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, murabbiylik dasturlarini kuchaytirish, fanlararo tadqiqotlarni rag'batlantirish va amaliy qo'llashni ta'kidlash orqali ta'lim muassasalari yanada inklyuziv va samarali tadqiqot muhitini yaratishi mumkin.[9] Bu yaxshilanishlar nafaqat talabalarga foyda keltiradi, balki ilmiy bilimlar va innovatsiyalarning rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Исаева М. А., Плиева А. О. Организация проектно-исследовательской деятельности студентов в условиях современного ВУЗа //Проблемы современного педагогического образования. – 2022. – №. 74-4. – С. 88-90.
2. Афанасьев В. В. Педагогические технологии управления учебнопознавательной деятельностью студентов в высшей профессиональной школе: Дис.... д-ра пед. наук. – 2003.
3. НОВИКОВ, Александр Михайлович. "Методология учебной деятельности." (2005): 1-176.
4. Allen, T., & Wright, M. (2014). Integrating Research and Teaching: The Role of Undergraduate Research in the Development of Scientific Knowledge. Journal of Higher Education, 85(5), 677-698.
5. Brew, A. (2013). Understanding Research and Research-Informed Teaching in Higher Education. Higher Education, 66(1), 1-13.
6. Lopatto, D. (2010). Undergraduate Research as a High-Impact Student Experience. Peer Review, 12(2), 27-30.
7. McKinney, K. (2007). Enhancing Learning through the Scholarship of Teaching and Learning: The Challenges and Joys of Juggling. Jossey-Bass.
8. National Research Council. (2015). Enhancing the Effectiveness of Team Science. National Academies Press.
9. Akbarali O'g'li S. F. Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan) //Current research journal of pedagogics. – 2023. – Т. 4. – №. 01. – С. 94-97.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xoshimov Sardorbek Nozimjon o'g'li,** tayanch doktorant **[Хошимов Сардорбек Нозимжон ўғли,** докторант**], [Sardorbek N. Xoshimov,** PhD student**];** manzil: Namangan viloyati, Pop tumani , Beruniy, 56.[адрес:Беруний, 56. Попский район, Наманганская область], [address:Beruniy, 56. Pop district, Namangan region].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

FANLARNI O‘QITISHDA UZVIYLIK – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

© J.N. Xudaykulov[1]✉

[1]Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: fanlarni o'qitishda halollik axloqiy me'yorlarga rioya qilishni, ta'lim amaliyotida halollik va shaffoflikni o'z ichiga oladi. Bu ishonch, ishonchlilik va akademik mukammallik madaniyatini oshirish uchun zarurdir.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi fanlarni o'qitish kontekstida yaxlitlik tushunchasini o'rganish, o'qituvchilar oldida turgan asosiy muammolarni aniqlash va fan ta'limida yaxlitlikni saqlash strategiyalarini taklif qilishdir. Tadqiqot axloqiy amaliyotlarning ahamiyatini va ularning ta'lim sifati va talabalar rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatishga intiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda adabiyotlarni ko'rib chiqish, fan o'qituvchilari bilan suhbatlar va sinfdagi kuzatishlarni o'z ichiga olgan sifatli tadqiqot metodologiyasi qo'llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagoglar akademik halollik bo‘yicha har tomonlama o‘qitish, ishonchli baholash usullarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida halollik va oshkoralik madaniyatini shakllantirish muhimligini ta’kidladilar.

XULOSA: tadqiqot fanlarni o‘qitishda yaxlitlik ko‘p qirrali pedagogik muammo bo‘lib, pedagoglar, muassasalar va siyosatchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi, degan xulosaga keldi.

Kalit so‘zlar: akademik halollik, axloqiy me'yorlar, fan ta'limi, pedagogik muammolar, plagiat, o'qituvchilar tayyorlash, baholash usullari, ta'lim etikasi, halollik madaniyati

Iqtibos uchun: Xudaykulov J.N. Fanlarni o‘qitishda uzviylik – pedagogik muammo sifatida. // Inter education & global study. 2024. №6. B. 301–307.

ДОБРОСОВЕСТНОСТЬ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУК КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© Ж.Н.Худайкулов[1]✉

[1]Самаркандская область Центр педагогического мастерства, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: честность в преподавании естественных наук предполагает соблюдение этических стандартов, честность и прозрачность в образовательной

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

практике. это важно для формирования культуры доверия, авторитета и академического превосходства.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение концепции честности в контексте естественнонаучного образования, определение основных проблем, с которыми сталкиваются учителя, и предложение стратегий по поддержанию честности в естественнонаучном образовании. Исследование направлено на то, чтобы подчеркнуть важность этических норм и их влияние на качество образования и развитие студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в этом исследовании используется качественная методология исследования, которая включает обзор литературы, интервью с учителями естественных наук и наблюдения в классе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: педагоги подчеркнули важность комплексного обучения академической честности, разработки надежных методов оценивания, формирования культуры честности и прозрачности в образовательных учреждениях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование пришло к выводу, что честность в преподавании естественных наук является многогранной педагогической проблемой, которая требует совместных усилий преподавателей, учреждений и политиков.

Ключевые слова: академическая честность, этические нормы, естественнонаучное образование, педагогические проблемы, плагиат, подготовка учителей, методы оценивания, образовательная этика, культура честности.

Для цитирования: Худайкулов Ж.Н. Добросовестность в преподавании наук как педагогическая проблема. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 301–307.

INTEGRITY IN TEACHING SCIENCES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

© Jamshid N. Xudoyqulov[1]✉
[1]Samarkand region Pedagogical skill center, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: integrity in science teaching involves adherence to ethical standards, honesty and transparency in educational practices. this is essential to foster a culture of trust, credibility and academic excellence.

AIM: the purpose of this study is to explore the concept of integrity in the context of science education, to identify the main challenges facing teachers, and to suggest strategies for maintaining integrity in science education. the study seeks to highlight the importance of ethical practices and their impact on the quality of education and student development.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

MATERIALS AND METHODS: this study uses a qualitative research methodology that includes a literature review, interviews with science teachers, and classroom observations.

DISCUSSION AND RESULTS: pedagogues emphasized the importance of comprehensive teaching on academic honesty, development of reliable assessment methods, formation of a culture of honesty and transparency in educational institutions.

CONCLUSIONS: The study concluded that integrity in science teaching is a multifaceted pedagogical problem that requires the joint efforts of educators, institutions, and policy makers.

Key words: academic honesty, ethical standards, science education, pedagogical problems, plagiarism, teacher training, assessment methods, educational ethics, culture of honesty

For citation: Jamshid Xudoyqulov (2024), 'Integrity in teaching sciences as a pedagogical problem', // Inter education & global study, (6), pp. 301–307. (In Uzbek).

Dunyoda hech bir jamiyat yo‘qki, uning rivojida ham tanazzulida ham inson omili hal qiluvchi rol o‘ynamagan bo‘lsin. Insonlarning jamiyatdagi o‘rni esa, umumiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi.

Jamiyat rivojidagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta’lim-tarbiya omili poydevordir. Shu sababli har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Keyingi yillarda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ta’lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning: “...sohada olib borilgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur... Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatilarini safarbar qilamiz” [10; 13-14- b.], – degan ta’kidlari ushbu mavzuni yanada mustahkam g‘oyaga aylantirmoqda.

Xususan, o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimidagi yangilanishlar, yuqori talablar hamda uzluksiz ta’lim turlarining maqsadiga asosan ta’lim mazmunining belgilanishi, yangi avlod darsliklarining yaratilishi – ta’lim turlari va bosqichlari, o‘quv fanlarini o‘qitishga doir uzviylik muammosiga yangicha yondashuvni zaruriyatini paydo qiladi. Bu jarayon esa hozirga kelib, pedagogika, andragogika va o‘qitish metodikasi oldida turgan vazifalardan biri – nafaqat ta’lim turlari hamda bosqichlarining, balki ma’lum fanlar doirasidagi ta’lim jarayonining uzviyligini ta’minlashning metodik tizimini takomillashtirishni ilmiy asoslab berishga qaratiladi. Fanlarni o‘qitish uzviyligini ta’minlashning metodik tizimini takomillashtirish “Maktab o‘quvchilarining bilimi va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadi...” [134-F] sifatida uzluksiz ta’limni amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘zdan kechirildi. Shu jarayonda ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitish uzviyligini ta’minlash o‘quvchilarning intellektual salohiyati, fanlarni o‘zlashtirish darajasi, badiiy-estetik va hissiy tafakkurining uyg‘unligi boshlang‘ich ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida dalillandi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida qayd qilingan “…davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarning ta’lim darajasi va kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar bajarilishini ta’minlash; ta’lim jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini joriy etish;” [1;] talabini amalga oshirishda o‘qitish uzviyligini ta’minlashning metodik tizimini takomillashtirish alohida o‘rin tutadi. Ushbu paragrafda uzviylik tushunchasining shu davrgacha bo‘lgan tadqiqiga to‘xtalish lozim ko‘rildi.

Pedagogikada ta’limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyiliga alohida urg‘u berilishi bejiz emas. “Bu tamoyil, – deb yozadi professor J.Hasanboev, – ta’limda zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganishni ta’minlab beradi. Har bir fan bo‘yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorlikdan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi” [Darslik; 324-325-b.].

Umuman olganda, uzviylik – ta’lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo‘lib, u ma’lum bosqichda avvalgi bosqich o‘quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta’minlaydi.

Ta’lim amaliyoti mavzulararo uzviylik uni o‘zlashtirish samaradorligining muhim sharti bo‘lib, falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, “uzviylik” kategoriyasi falsafiy jihatdan “rivojlanish” kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Rivojlanish nuqtai nazaridan uzviylik ham sifat o‘zgarishlari jarayoni, ham yangi sifatni hosil qilish maqsadida bir darajadan ikkinchi darajaga o‘tish tarzida talqin etiladi, oldingi bosqichlarda qo‘lga kiritilgan natijalarning rivojlanishini nazarda tutadi.

Demak, pedagogik jihatdan uzviylik, birinchidan, didaktik tamoyil, ikkinchidan, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi jarayon, harakatga keltiruvchi kuch (ta’lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta’lim, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo‘lgan talab sifatida izohlaniladi.

Psixologiyada esa uzviylik murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganish; bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish; faoliyatning yetakchi turlari o‘zgarishi doirasida ko‘rib chiqiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Izlanishlar davomida ta’lim tizimida uzviylik tushunchasi o‘tgan asrning 50-yillaridan keng o‘rganilgani, ba’zan uzluksizlik tushunchasi bilan bilgalikda talqin qilingani, ko‘pgina hollarda o‘zining alohida tavsifiga ega bo‘lgani aniqlandi. Shuningdek, bugungi kungacha tadqiqi juda muhim bo‘lib qolayotgan ushbu tushunchaga turlicha ta’riflar berilgani kuzatildi. Jumladan, taniqli rus olimi B.G.Ananev: “Ta’limdagi uzviylik o‘quvchilar fan asoslarini egallashi jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir” [G.Anan; 23-25-b.], – deb yozsa, boshqa bir metodist Sh.I.Ganelinning fikricha, “...uzviylik – o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv materiali uchun tayanch bo‘luvchi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarning amalda shunday qo‘llanishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o‘rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiy g‘oyalari ochiladi, eski va yangi bilimlarning o‘zaro aloqadorligi ta’minlanadi, natijada o‘quvchilarda puxta va chuqur bilimlar tizimi shakllanadi” [Gan; 3-14-b.].

S.M.Godnik tadqiqotlarida esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e’tirof etiladi. Uning xulosasiga ko‘ra, “tor ma’noda uzviylik jarayoni – bu ta’limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzilishlarini to‘ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma’noda bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiy kontekstiga kiritiladi” [god; 31-b.]. S.M.Godnik o‘z fikrlarini davom ettirib “pedagogik jarayon va hodisalar orasidagi uzviylik deganda, eski va yangi, yangi va eski o‘rtasidagi shunday aloqa tushuniladiki, bu sharoitda vujudga keladigan dialektik qarama-qarshiliklar mos jihatlarni tashkil qilgan aloqadorlik asosida hal qilinadi” [Godnik; 224-b.], deb ta’kidlaydi.

Taniqli psixolog S.L.Rubinshteynning fikricha, uzviylikning mohiyati shundaki, o‘qitish jarayonining har bir bosqichi avvalgisining negizida yuzaga kelganligi, uning ichki sharoitini tashkil etganligi sababli barcha bosqichlar o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud [S.Rub; 416-b.].

Boshqa bir tadqiqotchi Yu.A.Kustov “o‘quv bilishdagi uzviylikning mazmun-mohiyati yuqoriroq ilmiy asosdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirishning bosqichli jarayonida eski, yangi va istiqbol o‘rtasida zarur aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir” [Kustov; 63-b.] – deb ta’kidlaydi.

V.E.Tamarin va Ye.Yu.Zaxarovalar uzviylikning har bir yangi bosqichini o‘quvchilarning mavjud tajribalariga asoslangan holda tashkil etish va shu asosda navbatdagi ta’lim o‘quvchilarning ta’lim sharoitlariga moslashuvini yengillashtiruvchi maqsadlar, ta’lim mazmuni, metodlar, ta’lim-tarbiya vositalari o‘rtasidagi munosabatlarini ta’minlovchi sharoit sifatida belgilagan bo‘lsalar [T; 175-b.; Z; 157-b.], A.V.Batarshev tomonidan uzviylikning uch komponentli yaxlit pedagogik tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilarni qamrab oladi: shaxs shakllanishidagi uzviylik (ta’lim jarayonining rag‘batlantiruvchi-motivatsion komponentiga mos keladi); ta’lim mazmunidagi uzviylik (ta’lim jarayonining mazmunli komponentiga mos keladi); ta’lim shakllari, metodlari hamda vositalari orasidagi uzviylik (ta’lim jarayonining jarayonli-faoliyatli komponentiga mos keladi) [Batar; 90-b.].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Yuqoridagi qarashlardan anglash mumkinki, uzviylik deganda, bilimlarni o‘zlashtirish, tushunchalarni hosil qilish, ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida namoyon bo‘luvchi muayyan tartib va ketma-ketlik tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim uzviyligi yangi bilimlar vujudga kelishining zaruriy sharti sifatida o‘quv-biluv faoliyati uzluksizligini nazarda tutadi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan izlanishlar fan – texnika hamda ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivojlanishi, ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan yangicha talablar ijrosi uzviylik muammosini hal etish bilan chambarchas bog‘liqdir, degan xulosaga olib keldi. Izlanishlar umumiy o‘rta ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash uzluksiz ta’limning takomillashgan shakl, metod, usul hamda vositalarini yaratish uchun poydevor vazifasini o‘tashidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim bosqichlari o‘rtasida bir ta’lim turidan ikkinchi ta’lim turiga o‘tish jarayonida, fanlarni o‘qitish jarayonida uzviylikni ta’minlash o‘quvchilar ongi va tafakkuri; bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonida, shuningdek, ularning ijtimoiy moslashishida o‘zaro munosabatlarning ta’minlanishi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich ta’lim shaxs shakllanishining muhim bosqichi, o‘quvchining aqliy qobiliyatlari, xususan, mantiqiy va ijodiy tafakkurining samarali rivojlanish davri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ushbu sifatlarni samarali rivojlantirishda o‘qituvchilar tomonidan quyidagi omillarning inobatga olinishi ijobiy samara berishi ko‘zda tutiladi:

birinchidan, 1-sinfdan 4-sinfgacha bo‘lgan ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari mazmunidagi uzviylikni aniqlashtirish va uning nima maqsadda o‘rgatilishi zarurligini asoslash.

Ikkinchidan, ona tili fani o‘qish savodxonligi (yuqori sinflarda adabiyot) kursi bilan aloqadorligi, uzluksizligi, uzviyligi qanday mezonlarga asoslanishini ko‘rsatish.

Uchinchidan, boshlang‘ich ta’limda o‘rganiladigan ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari mazmunida predmetlararo va fanlararo aloqadorlik qay darajada aks etganligini aniqlash hamda bosqichlararo uzviylikni ta’minlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 56 б.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134-son Farmoni. – QHMMB, 11.05.2022., 06/22/134/0407-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.
4. Ҳасанбоев Ж ва бошкалар. Педагогика. Дарслик. – Т.: Ношир, 2011. – 456 б.
5. Ананьев Б.Г. О преемственности в обучении // Советская педагогика. – Москва, 1953. – № 2. – С. 23-35.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

6. Ганелин Ш.И. Педагогические основы преемственности учебно воспитательной работы в 4 – 5 классах // Советская педагогика. – Москва, 1955. № 7. – С. 3-14.

7. Годник С.М. Теоретические основы преемственности средней и высшей школы в условиях непрерывного образования: Автореф. дисс..доктора пед. наук. – М., 1990. – 31 с.
8. Годник С.М. Преемственность воспитательно-образовательной деятельности в условиях непрерывного образования. Перспективы развития системы непрерывного образования. Под ред. Б.С.Гершунского. – М.: Педагогика, 1990. – 224 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xudoyqulov Jamshid Nishanovich**, katta o'qituvchi, [**Худойқулов Жамшид Нишанович,** старший преподаватель], [**Jamshid N. Xudoyqulov**,senior teacher]; manzil: O'zbekiston, Shahar: Samarqand shahri H.Obiddinov ko'chasi 7-uy [адрес: Узбекистан, Город: Самарканд, ул. Х. Обиддинова, 7], [address: Uzbekistan, City: Samarkand, 7 H. Obiddinov street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

SHAXSNING DEPRESSIV XUSUSIYATLARI PSIXOKORREKSIYASI

© G.M. Boltayeva[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada depressiya holatlarida xulq o‘zgarishlarini psixologik muammo sifatida nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish haqida ma’lumotlar berilgan.

MAQSAD: depressiyani o‘rganish uslublarini taqqoslash va ularni takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda har qanday davlat taraqqiyoti va rivojlanishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri – bu kadrlarning o‘z sohasi bo‘yicha mukammal bilim olganligi va ruhiy jihatdan barkamolligi, shaxsning ma’naviy yetukligi, o‘zligini anglaganligi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak hislarning rivojlantirilganlik darajasiga bog’liq. Shaxsni o‘rganar ekanmiz, ularda kechayotgan ruhiy inqirozlar ham ko‘payib bormoqda ushbu holat bevosita depressiya tushunchasi bilan bo‘liqlikda shaxs faoliyatining turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘lmoqda. Depressiya tushunchasi keng tarqalgan atama bo‘lib u biologiya, tibbiyot, psixologiya, aniq fanlar, iqtisod hamda ijtimoiy fanlarda organizmning tabiiy va ijtimoiy holatlarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aks ettirishda qo‘llaniladi.

Depressiya – kayfiyatning keskin pasayishi, fikrlar karaxtligi va har qanday harakatga bo‘lgan intilishning yo‘qolishi bilan kechuvchi kasallik. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra yer sharida depressiya bilan ro‘yxatga olinganlar soni 350.000.000 dan oshgan. Biroq, aksariyat mutaxasislar fikricha, depressiya bilan kasallangan har uch bemorning biri shifokor nazoratida turadi, xalos. Boshqa bir mutaxasislar fikricha, depressiya bilan kasallanganlar sonini aniqlash mushkul. Chunki depressiya turli xil klinik ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda va hammma vaqt ham tashxis to‘g‘ri bo‘lib chiqavermaydi. Buning ustiga depressiya bilan og‘rigan bemorlarning hammasi ham psixiatr yoki psixologlarga murojaat qilavermaydi. Depressiya bilan og‘riganlar soni va ular orasida o‘z joniga qasd qilayotganlarning yildan yilga ko‘payib borishi bu kasallikning katta tibbiy- ijtimoiy va psixologik muammoga aylanganligini ko‘rsatadi. Aksariyat xorij davlatlarida bu muammoning yechimini samarali hal qilish uchun umumiy amaliyot shifokorlari va psixologlar depressiya bo‘yicha maxsus dasturlar orqali o‘qitilmoqda va bemorlarga yordam ko‘rsatish usullari o‘rgatilmoqda. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar depressiya holatlarida xulq o‘zgarishlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

psixologik muammo sifatida o‘rganishni taqazo etmoqda va muammoning xozirgi kunda dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В исследовании использованы смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные интервью. Количественные данные будут собираться с помощью структурированных анкет, распространяемых среди семей, в которых будут оцениваться методы воспитания детей, образовательная поддержка и взаимодействие в семье.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что положительная семейная динамика, характеризующаяся поддерживающим и коммуникативным стилями воспитания, существенно способствует повышению социальной готовности девочек. Педагогические практики, такие как поощрение самостоятельности, формирование навыков решения проблем и развитие социальных отношений внутри и вне семьи, оказались эффективными.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в данном исследовании подчеркивается важность как педагогического, так и психологического аспектов особенностей развития саногенного мышления будущих учителей. Семьи, создающие благоприятную, коммуникативную и образовательную среду, как правило, воспитывают девочек, которые лучше подготовлены к социальному взаимодействию и вызовам.

Ключевые слова: мышление, межпредметная связь, творческая деятельность, методы обучения, формирование, критерии, показатели, психологические характеристики.

Для цитирования: Қўчқарова Ф.М. Особенности развития саногенного мышления будущих учителей. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 342–347.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF SANOGENIC THINKING OF FUTURE TEACHERS

© Feruza M. Qo'chqarova[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: it plays a decisive role in the formation of specific characteristics and life skills of the development of sanogenic thinking of future teachers, in their training in the development of sanogenic thinking. It is important to understand the pedagogical and psychological aspects of the specific features of the development of sanogenic thinking of these future teachers for the formation of a well-rounded person.

AIM: the main goal of this study is to study the pedagogical and psychological aspects of education that play an important role in the development of sanogenic thinking of future teachers. The study is aimed at identifying the factors that contribute to the effective socialization and personal development of the specific characteristics of the development of sanogenic thinking of future teachers, with a focus on family activities and practices.

MATERIALS AND METHODS: The study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative interviews. Quantitative data will be collected through structured questionnaires distributed to families, assessing parenting practices, educational support, and family interactions.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that positive family dynamics characterized by supportive and communicative parenting styles significantly contribute to girls' social readiness. Pedagogical practices such as encouraging independence, forming problem-solving skills, and developing social relations within and outside the family were found to be effective.

CONCLUSION: in this study, it is emphasized that both pedagogical and psychological aspects of the characteristics of the development of sanogenic thinking of future teachers are important. Families that foster supportive, communicative, and educationally rich environments tend to raise girls who are better prepared for social interactions and challenges.

Key words: thinking, interdisciplinary communication, creative activity, educational methods, formation, criteria, indicators, psychological characteristics.

For citation: Feruza M. Qo'chqarova. (2024) Specific characteristics of the development of sanogenic thinking of future teachers., Inter education & global study, (6), pp. 342–347. (In Uzbek).

Sanogen tafakkur tuzilmasidagi bilim bu – umummajburiy normalar tizimi, davlat tomonidan qabul qilinadigan, tasdiqlanadigan va himoyalanadigan farmon va qarorlardan habardorlikdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ong hususida tadqiqotlarni o'rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin: ong - bu voqelikni inson psixik olamida aks ettirishning eng yuqori shakli; ong - bu doimiy holatda faoliyat bilan bo'g'liq bo'lgan psixik jarayon; ong o'z navbatida yagona bo'linmas ma'naviy shakllanishdir hamdir; ong - bu ham tafakkur uslubi va ob'ektiv borlikda mavjud bo'lgan haqiqat bilan aloqalar tizimi hamdir.

Ijtimoiy hayotni huquqiy tartib doirasida tutish to'g'risida tushunchalar tizimi, ijtimoiy ong shakli – huquqiy ong bo'lib hisoblanadi. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning ajralmas qismi. Har bir shaxsning huquqiy ongi uningqonun me'yorlariga munosabatidan, ularni qabul qilish xislatlaridan, o'rnatilgan qonunni qo'llash, unga rioya qilish tushunchalaridan kelib chiqadi.

Z.Islomovning fikricha, "Ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin[66]".

Demak, ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat a'zolarida huquqqa, huquqiy munosabatlarga, huquqni tushunishga, qonunchilikka, huquqiy tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan qarashlar, his tuyg'ular va g'oyalar majmuasidir. O'zaro munosabatlar - shaxslar o'rtasidagi yuridik aloqa bo'lib, bu ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. 0'zaro huquq va burchlarsiz huquqiy munosabat vujudga kelmaydi. Huquqiy munosabatlar - bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari subyektiv huquq va subyektiv yuridik majburiyatlarga ega bo'ladi. O'zaro munosabatlarning belgilari[97]: ijtimoiy subyektlar o'rtasidagina yuzaga keladigan muayyan aloqalar; huquq normalari asosida yuzaga keladi; irodaviy xarakterga ega (chunki munosabat yuzaga kelishi uchun kamida bitta tomonning istagi talab qilinadi); davlat tomonidan qo'riqlanadi va bajarilishi ta'minlanadi; muayyan predmet yoki ashyoga yoxud muayyan xizmat (masalan, mahsulot yetkazib berish)ga nisbatan yuzaga keladi va shu asosda subyektlar o'zlariga tegishli bo'lgan subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarni amalga oshiradi[97].

Munosabatlar – qonun normalari bilan tartibga solinadigan, ijtimoiy munosabatlardir. Huquq nuqtai nazaridan, huquqiy munosabatlarning har bir ishtirokchisi ma'lum huquq va majburiyatlarga ega. Huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'zaro huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar deb ta'riflash mumkin.

Modelda madaniyat funksiyalari (regulyativ, normativ, sotsiologik, prognostik, kommunikativ)[3] ko'rsatilgan bo'lib, sanogen tafakkur madaniyat turi; guruh – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlamning o'zigagina xos bo'lgan madaniyat darajasi; sanogen tafakkurning regulyativ funksiyasi jamiyat a'zolarining yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tashkil etish, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Bu funksiya doirasida huquqiy ta'sirning yana ikki – regulyativ-statik va regulyativ-dinamik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

huquqiy funksiyalar yo‘nalishi haqida so‘z yuritish mumkin. Sanogen tafakkurning regulyativ funksiyasi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta’minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog‘liq. Bu funksiya umumiy va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo‘yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta’minlashga yordam beradi. Bu funksiya umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy va ma’naviy kafolatlarni, ya’ni rostgo‘ylik, insof, diyonat, ezgulik, shafqat, vijdon, insoniy qadrqimmat va tanlov erkinligini qamrab oladi. [2].

Sanogen tafakkurning normativ funksiyasi aksiologik (baholovchi) tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli hodisa va faktlarda, ma’lum bir ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o‘z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy normalar boshqa jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil qiluvchi elementlarni baholovchi obyekt sifatida maydonga keladi. Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi huquq normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariga mos holda atrofdagi huquqiy voqelikni o‘zgartirishda erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o‘z aksini topadi. Sanogen tafakkurdagi baholovchi faoliyat shaxs, huquq xizmatchilari jamiyati, qonunchilik, huquqiy tartib-intizom, huquqiy munosabatlar, huquqiy boshqaruv mexanizmi (tegishli huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan) «o‘lchovidan» tashkil topadi.

Sanogen tafakkurning sotsiologik funksiyasi shaxsning huquqiy sifatlari shakllanishi tizimi orqali o‘rganib chiqilishi mumkin. Shubhasiz bunday jarayonga huquqiy voqelik muayyan darajada ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta’limini tashkil qilish chorasini ko‘rish, ularga yuridik yordam ko‘rsatish, shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Sanogen tafakkurning mazmunga oid komponentida sanogen tafakkur turlari (subyekt bo’yicha: individual, guruh, jamoat) ko’rsatilgan: individual – shaxsning o’zigagina xos bo’lgan, katta hajmda bo’lmagan va uning huquqiy tarbiyasidan kelib chiqadigan jamoat – muayyan davlatda istiqomat qiladigan jamiyat a’zolarining huquqiy ta’lim va madaniyati darajasi; sanogen tafakkurning mazmunga oid komponentida sanogen tafakkur tiplari (normativ, axloqiy) ko’rsatilgan: normativ – ma’lum yuridik shakllarda, yuridik manbalar (farmon, qaror)da namoyon bo’luvchi ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga amal qilish; axloqiy – jamoatchilik fikri ifodalangan va jamoatchilik fikri orqali ta’minlanishida kishining jamiyatdagi xulqini normativ tartibga solib turuvchi, yozilmagan xulq atvor qoidalariga amal qilishi.

Sanogen tafakkurning mazmunga oid komponentida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining sanogen tafakkurni rivojlantirishning to’rt bosqichi ko’rsatilgan: 1) huquqni bilish (tashkiliy ishlar bosqichi); 2) tafakkurni tushunish (tahlil va tashxislash bosqichi); 3) o’zaro bir birini hurmat qilish (amalga oshirish bosqichi); 4) qonun qoidaga rioya etish (umumlashtirish va ommalashtirish bosqichi) bilim, ko’nikma va malakasini egallashdan iborat;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

1) bilish (tashkiliy ishlar bosqichi) – huquqiy normalar haqida tushunchaga ega bo'lish;

2) sanogen tafakkurni tushunish (tahlil va tashxislash bosqichi) – ongli ravishda mohiyatini anglash;

3) sanogen tafakkurni hurmat qilish (amalga oshirish bosqichi) – huquq normalariga ijobiy munosabatda bo'lish;

4) sanogen tafakkurga rioya etish (umumlashtirish va ommalashtirish bosqichi) – amaldagi huquq normalariga rioya qilish.

Sanogen tafakkurning operatsional komponenti yondashuvlar (aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv), o'qitish texnologiyalari (muammoli, loyihali); ta'lim metodlari (ta'limning og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, muammoli izlanish, mustaqil ishlar, reproduktiv evristik, induktiv va deduktiv, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari) va ta'lim vositalari (matnli, tasvirli, audiovizual, yordamchi, modelli vositalar)ni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonida aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)
2. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)
3. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (https://wos.academiascience.org)Luria A.R., Yudovich, F.A. Speech and development of mental processes of the child. Moscow: Pedagogika, 2008.
4. Sapargalieva AZh, Muratbekova DE. The development of speech activity in children of primary school age. Reports of the Kazakh Academy of Education 2019; 3: 152-161

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna**, professor,[**Кочкарова Феруза Махаматкосимовна,** профессор], [Feruza M.Qo'chqarova, professor]; manzil: 150700, O'zbekiston, Andijon shahar,Universitet ko'chasi 129-uy [адрес: 150700, Узбекистан, г. Андижан, улица Университетская, дом 129], [address: 150700, Uzbekistan, 129st.Universitet,Andijan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

OROLBUYI EKOLOGIK OFAT SHAXSGA TA'SIRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PREDIKTORLARI

© G.K. Jumamuratova[1]✉

[1]Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH: atrof-muhit falokati odamlarga, ayniqsa orollarning alohida joylashgan jamoalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Odamlarga bunday hodisalar qanday ta'sir qilishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik prognozlarni tushunish samarali aralashuv va qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqot orol miqyosidagi ekologik ofatga individual javoblarni belgilovchi asosiy ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - orol miqyosidagi ekologik ofatning odamlarga ta'siriga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik prognozlarni aniqlash va tahlil qilish. Bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, psixologik barqarorlik va jamiyatning hamjihatligi odamlarning engish mexanizmlari va umumiy farovonligiga qanday hissa qo'shishini o'rganishni o'z ichiga oladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot aralash usullardan foydalanadi, adabiyotlarni ko'rib chiqish, so‘rov, intervyu.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar odamlarga ekologik ofatlarning ta'siriga ta'sir qiluvchi bir nechta asosiy ijtimoiy-psixologik prognozlarni ta'kidlaydi. Oila, do'stlar va jamoa a'zolari tomonidan kuchli ijtimoiy yordam ekologik ofatlarning psixologik ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Sog'lom qo'llab-quvvatlash tarmoqlariga ega bo'lgan odamlar stress va xavotirning past darajalari haqida xabar berishadi.

XULOSA: Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, psixologik barqarorlik, jamiyatning birlashishi, idrok etilgan nazorat va oldingi travma tajribalari odamlarning orol miqyosidagi ekologik ofatlardan qanday ta'sirlanishini ko'rsatadigan muhim prognozlardir. Ushbu topilmalar kuchli ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, barqarorlikni oshirish va jamiyatlarni tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rish va javob choralarini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi. Samarali tadbirlar ekologik ofatlarning odamlarga salbiy ta'sirini yumshatish uchun ushbu ijtimoiy-psixologik omillarni kuchaytirishga qaratilishi kerak.

Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi mintaqasi, aholi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik pediktorlar, ekologik tanglik, ekologik hodisalar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Iqtibos uchun: Jumamuratova G.K. Orolbuyi ekologik ofat shaxsga ta'sirining ijtimoiy-psixologik prediktorlari. // Inter education & global study. 2024. №6. B. 348–354.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ОБЩЕОСТРОВНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕДСТВИЯ НА ЧЕЛОВЕКА

© Г.К.Жумамуратова[1]✉
[1]Нукусский филиал Ташкентского государственного аграрного университета, Нукус, Каракалпакстан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: экологические катастрофы оказывают серьезное воздействие на людей, особенно на изолированные островные сообщества. Понимание социально-психологических предикторов, которые влияют на то, как такие события влияют на людей, имеет решающее значение для разработки эффективных стратегий вмешательства и поддержки. В этом исследовании изучаются ключевые социальные и психологические факторы, которые формируют индивидуальные реакции на экологическую катастрофу, охватившую остров.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является выявление и анализ социально-психологических предикторов, влияющих на воздействие человека на окружающую среду в результате масштабной экологической катастрофы. Это включает в себя изучение того, как сети социальной поддержки, психологическая стабильность и сплоченность сообщества способствуют механизмам преодоления трудностей и общему благополучию людей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы смешанные методы, обзор литературы, опрос, интервью.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные результаты подчеркивают несколько ключевых социально-психологических предикторов, которые влияют на подверженность человека экологическим катастрофам. Сильная социальная поддержка со стороны семьи, друзей и членов сообщества может значительно снизить психологическое воздействие экологических катастроф. Люди со здоровой сетью поддержки сообщают о более низком уровне стресса и тревоги.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что сети социальной поддержки, психологическая устойчивость, сплоченность сообщества, воспринимаемый контроль и предшествующий травматический опыт являются важными предикторами того, как люди пострадают от экологических катастроф, происходящих в масштабах всего острова. Эти результаты подчеркивают важность развития прочных социальных связей, повышения устойчивости и усиления готовности сообществ к стихийным бедствиям и реагирования на них. Эффективные меры должны быть направлены на усиление этих социально-

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

психологических факторов для смягчения негативного воздействия экологических катастроф на людей.

Ключевые слова: Аралбойский регион, население, психология личности, социально-психологические факторы, экологический стресс, экологические явления.

Для цитирования: Жумамуратова Г.К. Социально-психологические предикторы воздействия общеостровной экологической бедствия на человека. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 348–354.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PREDICTORS OF THE EFFECT OF AN ISLAND-WIDE ENVIRONMENTAL DISASTER ON THE PERSON

© Guljayna K. Jumamuratova[1]✉
[1] Nukus Branch of Tashkent State Agrarian University,Nukus,Karakalpakstan

Annotation:

INTRODUCTION: environmental disasters have a serious impact on people, especially on isolated island communities. Understanding the social-psychological predictors that influence how people are affected by such events is critical to developing effective intervention and support strategies. This study explores the key social and psychological factors that shape individual responses to an island-wide environmental disaster.

AIM: the primary objective of this study is to identify and analyze socio-psychological predictors influencing the human impact of an island-wide environmental disaster. This includes exploring how social support networks, psychological stability, and community cohesion contribute to people's coping mechanisms and overall well-being.

MATERIALS AND METHODS: the research uses mixed methods, literature review, survey, interview.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS: the findings highlight several key social-psychological predictors that influence human exposure to environmental disasters. Strong social support from family, friends, and community members can significantly reduce the psychological impact of environmental disasters. People with healthy support networks report lower levels of stress and anxiety.

CONCLUSIONS: research suggests that social support networks, psychological resilience, community cohesion, perceived control, and prior trauma experiences are significant predictors of how individuals will be affected by island-wide environmental disasters. These findings highlight the importance of developing strong social bonds, building resilience, and strengthening communities' disaster preparedness and response. Effective interventions should focus on strengthening these socio-psychological factors to mitigate the negative impact of environmental disasters on people.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Key words: Aralboyi region, population, personal psychology, socio-psychological factors, environmental stress, environmental phenomena.

For citation: Guljayna K. Jumamuratova (2024) 'Social-psychological predictors of the effect of an island-wide environmental disaster on the person', Inter education & global study, (6). pp. 348–354. (In Uzbek).

Iqlim o‘zgarishi, turli xil ekologik muammolar ta’siri insoniyatni allaqachon tashvishiga sabab bo‘lmoqda Jahonda bugungi ijtimoiy taraqqiyot uchun global ekologik muammolarning oldini olish hayotiy zaruriyatdir. Chunki tabiiy atrof-muhit muhofazasi insoniyatning kelajagini ta’minlovchi ijtimoiy omilga aylangan. Global iqlim o‘zgarishlari XXI asrning asosiy muammolaridan biridir. Insoniyatning taraqqiyotga erishish yo‘lida tabiatga nisbatan xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lishi atrof-muhitdagi muvozanatning izdan chiqishiga va o‘nglab bo‘lmas salbiy oqibatlarga olib keldi, natijada ob-havo va iqlim butunlay o‘zgarib ketish arafasida turibdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish yoshlarning munosabati va xulq-atvori jamiyatimizning kelajakdagi shaklini belgilaydi, endi har qachongidan biz odatlarimizni, xatti-harakatlarimizni o‘zgartirishimiz kerakligi va chora-tadbirlarimiz samarali bo‘lishini ta’minlash uchun biz turli kontekstlarni hisobga olishimiz kerak-deb ta’kidlab o‘tgandi. Atrof-muhit siyosati, ekologik ta’lim darajasi va infratuzilmaning tayyorligi har bir mamlakatda turlicha. Ba’zi mamlakatlar ijtimoiy muammolarga boshqalarga qaraganda ko‘proq duch kelishadi va bu omillar odamlarning atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ko‘rishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shunday qilib, olimlar tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishda o‘tish va ishtirok etishni osonlashtirish uchun turli xil vositalarga muhtoj.

Tahlillar va mulohazalar. Ekologik muammolarni kelib chiqishiga albatta, Odam tabiatga ta’siri ya’ni yerning beqiyos keng hududlarida fauna va florani, o‘simliklarning kamayishi, ayrim o‘simlik va hayvon turlarining qirilib ketishi va bir qator **antropogen omillarning natijasidir.** Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasini atrofida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta’sirida qoldi. Orolbo‘yi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik tanglik shubhasiz insoniyatning yangi tarixidagi eng mushkul muammolardan biri bo‘lib qolmoqda, – deydi BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi atrof-muhit muhofazasi bo‘limi direktori Marko Kayner. Bu musibat o‘z navbatida yoshlarimizning kelajagi uchun ham xavflidir. Shu sababli o‘z tadqiqotimizni Orolbo‘yi yoshlariga ekologik ofat ta’sirining ijtimoiy-psixologik prediktorlariga e’tibor qaratish bo‘ldi.

Psixologik prediktorlar bu psixologik jarayonni yoki shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishini bashorat qilishga qaratilgan bo‘lib, ma’lum darajada psixologik xususiyatlar yoki ko‘rsatkichlarni ajratib ko‘rsatib o‘tadi. Bu bo‘yicha psixologik olimlardag T.M Maryutina, O.Yu Yermolayev, V.I.Trubnikovlar ilmiy tadqiqotlarini olib borishgan. Ular psixologik prediktorlarni darajalararo (individuallik tuzilishida), ontogenetik, kasbiy va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

klinik deb bir nechta turlarga ajratib ko‘rsatib o‘tishgan. Psixolog olimlar tomonidan zamonaviy sharoitdan kelib chiqib ta’limning dastlabki bosqichlarida bolaning akademik muvaffaqiyatini prognozlash va targ‘ib qilish muammosi rivojlantirmoqda.

Prediktor so‘ziga ilmiy yondashilsa, tor ma’noda "bashorat qiluvchi ko‘rsatkich" tushunchasini beradi, asosan bashoratning ishonchliligini statistik baholash bilan bog‘lab tushuntiradi. Prognozning ishonchliligi uchun umumlashtirish darajasi, bashoratni baholash usuli muhim ahamiyatga yega. Shu sababli Orolbo‘yida istiqomot qilayotgan shaxslarga ekologik tanglik ta’siri va bu shaxs psixikasiga ta’siri masalalaridagi psixologik prediktorlarga diqqat-e’tiborimizni qaratganmiz.

Tadqiqotimiz doirasidagi ilmiy izlanishlarda Orolbo‘yidagi ekologik tang vaziyatlar inson saslomatligiga, turmush tarziga, ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotganligi hech kimga sir emas. Aholi salomatligida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari, kam-qonlik, hiqildoq va qizilo‘ngach saratoni, onkologik kasalliklarni ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatalar salbiy tus olishi va odamlar mehnatidan qoniqmasligi, xudud ekologiyasi shaxs ongi o‘sishiga ta’siri, shaxs kognitiv riojlanishining murakkablashib borishiga odi ijtimoiy psixologik tadqiqotlarni zaruriyati kelib chiqmoqda. Orolbo‘yi mintaqasidagi og‘ir ekologik vaziyatni tasavvur qilishimiz qiyin emas, yuqorida keltirib o‘tgan misollar dastlab inson kayfiyatini o‘zgartirib quyadi. Bizning kayfiyatimiz, birinchi navbatda, hissiyotlar va ular bilan bog‘liq his-tuyg‘ular bilan belgilanadi. Tuyg‘ular har qanday qo‘zg‘atuvchiga reaksiyaning asosiy, eng oddiy turlaridir. Ular ijobiy yoki salbiy, kuchli yoki zaif, ortishi yoki aksincha, kamayishi mumkin. Bu bizning shaxsiy tajribamizni tavsiflovchi sof insoniy fazilatlari bilan bog‘liqdir. Tuyg‘ulardan farqli o‘laroq, his-tuyg‘ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi, balki ong tomonidan boshqarilishi, psixikaga bo‘ysunishi juda muhimdir. Ekologik tanglik holatida yashayotgan aholi kayfiyatini o‘zi tez-tez o‘zgarib turishi, aqliy quvvatining, ishchanlik qobiliyatining pasayishi, o‘ylash va fikrlash qobiliyatining o‘zgaruvchanligi kelgusi ishlariga ishonchsizlikni ortirib borishi har qanday jamiyatning strategik ishlariga teskari ta’siri ko‘rsatishi tabiiy. Salbiy ekologik omillar inson aqliy quvvatini zaiflashtirib boradi, xulq-atvoriga salbiy ta’siri o‘tkazadi, psixologlar aynan ushbu jihatlariga befarq bo‘lmasligi kerak. Ekologik muammolar shaxs intellektning rivojlanishda kechikishlar, xatti-harakatlarda muammolari va hatto bolalarda IQning pasayishiga olib kelishadi. Orolbo‘yida istiqomot qilayotgan shaxslarga ekologik tanglik ta’sirida shaxs psixologiyasiga taaluqli psixologik prediktorlarni quyidagicha ajratib chiqishni ma’qul ko‘rdik.

Xulosalar. Orolbo‘yi ekotizimi va inson psixologiyasiga bog‘liq psixologik prediktorlarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Dastlab ekologik hodisalar shaxs kognitiv sferasidagi o‘zgarishlarni prediktivlab olishi muhimdir. Har qanday shaxs atrof-muhit tabiatini idrok qilish bilan bog‘liq muammolarni ko‘ramiz. Atrof-muhitni borligicha idrok etishi shaxsning keyingi munosabatlarida va ularning xatti-harakatida namoyon bo‘lishiga e’tiborimizni qaratamiz. Atrof-muhitning tabiiy sharoiti boy o‘simliklar va hayvonot dunyosini idrok etishida tabiat resusrlarini saqlab qolishga bo‘lgan intilishlari va ularni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

keyingi avlodga yetkazib berish kabi ekologik qadriyatlar shakllanib borishi lozim. Afsuski, ekologik hodisalar ya'ni Orol dengizi yangi Orolqum cho'liga aylanib borishi, Orol dengizining qurishi, suv resurslarining yetishmasligi, bu regionda bioxilma-xillikning yo'qolib ketganligi, Orolbo'yi hududlarida yashagan Amudaryo yo'lbarsi, qizil bo'ri kabi hayvonlarning yo'qolib ketganligi, o'simlik olamining suv yetishmasligi ta'sirida yo'qolib borayotganligi, bu hududlarda faqatgina endem o'simliklarining o'sishi, mevali daraxtlarning qisqa vaqt davomida o'sib, 2-3 yildan keyin hosilga kirmasdan qurib qolishi, tuproqlarining sho'rlanganligi va hokazo salbiy muammolarning regionda yashayotgan xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda psixologik ahvoliga salbiy ta'sirini anglashimiz qiyin emas. Bir qator ekologik muammolar uzoq va asta-sekinlik bilan shaxs psixologiyasiga o'z ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Darhaqiqat, shaxs atrof-muhit tabiati ekologiyasi juda yomon bo'lgan xududlar bilan ekologiyasi yaxshi atrof-muhit tabiatini solishtirib boradi. Bu o'z navbatida o'zining yashab turgan xududining tabiatiga shavqatsiz munosabatda bo'lishini namoyon eta boshlaydi. Tabiat resurslariga ham munosabati, fiklari va qarashlarini o'zgartira oladi. Masalan, o'z xududidagi ichimlik suvi iflosligini biladi va uni endi xoxlaganicha ishlatsa bo'ladi degan fikrlarga borishi tabiiy. Ekologik xududi yaxshi ya'ni ichimlik suv toza bo'lgan xududlarda o'z fikrini o'zgartirishi ham mumkin. Bu kabi atrof-muhit tabiatiga psixologik pediktorlarini salbiy yoki ijobiy tomonlarini ajratib olishga to'g'ri keladi. Ekologik tang vaziyatlar shaxs diqqati, xotirasi va nutqining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib o'tadi. Atrof-muhiti ekologiyasi tang ahvolda uni har qanday shaxs ko'rib aynan shu tabiat resurslariga diqqati past bo'lishi, bo'layotgan jarayonlarda ma'lum ma'lumotlarni eslab qolishini xoxlamasligi va uni boshqalarga gapirib berishni istamasligi tabiiydir. Ekologik tanglikni kelib chiqish sabablarini bilishi va kelgusi ishlariga ekologik vaziyatlar salbiy ta'sirini ko'rsatayotgani guvohi bo'lgan har qanday shaxsda o'zini emas oldingi avlod shaxslarni aybdor deb bilishi shakllanib boradi. Vaholanki, mavjud tabiiy resurslarni saqlab qolishi, ekologik ogohlikka chaqirishi kabi xatta-harakatlari sezilarli darajada namoyon bo'lishi kerak. Psixologiyada aybdorlik hissini shakllantirib borishi ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlarda kelishmoqchilikni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillardan hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlikga tahdidlarning psixologik pediktorlarini albatta hisobga olgan holda ta'limdagi ekologik bilimlarni oshirish, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan xatti-harakatlarni qullab-quvvatlash, ekologik ongni shakllantirib borishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarni kuchaytirish zarurati kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-sonli «2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi» to'g'risida qarori.
2. Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzuciga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya. 06.12.2018y

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

3. Мдивани М.О. Субъект-средовые взаимодействия: экопсихологический подход к развитию психики (Коллективная монография) / под. ред. М.О. Мдивани. – М.: Издательство «Перо», 2017. – 160 с.
4. Панов В.И. Экологическая психология: направления и тенденции // Экопоэзис: экогуманитарные теория и практика. – 2020.
5. Панова В.И. Экопсихология развития психики человека на разных этапах онтогенеза: коллективная монография М.: 2013.
6. Черноушек М. Психология жизненной среды. — М.: Мысль, 1989.
7. Медведев В. И., Алдашева А. А. Экологическое сознание. Учебное пособие. – М.: Логос, 2001.
8. Джуманов С А. К вопросу о влиянии Аральской трагедии на здоровье населения Узбекистана и ликвидации ее последствий//III Меж.науч. конф.– Спб., 2015.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna**, psixolog [**Жумамуратова Гулжайна Кенесбаевна**, психолог], [**Guljayna K. Jumamuratova**, a psychologist]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdanbetova ko‘chasi [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица Абданбетова], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Abdanbetova street].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAYYORLIGI

© M.I. Niyazmetova[1]✉

[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Yoshlarni ota-onalikka ijtimoiy-psixologik tayyorlash kelajak avlodning sog‘lom kamolotini ta’minlashning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu tayyorgarlik yosh shaxslarni tarbiyalash mas'uliyatini samarali bajarish uchun zarur bilim, ko'nikma va munosabatlar bilan jihozlashni o'z ichiga oladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlarni kelajakdagi ota-ona rollarini kutish uchun ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik dasturlarining joriy usullari va samaradorligini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot miqdoriy so'rovlar va sifatli intervyularni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: topilmalar yoshlarning ota-ona roliga tayyorgarligida sezilarli bo'shliqni ko'rsatadi. Ko'pgina respondentlar bolaning rivojlanishi va ota-onalarning samarali strategiyalari haqida cheklangan bilimga ega ekanligini ko'rsatdilar.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bola tarbiyasiga samarali ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar va hissiy qo'llab-quvvatlash bilan birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: oila, yoshlar, psixologik tayyorgarlik, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, oila mustahkamligi.

Iqtibos uchun: Niyazmetova M.I. Yoshlarning ota-onalik roliga ijtimoiy-psixologik tayyorligi // Inter education & global study. 2024. №6. B. 355–361.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА МОЛОДЕЖИ К РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ

© М.И. Ниязметова [1]✉

[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: социально-психологическая подготовка молодежи к родительству является важным аспектом обеспечения здорового развития следующего поколения. Эта подготовка включает в себя предоставление молодым

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

людям необходимых знаний, навыков и отношений для эффективного выполнения своих обязанностей в качестве педагогов.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение современных методов и эффективности программ социально-психологической подготовки молодежи к исполнению будущих родительских ролей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные интервью.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты указывают на значительный разрыв в готовности молодежи к родительству. Многие респонденты указали, что у них ограниченные знания о развитии детей и эффективных стратегиях воспитания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследования показывают, что эффективная социально-психологическая подготовка к воспитанию детей требует многогранного подхода, сочетающего теоретические знания с практическими навыками и эмоциональной поддержкой.

Ключевые слова: семья, молодежь, психологическая подготовка, семейные отношения, семейные ценности, сила семьи.

Для цитирования: Ниязметова М.И. Социально-психологическая подготовка молодежи к роль родителей. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 355–361.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR THE ROLE OF PARENTS

© Munira I. Niyazmetova[1]✉
[1]Tashkent state pedagogical university,Toshkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: social and psychological preparation of young people for parenthood is an important aspect of ensuring the healthy development of the next generation. This preparation includes equipping young people with the necessary knowledge, skills, and attitudes to effectively fulfill their responsibilities as educators.

AIM: the purpose of this study is to study the current methods and effectiveness of social-psychological preparation programs for youth in anticipation of future parental roles.

MATERIALS AND METHODS: this study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative interviews.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate a significant gap in youth preparedness for parenthood. Many respondents indicated that they had limited knowledge about child development and effective parenting strategies.

CONCLUSION: research shows that effective socio-psychological preparation for child rearing requires a multifaceted approach that combines theoretical knowledge with practical skills and emotional support.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Key words: family, youth, psychological preparation, family relations, family values, family strength.

For citation: Munira I. Niyazmetova (2024), Social-psychological preparation of young people for the role of parents, // Inter education & global study, (6), pp. 355–361. (In Uzbek).

Mamlakatimizdagi har tomonlama modernizatsiya qilish jarayonlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo‘lgan oilaning yaxlit tizimi, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, mafkuraviy asoslariga ham ta’sir qilishi tabiiydir. Ayni paytda O‘zbekistonda 9 milliondan ziyod oila mavjud. Shu oilalardagi real jarayonlar, xususan, nikoh, ajrim, tug‘ilish, o‘lim, aholining reproduktiv ustanovkalari, ya’ni nechta farzand ko‘rishga nisbatan intilishi, xohish-istaklari, real daromadlar, migratsiya holatlari kabilar mamlakatdagi demografik vaziyatni belgilovchi omillardir. Yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash yosh avlodni tarbiyalashning umumiy tizimining ajralmas qismidir.

Hozirda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-hunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Har bir yigit-qizning ta’lim maskanlarida o‘qib, biror mutaxassislikni egallashi ob’yektiv hodisa bo‘lishi bilan birga, uning yosh jihatidan oila qurishi ham inkor etilmaydigan qadriyatdir. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish juda muhimdir.

Respublikamizda oila va oilaviy munosabatlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 820-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 2 sentyabrdagi 437-son qarori bilan «Ibratli oila» ko‘krak nishonini berish, «Farovon oila - jamiyat ravnaqining asosi» konseptual g‘oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish maqsadida 2022 yil 1 martdagi PF-81 son “Oila va xotin qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari va me’yoriy xujjatlarni amalga oshirishda xizmat qiladigan tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etishini taqoza etadi.

Yoshlarni oilaga psixologik tayyorlashda oila haqida chuqur bilimlarni va hayotiy tajribalarni o‘rganib boruvchi oila institutlari, oila markazlari va mahalla qumitalari, ta’lim muassasalari ham o‘z javobgarligini oshirib borishini talab qiladi. O‘zbekistonda yiliga o‘rtacha 250–300 ming yangi oila qurilib turibdi, ammo, shu bilan birga, har yili o‘rtacha 45–49 ming ajralishlar ham kuzatilmoqda. Bularga proporsional ravishda negadir ajrimlar sonida ham keskin yuqorilash kuzatilgan. Statistika agentligi 2022 yilda O‘zbekistonda qayd etilgan nikohdan ajralish holatlari haqida ma’lumotini taqdim qildi. Agentlik keltirayotgan raqamlar o‘tgan yilgisi bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko‘rinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ya'ni, 2022 yilda O'zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman ajrashgangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 39 227 tani tashkil qilgan. Respublikamizda joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida 12 ming 810 ta, o'tgan yilning shu vaqtiga nisbatan 3 ming 151ta kam oilaviy ajralishlar ro'yxatga olingan. Ko'rsatib o'tilgan ajrimlarni turli tuman sabablari ham o'rganildi, aksar hollarda mutaxassislar tomonidan qishloq joylaridagi odamlarning yetarlicha ish bilan ta'minlanmagani, ta'minlansa-da, maoshlarning ozligi sabab, fuqarolarning migrant sifatida chetga yo'l olishi ham oilalarning parokandalikka yuz tutishiga sabab bo'lishi aytiladi. Ba'zi ko'rsatuv va bugungi raqamlardan ham qishloq joylardagi turmush tarzi nisbatan og'irligini anglash qiyin emas. Bu qiyinchiliklar o'z-o'zidan insonlarda qandaydir jizzakilik va jahl, munosabatlarda agressivlikni keltirib chiqarishi tabiiydir. Albatta, oiladagi ajrimlarning har xil sabablarini ko'ramiz.

Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig'adilar, sovchilik, qudachilik bordi-keldilarini qiladilar va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini ado etgan bo'lib, erkin nafas oladilar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa – qizlarini kelinlikka, o'g'illarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qoladi. Ming afsuski, ko'pchilik yoshlar go'shangaga oila, er-xotinlik hayoti, ularning o'zaro munosabatlari, haq-huquqlari hamda burch va mas'uliyatlari haqidagi bilimlardan bexabar holda kiradilar. Hammamizga ma'lumki, yoshlar oila qurishning dastlabki kunlaridan kelin-kuyovning yaqinlari, kuyov jo'ralar, kelin yangalar ularga qanday qilib bo'lsa ham umr yo'ldoshini bo'ysindirishga qaratilgan bachkana odatlarni o'rgatib borishi ham achinarli holdir. Yoshlarni ota-onalik roliga oldindan tayyorgarlik ko'rishi haqida fikrlarni berishning o'zi bizni millatda uyat hisoblanadi-yu, lekin ayrim doiralarda kelinlik va kuyovlikka nomzodlar to'y kuni g'arbcha raqs tushishga bir necha oy davomida katta miqdorda mablag' to'plab, alohida dars olishi, mashq qilishlari, yoki sevgi tarixi lahzalarini fotosessiya qilishiga uyalmaymiz. Bu masalalarga alohida psixolog mutaxassislarni jalb qilib e'tibor qaratilishi lozimdir.

Oilaviy hayotga tayyorlashda dastlab yoshlarda oilaviy turmush to'g'risidagi tasavvurlarinin aniqlash va ularni to'g'ri shakllantirish ta'lim-tarbiyaning muhim tomoni bo'lib, yoshlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko'rishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lishga intilishi, psixologik holatlari, oilaviy munosabatlari, o'zga jinsga nisbatan moyillikning kuchaygan davri psixologiyasini chuqur anglab yetib, kelgusi hayotlarini poymol qilmasliklari uchun tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor qaratilishi lozim. Kelgusida oilaning mustahkam bo'lishida yoshlar oila qurishga intilishida dastlab o'zlarining sihat-salomatligiga qarashi, samimiy munosabatlarni shakllantirishi, sharm-hayosi, iffati, ldob-axloqi, mexnatsevarligi, jamoatchilik o'rtasida o'zini tuta bilishi hamda gigiyenik, jinsiy tarbiya masalalarini puxta egallab borishiga bog'liq.

Tadqiqotlarning umumiy maqsadi ham oila qurish ostonasida turgan yoshlar va yosh oilalar hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga oqilona yechim topishlarida yordam berish hisoblanadi. Nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatligi, farzand tarbiyasi, oiladagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo‘yicha tizimli o‘quv kurslarni tashkil etishi masalalari kundalang bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Darhaqiqat, so‘nggi paytlarda fanning turli sohalaridagi tadqiqotchilar oila muammolariga va uning umuman a’zolarining shaxsiyatiga, xususan, ularning individual xususiyatlariga ta’siriga tobora ko‘proq ye’tibor qaratmoqdalar. Zamonaviy jamiyatda erkaklar va ayollarning funksional rol munosabatlari, ular o‘rtasida oilaviy majburiyatlarni taqsimlash haqidagi g‘oyalarida sezilarli darajada bo‘shliqlar mavjud ekanligi psixolog mutaxassislarni tashvishlarga solib keladi. Shu sababli, ko‘plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda yoshlarni oila qurishga tayyorlashda ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillarni asosiy deb ko‘rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining turli jihatlariga bag‘ishlangan zamonaviy yondashuvlar va yo‘nalishlar shakllanmoqda.

Yoshlarni oilaviy hayotga ijtimoiypsixologik jihatdan tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari xorij olimlaridan Ye.Aleshina, N.X.Safina, T.Yu.Sorokina, o‘zbek psixolog olimlaridan M.G.Davletshin4, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov, N.X.Lutfullayeva, M.Umarova, F.Saifnazarova, M.X.Fayziyeva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbek oilalarida nikohning o‘ziga xos talablari hamda ajralish va kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini N.A.Sog‘inov, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida nizolarning yuzaga kelish sabablarining ijtimoiy-psixologik, mintaqaviy va milliy xususiyatlarini X.K.Karimovlar o‘rganishgan. V.M.Karimova esa o‘zbek oilasi to‘g‘rsidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo‘lishini empirik jihatdan o‘ragnib kelgan. G‘.B.Shoumarov oila munosabatlarida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, o‘zbek oilalarining o‘ziga xos xususiyatlari, er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sabablari va uni hal qilish yo‘llari, o‘smir-yoshlarni oilaga tayyorlashning psixologik muhit, qaynona-kelin, qaynona-kuyov o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va ularning oldini olish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi.

R.V.Ovcharovaning ilmiy fikrlarida ota-onalikni ijtimoiy-psixologik hodisa deb biladi. Ota-onalikga tayyorgarlik jarayonlarda shakllanib boradigan turli-tuman hayotiy bilimlar majmuasidir-degan fikrlarni ilgari surishgan.

Ye.P.Ilin, G.Navaytis, E.G.Eydemiller, V.Yustiskis kabi olimlar tomonidan ko‘plab psixologik-pedagogik tadqiqotlarida nikoh motivlari batafsil tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida talaba yigit va qizlarda turmush o‘rtog‘ tanlashning asosiy sabablarini aniqlashga imkon beradi. Talaba yigitlarda bu motivlar jinsiy yaqinlik istagi, boshqa jinsga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish hoxishi bilan bog‘liq. Talaba qizlar motivida boshqa jins vakilidan g‘amxo‘rlikni boshdan kechirish, sevgi tuyg‘ularini ko‘rsatish va uni o‘zlariga nisbatan his qilish istagi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Umuman olganda, ikkala jinsda ham motivlar dyaarli bir xil va hissiy motivlar bilan bog‘lanmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Tadqiqotlar kuzatishlar natijasidan xulosa qilamizki, yoshlarni ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko‘rish uchun faqat bir yoqlama yondashuvlar biz kutgan samaradorlikni oshirib beravermaydi. Yoshlar ota-ona roli, ota-onalik burchi, mas’uliyati hislarini his qila olishi uchun ularda ma’lum darajada amaliy tajribalar, ilmiy tushunchalar talab qilinmoqda. Uning uchun yoshlarda nikoh qurishga munosabati, nikohga tayyorgarligi va nikoh qurish motivlari, oila haqidagi tasavvurlari, qarashlarini to‘g‘ri shakllantirishga yordam ko‘rsatish lozim. Bu o‘z navbatida kelajakdagi oilaning psixologik savodxonligini oshirish maqsadida o‘quv kurslarni kuchaytirish talab qiladi. yoshlarimiz “Men gender guruh vakilaman”, “Men bulg‘usi ota-onaman”, “Sog‘lom ota-ona – sog‘lom farzand”, “Oilada sog‘lom muhit”, “Oiladagi shaxslar” kabi har xil tizimli psixokorreksion dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Oilaga psixologik tayyorlash kurslarida yoshlar oiladagi ota-ona roliga hurmat iblan qarashi va er-xotin bir-birlarini yaxshi tushunishi, ishonchi oiladagi asosiy qadriyatlar ekanligini anglab boradi. Zamonaviy oilalar bunga intilishlari kerak mezoni ostida doim yangilangan, innovasion texnologiyalarga boyitilgan ko‘rslar qiziqarli bo‘lishi ham kerak. Chunki, bugungi yoshlarning fikrlashlari o‘tkir, keng va kreativ shaklda rivojlanib bormoqda.

Ключевые слова: узбекская музыка, макомное искусство, музыкальное мышление, восприятие, художественное изображение.

Для цитирования: Худайберганов С.К. Роль макомов в формировании музыкального мышления молодежи. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 377-382.

HE ROLE OF MAKOMS IN FORMING YOUNG PEOPLE'S MUSICAL THINKING

© Samandar K. Khudoyberganov[1]✉
[1]Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

INTRODUCTION: maqoms are the highest musical heritage of the Uzbek people. Today it is important to study, analyze, understand its content and essence, and conduct various studies. An important place is occupied by the development of musical aesthetics, history and thinking of the peoples of the East, especially maqoms. Issues such as role structure, musical performance, and perception may influence the development of youth's musical thinking.

AIM: the purpose of this study is to collect, analyze and study the principles of musical aesthetics. Also, the main attention is focused on determining the maqoms of modern youth, ways of promoting classical music samples.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific sources, articles and opinions of scientists on this topic. The materials highlight scientific work in various fields, such as music history, ethnology, and musical psychology. Methods are addressed by categorizing, interpreting, and summarizing the main themes and findings of the study.

DISCUSSION AND RESULTS: Research scientists emphasize the importance of the historical development of status and its place in the cultural community, and its priority in the formation of national ideals is noted. The analysis shows that maqam has a great influence on the consciousness of young people through content and musical thinking, and maqam music can be widely used in the development of their further musical worldview.

CONCLUSION: according to the conclusion of the research, maqoms are manifested in the interaction of both creative and scientific-historical aspects of musical thinking. As a result of young people learning the music of maqoms and achieving a full understanding in music education, musical thinking and perception characteristics are fully formed in them, and the possibilities of educating a well-rounded personality by realizing the aesthetics of maqams and national identity are expanded.

Key words: Uzbek music, maqom art, musical thinking, perception, artistic representation.

For citation: Samandar K. Khudoyberganov. (2024) ‘He role of makoms in forming young people's musical thinking’, Inter education & global study, (6), pp. 377-382. (In Uzbek).

Xalqimizning musiqa merosi juda keng, ko‘p qirrali bo‘lib, sermazmun va rang-barangdir. Maqomlar sharq xalqlari musiqa merosi negizini tashkil qiladi. Ular xalqning milliy musiqasi va tafakkurinining shakllanishini belgilab berib, uning nazariy-amaliy asoslari hamda sharq xalqlari musiqa san’atining ustozona uslubi namunalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ustoz sozanda va xonandalar keyingi avlodlarga ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab bizgacha yetib kelgan maqomlar hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng sara, beqiyos qiymatga ega bo‘lgan mumtoz musiqa namunasidir. Ohangdor kuylarimiz kishiga quvonch, xursandchilik bag‘ishlaydi, og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonning oliyjanob fazilatlari, his-tuyg‘ularni ifodalab beruvchi kuchga ega.

Maqomlar jamiyatning boshqa hodisalari kabi davrning ijtimoiy, badiiy-estetik talablariga va ehtiyojlariga bog‘liq holda yashab keldi va o‘z taraqqiyoti jarayonida katta

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

o‘zgarishlarga uchradi. O‘zbek musiqasining mumtoz namunasi bo‘lgan Shashmaqom, taxminan, XVIII asrning birinchi yarmida mustaqil musiqa janri sifatida uzil-kesil yuzaga keldi.[3, 39] Maqomlar ma’lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo‘lib, o‘tmish bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos sayqal berilgan turidir. Keng ma’noda esa maqomlar xalq musiqasining qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda, o‘zbek xalqi musiqasiga xos ohanglar, ritmik xususiyatlar, doira usullari, she’riyat bilan xalq ashula yo‘llarining bog‘lanish qoidalariga asoslangan qator jabxalar o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda maqom masalalarini o‘rganishga, maqom ijrochiligidagi uslublarni aniqlash va o‘zlashtirish ishiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Shashmaqom o‘zbek xalqi musiqa merosida juda katta o‘rin tutadi. Xalq musiqa asarlarining qaysi birini olib qaramang, ular u yoki bu maqom, yoki uning sho‘ba pardasi, kuy tuzilishi, doira usuliga o‘xshashligini bilib olish qiyin emas. Keyingi kuzatuvlar Shashmaqom xalq musiqa merosining asosini tashkil etadi deyishga imkon beradi.

XIX asrda Xorazm musiqasida qayta uyg‘onish yuzaga keldiki, muhtasham saroy maqom an’analarining rivoji natijasida el orasidagi azaldan iste’molda bo‘lgan mumtoz kuy va ashulalar, Dutor maqomlari, doston yo‘llari, maqom suvoralari izchil taraqqiylasha boshladi. Shashmaqom va Olti yarim maqom mumtoz musiqamizning yuksak ko‘rinishi sifatida o‘zining ustivor qonun-qoidalari, tartib va nizomlariga ega. Dutor maqomlarining ham o‘ziga yarasha ichki qonuniyatlari mavjud.

Taniqli manbashunos va maqom bilimdoni Ishoq Rajabov ta’kidlaganidek, - “Maqomlarning kishi ruhiyatiga ijobiy ta’sir etish xususiyatini al-Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Abdulmo‘’min, Qutbiddin ash-Sheroziy, Jomiy va keyingi davrlarda yashagan musiqa olimlari qayta - qayta uqtirib o‘tganlar. Masalan, (o‘n ikki maqomdagi) Ushshoq, Busalik, Navo maqomlari va Mohur, Nihovand sho‘’balari shaxsga shijoat va jasorat bag‘ishlaydi. Buzruk, Zirafkand, Rahoviy, Zangula maqomlari, Gavasht va Shahnoz ovozlari, Hisor, Humoyun, Mubarqa’, Rakb, Sabo, Bastai Nigor, Navro‘zi arab, Ro‘yi Iroq sho‘’balari g‘amginlik, ruhiy horg‘inlik, alamni ifoda etadi. Maqomlardan Hijoz, Husayniy, ovozlardan Moya, Salmak, sho‘’balardan Nuhuft, Navro‘zi Bayotiy, Dugoh, Uzzol, Avj, Javziy, Nayrez kabilar eshituvchida ham quvonch, ham qayg‘u kayfiyatini qo‘zg‘atadi”.[3, 32] Shuningdek maqomlar ilohiy aytim va chertim yo‘llari sifatidagi badiiy ta’siri ham muhim hisoblanib, uning inson ruhiyatiga ta’siri va estetik ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, o‘rta asr sharq allomalarining asarlarida mazkur fikr ko‘p tilga olinadi.

Ohirgi yarim asr davomida o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti har tomonlama ulg‘aydi, kamol topdi va jahon musiqiy dunyosida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Aksariyat kompozitorlarimiz ijodiga nazar solar ekanmiz, ularda milliylik va an’anaviylik yanada ustuvorlik ahayamitga egaligini guvohi bo‘lamiz. Musiqiy ijodiyotning uslub va omillari bisyor. Shular orasida milliy musiqa me’rosini asos qilib zamonaviy asarlar yaratish, yangicha vositalar bilan talqin etish hozirgi kompozitorlar ijodida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy o‘zbek san’ati dialektik ravishda rivojlanib bormoqda. Kompozitorlarimiz hozirda mavjud maqom namunalari va turkumlari zaminida noyob asarlar yaratmoqdalar. Ijodiy yetukligi urushdan keyingi yillarga to‘g‘ri kelgan o‘zbek kompozitorlaridan M.Ashrafiy,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

M.Burxonov, I.Akbarov, S.Boboev, M.Leviev, X.Raximov, D.Zokirov, D.Soatqulov, O.Xalimov, I.Hamroev, SH.Ramazanov, S.Yudakov, I.Akbarov, F.Nazarov, A.Muhammedov, M.Yusupov, S.Jalil, R.Hamroev, M.Tojiev, M.Mahmudov, A.Otajonov, M.Bafoev, N.Norxo‘jaev, A.Mansurov, F.Olimov, A.Ergashev E.Solixovlarning asarlari buni yaqqol tasdiqlaydi.

Masalan, M.Burxonovning “Alisher Navoiyga qasida” nomli vokal-simfonik musiqasida “Navoiy” mavzusi “Saraxbori Navo” va “Navo” maqomi orqali Navoiy siymosini mohirona ochib bera olgan. Kompozitor B.Umidjonovning “Dilbarim” lirik syuitasida klassik maqomga asoslangan. Ikkita solist va jo‘rsiz xor uchun mo‘ljallangan asar bo‘lib, bunda “Chorgoh”, “Segoh”, “Saraxbori Navo” kabi maqomlarni o‘z asarida qo‘llaydi. Mazkur asar 1978-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Zamonaviy kompozitorlar ijodida maqom va mug‘om” xalqaro simpoziyumda ijro etilgan. A.Kozlovskiyning “Doston” poemasi dramaturgik rejani kompozitor “Saraxbori Navo” (Navo maqomining ashulla yo‘lidan) maqom kuyiga murojaat qildi. S.Boboev “Segoh” poemasi o‘zida “Segoh” va “Ufori Segoh” cholg‘u yo‘li kuyini mujassam etgan. M.Tojievning “Shoir muhabbati” poemasida “Segoh” maqomi, T.Qurbonov polifonik asarga “Buzruk” va “Saraxbori Buzruk” maqomini, Hamzaga bag‘ishlangan Beshinchi simfoniyasida “Segoh” maqomi mavzu qilib olingan. D.Soatqulov o‘zining “Farg‘ona kvarteti”da bosh partiyasining birinchi qismida “Tanavor” va final qismida “Mo‘g‘ulchai Munojot” cholg‘u kuyidan foydalangan. Kompozitor va bastakorlar tomonidan maqomlarga bo‘lgan bunday yondoshuv mumtoz musiqamizning keyingi rivojida hamda yoshlar ongida simfonik musiqa va maqom ohanglaring sintezligini singdirishda muhim qadamlar deyish mumkin. Maqomlar musiqasini tinglash va uning mazmunini idrok etishda hissiy ta’sirchanlik bilan musiqiy tafakkur sintezi, ya’ni, mavhumlik va aniqlik, mantiqiylik va hissiy anglash, ijodiy tasavvur va badiiy yondoshuv talab etiladi. Yoshlarning maqom musiqasini tinglashi ularning o‘ziga tanish bo‘lgan musiqiy-eshitish tasavvurlari bilan, badiiy bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, musiqiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir.Maqomlarni ijro etish malakalarining shakllanishi undagi badiiy musiqiy obraz mazmunini ochishga yo‘naltirilgan vazifalarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Bunda tinglash va ijro malakalarini egallash – maqomlarni badiiy ijro etishga erishish vositasi bo‘lib qoladi. Musiqa amaliyoti ko‘rsatishicha, mumtoz musiqa asarlarining badiiy g‘oyaviy mazmuni ichiga kirib borish faqatgina tinglovchining ushbu asarda nimanidir ko‘rishi, kashf etishi va bu uning ichki olamida, kechinmalarida aks etishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu borada maqomlar keng imkoniyatlarga egadir.Hozirgi kunda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarida turli xarakterdagi musiqalarni tinglab, tahlil qilishadi. Ularning ayrim hollarda mumtoz musiqa namunalarini mukammal darajada mazmuni va ijrosini bilmasligi, uni tinglashga ehtiyoji talab darajasida namoyon bo‘lmasligi soha mutaxassislarini xavotirga soladi. Zero, mumtoz musiqa namunasi bo‘lmish maqomlar xalqimizning, qolaversa, insoniyatning davrlar chig‘irig‘idan o‘tgan ma’naviy merosidir. Uni o‘rganish, tushungan holda idrok etish tafakkurni, musiqiy tarbiyani, estetik dunyoqarashini faollashtiradi, hissiy bilish – sezgi va idrok esa yoshlarning ruhiy salomatligini yanada mustahkamlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Ta’kidlash zarurki, mumtoz musiqa, maqomlar yoshlarning nafaqat aqliy qobiliyatlariga, balki yaxlit ravishda oliy asab faoliyati, bosh miyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Professional musiqachilar va bolaligidan mumtoz musiqani sevib tinglovchi shinavandalar tadqiq etilganda, ularda xotira va tillarni o‘rganishga kuchli qobiliyat rivojlanishi aniqlangan.

Maqomlarni tinglab, biz ularning kuyini, ritmini, tembrini, ohang yo‘nalishini alohida tarzda idrok etmaymiz, balki, musiqiy obrazda musiqiy ifodaning alohida vositalarini umumlashtiramiz. Maqomlar musiqasini tinglab, ularni ma’lum kategoriyalarga ajratamiz va agar ma’lum tinglovchilik tarjibasiga ega bo‘lsak, dastlabki taktlaridan boshlab uning Xorazm maqomlariga, Shashmaqomga yoki Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga tegishli ohanglar ekanligini darhol bilib olamiz. Musiqiy tafakkur yaxlit tarzda shaxs shakllanganligining muhim ko‘rsatkichi sanaladi va uni ma’lum maqsadga yo‘naltirgan holda takomillashtirilsa, ma’naviy barkamollikka erishish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Hozirgi kunda musiqiy tafakkurga insonning badiiy faoliyatlarini aks ettiruvchi produktiv ijodiy tafakkur sifatida baho beriladi.

Xulosa qilib aytganda, maqomlar negizida shakllangan musiqiy tafakkur – borliqni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos ko‘rinishi, ya’ni, borliqni yagona maqsadga yo‘naltirilgan, bilvosita va umumlashtirilgan maqom tafakkuri va uning ilohiy mazmunini bilish, ijodiy yaratuvchanlik, maxsus o‘ziga xos musiqiy tovush obrazlari (ohanglar)ni chuqur anglash, idrok etish va uzatish faoliyatidir. Maqomlarning musiqiy tafakkur ham ijodiy, ham ilmiy-tarixiy jihatlar munosabatida namoyon bo‘ladi. Oliy musiqa ta’limida tahsil olayotgan talabalarning maqomlar musiqasini o‘rganishi va to‘laqonli idrok etishga erishishi natijasida ularda musiqiy tafakkur hamda idrok xususiyatlari to‘laqonli shakllanib, maqomlar estetikasi va milliy o‘zlikni anglash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Matyakubov O. Maqomot. -T., 2004
2. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T., 1993
3. Rajabov. I. Maqomlar. T., 2006
4. Matyakubov O. Xorazm Dutor maqomlari va Olti yarim maqomi. -T., 2018
5. Петрушинм В. Музыкальная психология. М., 1997.
6. Кадцын Л. Музыкальное искусство и творчество слушателя. М., 1990.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Samandar Xudayberganov Qo‘zievich,** “San’at” kafedrasi professori, [**Самандар Худойберганов Кузиевич,** профессор кафедры «Искусство»], [**Samandar Khudoyberganov Kuzievich**, Professor of the Department of Art]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Najmiddin Kubro ko'chasi, 19-uy [адрес: Узбекистан, ул. Нежмиддин Кубро, 19, г. Ургенч], [address: Uzbekistan, 19, Najmiddin Kubro st., Urgench city] E-mail: samandar.x@urdu.uz

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

NOMODDIY MADANIY MEROSNI ASRASH: BADIIY HAVASKORLIK JAMOALARI MISOLIDA

© Z.H. Rashidova[1]✉

[1]Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada madaniyat markazlari qoshida faoliyat olib borayotgan badiiy havaskorlik jamoalarining bugungi kunda tutgan o‘rni, ularga yaratilayotgan shart – sharoitlar va qabul qilinayotgan qarorlarda ulaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi vazifalar haqida so‘z boradi

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot olib borilayotgan fan va texnologiyalarni talabalarda qay darajada o’zlashtira olish va ularni bu fanni o’zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o’rganishdan keyingi ta’sir qilishini tahlil qilish uchun 5 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. Yig’ilgan maqolalar 2020-2023 yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

MAQSAD: nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ’ib qilish va yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda madaniyat markazlari qoshida faoliyat olib borayotgan badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: O’zbekistonimiz nomoddiy madaniy meros durdonalariga boy kam sonli davlatlardan. Mustaqillik yillarida ana shu bebaho boylikni asrash, targ’ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sababi, dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi – olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlari, marosim va udumlari haqida so’z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo’lib turibdi. Aynan shunday vaziyatda yoshlarning ongida o’zbek xalqining asrlar mobaynida sayqal topib o’zgacha ahamiyat kasb etib, qadriyat darajasiga yetgan urf-odatlari, xalq ijodiyoti hamda ular bilan bog’liq bilim va ko’nikmalarni shakllantirish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda, va shuningdek urf-odatlarimizni asrash va avaylashda, uni ommaga keng targ’ib qilishda badiiy havaskorlik jamoalarining o’rni beqiyos.

XULOSA: davlatimiz tomonidan bu soha rivojiga kata ahamiyat berilmoqda. Va aynan davlatimiz rahbarining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori g’oyat keng qamrovli bo’lib, avvalo nomoddiy madaniy merosimizni yanada yuksaltirishga chinakam dasturilamal bo’lib xizmat qiladi. Shunigdek, qaror asosida 2024 yildan boshlab,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

har yili mart oyida “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayillarini o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yildi;
2024 yil 1 oktabrga qadar “Qadriyat” elektron platformasi va uning mobil ilovasi yaratildi hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilindi. O’ylaymanki, bu kabi tadbirlar o’z natijasini taqdim etadi.

Kalit so’zlar: jamoa, havaskor, nomoddiy-madaniy meros, moddiy-texnik baza, folklor, maqom, baxshi.

Iqtibos uchun: Rashidova Z.H. Nomoddiy madaniy merosni asrash: badiiy havaskorlik jamoalari misolida.// Inter education & global study. 2024. №6. B.14–22.

СОХРАНЕНИЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ: НА ПРИМЕРЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СООБЩЕСТВ

© З.Х. Рашидова[1]✉
[1]Самаркандский международный технологический университет, Tashkent, Uzbekistan

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье говорится о повседневной роли художественных самодеятельных коллективов, действующих при культурных центрах, созданных для них условиях и задачах укрепления их материально-технической базы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: с целью анализа того, в какой степени студенты могут освоить изучаемую науку и технику, а также влияние легкости и сложности освоения этой науки после обучения, создан корпус из 5 научных статей.Сборник статей 2020-2023 гг., опубликованный в международных и национальных изданиях. академические журналы между годами. Эти статьи были проанализированы и получен сравнительный анализ.

ЦЕЛЬ: охрана, сохранение, популяризация объектов нематериального культурного наследия и устранение возникающих проблем, и укрепление материально-технической базы художественных самодеятельных коллективов, действующих при центрах культуры.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Узбекистан – одна из немногих стран, богатых нематериальным культурным наследием. В годы независимости проводится большая работа по сохранению, популяризации и передаче этого бесценного богатства будущим поколениям. Причина в том, что в то время, когда генерализация культур - культура толпы находится под угрозой - разговор о традициях, обрядах и традициях каждого народа является актуальным вопросом. Именно в такой ситуации в сознании молодежи традиции узбекского народа, приобретшие на протяжении веков особое значение и достигшие уровня ценности, рассматриваются как основная задача формирования связанных с ними знаний и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

умений, а также бесподобна роль творческих самодеятельных коллективов в сохранении и защите наших традиций и популяризации их среди общественности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: наше государство придает большое значение развитию этой отрасли. И именно решение руководства нашего государства «О разработке и дополнительных мерах по совершенствованию сохранения, научного изучения и популяризации нематериального культурного наследия» является чрезвычайно комплексным и, прежде всего, дальнейшим расширением нашего нематериального культурного наследия. служит настоящей программой обновления. Также на основании решения, начиная с 2024 года, ежегодно в марте запускается «Месяц национальных ценностей» продуктовых и народных развлечений;

С 20 октября 2014 года до 1 октября были созданы и интегрированы с соответствующими электронными доступами и ресурсами электронная платформа «Кадрият» и ее мобильное приложение. Я думаю, что такая помощь окупится.

Ключевые слова: община, самодеятельность, нематериальное культурное наследие, материально-техническая база, фольклор, макам, бахши.

Для цитирования: Рашидова З.Х. Сохранение нематериального культурного наследия: на примере художественных сообществ // Inter education & global study. 2024. №6. С. 14–22.

PRESERVATION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE: THE EXAMPLE OF ARTISTIC COMMUNITIES

© Zulfiya H. Rashidova[1]✉
[1]Samarkand International University of Technology, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article talks about the daily role of artistic amateur groups operating under cultural centers, the conditions created for them and the tasks of strengthening their material and technical base.

MATERIALS AND METHODS: in order to analyze the extent to which students can master the science and technology they are studying, as well as the influence of the ease and complexity of mastering this science after training, a corpus of 5 scientific articles was created. A collection of articles 2020-2023, published in international and national publications. academic journals between years. These articles were analyzed and a comparative analysis was obtained.

AIM: protection, preservation, promotion of intangible cultural heritage objects and elimination of emerging problems and strengthening the material and technical base of artistic amateur groups operating under cultural centers.

DISCUSSION AND RESULTS: Uzbekistan is one of the few countries rich in intangible cultural heritage. In the years of independence, extensive work is being done to preserve, promote and pass on this priceless wealth to future generations. The reason is

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

that at a time when the generalization of cultures - the culture of the crowd is in danger - talking about the traditions, rituals and traditions of each nation is an urgent issue. It is in such a situation that in the minds of young people, the Uzbek people's traditions, which have gained special importance and have reached the level of value over the centuries, are considered as the main task of forming the knowledge and skills related to them and also the role of artistic amateur groups in preserving and protecting our traditions and promoting them to the public is incomparable.

CONCLUSION: our state attaches great importance to the development of this sector. And it is the decision of the leadership of our state "On the development and additional measures to improve the preservation, scientific study and promotion of the intangible cultural heritage" that is extremely comprehensive, and first of all, our intangible cultural heritage further expansion. serves as a real upgrade program. Also, on the basis of the decision, starting from 2024, every year in March, the "Month of National Values" product and folk entertainments were launched;

On October 20, 2014, until October 1, the "Qadriyat" electronic platform and its mobile application were created and integrated with relevant electronic access and resources. I think that this kind of help pays off.

Key words: community, amateur, intangible cultural heritage, material and technical base, folklore, makam, bakhshi.

For citation: Zulfiya H. Rashidova. (2024) 'Preservation of intangible cultural heritage: the example of artistic communities', Inter education & global study, (6), pp. 14–22. (In Uzbek).

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab-avaylash, xalq og‘zaki ijodining qadimiy an’analarini tiklash va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish va targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu kabi samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

“Xalq havaskorlik jamoasi” va “Bolalar namunali jamoasi” unvonini berishdan asosiy maqsad xalq ijodiyoti va havaskorlik san’atini rivojlantirish, madaniyat va san’at muassasalarida tashkil etilgan va yangi tuziladigan to‘garaklar faoliyatini takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash, ularning imkoniyat va salohiyatini yanada oshirish, badiiy havaskorlik jamoalarining tizimli ravishda doimiy faoliyat ko‘rsatishini yo‘lga qo‘yish, qobiliyatli yosh iste’dodlarni badiiy havaskorlik jamoalariga jalb etishdan iborat.

badiiy havaskorlik jamoalari - madaniyat va san’at muassasalarida tashkil etilgan to‘garak va qiziquvchilar klublari ishtirokchilari orasidan eng iqtidorlilari saralangan va noprofessional bo‘lgan shaxslardan tuzilgan uyushuv shakli;

“Xalq havaskorlik jamoasi” – yoshi chegaralanmagan noprofessional bo‘lgan shaxslardan tuzilgan uyushuv shakliga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keying o‘rinlarda – Madaniyat vazirligi)ning Hay’ati qarori bilan beriladigan unvon turi;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

“Bolalar namunali jamoasi” – voyaga yetmagan va noprofessional bo‘lgan bolalardan tashkil topgan uyushuv shakliga Madaniyat vazirligining Hay’ati qarori bilan beriladigan unvon turi.[1]

“Xalq havaskorlik jamoasi” va “Bolalar namunali jamoasi” unvoni madaniyat va san’at muassasalarida aholiga folklor, maqom, ashula, teatr, musiqa, xor, vocal, xoreografiya, askiya, miniatyura, dorbozlik, sirk va boshqa yo‘nalishlarda madaniy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha namunali faoliyat olib borayotgan, repertuari va ijro mahorati, o‘quv-tarbiyaviy va ijodiy ishlarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan professional san’at talablari darajasiga ko‘tarilgan badiiy havaskorlik va bolalar jamoalariga beriladi.

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan madaniyat markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 599 ta badiiy havaskorlik jamoalari Madaniyat vazirligi Hay’atining qaroriga asosan “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda “Bolalar namunali jamoasi” unvoni berilgan. Shulardan, 154 ta ashula va raqs xalq ansambli, 142 ta folklor ansambli, 44 ta raqs xalq ansambli, 21 ta maqom ansambli, 26 ta vokal–cholg‘u estrada xalq ansambli, 8 ta Xalq xori, 58 ta xalq teatri, 21 ta qo‘g‘irchoq xalq teatri, 6 ta miniatyura teatri, 19 ta dorbozlar guruhi, 14 ta sirk jamoasi, 1 ta xalq filarmoniyasi, 11 ta karnay-surnaychilar guruhi, 1 ta tasviriy san’at xalq studiyasi, 12 ta cholg‘u asboblari xalq ansambli, 2 ta oilaviy ansambl, 3 ta opera studiyasi, 2 ta kino-foto studiya, 3 ta milliy estrada guruhi, 2 ta dutorchilar xalq ansambli xalqimizga xizmat qilib kelmoqda.[2]

Milliy qadriyatlarimizning barhayotligini namoyon etuvchi Navro‘z umumxalq bayramining respublika miqyosida keng nishonlanishi va davlat tadbirlariga folklor-etnografik jamoalarini domiy ravishda jalb etish natijasida, ularning faoliyati jonlanib, yangi badiiy havaskorlik jamoalari shakllandi.

Badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini chuqur o‘rganib, qayta shakllantirish, yangilarini tashkil etish, buning uchun yo‘llanma va tavsiyalar beradigan ilmiy risolalar, metodik qo‘llanmalar tayyorlash, jamoalarning dasturlarini o‘z hududlariga xos marosim qo‘shiqlari va qadimiy raqslar bilan boyitish, musiqa cholg‘ulari hamda sahna liboslariga alohida ahamiyat qaratish, jamoalarga yosh iste’dodli ijrochilarni jalb etish soha mutaxassislari va badiiy rahbarlarning asosiy vazifalaridandir.

Badiiy havaskorlik jamoalari rahbarlarining kamtarona mehnatlari yuqori baholanib, Muhtaram Prizidentimiz tomonidan bir qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Shulardan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani “Bo‘ston gullari” ashul va raqs ansambli badiiy rahbari Sadaddin Sapayev Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist, Navoiy viloyati Navbahor tumanida faoliyat yuritayotgan Gulora Mizayeva “Shuhrat” medali, Karmana tumani “Guli” ashula va raqs ansambli baletmesteri Dilfuza Imomova “Shuhrat” medali, Konimex tumani “Jastulek” ashula va raqs ansambli badiiy rahbari Nurxul Bazarbayeva “Do‘stlik” medali, Xorazm viloyati Shovot tumani “Avazxon” folklor-etnografik ansambli badiiy rahbari Ro‘zimboy Normatov (Qalandar baxshi) O‘zbekiston xalq baxshisi, Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman “Momogul” folklor-etnografik xalq ansambli badiiy rahbari Malika Madatova “Shuhrat” medali, Surxondaryo viloyati Boysun tumani “Dashtig‘oz” madaniyat markazi qoshidagi havaskorlik jamoasi rahbari Bo‘riqul Jumayev

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

“Do‘stlik” ordeni, Toshkent shahar markaziy madaniyat markazi qoshidagi “Nodirabegim” folklor-etnografik ansambli rahbari Ma’mura Avazova “Shuhrat” medali, Navoiy viloyati Nurota tumani madaniyat bo‘limi qoshidagi “Nurjahon” folklor-etnografik xalq ansambli badiiy rahbari Norbibi Davlatova “Shuhrat” medali, Farg‘ona viloyati Furqat tumani madaniyat markazi qoshidagi “Shodiyona” folklor-etnografik xalq jamoasi badiiy rahbari Odinaxon Yaqubova “Shuhrat” medali bilan munosib taqdirlandilar.[3]

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga va turistlarga madaniy xizmatlar ko‘rsatish darajasini oshirish, ijodiy jamoalarning respublika hududlari bo‘ylab gastrol safarlarini tizimli tashkil etish, madaniyat maskanlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, iste’dodli yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish hamda sohaga xususiy sektorni keng jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-406-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra badiiy havaskorlik jamoalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ular tomonidan ko‘rsatilayotgan madaniy dasturlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

- 2024 – 2027-yillarda badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar;
- 2024-yilda badiiy havaskorlik jamoalarini musiqa cholg‘ulari, sahna liboslari, texnik jihoz va uskunalar to‘plami bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli rejasi tasdiqlandi. Yana quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab qo‘yildi:
- badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun talab etiladigan musiqa cholg‘ulari, sahna liboslari, texnik jihoz va uskunalarning namunaviy to‘plami Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;
- 2025 – 2027-yillar uchun badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha yillik manzilli reja har yili 1-yanvarga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;
- mazkur qarorga 3- va 4-ilovalarga muvofiq badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq xarajatlar respublika budjetidan Madaniyat vazirligiga qo‘shimcha ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi;
- budjet hisobidan moddiy-texnika bazasi mustahkamlangan badiiy havaskorlik jamoalarining pulli tushumlarini birinchi yilda ikki baravarga, keyingi yillardan boshlab esa kamida 20 foiz miqdorida oshirib borish parametrlari ularning har biri bo‘yicha Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.[4]
- 2024 - 2027-yillarda badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha

Maqsadli ko‘rsatkichlar

T/r	Hudud nomi	Jami	Yillar kesimida			
			2024-yil	2025-yil	2026-yil	2027-yil
Respublika bo‘yicha		599	140	163	168	128
Shundan:						

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	64	10	15	19	20
2.	Andijon viloyati	22	10	6	6	-
3.	Buxoro viloyati	59	10	14	16	19
4.	Jizzax viloyati	31	10	11	10	-
5.	Qashqadaryo viloyati	35	10	12	13	-
6.	Navoiy viloyati	22	10	8	4	-
7.	Namangan viloyati	27	10	10	7	-
8.	Samarqand viloyati	28	10	10	8	-
9.	Sirdaryo viloyati	23	10	8	5	-
10.	Surxondaryo viloyati	60	10	15	15	20
11.	Toshkent viloyati	52	10	12	15	15
12.	Farg‘ona viloyati	74	10	16	24	24
13.	Xorazm viloyati	43	10	11	11	11
14.	Toshkent shahri	59	10	15	15	19

2024-yil Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat markazlaridagi badiiy havaskorlik jamoalari, studiya va to‘garaklar to‘g‘risida ma’lumot

t/r	Hududlar nomi	Madaniyat markazlari soni	Ashula va raqs			Raqs ansambllari			Folklor-etnografik			Vokal-cholg‘u			Maqom ansambllari			Ollaviy ansambllari		
			Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalq» va «Namunali» jamoalar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60	23	5	18	8	2	6	15	3	12	16	11	5	1	0	1	0	0	0
2	Andijon viloyati	71	37	10	9	12	11	2	18	4	2	3	1	0	3	0	2	6	0	0
3	Buxoro viloyati	50	14	2	11	10	8	1	27	6	21	3	1	2	11	0	10	0	0	0
4	Jizzax viloyati	37	17	2	10	3	2	0	15	2	13	0	0	0	0	0	0	0	0	0
5	Sirdaryo viloyati	35	9	3	6	6	5	5	10	3	6	0	0	0	0	0	0	1	0	0
6	Samarqand viloyati	80	27	11	11	13	8	2	18	7	3	2	0	0	6	2	1	1	0	1
7	Namangan viloyati	81	18	0	10	0	0	0	5	0	3	2	0	2	0	0	0	0	0	0
8	Navoiy viloyati	33	10	1	9	1	1	1	13	3	6	0	0	0	1	1	0	1	1	1
9	Farg‘ona viloyati	83	65	50	14	71	61	14	32	17	12	31	24	5	16	13	1	2	1	1
10	Surxondaryo viloyati	75	21	5	11	8	5	5	31	6	21	3	0	1	2	0	1	1	0	1
11	Xorazm viloyati	66	10	0	10	0	0	0	16	0	16	1	0	1	2	0	2	0	0	0
12	Qashqadaryo viloyati	60	251	89	119	132	103	36	200	51	115	61	37	16	42	16	18	12	2	4
13	Toshkent viloyati	72	8	1	7	7	4	3	17	2	15	1	0	1	4	0	4	0	0	0
14	Toshkent shahri	34	21	8	13	68	54	8	12	4	7	39	28	8	5	5	0	1	1	0
	Жами	837	531	187	258	339	264	83	429	108	252	162	102	41	93	37	40	25	5	8

Mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra:

- madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti qoshida etnofolklor laboratoriyasi tashkil etilish;
- 2024-yildan boshlab, har yili mart oyida “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayillarini o‘tkazib borish;
- “Qadriyat” elektron platformasini yaratish;

Madaniyat vazirligi tizimidagi badiiy jamoalarga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonini berish to‘g‘risidagi nizomni takomillashtirish kabi vazifalar belgilab berildi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Madaniyat vazirligi tomonidan har yili jamoalarning statistik ko‘rsatkichlari yangilanadi va hududlar kesimidan hisoblab chiqiladi.

2024-yil Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat markazlaridagi badiiy havaskorlik jamoalari, studiya va to‘garaklar to‘g‘risida MA’LUMOT

t/r	Hududlar nomi	Madaniyat markazi	Milliy cholg‘ular ansambllari			Xor jamoalari			Dorbozlik jamoalari			Karnay-surnay jamoalari			An’anaviy sirk guruhlari			Havaskorlik drama teatrlari (Miniatyura teatri)		
			Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar	Jami soni	Shundan bolalar jamoalari	«Xalqo va «Namunali»lar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60	4	1	3	0	0	0	1	0	1	2	1	1	1	0	1	14	3	11
2	Andijon viloyati	71	0	0	0	0	0	0	1	1	0	1	0	1	0	1	1	2	2	2
3	Buxoro viloyati	50	3	2	0	0	0	0	1	0	1	3	1	1	5	1	3	12	5	6
4	Jizzax viloyati	37	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	2	1	1
5	Sirdaryo viloyati	35	5	5	1	1	1	1	0	0	0	1	0	0	2	0	1	6	6	2
6	Samarqand viloyati	80	10	9	0	2	0	1	1	0	0	4	2	0	1	0	0	5	1	3
7	Namangan viloyati	81	1	0	1	0	0	0	5	0	3	0	0	0	0	0	0	3	1	2
8	Navoiy viloyati	33	1	1	2	3	2	0	1	1	0	0	0	0	0	0	0	6	3	4
9	Farg‘ona viloyati	83	64	54	7	5	5	0	7	0	5	6	4	2	2	0	2	13	9	5
10	Surxondaryo viloyati	75	1	1	0	0	0	0	6	1	4	2	0	0	2	0	0	9	1	5
11	Xorazm viloyati	66	2	0	2	0	0	0	0	0	0	1	0	1	2	0	2	4	0	4
12	Qashqadaryo viloyati	60	0	0	0	0	0	0	1	0	1	2	0	1	1	0	1	2	0	1
13	Toshkent viloyati	72	10	8	0	6	2	4	2	0	2	0	0	0	1	0	1	9	5	3
14	Toshkent shahri	34	34	25	21	4	8	1	5	0	0	0	9	0	7	0	0	0	14	7
Жами		837	136	106	38	21	18	7	31	3	17	22	17	7	24	2	12	87	51	56

Bu kabi amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni izlab topish, yangi iste’dodlarni kashf etish va qo‘llab-quvvatlash, har bir hududning o‘ziga xos san’ati, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, milliy liboslari va taomlari, folklori, xususan, xalq ijodiyoti san’atining baxshichilik, katta ashula, o‘lan, lapar, yor-yor kabi yo‘nalishlari, chanqovuz, sibizg‘a, qo‘shnay, bo‘lamon va do‘mbra kabi qadimiy cholg‘ularni targ‘ib qilish, ona yurtimiz, betakror tabiatimiz, go‘zal turmushimizni madh etuvchi qo‘shiqlardan tuzilgan badiiy dasturlar orqali yurtdoshlarimiz qalbida azaliy qadriyatlarimizga mehr va ehtirom uyg‘otishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 9-fevraldagi 66-sonli buyrug’i
2. M.Xolmo‘minov. San’at namoyondalariga yuksak ehtirom. “Yangi O’zbekiston” gazetasi. №75(331) 15.04.2021
3. Z.Tuychiyeva. Ijodiy jamoalar faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. BMI. Toshkent 2021. 72 bet
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-406-sonli qarori

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rashidova Zulfiya Hakimovna,** Samarqand xalqaro texnologiya universiteti ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'limi boshlig'i, [**Рашидова Зулфия Хакимовна,** начальник отдела духовно-просветительской работы Самаркандского Международного технологического университета] [**Zulfiya H. Rashidova,** Head of the Department of Spiritual and Educational Work of the Samarkand International University of Technology]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani Qalandar 24.93; [адрес: Узбекистан, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Каландар тор 24.93]; [address: Uzbekistan, Tashkent city, Mirza Ulugbek district, Kalandar, 24.93.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ART TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH MASALALARI

© J.A. Mamatqosimov[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda art texnologiyalarni loyihalashtirish masalalari tadqiq etilgan bo‘lib, dunyo ta’lim tizimida art texnologiyalardan fodalanish tadqiq etilgan. Mavzu yuzasidan “Rejissyor mutolaasi”, “Rejissyor – dramaturg” va “ArtEdu+” art texnoliyalari tavsiya etiladi.

MAQSAD: bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan art texnologiyalarni ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida analiz, kreativ yondoshuv, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning samaradorligi pedagogik-tajriba sinov jarayonida tasdiqlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bo‘lajak rejissyorlarning mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan “Rejissyorlik mutolaasi”, bo‘lajak rejissyorlarning adabiy asar yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan “Rejissyor – dramaturg”, bo‘lajak rejissyorlarning adabiy asarlar ustida ishlashi va uni sahnalashtirishning nazariy-ijodiy jarayonlarini qamrab olgan “ArtEdu+” art texnologiyalari ishlab chiqildi. Mazkur art texnologiyalardan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, individual mashg‘ulotlarda, mustaqil ta’lim, mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirish jarayonida keng foydalanish mumkinligi texnologiyaning samarali va afzalligini bildiradi. Mazkur art texnologiyalar bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishning muhim komponenti bo‘ib uni amalga oshirish bosqichlari, mazmuni va uning shakllari, metodlari, vositalaridir.

XULOSA: Mazkur art texnologiyalar havaskorlikdan professionallikka tamoyiliga asoslangan holda muhim nazariya va amaliyotni hamda kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir.

Kalit so‘zlar: san’at, sahna, rejissyor, rejissura, san’at ta’limi, art texnologiya, kasbiy kompetent, pedagogik jarayon, kreativlik.

Iqtibos uchun: Mamatqosimov J.A. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda art texnologiyalarni loyihalashtirish masalalari. // Inter education & global study. 2024. №6. B.122–128.

ПРОБЛЕМЫ АРТ-ТЕХНОЛОГИИ ДИЗАЙНА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЕРОВ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

© Дж.А. Маматкасимов[1]✉
[1]Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается проектирование арт-технологий в развитии профессиональной компетентности будущих режиссеров, а также использование арт-технологий в мировой системе образования. Рекомендуются художественные технологии «Режиссерское чтение», «Режиссер-драматург» и «ArtEdu+».

ЦЕЛЬ: развитие художественных технологий, направленных на развитие профессиональной компетентности будущих режиссеров.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как анализ, творческий подход и наблюдение, а эффективность полученных результатов была подтверждена в процессе педагогико-экспериментального тестирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: «Режиссерское чтение», направленное на развитие навыков чтения будущих режиссеров, «Режиссер-драматург», направленное на развитие навыков написания литературных произведений будущих режиссеров, теория работы будущих режиссеров над литературными произведениями и ее постановкой». «ArtEdu+» разработаны художественные технологии, охватывающие творческие процессы. Тот факт, что данные художественные технологии могут широко использоваться в аудиторных и неаудиальных занятиях, индивидуальных занятиях, самостоятельном обучении, самостоятельной режиссуре работ в процессе постановки, показывает эффективность и преимущество технологии. Данные художественные технологии являются важной составляющей развития профессиональной компетентности будущих режиссеров на основе литературного произведения, этапов его реализации, содержания, форм, методов и инструментов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Данная художественная технология представляет собой педагогический процесс, формирующий и развивающий важную теорию и практику, а также профессиональную компетентность, основанную на принципе от дилетантства к профессионализму.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: искусство, сцена, режиссер, режиссура, художественное образование, художественная технология, профессиональная компетентность, педагогический процесс, творчество.

Для цитирования: Маматкасимов Дж.А. проблемы арт-технологии дизайна в развитии профессиональной компетентности будущих режиссеров. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 122–128.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ART TECHNOLOGY DESIGN ISSUES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS

© Jahangir A. Mamatkasimov[1]✉
[1]State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the design of art technologies in the development of professional competence of future directors, and the use of art technologies in the world education system. "Director's reading", "Director-playwright" and "ArtEdu+" art technologies are recommended.

AIM: development of art technologies aimed at developing the professional competence of future directors.

MATERIALS AND METHODS: during the research, methods such as analysis, creative approach, and observation were used, and the effectiveness of the obtained results was confirmed during the pedagogical-experimental testing process.

DISCUSSION AND RESULTS: "Director's Reading" aimed at developing the reading skills of future directors, "Director-Playwright" aimed at developing the skills of writing literary works of future directors, theory of future directors' work on literary works and its staging. "ArtEdu+" art technologies covering creative processes were developed. The fact that these art technologies can be widely used in classroom and non-auditory trainings, individual trainings, independent education, independent directing works in the process of staging shows the effectiveness and advantage of the technology. These art technologies are an important component of developing the professional competence of future directors based on literary works, the stages of its implementation, its content, its forms, methods, and tools.

CONCLUSION: This art technology is a pedagogical process that forms and develops important theory and practice, as well as professional competence, based on the principle of amateurism to professionalism.

Key words: art, stage, director, directing, art education, art technology, professional competence, pedagogical process, creativity.

For citation: Jahangir A. Mamatkasimov. (2024) ‘Art technology design issues in developing the professional competence of future directors’, Inter education & global study, (6), pp. 122–128. (In Uzbek).

Dunyo ilm-fan tamaddunida pedagogik texnologiyalar, jumladan art texnologiyalar rivojlanib, ommalashib bormoqda. Art texnologiyalar muammoga kretiv yondoshish orqali, ta’lim oluvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, muammoga o‘zgacha yondoshishi bilan qiziqarli va samarali usuldir.

Art texnologiya haqida tadqiqotchi T.V.Petrova quyidagicha tushuncha beradi “Bu hissiy holatni o'zgartirishning eng qadimiy, tabiiy shakli bo‘lib, undan ruhiy stressni bartaraf

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

etish, tinchlantirish va diqqatni jamlash uchun foydalanib kelishgan. Ta'limda art texnologiya bir vaqtning o'zida zamonaviy ta'lim texnologiyalarni rivojlantirishning ikkita tendentsiyasi doirasida qo'llanilishi mumkin. Birinchisi hayotiylik, ya'ni insonning yashash tarzida san'atdan beixtiyor ta'sirlanish, erkin tarbiY. Ikkinchisi ta'lim jarayoniga art texnologiyalarni joriy etish va uning emotsional ta'siri asosida qo'llanilishi mumkin" [3].

Tadqiqotchi S.N.Begidova "Zamonaviy oliy ta'lim modernizatsiyasining asosiy vazifasi – dunyoni ijodiy o'zgartirish metodologiyasini o'zlashtirishdir. Ijodiy o'zgartirish jarayoni esa, birinchi o'rinda, yangi narsalarni: yangi obektlar, yangi bilimlar, yangi muammolar, ularni hal qilishning yangi usullarini o'z ichiga oladi. Ta'lim faqatgina ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qololmaydi, u eng yuqori maqsadlarga erishish, ijodda o'zini namoyon qilish va o'zini tasdiqlash vositasi hamdir" [2] – degan fikrlaridan kelib chiqib qayd etish kerakki, bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda albatta yangicha yondoshuv va innovatsion ta'limga asoslangan texnologiyalar muhimdir.

Shu jumladan, bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida riojlantirish yuzasidan bir qancha art texnologiyalar ishlab chiqildi.

Zamonaviy art-texnologiya usullari, bugungi kunda maxsus maktab uchun o'quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo'lib, o'yin yangicha, ilg'or, shu bilan birga samarador usullarini ta'lim tizimiga dars jarayonida tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol usullarni maxsus maktab ta'lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o'zining samarasini bermoqda. Shulardan biri – art-texnologiyalardir [1].


Shu jumladan, dunyo ta'lim tizimida art texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan qator yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilib, art texnologik yondoshuv asosida talabalarda san'atning g'oyaviy-estetik jozibasiga ma'naviy ehtiyojni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak rejissyorlarning mutolaa ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan "Rejissyorlik mutolaasi", bo'lajak rejissyorlarning adabiy asar yozish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan "Rejissyor – dramaturg", bo'lajak rejissyorlarning adabiy asarlar ustida ishlashi va uni sahnalashtirishning nazariy-ijodiy jarayonlarini qamrab olgan "ArtEdu+" art texnologiyalari ishlab chiqildi. Mazkur art texnologiyalardan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, individual mashg'ulotlarda, mustaqil ta'lim, mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirish jarayonida keng foydalanish mumkinligi texnologiyaning samarali va afzalligini bildiradi.

Mazkur art texnologiyalar bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishning muhim komponenti bo'ib uni amalga oshirish bosqichlari, mazmuni va uning shakllari, metodlari, vositalaridir. Mazkur art texnologiyalar havaskorlikdan professionallikka tamoyiliga asoslangan holda muhim nazariya va amaliyotni hamda kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir. Tavsiya etilayotgan art texnologiyalarning tasnifi quyidagilardan iborat:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

“Rejissyorlik mutolaasi” art texnologiyasi (1-rasmga qarang). Mazkur texnologiya bo‘lajak rejissyorlarning mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, texnologiya bo‘lajak rejissyordan kitobxon sifatida emas, balki mazkur asar asosida spektakl sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida mutolaa qilishni o‘rgatadi.



1-rasm. “Rejissyorlik mutolaasi” art texnologiyasi

Kitobxon mutolaasi va rejissyorlik mutolaasi o‘rtasida katta farq bor. Jumladan, kitobxon adabiy asarning mazmuniga intilsa, rejissyorlik mutolaasi asosida adabiy asarning mazmun-mohiyatini sahnalashtirishga harakat qiladi. Rejissyorlik mutolaasi negizida adabiy asarning tub ma’nosini chuqur anglash orqali, minglab tomoshabinlarga yetkazish zarurati mavjud. Rejissyor adabiy asarni mutolaa qilar ekan, yozuvchining asl maqsadi va g‘oyasini to‘g‘ri anglashi, uni sahnalashtirish usullarini, aktyorlar jamoasini shakllantirish, ssenografiya kabi badiiy yondoshuvlarni his qilgan holda mutolaa qiladi. Kitobxon mutolaasi va rejissyorlik mutolaasi o‘rtasidagi yana bir farq, kitobxon yaxshi ko‘rgan adabiy asarini bir yoki ikki marotaba o‘qib, o‘ziga xulosalar chiqarsa, rejissyor sahnalashtirishni rejalashtirgan adabiy asarni o‘nlab, balki undan ham ko‘p marotaba o‘qishi kasbiy zaruratdir.

“Rejissyorlik mutolaasi” art texnologiyasi uch bosqichdan iborat bo‘lib, tadrijiy bosqichda rejissyorlik mutolaasi uchun muhim komponentlar: asarning yaxlit obrazi topiladi, obrazning davri, manzili, jinsi, yoshi, xarakteri, rangi, shakli, libosi aniqlanadi. Bu bosqichda aniqlangan jihatlar asarni sahnalashtirishning xomaki variantini tayyorlashda asosiy mezondir.

Texnologiyaning tahliliy bosqichda asarning g‘oyasi, maqsadi, mazmuni, tub ma’nosi, janri, yozuvchi uslubi, asarning tomoshabinga pedagogik va psixologik ta’siri aniqlanadi. San’atning tarbiyaviy-estetik xususiyatlarini ta’minlashda mazkur bosqich muhim jarayondir.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6


Texnologiyaning tarkibiy bosqichida asarning tarkibiy tuzilishi: prolog, bosh voqea, asosiy voqea, voqealar rivoji, konflikt, kulminatsiya, epilog aniqlanadi. Mazkur bosqichda adabiy asarning rejissyorlik tahlili amalga oshiriladi.

Mazkur texnologiya adabiy asarning sahnalashtirishgacha bo‘lgan jarayonini qamrab oladi. Texnologiyaning samaradorligini ta’minlash yuzasidan individual, guruhli, badiiy-psixologik yondashuv, suhbat, adabiy tahlil, kasbiy prognoz, rejissyorlik tahlili kabi shakl, metod, vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

“Rejissyor – dramaturg” art texnologiyasi (2-rasmga qarang). Mazkur texnologiya bo‘lajak rejissyorlarning adabiy asar yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, texnologiya bo‘lajak rejissyordan adabiy asarni sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida, ya’ni ikkinchi muallif sifatida faoliyat yuritishga asos bo‘ladi. Texnologiya bo‘lajak rejissyorning yozuvchilik, dramaturgik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda kurs badiiy rahbari tomonidan talabaning individual imkoniyatidan kelib chiqib kichik hajmdagi hikoyalar mashq qilish uchun tavsiya etilishi lozim.

Texnologiya bo‘lajak rejissyorlarning badiiy tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda muloqat jarayonida nutqiy ravonligini, adabiy so‘zlarni tanlash va ishlatish ko‘nikmasini, majoziy obrazlar va majoziy ma’noli so‘zlar bilan ishlashni, tub ma’no va voqealardagi uzviylik, izchillik va mantiqiylikni ta’minlaydi.

Kurs badiiy rahbari tomonidan mualliflik hikoyalarini yozishda o‘zgalarning g‘oya va maqsadini o‘zlashtirish, adabiy o‘g‘rilik kabi salbiy odatlar va ularning oqibatlari haqida ma’lumot berilishi lozim.



2-rasm. “Rejissyor – dramaturg” art texnologiyasi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Texnologiyaning assotsiatsiya bosqichi bevosita rejissyorning muallif sifatida adabiy asar yozish jarayonining ilk bosqichi bo‘lib, bevosita guruh talabalarining assosiativ muloqati asosida yartiladi. Bunda kurs badiiy rahbar tomonidan hikoyaning bosh voqeasi aytiladi. Har bir talaba hikoyani ketma-ketlikda bir jumladan davom ettiradi. Bunda fikrlar izchilligi va uzviyligi, voqealar mantiqiyligi, talabalarning badiiy firlashi birlamchi omildir.

Texnologiyaning mantiqiylik bosqichida kurs badiiy rahbari tomonidan biror yozuvchining notanish hikoyasinining kirish qismi yoki bosh voqeasi o‘qib eshittiriladi. Talabalar hikoyani mantiqiy davom ettirishi lozim. Bunda yozuvchi tomonidan berilgan shart-sharoit, personajlar saqlanib qolinishi lozim. Mantiqiylik bosqichining yana bir yo‘nalishi bu kurs badiiy rahbari tomonidan turli sohalarga oid persojanlar (buyumlar) hikoya qahramoni sifatida beriladi. Masalan, atirgul, yetti qaroqchi yulduz, sakkiz oyoq. Bunda atirgulning makoni – bog‘, yetti qaroqchi yulduzning makoni – osmon, sakkiz oyoqning makoni – ummon ekanligi talabalarga bir oz mushkul bo‘lsada, lekin badiiy yondoshuv orqali syujet qurilishi mumkin.

Texnologiyaning mualliflik bosqichida kurs badiiy rahbar tomonidan berilgan shart-sharoit yoki o‘z mualliflik konsepsiyasida drabl, hikoya, dramatik asar yozish amalga oshiriladi. Bunda avvalo, jarayonni kichik hajmli asarlardan boshlash tavsiya etiladi.


Texnologiyaning sintez bosqichida biror yozuvchining hikoya yoki romani asosida inssenirovka yohud biror mavzuga bag‘ishlangan adabiy-badiiy asarlar asosida ssenariy tayyoshlash amalga oshiriladi.

Ma’lumki, inssenirovka va ssenariy adabiy asar namunasi bo‘lsada, lekin ular qayta badiiy ishlangan adabiy asarlar hisoblanadi. Shu sababli mazkur asarlarda badiiy sintez, jumaladan san’atlar sintezi muhimdir. Masalan, biror mavzuga oid ssenariy yozilayotganda mavzuga xos qo‘shiqlar, raqslar, sahna ko‘rinishlari bir-biriga badiiy sintez qilinib to‘laqonli adabiy asarga aylantiriladi.

“Rejissyor – dramaturg” art texnologiyasining samaradorligini ta’minlash yuzasidan guruhli muloqat, assosatsiya, individual, adabiy, badiiy-psixologik, g‘oyaviy, maqsadli, mantiqiy yondashuv, mualliflik konsepsiyasi, kasbiy prognoz kabi shakl, metod, vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

“ArtEdu+” art texnologiyasi (3-rasmga qarang). Mazkur texnologiya bo‘lajak rejissyorlarning to‘rt yillik o‘qish davrida mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirishda adabiy asar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, texnologiya bo‘lajak rejissyorning aktyorlar bilan ishlashida adabiy asarning mazmuni, tub ma’no va mohiyatini to‘laqonli tushuntirish va ijro jihatdan to‘g‘ri talqin etishini ta’minlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6



3-rasm. “ArtEdu+” art texnologiyasi

“ArtEdu+” art texnologiyasi mazmuni haqida ma’lumot berishdan oldin, bo‘lajak rejissyor mustaqil rejissyorlik ishi sifatida qanday ijodiy ishlarni amalga oshirishi lozimligi haqida qisqacha ma’lumot berishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Bo‘lajak rejissyorning mustaqil rejissyorlik ishlari janr va hajm jihatidan oddiylikdan murakkablikka tamoyiliga asoslanib, o‘quv yilining har biri semestrida kurs badiiy rahbari nazoratida mustaqil rejissyorlik ijodiy ishini sahnalashtiradi va jamoatchilik ko‘rigiga topshiradi.

“ArtEdu+” art texnologiyasi besh bosqichdan iborat bo‘lib, analitik bosqichda mustaqil rejissyorlik ishi uchun adabiy manba to‘plash va rejissyorlik tahlilini amalga oshirish; tashkiliy-tayyorlov bosqichida adabiy manbani sintezlash jarayoni; faoliyatga doir bosqichida sahnalashtirish rejasini tuzish, monitoring bosqichida repititsiya va pragon jarayoni, natija bosqichida spektaklni jamoa ko‘rigiga muhokama uchun topshirish jarayonlarini qamrab olingan.

Har bir bosqich o‘ziga xos ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan iborat bo‘lib, kurs badiiy rahbarining qat’iy nazoratida ostida amalga oshirilishi lozim. Texnologiyani amalga oshirishda rejissyorlik tahlili, rejissyorlik g‘oyasi, rollar taqsimoti, tempo-ritm, premera kabi shakl, metod va vositalardan foydalaniladi.

“ArtEdu+” art texnologiyasini amalga oshirishda ta’lim resurslari sifatida ijodiy ustaxonalar, o‘quv teatri, professional teatr, ochiq maydon va sahnalar (teatrlashtirilgan tomoshalar uchun), elektron ta’lim resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Texnologiyani amalga oshirishda ta’lim resurslari sifatida qayd etilgan ijodiy ustaxonalar, o‘quv teatri bu bevosita oliy ta’lim muassasida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar asosida amalga oshirilsa, professional teatr, ochiq maydon va sahnalar (teatrlashtirilgan tomoshalar uchun)dagi mashg‘ulotlar auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, malakaviy amaliyot bazasi sifatida yoki fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Texnologiyani amalga oshirishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish tavsiya etiladi. Hozirda oliy ta’lim tizimida HEMIS platformasidan keng foydalaniladi. HEMIS – bu oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi bo‘lib, platforma “Ma’muriy boshqaruv”, “O‘quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat”, “Moliyaviy boshqaruv va statistika” axborot tizimlarini o‘z ichiga olib, oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi [4].

HEMIS platformasining quyidagi afzalliklari mavjud: barcha subektlarni, shu jumladan talabalar va ularning ota-onalarini ham axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondira oladi; tizim boshqaruvchilar tomonidan axborotlarni tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi; talabalar HEMIS mobil ilovasini yuklash orqali o‘z ta’lim ma’lumotlari bilan muntazam ravishda tanishib borishi va ilova orqali ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda olish hamda qaror qabul qilishda subektiv omillarning ta’sirini bartaraf etish mumkin; talabaga tegishli bo‘lgan barcha ma’lumotlar zahiralanadi hamda ta’lim jarayonidagi axborot oqimlari maqsadli ravishda tashkil etiladi; eng muhimi talaba dars jadvali, fan resurslari, ma’lumotlar, nazorat jadvali, shartnomalar hamda topshiriqlar bilan istalgan vaqt, istalgan joyda tanishib chiqa oladi. Bu esa, talaba o‘z ta’lim jarayonini nazorat qilishiga katta yordam beradi.

HEMIS platformasining fan resurslari komponentida professor-o‘qituvchi tomonidan talaba uchun zaruriy resurslar: ma’ruzalar, amaliy ishlanmalar, o‘quv adabiyotlari, elektron resurslar kabilar joylanadi. Rejissyorlik ixtisosligida elektron resurs sifatida joylanashi zarur bo‘lgan video materiallarning hajmi kattaligi sabablari ularni platformaga joylashtirishda video materialning link manzili berilmoqda. Bu o‘z o‘rnida video materialni joylashtirish uchun boshqa elektron resursdan foydalanishni taqoza etadi.

Shu sababli HEMIS platformasi amaliyotga joriy etilmasdan avvalroq, 2020-yil bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va “ArtEdu+” art texnologiyasini amaliyotga joriy etish maqsadida “ArtEdu+” platformasiga asos solingan. “ArtEdu+” platformasining maqsadi bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, mazkur platformada onlayn o‘quv mashg‘ulotlari, talabalar mustaqil rejissyorlik ishlari, o‘quv spektakllari joylangan.

Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda art texnologiyalarni loyihalashtirish masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasiga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

bo‘lajak rejissyorlarning mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan “Rejissyorlik mutolaasi” art texnologiyasi nafaqat ta’lim sifatida, balki talabalarning ijodkorlik, kreativ qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi;

bo‘lajak rejissyorlarning adabiy asar yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan “Rejissyor – dramaturg” art texnologiyasi talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan;

bo‘lajak rejissyorlarning adabiy asarlar ustida ishlashi va uni sahnalashtirishning nazariy-ijodiy jarayonlarini qamrab olgan “ArtEdu+” art texnologiyasi talabalar uchun ham nazariy, ham ijodiy ahamiyatga ega;

tavsiya etilayotgan art texnologiyalardan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, individual mashg‘ulotlarda, mustaqil ta’lim, mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirish jarayonida keng foydalanish mumkinligi texnologiyaning samarali va afzalligini bildiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Gulboyev A.T. Inklyuziv ta’lim jarayonida bolalar nutqini rivojlantirishda art-texnologiyalaridan foydalanish // Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference, November 13, 2023. – B. 183.
2. Бегидова С.Н. Теоретические основы профессионально-творческого развития личности специалиста физической культуры и спорта. – М.: Майкоп: АГУ, 2001. – 269 с.
3. Петрова Т.В. Арт – технологии в образовательном процессе // https://nsportal.ru (26.04.2024).
4. www.hemis.uz

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jahongir Abirqulovich Mamatqosimov**, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). [**Джахангир Абиркулович Маматкасимов**, доцент, доктор философии в области педагогических наук (PhD)], [**Jahangir A. Mamatkasimov**, dotsent, Doctor of Philosophy (PhD) in the field of Pedagogical sciences], manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘ochh dahasi 127 A uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, М.Улугбек р. Массив Ялангач, д. 127 А.], [address: Uzbekistan, Tashkent city, M.Ulugbek dst. Massiv Yalangach, 127 A]; e-mail: jahongir.80@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

TALABA-AKTYORLARDA SAHNA NUTQIGA OID BILIM KO‘NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH SPETSIFIKASI

© R.T. Kadirov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Mazkur maqolada talaba-aktyorla sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish spetsifikasi haqida ma’lumot berilib, maqolada aktyorlik san’ati ta’lim yo‘nalishining turli ixtisosliklarida “Sahna nutqi” fanini o‘qitishning spetsifik usullari yortilgan. Maqolada sohadagi tadqiqotchilar ishlaridan metodologik manba sifatida foydalanibgan bo‘lib, mualliflik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

MAQSAD: talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim ko‘nikmalarni takomillashtirish spetsifikasini tahlil qilish, o‘qitish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab iqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida tahlil, suhbat, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning samaradorligi pedagogik-tajriba sinov jarayonida tasdiqlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: 60211100 – Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi: Aktyorlik san’ati (dramatik teatr va kino aktyorligi san’ati; aktyorlik san’ati (qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati); aktyorlik san’ati (musiqali teatr aktyorligi san’ati) aktyorlik san’ati (estrada aktyorligi san’ati) kabi ixtisosliklarga ega. Mazkur ixtisosliklarning barchasida “Sahna nutqi” fani majburiy fan hisoblanib, ixtisoslikning spetsifikasiga qarab fan metodikasi shakllangan. Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishning spetsifikasi ana shu nuqtai nazardan zaruriy obektdir.

XULOSA: “Sahna nutqi” fani aktyorlik san’ati ixtisosliklarining fundamental fani hisoblanib, har bir ixtisoslikning o‘ziga xos o‘qitish spetsifikasiga amal qilgan holda mashg‘ulotlarni olib borilishi ta’lim sifatini kafolatlaydi.

Kalit so‘zlar: san’at, sahna, aktyor, sahna ntqi, diksiya, artikulyatsiya, ovoz, nafas, intonatsiya.

Iqtibos uchun: Kadirov R.T. Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim ko‘nikmalarni takomillashtirish spetsifikasi. // Inter education & global study. 2024. №6. B.122–128.

СПЕЦИФИКАЦИИ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ АКТЕРОВ

© Р.Т. Кадиров[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

[1]Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлена информация об особенностях совершенствования знаний и умений, связанных со сценической речью, со студентами-актёрами, а также освещены конкретные методы преподавания науки «Сценическая речь» на различных специализациях актёрского художественного образования. В статье в качестве методологического источника использованы работы исследователей в данной области, а также разработаны авторские рекомендации.

ЦЕЛЬ: проанализировать особенности совершенствования знаний и навыков сценической речи у студентов-актеров, разработать рекомендации по методике обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как анализ, интервью и наблюдение, а эффективность полученных результатов была подтверждена в процессе педагогико-экспериментального тестирования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: 60211100 – Актерское искусство (по видам) Область обучения: Актерское искусство (актёрское искусство драматического театра и кино; актерское искусство (актёрское искусство кукольного театра) Актерское мастерство (искусство игры музыкального театра) имеет такие специальности, как актёрское мастерство (искусство эстрады) На всех этих специальностях «Сценическая речь» считается обязательным предметом, а методика науки формируется в зависимости от специализации. эта точка зрения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Наука «Сценическая речь» считается фундаментальной наукой актерских специальностей, а обучение в соответствии с конкретными педагогическими особенностями каждой специальности гарантирует качество образования.

Ключевые слова: искусство, сцена, актер, сценическое выступление, дикция, артикуляция, голос, дыхание, интонация.

Для цитирования: Кадиров Р.Т. Спецификации для совершенствования знаний и навыков сценической речи у студентов актеров. // Inter education & global study. 2024. №6. С. 122–128.

SPECIFICATIONS FOR IMPROVING THE KNOWLEDGE AND SKILLS OF STAGE SPEECH IN STUDENT ACTORS

© Ramz T. Kadirov[1]✉
[1]State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

INTRODUCTION: this article provides information about the specifics of improving knowledge and skills related to stage speech with student-actors, and the specific methods of teaching the science of "Stage Speech" in various specializations of acting art education are highlighted in the article. In the article, the works of researchers in the field were used as a methodological source, and the author's recommendations were developed.

AIM: to analyze the specifics of improving the knowledge and skills of stage speech among student-actors, to develop recommendations on teaching methods.

MATERIALS AND METHODS: during the research, methods such as analysis, interview, and observation were used, and the effectiveness of the obtained results was confirmed during the pedagogical-experimental testing process.

DISCUSSION AND RESULTS: 60211100 – Acting art (by types) field of study: Acting art (dramatic theater and film acting art; acting art (puppet theater acting art Acting (art of musical theater acting) has specialties such as acting (art of variety acting). In all of these specialties, "Stage speech" is considered a compulsory subject, and the science methodology is formed depending on the specialization. The specification of improving the knowledge and skills of stage speech of student-actors is a necessary object from this point of view.

CONCLUSION: The science of "Stage speech" is considered the fundamental science of acting majors, and training in accordance with the specific teaching specifications of each major guarantees the quality of education.

Key words: art, stage, actor, stage performance, diction, articulation, voice, breath, intonation.

For citation: Ramz T. Kadirov. (2024) 'Specifications for improving the knowledge and skills of stage speech in student actors', Inter education & global study, (6), pp. 122–128. (In Uzbek).

Aktyorlik san'ati bo'yicha Respublikamizda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va uning Nukus hamda Qo'qon mintaqaviy filiallarida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlanib, ular maxsus ijodiy ustaxonalarda, o'quv studiyalarida ta'lim olishadi.

60211100 – Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi: Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati; aktyorlik san'ati (qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati); aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi san'ati) aktyorlik san'ati (estrada aktyorligi san'ati) kabi ixtisosliklarga ega. Mazkur ixtisosliklarning barchasida "Sahna nutqi" fani majburiy fan hisoblanib, ixtisoslikning spetsifikasiga qarab fan metodikasi shakllangan. Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishning spetsifikasi ana shu nuqtai nazardan zaruriy obektdir.

Qayd etilgan ixtisosliklarning har birida "Sahna nutqi" fanini o'qitishning umumiy va spetsifik talablari mavjud. Bu borada N.Aliyeva [2], L.Xo'jayeva [11], I.Po'latov [7], S.Inomxo'jayev [3; 4], A.Nosirova [5], A.To'laganov [8], M.Xodjimatova [10] kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida fanni o'qitishning spetsifik jihatlarini yortishgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Jumladan, O‘.Nurmuhamedova sahna nutqining qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari bilan ishlash spetsifikasiga asoslangan holda nutq texnikasini ovoz, nafas, artikulyatsiya, diksiya, orfoepiya va sun’iy registrdan foydalanish kabi qismlarga ajratgan [6, 11].

Drama teatri aktyori asosan dramatik, tragik va o‘ta kuchli komediyalarni sahnalashtirish jarayonida nutqning o‘rni ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Dramatik nutq “Abror Hidoyatov aytishicha keng diapozonli, salmoqli, chuqur, kindikdan chiqib kelishi kerak” – deb keltiradi N.Aliyeva [2, 278].

Teatr san’atining o‘ziga xos yo‘nalishiga, xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri tomoshalarining xarakterli xususiyatidan biri undagi qahramonlar faqat insonlargina bo‘lmay, tabiatdagi jonli, jonsiz mavjudotlarning ishtirokidir [8, 3].

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorining ijrochilik mahorati orqali topilgan ovoz sahna asarining to‘laqonliligini ta’minlaydi. Qo‘g‘irchoq teatri teatr san’atining eng qadimgi turlaridan biridir. Ilk bor turmushda qush va hayvonlarga taqlid qilish qo‘g‘irchoq teatrining ibtidosi bo‘lib chiqadi. Miloddan avvalgi XVI asrdayoq Misrga qarashli biri necha hududlarda qo‘g‘irchoq tomoshalari ma’lum bo‘lgan [6, 3-4].

Musiqiy teatrning talabi – musiqiy so‘z [1, 36]. Rechitativ – ariya, duet va musiqiy nomerlarning burilish nuqtalaridagi nutq bog‘lovchi halqa bo‘lib, musiqiy sahna va nomerlar orasida bog‘lovchilik vazifasini o‘taydi. Rechitativ – ariyalardan oldin berilib, unga qarama-qarshi qo‘yiladi va uning ohangdorligini oshiradi. Rechitativda ovoz to‘lqinlanishi boy bo‘lib, uning baland-pastligi intonatsion har-xil bo‘lishi so‘zning ma’nosiga gapiruvchining maqsadiga va mantiqiy izchillikka bog‘liqdir. Rechitativda so‘z bilan musiqa eng uzviy, eng mahkam, eng yaqin tarzda bog‘lanadi [1, 48].

Estrada aktyorligi san’ati ixtisosligida imitatsiya muhim bo‘lib, estrada aktyorining sahnaviy nutqini taomillashtirishdagi omildir. Imtitsiya bu – taqlid, taqlid qilmoq ma’nosini anglatib, estrada teatrida qo‘g‘irchoq teatridagidan farqli bo‘lib, bu: tabiatdagi jonivorlar tovushlarini zalda maishiy turmushda uchraydigan tovush va shovqinlarni ma’lum syujetga bo‘ysundirgan holda tiklash, ijro qilish san’ati bunday aktyor, “odam orkestr”, ya’ni barcha tovushlarni ijro qiladigan, tovushlar asbobi deb nomlanadi; sahnada ijro qilib, muxlislar orasida mashhur bo‘lgan qo‘shiq, ariya, she’r yoki raqs nomerlarini taqlidiy qayta tiklab ijro qilishini anglatadi [9, 12].

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy manbalarga tayangan holda aktyorlik san’ati ta’lim yo‘nalishi ixtisosliklarida “Sahna nutqi” fanining o‘qitilish spetsifikasi bo‘yicha fikrlarinimizni bayon etamiz.

Aktyorlik san’ati (dramatik teatr va kino aktyorligi san’ati) ixtisocligi. Mazkur ixtisoslik aktyorlik san’ati ta’lim yo‘nalishining asosiy yo‘nalishi hisoblanib, aktyorlik san’atining boshqa ixtisosliklari bevosita mazkur ixtisoslik negizida vujudga kelgan.

Avvalidan drama teatri aktyori tayyorlash o‘quv darsliklari, qo‘llanmalar tabiiy rus teatri asoschilarining ijodlari ilmiy-pedagogik jarayonlar sistemasining asoschisi K.S.Stanislavskiy bilan bog‘lanadi. Uning sistemasi asosida ishlar boshlanadi. Bugun ham shu sistema bo‘yicha talaba-aktyor “kechinma san’ati” qoidalari asosida o‘qitilib kelinmoqda. Drama teatri aktyorlik san’ati sahna nutqi fanidan M.Uyg‘ur ham dars

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

berganlari va ular asosan talaba-aktyorlarning xotira, tasavvur, dunyoqarash va adabiy bilimlarini kengaytirishni maqsad qilganlarini, she'riyat ustida muntazam ish olib borganlarida esa talaba-aktyorlarda nutq sofligi, tovushlar ravonligi, fikr oqimining uzviyligi kabi yo'nalishlarga katta e'tibor berganini manbalardan bilamiz.

Drama teatri aktyorlik san'ati ixtisosligi talaba-aktyorlari teran fikrlash, hozirjavoblmk, badihago'ylik darajasiga boruvchi mashq misollari ustida ish boshlashar ekan, o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari bilan mazmunan, shaklan, mohiyatan, ayniqsa, so'z, til, nutq nuqtai nazari bilan o'rganadilar. Texnik mashqlar kurs iqtidoridan kelib chiqib tanlanadi. Individual mashg'ulotlarda esa talabaning ijodiy imkoniyatidan kelib chiqib texnik mashqlar ketma-ketligini tuziladi.

Mashqlar uchun: maqollar, hikmatli so'zlar, topishmoqlar, tez aytishlar tanlanadi. Tanlangan matn: a) nutqiy faoliyatni jadallashtirish; b) aqliy salohiyatni, tasavvurni kengaytirish maqsadida ishlanadi.

Drama teatri aktyorlik san'ati ixtisosligida sahna nutqi orfoepiya – talaffuz meyorlarining mezoni, ona tili grammatikasi va fonetikasi bo'limi poydevorida nutq muomala mahorati orfoepik qoidalar asosida ishlanadi. Orfoepiya adabiy parchalar ustida ish jarayonida mustahkamlanadi. Drama teatri aktyorlik san'ati ixtisosligi talaba-aktyorlaridan matn tanlashda juda sinchkovlik talab etiladi. Kuchi zalvorli, ta'sirchan, his-xayajonga boy dardli asarlar, parchalar, she'rlar tanlanadi. O'zbek adabiyotining namoyondalari A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, Cho'lpon, U.Nosir, Furqat, A.Oripov, E.Vohidov, U.Azim, X.Davron asarlariga murojaat qilinib, avval so'z ustida ishlash mahoratining tahlil qismiga oid vazifalar bajariladi. G'azallar ustida ish muhim jarayon bo'lib Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur tili va nutqini anglash jarayoniga bosqichma-bosqich chiqishi, erishishi uchun avval zamonaviy, hajviyroq g'azallar A.Obidjon, R.Chorsham, A.Oripov, E.Vohidov g'azallaridan, Muqimiy, Furqat, Ogahiy, Mashrab g'azallariga murojaat etib, ularning g'azal va aruzdagi yaratgan asarlarini tahlil, sharhlash, izohlash, rukn, hijo, bahrlar ijro ifodaviyligini topib ko'rish, so'ng ularning asarlarini tahlili va talqiniga haqli uringan bo'ladilar.

G'azal o'qish ijro yo'li matla' va maqta'ning e'tibor berib o'qilishidan boshlanadi. Matla' – g'azal nima haqidaligini, maqta' – xotima, xulosa, yakun, kesish ma'nolarini anglatadi. Ular albatta boshqa baytlardan ajratib, holat – his-xayajon pauzasini qo'llay bilish lozim. Hech bo'lmasa, mantiqiy pauzani olishi shart. Shohbayt – g'azal markazi yoki maqtadan avvalgi paytda kelishni nazarda tutiladi.

Monologlar ustida ishlash sahna nutqining badiiy o'qish asoslarini to'liq egallab o'tiladigan bosqichdir. Drama teatri aktyorlik san'ati ixtisosligi talaba-aktyorlari jahon dramaturglariga murojaat etishlari, V.Shekspir, F.Shiller, N.Gogol, xullas, dramatik asarlardan olingan monolog bo'lishi maqsadliroqdir yoki prozaik asarlarning eng kuchli satrlarida adabiy parcha ichidagi monologlardan olib ishlashi mumkin. Eng muhimi, ifodali ijroda erkin fikr, kuchli, baquvvat ovoz tug'ilishiga erishish zarur.

Qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati ixtisosligida sahna nutqiga oid bilim va ko'nimalarini takomillashtirish spetsifikasi bir muncha noziklik va murakkablik talab etib,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

unda talaba-aktyor nafaqat aktyor sifatida o‘z so‘zining badiiyligi, balki gavdalantirayotgan obrazni, ya’ni jonsiz qo‘g‘irchoqni “gapirtirishi” lozim. Qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasida barcha mavjudotlar, oy, quyosh, yulduz, tog‘lar, daraxtlar, sabzavotlar, qushlar, hayvonlar, hasharotlar va boshqa buyum kabilar ham badiiy obrazlarga aylanadilar. Insonlarga xos ovoz chiqara boshlaydilar. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati ixtisosligi talaba-aktyori hayvon, qush va harakatlarni imitatsiyasini egallash va o‘rganish kerak. Buning uchun registrdan tashqari sun’iy registrdan ham foydala bilishi kerak. Shuningdek, sun’iy registr ishlatish qobiliyatini texnik va uslubiy tomonlama o‘zlashtirgan bo‘lishi uchun jonsiz narsalarning, tabiat hodisa va voqealarning, ertak qahramonlarining obrazini yaratishi o‘ta muhim. Masalan, dev va No‘xat polvon, arilar, gul daraxtlar, bo‘ri, jo‘ja.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati ixtisosligida talaba-aktyor “o‘zini eshitishi” kompleks mashqlari orqali ijodiy fantaziya tasavvur va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu rivojlanish orqali sun’iy imitatsiyaga yetib boradi. Sahna nutqining texnik mashqlari asosiy manba hisoblanadi. Uning spetsifik xususiyati sun’iy registrdan foydalana olishidir.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati ixtisosligida jonli so‘z dramatik teatrdagidek tabiiy tug‘ilmaydi. Chunki qo‘g‘irchoqning yasama so‘zi qarama-qarshilikdan kelib chiqqan holda paydo bo‘ladi. Qo‘g‘irchoqboz o‘z nomidan emas, qo‘g‘irchoq nomidan gapiradi va uning ko‘rsatmasini bajaradi. Ana shu bois, qo‘g‘irchoq teatrida nutq shartlidir. Ovoz, diksiya mashqlari sun’iy registr egallash nazari bilan olib boriladi. Sun’iy registrni ishlashda ovoz paylarining 70% ishtirok etmaydi. Tovush ovoz paylarining orqasida burun orqali bosh registrga ulanadi. Sun’iy registr bu falset va mikset bo‘lib, falset qalbaki ovoz, bosh registrdan ham yuqorida jaranglaydi [6, 45].

Qo‘g‘irchoq teatri ixtisosligi talaba-aktyorlari nutqi ko‘proq tasvironaligi bilan ifodalanadi. Mikset – bu falset va ko‘krak ovozining qorishmasi. Hayvon qushlar, hasharotlar imitatsiyasi uchun biz sun’iy registrdan foydalanamiz. Masalan sun’iy ovoz yo‘nalishini topish uchun falset u-u tovushini yuqoriga burun orqali boshga yo‘naltiradi. Keyin o‘sha ovoz simob singari miyadan qovgachka tushiriladi. Bu mikset deyiladi.

Ta’kidlash lozimki, qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san’ati ixtisosligida sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish asosi bu – sahna nutqining dramatik asoslariga tayanadi. Musiqali teatr aktyorligi san’ati ixtisosligida sahna nutqini o‘qitish dramatik teatr aktyorligi san’ati ixtisosligining umumnazariy asoslariga tayanadi. Ammo, yondashuvda biroz farq qilib, musiqali dramaning shartli va shartlilik asosiga qurilgani e’tiborda tutilishi lozim bo‘ladi. Chunki drama aktyoridan farqli o‘laroq u kuylovchi aktyor, aniqrog‘i aktyorlar solist-vokalist deb nomlanadigan teatr jamoasiga borib qo‘shiladi.

Dramatik teatr aktyorligi san’ati ixtisosligida spektakl rejissyor, aktyor, tomoshabin uchligida sahnalashtrilsa, musiqali teatr aktyorligi san’ati ixtisosligida kompozitor, baletmeyster, xor va xormeyster eng muhimi, orkestr jamoasi va dirijyor bo‘ladi. Bular musiqiy spektakl yaratish qonuniyatlariga to‘liq bo‘ysunib, rejissyor boshchiligida spektakl sahnalashtiradilar.

Musiqali teatr “shartli” teatr, uning shartliligi shundaki, drama teatri aktyori sahnaviy haqiqatni hayotiy haqiqatga tayanib, ijro etsa, musiqali teatr aktyori ariya va duetlardan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

kelib chiqib, otasining murdasi tepasida, onasining qabrida, o‘z qo‘lida hozirgina jon bergan Zuhrani quchoqlab va hokazo hollarda kuylashga – ariya aytishga majbur, hayotda esa bu haqiqat chegarasiga sig‘maydigan hol.

Hol-holat to‘liq ijro qilina olmaydi. Majbur qo‘shiq aytish uchun yarim yolg‘on holda qoladi. Aks holda ariya kuylay olmay, tomoq siqilib, ko‘z yosh tomoqqa tiqilib, ariya yarim chala, ba’zan butunlay ijro etilmay qoladi.

Ariya – bu monolog degan musiqali drama qonunidan kelib chiqsak, bilamizki dramadagi monolog bu fikr burilishi, yangi fikr tug‘ilishi, aktyorda yangi maqsad paydo bo‘lish nuqtasi, ya’ni tomoshabin anglashi, tushunishi uchun aniq eshitish shart qilib olingan joy.

Demak, ariyani o‘zgarish nuqtasi deb olsak, uni chala yoki xrip ovozda, tushunilishi qiyin holda ijro etishga aktyorning haqqi yo‘q. Aktyor istasa istamasa holatning ma’lum joyidan ariyaga o‘tishi, musiqani eshitib orkestr jo‘rligida ariya ayta olishi talab qilinadi. Bu birgina shartlilik bo‘lib, bunga raqs guruhi qo‘shilishi, xor kuylashi, eng muhimi u har qanday holatda ham dirijyorni ko‘rib turishi, uning shartli “boshlang” buyrug‘ini olishni unutmasligi zarur. Aks holda aktyor va orkestr boshqa-boshqa kuylab ketish ehtimoli bor.

Demak, aktyor nutqidagi nazorat kuchliligi sabab musiqali teatrda kuchli va ijro erkinligi chegaralangan. Musiqali teatr aktyori, dirijyor tayog‘ini doim his qilishi, ariya aytilish nuqtasiga muntazam izchil o‘sib yetib boruvchi xatti-harakatlar oqimida, ya’ni sanoq-taktlar orasida ijro ifodalarini meyorini topish, ariya kuylashga erishish yo‘llarini takomillashtirishi bilan tarbiyalanadi. Estrada aktyorligi san’ati ixtisosligida so‘z va uning badihago‘yligi muhim bo‘lib drama va musiqali teatr aktyorligi san’ati ixtisosligi talaba-aktyorlarining tarbiyalanish sharoitida o‘ziga xos spetsifik yo‘nalishga ega. Estrada aktyorlari boshlovchi, qo‘g‘irchoqboz, masxaraboz, badiiy so‘z ustasi, askiyachilik, aytishuvlar aytish shaklida maydonga yoki estrada sahnasiga chiqishsa, drama va musiqali teatr san’ati aktyorlari “kechinma san’ati” maktabining mashaqqatli uslubiy yo‘llaridan bosqichma-bosqich o‘tib tarbiyalanadilar. Demak, estrada san’ati aktyori – aktyorlik mahorati bilan birga tez o‘ylovchi, hozirjavob, o‘ta keskin baholash, superaktiv munosabat, beixtiyoriy qo‘l, ko‘z imo-ishoralarining yorqin, bo‘rtib ko‘rsatilgan, improvizatsion holat, badihago‘ylik, sahnaning o‘zida ijodiy to‘qib, sahnaning o‘zida postanovka qilib, sahnaning o‘zida obraz yarata oladigan ijodkordir.

Taqlid – kishilarni o‘ziga xos bo‘lgan gapirish usuli, ovozi, yurish-turishi, qilig‘i, xatti-harakati, fe’lini, hatto kiyinishidagi ko‘zga tashlanadigan jihatlarini bo‘rttirib ko‘rsatib, berishga asoslangan. Estrada aktyorligi san’ati ixtisosligida qo‘shiq, raqs borligi ularning har qanday sharoitda bo‘rttirish, ko‘rsatish, “pokaz” holatlarida ham ular tomoshabinda yoqimlilik uyg‘otishi, noqulaylik, noo‘ng‘aylik, xayosiz, sharmsiz, chegarasi beparda holatiga tushishga haqlari yo‘qligidan kelib chiqsak, sahna nutqi texnik mashqlari drama va musiqali drama texnik mashqlar majmuasiga murojaat qilishga haqli. Ammo, matnlar ularni ijro etish shartlarida estrada janrlari talablari qo‘llanishi maqsadlidir.

Estrada aktyorligi san’ati ixtisosligida sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish uchun: konferans – konferanslik; kuplet – badiha so‘z va qo‘shiqlar;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

vodevil – ko‘ngilochar tomosha; badiiy o‘qish – bir aktyor teatri; melodeklamatsiya – ta’kidlab ijro qilish; hikoyalar kechasi – kichik tomosha turlari; imitatsiya – taqlid; feleton – estradada so‘z san’ati turi; burime – badihali qofiyalash; chrevoveshatel – og‘izni ochmasdan gapirish; miniatyura – kichik shaklli janr; chtets – adabiy janr ijrochisi; fars – bo‘rttirib ta’kidlash usuli; kloun – sirk masxarabozi kabi yo‘nalishlar nazarda tutilishi shundan kelib chiqib, matnlar tanlash maqsadlidir.

Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim ko‘nikmalarni takomillashtirish spetsifikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

– talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim ko‘nikmalarni takomillashtirishda 60211100 – Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishining har bir ixtisosligi “Sahna nutqi” fanini o‘qitishda o‘z metodikasiga ega;

– talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim ko‘nikmalarni takomillashtirish jarayonida aktyorlik san’ati ta’lim yo‘nalishining ixtisosliklar spetsifikasini e’tiborga olish yuksak malakali kadrlash tayyorlashning kafolati;

– talaba-aktyorlarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda 60211100 – Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishining ixtisosliklari o‘rtasida talabalar o‘qishini ko‘chirish joriy semestr yakuniga ko‘ra amalga oshirish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alimjonova Z., To‘laganov A. Sahna nutqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 156 b.
2. Aliyeva N. San’at – mening hayotim. MonografiY. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 278 b.
3. Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – 180 b.
4. Inomxo‘jayev S. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 157 b.
5. Nosirova A. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 220 b.
6. Nurmuhamedova O‘. Sahna nutqi. – T.: O‘DSI bosmaxonasi, 2008. – 128 b.
7. Po‘latov I.SH. O‘zbek sahna nutqining tarkib topish va rivojlanish problemalari: Avtoref.dis. ... san.fan. nom. – Toshkent: San’atshunoslik instituti, 1969. – 19 b.
8. To‘laganov A. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 326 b.
9. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 328 b.
10. Xodjimatova M.K. Sahna nutqi. O‘quv qo‘llanma.–T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 171 b.
11. Xo‘jayeva L. Notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘zMK, 1967. – 37 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ramz Turabovichh Kadirov**, dotsent. [**Рамз Турабович Кадиров**, доцент], [**Ramz T. Kadirov**, dotsent.], manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘ochh dahasi 127 A uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, М.Улугбек р. Массив Ялангач, д. 127 А.], [address: Uzbekistan, Tashkent city, M.Ulugbek dst. Massiv Yalangach, 127 A]; e-mail: ramzkadirov57@gmail.com.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

Original paper

JAXON KLASSIK MUSIQASI VOSITASIDA BO‘LAJAK SOZANDALARNING BADIIY DID VA ETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

© E. Qudratullayeva[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg‘ona mintaqaviy filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bo'lajak musiqachilarda badiiy did va axloqiy madaniyatni rivojlantirish ularning umumiy ta'lim va kasbiy o'sishining muhim tarkibiy qismidir.

MAQSAD: Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak musiqachilarda badiiy did va axloqiy madaniyatni rivojlantirishda mumtoz musiqaning rolini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqot miqdoriy so'rovlar va sifatli amaliy tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Ishtirokchilar orasida konservatoriya va musiqa maktablarining musiqa fanlari talabalari bor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar shuni ko'rsatadiki, mumtoz musiqa bilan shug'ullanish va ular bilan shug'ullanish o'quvchilarning badiiy didi va axloqiy madaniyatini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA: Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, mumtoz musiqa bo‘lajak musiqachilarda badiiy did va axloqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasidir. Tarixiy kontekst, faol tinglash, ijro amaliyoti, axloqiy munozaralar va mulohaza yuritish amaliyotini musiqa ta’limiga kiritish orqali pedagoglar o‘quvchilarning estetik va axloqiy hissiyotlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, badiiy did, axloqiy madaniyat, musiqa ta'limi, tarixiy istiqbollar, pedagogik yondashuvlar, estetik rivojlanish

Iqtibos uchun: Qudratullayeva E. Jaxon klassik musiqasi vositasida bo‘lajak sozandalarning badiiy did va etik madaniyatini rivojlantirish // Inter education & global study. 2024. №6. B.122–128.

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА И ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ МУЗЫКАНТОВ ЧЕРЕЗ МИРОВУЮ КЛАССИЧЕСКУЮ МУЗЫКУ

© Э.Кудратиллаева[1]✉
[1]Ферганский областной филиал Государственного института искусства и культуры Узбекистана, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

ВВЕДЕНИЕ: развитие художественного вкуса и нравственной культуры у будущих музыкантов является важной составляющей их общего образования и профессионального роста.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является изучение роли классической музыки в развитии художественного вкуса и нравственной культуры у будущих музыкантов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные опросы и качественные тематические исследования. Среди участников – студенты музыкальных консерваторий и музыкальных школ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что изучение и занятие классической музыкой значительно повышает художественный вкус и моральную культуру учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно заключению исследования, классическая музыка является эффективным средством развития художественного вкуса и нравственной культуры у будущих музыкантов. Включая исторический контекст, активное слушание, практику исполнения, этические дискуссии и рефлексивную практику в музыкальное образование, преподаватели могут значительно улучшить эстетические и этические чувства учащихся.

Ключевые слова: классическая музыка, художественный вкус, нравственная культура, музыкальное образование, историческая перспектива, педагогические подходы, эстетическое развитие.

Для цитирования: Қудратиллаева Э. Развитие художественного вкуса и этической культуры будущих музыкантов через мировую классическую музыку // Inter education & global study. 2024. №6. С. 122–128.

DEVELOPMENT OF ARTISTIC TASTE AND ETHICAL CULTURE OF FUTURE MUSICIANS THROUGH WORLD CLASSICAL MUSIC

© Ehtiromxon Qudratullayeva [1]✉
[1] Fergana Regional Branch of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of artistic taste and moral culture in future musicians is an important component of their general education and professional growth.

AIM: the purpose of this study is to study the role of classical music in the development of artistic taste and moral culture in future musicians.

MATERIALS AND METHODS: this study uses mixed methods combining quantitative surveys and qualitative case studies. Among the participants are music students of conservatories and music schools.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №6

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that learning and engaging in classical music significantly increases students' artistic taste and moral culture.

CONCLUSION: according to the conclusion of the study, classical music is an effective means of developing artistic taste and moral culture in future musicians. By incorporating historical context, active listening, performance practice, ethical discussion, and reflective practice into music education, educators can significantly enhance students' aesthetic and ethical sensibilities.

Key words: classical music, artistic taste, moral culture, music education, historical perspectives, pedagogical approaches, aesthetic development

For citation: Ehtiromxon Qudratullayeva. (2024) Development of artistic taste and ethical culture of future musicians through world classical music Inter education & global study, (6), pp. 122–128. (In Uzbek).

